SH. UBAYDULLAYEV, B. GAFUROV,
D. UBAYDULLAYEVA

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK

O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik

1-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2018

UO‘K 355.253.2(075.3)
KBK 68.49(5O‘)3

Taqrizchilar: **A. SHUMAN** — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik;
M. TINIBEKOV — Fuqaro muhofazasi instituti katta o‘qituvchisi;
I. MAMATOV — Toshkent Tibbiyot akademiyasi huzuridagi harbiy-tibbiyot fakulteti o‘qituvchisi, polkovnik;
A. SOTBOLDIYEV — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti harbiy kafedrasi dotsenti;
H. ATAJANOV — Shayxontohur tumani 102-umumiy o‘rta ta’lim maktabi «CHQBT» harbiy o‘qituvchisi;
T. KARIMOV — Yunusobod tumani 5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi «CHQBT» harbiy o‘qituvchisi;
M. RAXMANOV — R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi harbiy rahbari.

Ch 24 Ubaydullayev Sh. va boshq.
Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik. 11-sinf uchun darslik/ Sh. Ubaydullayev, B. Gafurov, D. Ubaydullayeva. – Toshkent: «ILM ZIYO», 2018. — 200 b.

ISBN 978-9943-16-430-7

Ushbu darslikda fuqaro muhofazasi, hayot xavfsizligi asoslari, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi, harbiy xizmatning huquqiy asoslari, harbiy ish asoslari, otish tayyorgarligi, saf tayyorgarligi, amaliy harbiy-jismoniy tayyorgarlik va tibbiy bilim asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Kitobda berilgan mavzularni o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda qanday harakat qilish kerakligi borasida ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Darslik 11-sinf o‘quvchilari va ushbu fandan dars beruvchi o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K 355.253.2(075.3)
KBK 68.49(5O‘)3

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-16-430-7

© Sh. Ubaydullayev va boshq., 2018-y.
© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2018-y.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlarni davom ettirib, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev: «Ko‘zlangan strategik maqsadlarga yetishishda va ularni hayotga to‘liq tatbiq etishda har tomonlama va puxta tayyorlangan, o‘z Vataniga sodiq, yuksak kvalifikatsiyali harbiy kadrlarni tarbiyalash, davlat tomonidan ularning ijtimoiy himoyasini kafolatlash hal qiluvchi va asosiy omildir. Shu bois respublikaning hamma o‘quv muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi to‘g‘risidagi fanlarni tatbiq qilish va kuchaytirish bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi» deya ta’kidlab o‘tdi.

Qo‘lingizdagi ushbu kitob 10-sinflar uchun nashr qilingan «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik» darsligining davomi bo‘lib, 11-sinflar uchun tuzilgan dastur asosida tayyorlangan. Kitob quyidagi bo‘limlardan iborat: 1-bo‘lim: Fuqaro muhofazasi. Hayot xavfsizligi asoslari. Xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi; 2-bo‘lim: Saf tayyorgarligi; 3-bo‘lim: Harbiy xizmatning huquqiy asoslari; 4-bo‘lim: Harbiy ish asoslari; 5-bo‘lim: Otish tayyorgaligi; 6-bo‘lim: Amaliy harbiy-jismoniy tayyorgarlik; 7-bo‘lim: Tibbiy bilim asoslari.

Darslikda harbiy sohaga oid buyruq, qaror, nizom, o‘quv qo‘llanma va boshqa o‘quv adabiyotlaridan keng foydalanilgan.

O‘quvchilarga darslikdagi mavzular mazmunini o‘zlashtirish oson bo‘lishi uchun unda fotoma’lumotlar, chizmalardan foydalanilgan. Har bir bob so‘ngida mavzuni o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida nazorat savollari berilgan.

«Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik» fani kimyo, fizika, jismoniy tarbiya kabi fanlar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, bu o‘quvchilarning kelajakda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatga chaqirilgan paytlarida o‘z konstitutsiyaviy burchlarini ado etishga yordam beradi.

Yoshlarga harbiy ta’lim berishda ularga qo‘shinlarning o‘quv-jangovar faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagiga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o‘rgatish nazarda tutiladi. Bu mashqlarni ko‘p marotaba takrorlash natijasida yoshlarda zaruriy harbiy bilim va ko‘nikma yuzaga keladi.

I BO‘LIM. FUQARO MUHOFAZASI. HAYOT XAVFSIZLIGI ASOSLARI. XAVFSIZLIK VA FAVQULODDA VAZIYATLARDA INSON MUHOFAZASI

1-bob. FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA HARAKAT QILISH YAGONA TIZIMINI TASHKIL ETISH

1.1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT)

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, xalqimiz tinch va farovon hayot kechirishi uchun qabul qilingan qonunlar asosida respublikamizning barcha idoralari, o‘quv yurtlari va muassasalarida tegishli tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bu ishlarning ichida fuqaro muhofazasi masalalariga alohida ahamiyat berilgan.

Ushbu muhim vazifani hayotga tatbiq etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni e’lon qilindi va shunga muvofiq ravishda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi.

Vazirlikning asosiy vazifalariga aholi va xalq xo‘jaligi obyektlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, respublikada tabiiy va texnogen vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish yagona tizimini tashkil etish kiradi. Ushbu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilingan.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi odamlar qurbon bo‘lishi, ularning sog‘lig‘i yoki atrof-tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoitining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyatni; favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa’y-

harakatlari majmuyini; oldindan o‘tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda esa, odamlar sog‘lig‘ini saqlash, atrof-tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmuyi; favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda o‘tkazilib, odamlar hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, atrof-tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek, favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan zonalarni halqaga olib, xavfli omillar ta’sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni o‘z ichiga oladi.

FVDT vazifalari, tuzilishi, darajalari, boshqarish va muvofiqlashtirish organlari. FVDT boshqaruv organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni himoya qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradigan boshqa tashkilotlarning kuch va vositalarini birlashtiradi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishni hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iqtisodiyotiga zararni kamaytirishni ta’minlaydi.

Tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; respublika hududidagi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni prognozlashtirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash; favqulodda vaziyatlarning oldini olishga, odamlar xavfsizligini ta’minlashga, xavfli texnologiyalar va ishlab chiqarishlarning tavakkalchiligini pasaytirishga, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa tashkilotlar faoliyat ko‘rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va kompleks ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; boshqaruv organlari va favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan kuch va vositalarning doimiy tayyorligini ta’minlash; aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlarni yig‘ish, ishlab chiqish, ayirboshlash va berish; aholini, boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, FVDT kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash; favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini

yaratish; aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish; favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish; favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish; aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida fuqarolarning, shu jumladan, ularni tugatishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish; aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish; vujudga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlardan sug‘urta qilishning maqbul tizimini ta’minlash FVDTning asosiy vazifalarini hisoblanadi.

FVDT hududiy va funksional quyi tizimlardan iborat hamda tarkibida axborot-boshqaruv tuzilmasi faoliyat ko‘rsatadigan respublika, mahalliy va obyektlar miqyosidagi uch darajaga ega.

FVDTning har bir darajasi quyidagilardan iborat:

— FVDT rahbar organlari;

— FVDT kundalik boshqaruv organlari;

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari;

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari;

— xabar berish, aloqa tizimlari, boshqaruv va axborot bilan ta’minlashning avtomatlashtirilgan tizimlari.

FVDTning hududiy quyi tizimlari o‘z ma’muriy hududlari doirasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladi hamda tegishli tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar miqyosidagi bo‘g‘inlardan iborat bo‘ladi.

FVDTning funksional quyi tizimlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar va obyektlarda atrof-tabiiy muhit va yuqori darajada xavfli obyektlar holatini kuzatish va nazorat qilishni amalga oshirish, shuningdek, idoraviy mansub obyektlarda ularning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun tashkil etiladi hamda FVDT xizmatlaridan, quyi tizimlarning davlat nazorati organlari, kuch va vositalaridan iborat bo‘ladi.

FVDT xizmatlari, davlat nazorati organlari hamda kuzatish va nazoratning boshqa tashkilotlari, FVDT funksional quyi tizimlari favqulodda vaziyatlarni tugatish kuchlari va vositalarining vazifalari, ularni

tashkil etish hamda tarkibi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, boshqa tashkilotlarning atrof-tabiiy muhitning holatini kuzatish va nazorat qilish sohasidagi funksiyalari, idoraviy mansub yuqori darajada xavfli obyektlardagi ishlab chiqarish texnologiyalarining xususiyati hisobga olingan holda ishlab chiqiladigan ushbu quyi tizimlar to‘g‘risidagi nizomlar bilan belgilanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o‘rinlarda FVV deb yuritiladi) bilan kelishilgan holda tegishli davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

FVDTning axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

— FVVning tang vaziyatlarni boshqarish markazi;

— FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining axborot-tahlil markazlari;

— atrof-tabiiy muhit va yuqori darajada xavfli obyektlar holatini kuzatish va nazorat qilish organlarining axborot markazlari;

— turg‘un boshqaruv punktlari;

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuch va vositalarini boshqarishning harakatlanuvchi punktlari;

— FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining navbatchilik-dispetcherlik xizmatlari;

— aloqa va axborot uzatish vositalari, shu jumladan, boshqarish va axborot bilan ta’minlashning avtomatlashtirilgan tizimi.

Axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni ta’minlashi lozim:

— FVDTning hududiy va funksional quyi tizimlaridan olingan seysmologik, geologik, gidrometeorologik xavfli hodisalar, sanoat va transportdagi avariyalar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, epifitotiyalar, radioaktiv, kimyoviy va biologik (bakteriologik) ahvol to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash (tahlil qilish, saqlash);

— rahbar organlar, FVDTning kundalik boshqaruv organlari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari hamda aholiga favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish holatlari, xususiyatlari, rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi to‘g‘risida xabar qilish va axborot berish;

— FVDT quyi tizimlari va bo‘g‘inlari, FVDTning rahbarlik qiluvchi boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, favqulodda vaziyatlarni tugatish kuchlari va vositalari o‘rtasida o‘zaro axborotlar ayirboshlash.

Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlarning mezonlari, mazmuni va turlari, ularni FVDTga, uning quyi tizimlari va bo‘g‘inlariga, shuningdek, aholiga yetkazish muddatlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadigan Davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar o‘rtasida favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha kundalik hamkorlik qilish va xabar berish yo‘riqnomasi bilan belgilanadi.

FVDT rahbar organlari — bu vakolatiga aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha quyidagi masalalarni hal etish kiradigan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar va obyektlardir:

— respublika darajasida — FVV markaziy apparati, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda atrof-tabiiy muhit va yuqori darajada xavfli obyektlarning holatini kuzatish va nazorat qilish uchun mas’ul bo‘lgan, shuningdek, tarkibida kimyoviy, portlovchi, yong‘in chiqishi mumkin bo‘lgan va boshqa xavfli obyektlar mavjud bo‘lgan tashkilotlar;

— mahalliy darajada — mahalliy davlat hokimiyati organlari;

— obyektlar darajasida — tashkilotlar va obyektlar ma’muriyati.

FVDT, uning quyi tizimlari va bo‘g‘inlarining faoliyatini tashkil etish, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha ularga yuklangan vazifalarni bajarishga tayyorligi uchun to‘liq javobgarlik tegishli rahbar organlarga yuklanadi.

FVDTning kuch va vositalari quyidagilardan iborat:

— fuqaro muhofazasi qo‘shinlari;

— FVVga to‘g‘ridan to‘g‘ri hamda tezkor bo‘ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan tuzilmalari, qutqaruv tuzilmalari;

— vazirliklar va idoralarning professional ixtisoslashtirilgan bo‘linmalari va tuzilmalari, respublika, mahalliy va obyektlar darajasida FVDT tegishli hududiy va funksional quyi tizimlarining qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari;

— O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining ko‘ngillilar otryadlari (komandalari, guruhlari), mudofaaga ko‘maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti.

Prognozlashtirilayotgan yoki yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarning holati, ko‘lamlaridan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri — Fuqaro muhofazasi boshlig‘i, shuningdek, fuqaro muhofazasi boshlig‘i — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining, tegishli

viloyatlar va Toshkent shahar hokimining qarori bilan muayyan bir hudud doirasida FVDT faoliyat ko‘rsatishining quyidagi rejimlaridan biri o‘rnatiladi:

— kundalik faoliyat rejimi — me’yordagi ishlab chiqarish-sanoat, radiatsion, kimyoviy, biologik (bakteriologik), seysmik va gidrometeorologik vaziyatda, epidemiyalar, epizootiyalar va epifitotiyalar bo‘lmaganda;

— yuqori tayyorgarlik rejimi — ishlab chiqarish-sanoat, radiatsion, kimyoviy, biologik (bakteriologik), seysmik va gidrometeorologik vaziyat yomonlashganda, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinligi to‘g‘risida prognoz olinganda;

— favqulodda rejim — favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va favqulodda vaziyatlar davrida.

Quyidagilar FVDT faoliyat ko‘rsatishi chog‘ida amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar hisoblanadi:

a) kundalik faoliyat rejimida:

— atrof-tabiiy muhitning holatini, yuqori darajada xavfli obyektlar va ularga yondosh hududlardagi vaziyatni kuzatish va nazorat qilishni amalga oshirish;

— favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi xavfsizligi va muhofazasini ta’minlash, yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar va ziyonni qisqartirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar sharoitida turar joy binolari, sanoat obyektlari, hayot ta’minoti tizimlari va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko‘rsatishining barqarorligini oshirish bo‘yicha maqsadli va ilmiy-texnik dasturlar hamda chora-tadbirlarni rejalashtirish va bajarish;

— favqulodda vaziyatlar bo‘yicha boshqaruv organlari va FVDT kuchlarini favqulodda vaziyatlar chog‘idagi harakatlarga tayyorlashni takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlar chog‘ida muhofaza qilish usullari va harakat qilishga o‘rgatishni tashkil etish;

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish va to‘ldirish;

— sug‘urtaning maqsadli turlarini amalga oshirish;

b) yuqori tayyorgarlik rejimida:

— favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfi to‘g‘risida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarga xabar berish va aholini xabardor qilish;

— FVDT tegishli quyi tizimlari va bo‘g‘inlari faoliyatiga bevosita rahbarlik qilishni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat

hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarning o‘z zimmasiga olishi, zarurat bo‘lganda vaziyatning yomonlashishi sabablarini aniqlash uchun ofat yuz berishi mumkin bo‘lgan mintaqalarda tezkor guruhlarni tashkil etish, vaziyatni normallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

— doimiy joylashish punktlarida FVDT rahbarlari tarkibining kecha-kunduz navbatchiligini joriy etish;

— favqulodda vaziyatlar bo‘yicha hududiy boshqarmalar (bo‘limlar)ning tezkor guruhlari hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, obyektlar va boshqa tashkilotlarning navbatchilik-dispetcherlik xizmatlari navbatchiligini tashkil etish;

— atrof-tabiiy muhitning holati, yuqori darajada xavfli obyektlar va ularga yondosh hududlardagi vaziyatni kuzatish va nazorat qilishni kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi ehtimolini, ularning ko‘lamlari va oqibatlarini prognozlashtirish;

— favqulodda vaziyatlar sharoitlarida aholi va atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, shuningdek, turar joy binolari, hayot ta’minoti tizimlari, obyektlar va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rish;

— kuchlar va vositalarni tayyor holatga keltirish, ularning harakat rejalarini aniqlashtirish hamda zarur bo‘lganda favqulodda vaziyatlar taxmin qilinayotgan hududga siljitish;

d) favqulodda rejimda:

— favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to‘g‘risida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlariga xabar berish va aholini xabardor qilish;

— tezkor guruhlarni favqulodda vaziyatlar hududiga siljitish;

— aholini muhofaza qilishni tashkil etish;

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni tashkil qilish;

— favqulodda vaziyatlar zonalari chegaralarini belgilash;

— iqtisodiyot obyektlarining barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, zarar ko‘rgan aholining hayot sharoitlarini ta’minlash ishlarini tashkil etish;

— favqulodda vaziyatlar hududlaridagi atrof-tabiiy muhitning holati, avariya obyektlari va ularga yondosh hududlardagi vaziyat bo‘yicha monitoring olib borish.

1.2. Maktabda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasining tuzilishi

Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar har bir maktabda (o‘quv yurtida) tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasi ishlab chiqiladi. Rejani ishlab chiqish har qanday sharoitda insonlar qurbon bo‘lishini va moddiy boyliklarga zarar yetishini maksimal kamaytirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Rejalashtirish obyektda favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lish xavfi darajasini, halokatlar va tabiiy ofatlar sodir bo‘lishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni bashorat qilish, mavjud moddiy zaxira va insonlarni har tomonlama o‘rganib va baho berishga asoslanishi kerak.

Favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirish ular natijasidagi moddiy talafotlar va jabrlanganlarning sonini kamaytirish tadbirlari miqdori, muddati, tashkillashtirish va bajarish tartibini, avariya, halokatlar, tabiiy ofatlardan (aholini) maktab xodimlari va o‘quvchilarini, moddiy boyliklarni muhofaza qilish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarning bajarilishi, shuningdek, qutqaruv ishlarini tashkillashtirish va olib borishni belgilaydi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasi ikki bo‘limdan iborat:

— *maktab (obyekt) va unga qo‘shni hududlardagi potensial xavf-xatarlar.*

Bu bo‘limda obyektga xavf soluvchi, katta avariyalar, ishlab chiqarish halokatlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan korxona, kimyoviy moddalar va boshqa xavfli yuklar tashib o‘tiluvchi va ortiluvchi temiryo‘llar, stansiyalar (bekatlar), epizootik, epidemik nuqtayi nazardan noqulay hududlar ko‘rsatiladi;

— *katta ishlab chiqarish avariyalari, halokatlar va tabiiy ofatlar, terroristik harakatlar sodir bo‘lish xavfi tug‘ilganda bajariladigan tadbirlar (yuqori tayyorgarlik rejimida).*

Bu bo‘lim:

a) favqulodda vaziyat sodir bo‘lish xavfi haqida boshqaruv organlarini, rahbarlar, ishchilar va aholini xabarlash tartibini;

b) favqulodda vaziyat ta'siri haqida ogohlantirish va uni kamaytirish bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarning miqdori, muddati, jalb etiladigan kuch va vositalar;

d) mavjud kuch va vositalarni, himoya inshootlarini, boshqa yerto‘lalarni, yer ustida joylashgan bino va inshootlarni mahkamlab, maktab xodimlari, o‘quvchilari va aholini yashirish uchun tayyorlash;

e) shaxsiy himoya vositalarini maktab xodimlari va o‘quvchilariga berishga tayyorlash va berish;

f) maktab xodimlari va o‘quvchilarini, evakuatsiya qilish uchun biriktirilgan avtotransportni va shahardan tashqari zonalarni tayyorlashda ishtirok etish;

g) tibbiy va epidemiyalarga qarshi himoya tadbirlarini o‘tkazish;

h) yong‘inga qarshi tadbirlarni va ishlab chiqarishni avariyasiz to‘xtatishga tayyorgarlik tadbirlarini o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

Har bir o‘quvchi favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda nima qilishi kerakligini bilishi, kundalik hayotda maktab hududida va maktabdan tashqarida to‘g‘ri harakatlanish qoidalarini o‘zlashtirishi, yong‘inga qarshi xavfsizlik choralarini bajarishi, himoya vositalarining qayerda saqlanishini, himoya vositalarini to‘g‘ri qo‘llashni, yonidagilarga birinchi yordam berish qoidalarini bilishi, evakuatsiya paytida rahbarlarning buyruqlarini tez va to‘g‘ri bajarishi shart.

Nazorat savollari

1. Favqulodda vaziyat deganda nimani tushunasiz?
2. Favqulodda vaziyatlar vazirligi qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?
3. FVDTning rahbar organlari qaysilar?
4. Favqulodda vaziyatlar vazirligining kuch va vositalariga nimalar kiradi?
5. Favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda o‘quvchilarning majburiyatlari nimalardan iborat?

2-bob. ATROF-MUHITNING SALBIY TA’SIRLARIDA, INFEKSION VA NOINFEKSION KASALLIKLARDA SALOMATLIKNI SAQLASH

2.1. Atrof-muhitning inson organizmiga salbiy ta’siri

Inson organizmiga atrofimizdagi muhit katta ta’sir ko‘rsatadi. Toza suv, havo va hosildor yerlar odam yaxshi va sog‘lom yashashi uchun eng kerakli narsalardir. Agar atrofimizdagi havo iflos bo‘lsa, u inson organizmiga nafas yo‘li orqali kirishi mumkin.

Iflos suv ichida patogen mikroorganizmlar bo‘lishi mumkin. Har xil toksik aralashmalar suv bilan odamning ichki organlariga tushganda sog‘liqqa katta zarar keltiradi. Atrofimizdagi yerlar va oqar suvlar zaharlansa, yerning hosildorligiga zarar yetadi.

Tabiatda minglab mikroorganizmlar yashaydi va ular daraxtlar, gullar va xiyobonlarda oziqa topib iste'mol qiladi. Ushbu tirik jonzotlar havodan, suvdan va yerdan foydalanadi. Bularning orasida foyda va zarar keltiradiganlari ham bor.

Odam yerni baholaganda uning foydali tomonlarini qidiradi. Chunki yerning ustida va ostida boyliklar juda ko'p. Yer ustiga turli xil ekinlar eksa bo'ladi. Afsuski, so'nggi vaqtlarda insoniyat tabiatga katta zarar keltirmoqda, bunga misol qilib har xil chiqindilarning yerga va suvlarga tashlanishini keltirish mumkin. Oqibatda yer va suv ifloslanadi hamda ularda yashovchi tirik organizmlar halok bo'ladi. Zavod va fabrikalardan chiqayotgan tutun havoga katta zarar keltirib, ko'p o'simliklarning o'sishiga yo'l qo'ymaydi va atrofidagi yerlarga katta ziyon yetkazadi.

Tabiatga eng katta xavfni og'ir metallar keltiradi. Bularning ichida simob, kadmiy, mis, xrom, vanadiylarning zavod va fabrikalardan havo va yerga tushish ehtimoli juda katta.

Avtomobillardan chiqayotgan tutun bilan minglab tonna zaharli moddalar har yili havoga ko'tariladi. Qo'shimchasiga og'ir metallar bilan birgalikda zararli moddalar havoga gaz holida chiqariladi. Bularning ichida uglerod oksidi, azot va uglevodorodlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Eng ko'p uchraydigan aralashmalar kul va changlardir. Kul neft yonishidan, yoqilg'i, ko'mir va boshqa mahsulotlardan paydo bo'ladi.

Qurilishda keng ishlatiladigan asbest insonning nafas organlarida (o'pkada) qolib, og'ir kasalliklarga olib kelishi mumkin. U nafas orqali organizmga kirib, insonni kasallikka duchor qiladi.

Inson uchun eng katta zararni pestitsidlar keltiradi. Ular qishloq xo'jaligida keng ravishda ishlatiladi. Ularni ishlatish qoidalari mavjud. Ammo ushbu qoidalar buzilsa, asab tizimi, odam ko'zi, nafas organlari va terisiga katta ziyon keltiradi.

Atrof-muhitdagi radioaktiv chiqindilar inson uchun juda xavfli. Ular zavodlardan daryo va ko'llarga tushishi mumkin.

Ion, ultrabinafsha nurlanish va har xil kimyoviy aralashmalar ham insonga katta zarar keltiradi.

So'nggi vaqtlarda tabiatga sintetik yuvish mahsulotlari nihoyatda katta zarar keltirmoqda. Ushbu mahsulotlar hozirgi kunda sayyoramizning barcha yerlarida mavjud.

Odamlar sintetik yuvish mahsulotlari bilan zaharlangan ko'l va boshqa cho'milish joylariga borganda har xil allergiya kasalliklarini yuqtirib olishmoqda.

Ifloslangan tabiat ta’siri orqali insonda gen (mutatsiya) o‘zgarishlari paydo bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar *mutagenez* deb ataladi.

Atrof-muhitning ifloslanishi odamzodning genetik fondiga ham ta’sir qiladi. Organizm genlarini buzadigan modda *mutagendir*. Mutagenlar organizmga kirgandan so‘ng har xil kasalliklarga sababchi bo‘ladi. Ularning ichida qon tomir va saraton kasalliklari ko‘p uchraydi. Mutagenlar organizmga tushgandan keyin organizm ular bilan kurashadi. Mutagenlarga qarshilik ko‘rsatish uchun inson vitaminlarga boy mahsulotlarni iste’mol qilishi zarur.

2.2. Asosiy infeksion va noinfeksion kasalliklarga sabab bo‘luvchi xavfli omillar

Yuqumli (infeksion) kasalliklar — bu maxsus kasallik qo‘zg‘atuvchi (chaqiruvchi)lar: bakteriyalar, viruslar, bir hujayrali zamburug‘lar keltirib chiqaradigan kasalliklar guruhi.

Odam organizmida yuqumli kasallik paydo bo‘lishining bevosita sababi kasallik qo‘zg‘atuvchilarning odam organizmiga tushishi, ularning organizm to‘qimalari va hujayralari bilan o‘zaro ta’sirlashuvidir.

Kasallik kechishi jarayonining og‘irligi, klinik xususiyati va kasallikning qanday yakunlanishi, asosan, odam organizmining holatiga, xususan, odamning fiziologik xususiyati va immun tizimiga bog‘liq.

Ba’zi kasalliklar borki, bunday kasalliklar yuqmaydi, ya’ni odam organizmiga kasallik qo‘zg‘atuvchisi tushmagan hollarda ham rivojlanadi. Bularga infarkt, insult, oshqozon yara kasalligi, ko‘richak kabi kasalliklar kiradi. Bunday kasalliklar yuqumli bo‘lmagan holda ham odamlar uchun xavf tug‘dirishi mumkin.

Bemor organizmida kasalliklarni vujudga keltiruvchi maxsus mikroblar borligi va kasalliklarning odamdan odamga yuqishi mumkinligi infeksion kasalliklarning asosiy belgilaridir.

Infeksion kasalliklarning chinakam sabablari XIX asrning ikkinchi yarmida L. Paster, R. Kox, I. I. Mechnikov va boshqa olimlarning ishlarida ko‘rsatib o‘tilgan.

Ba’zi kasalliklar (vabo, ichterlama, paratif, dizenteriya va boshqa ichak infeksiyalari) hazm yo‘li orqali (bemorlar najasi tushgan suv va oziq-ovqat yoki uning zarralari tekkan yuvilmagan qo‘l orqali) yuqadi.

Bemor yo‘talganda, aksa urganda, so‘zlashganda chiqadigan mayda shilimshiq zarralar havo bilan nafas yo‘llariga kirishidan kelib chiqadigan

kasalliklar (tomchili infeksiyalar)ga gripp, ko‘kyo‘tal, parotit, difteriya, qizamiq va boshqalar kiradi.

Ba’zi kasalliklar qonso‘rar hasharotlar (bit, chivin, burga, kana, iskabtopar va h. k.) orqali yuqadi (bezgak, toshmali terlama, qaytalovchi terlama, kana va chivin orqali yuqadigan ensefalitlar, iskabtopar isitmasi va h. k.). Bemorga yaqin yurganda yoki uning sochig‘i, idish-tovog‘i va buyumlaridan foydalanganda yuqadigan kasalliklar (tanosil kasalliklari, kuydirgi, kal yara va boshqalar) alohida guruhni tashkil etadi.

Infeksion kasalliklar bir necha kun (gripp, qizamiq, iskabtopar isitmasi) yoki bir necha hafta (ichterlama, toshmali terlama) davom etishi yoki oylab va hatto, yillab cho‘zilishi mumkin (sil, moxov, zaxm).

Infeksion kasalliklar kelib chiqishi organizmga kirgan patogen mikroblarning soniga, virulentligiga (kasal yuqtirish, tarqatish xususiyati), kirgan joyiga, kishining yoshiga, infeksiyaga moyilligiga, shuningdek, mikrob atrofidagi tashqi muhit sharoitiga (noqulay sharoitda mikrobning virulentligi kamayadi) bog‘liq.

Infeksion kasalliklarning paydo bo‘lishi va kechishida ijtimoiy sharoit (uy-joy, ovqatlanish tarzi, madaniy saviya, tibbiy yordam) hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sharoitning o‘zaro ta’siriga qarab infeksion kasalliklarning turli shakllari namoyon bo‘ladi. Infeksion kasalliklarning o‘tishida inkubatsion davr, kasallik belgilarining paydo bo‘lish va oshib borish davri, kasallik avjiga chiqqan davr, kasallikning so‘nish va sog‘ayish davri farq qilinadi. Infeksion kasalliklarning har birida shu davrlarning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Ichterlama kabi ba’zi infeksion kasalliklar mikrobi og‘rib o‘tgan organizmda saqlanib qoladi va tevarak-atrofdagi muhitga chiqaveradi.

Ko‘pgina infeksion kasalliklardan keyin unga qarshi immunitet hosil bo‘ladi. Infeksion kasalliklarni aniqlashda kasallikning klinik belgilari, laboratoriyada tekshirish natijalari va epidemiologik ma’lumotlar asos qilib olinadi. Bemorlar maxsus jihozlangan infeksion kasalxonalarda davolanadi. Infeksion kasalliklarga qarshi kurashda profilaktika tadbirlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. *Profilaktika* odamlarning yuqori darajadagi salomatligini, uzoq yillik faoliyatini ta’minlashga, kasallanish sabablarini yo‘qotishga, aholining turmush, mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilashga, atrof-muhitni qo‘riqlashga qaratilgan tadbirlar majmuasidir.

Infeksion kasalliklarning yanada keng tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun shunday kasalliklar bilan og‘rigan bemorlar yoki shunday kasallik bor deb gumon qilingan kishilar kasalxonada yoki uyida ajratib qo‘yiladi.

O‘lat, vabo, toshmali terlama (toshmali tif), ichterlama (qorin tifi), paratif, dizenteriya, virusli gepatit, difteriya va shu kabi kasalliklar topilgan

yoki gumon qilingan kishilarni maxsus sanitariya transportida kasalxonaga olib borib yotqizish shart.

Gripp, qizamiq, ko‘kyo‘tal va boshqa ba’zi infeksion kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarni alohida xonaga yotqizish, tegishlicha parvarish qilish va dezinfeksiya o‘tkazib turish sharti bilan uyida ajratib qo‘yish mumkin.

Sanatoriylar, dam olish uylari, bolalarni sog‘lomlashtirish muassasalari, bolalar bog‘chalari va yaslilarda, shuningdek, kasalxonalarning terapiya, jarrohlik, pediatriya va boshqa (infeksion bo‘limdan tashqari) bo‘limlarida izolator jihozlanadi.

Ayniqsa, xavfli infeksiyalar (o‘lat, vabo) bilan og‘rigan bemorlarga yaqin yurgan kishilarni o‘sha kasalliklarning inkubatsion davriga teng keluvchi muddat bilan ajratib qo‘yish shart. Boshqa infeksion kasalliklarda bemorlar turli muddatga ajratib qo‘yiladi. Infeksion kasalliklarning oldini olish uchun maktablarda emlash tadbirlari o‘tkaziladi.

2.3. Oziq-ovqat mahsulotlari va suv bilan bog‘liq xavfli omillar

Har bir inson to‘g‘ri ovqatlanishga katta ahamiyat bermog‘i lozim. Agar toza suv, sifatli taom iste’mol qilinsa, inson sog‘lig‘i har doim yaxshi bo‘ladi va u aslo kasal bo‘lmaydi. Lekin odamzod mo‘l hosil olish uchun xilma-xil tajribalar o‘tkazib, mahsulotlarning tabiiy holini o‘zgartirmoqda. Natijada ishlatilgan kimyoviy dorilar yerga kirib, ekinlarga zarar keltirayotir.

Kimyoviy vositalarning haddan tashqari ko‘p ishlatilishi oqibatida meva va sabzavotlarning geni o‘zgarib, hosildorligi oshadi, biroq mazasi va sifati pasayadi. Shu bilan birga, ushbu moddalar meva, sabzavotlarning ko‘rinishini ham o‘zgartirib, organizmga foyda keltirish o‘rniga zararli mahsulotga aylanadi. Sifati o‘zgargan meva va sabzavotlar inson organizmida turli xil allergik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Geni o‘zgargan mahsulotlar iste’mol qilinganda organizm ichiga kirib, qon tomir tizimiga katta zarar keltiradi va, o‘z navbatida, boshqa kasalliklarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Quyoshli o‘lkamiz tabiiy va sifatli meva-sabzavotlarga boy bo‘lib, ularni yilning istalgan faslida topa olamiz. Mamlakatimizda meva va sabzavotlar yil bo‘yi o‘stirilib, bozorlarimizni to‘ldirib turadi. Agar biz tabiatga zarar keltirmasak, unga yordam qo‘lini cho‘zsak, yerlarimizni obodonlashtirsak dasturxonlarimiz yanada to‘kin-sochin bo‘ladi.

Ushbu yordam nimadan iborat? Qachonki, har bir inson o‘zi yashayotgan hududi, uning boyliklari, yaratilgan sharoitlarining qadriga yetsagina bunga erishish mumkin. Hayotimiz, sog‘lig‘imiz, eng avvalo, tuprog‘imiz sifatiga,

daryo, ko‘llarimizdagi suvlar tabiat yaratgan holda saqlanishiga va nafas olayotgan havoga bog‘liq. Shuning uchun suvning ifloslanishiga aslo yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. Suv oqar joylarni asrab-avaylash har bir insonning burchidir.

Inson organizmi, asosan, suvdan iborat, shu bois suv inson uchun nihoyatda zarurdir. Odam suvsiz yashay olmaydi. Toza suv nafaqat odamlarga, balki qishloq xo‘jaligiga ham kerakli bo‘lib, suvsiz hosil olishning iloji yo‘q. Demak, tabiat in’omi bo‘lmish suvni asrab-avaylashimiz kerak. Biroq so‘nggi paytlarda inson tomonidan tabiatga, ayniqsa, suvga keltirilayotgan zarar ko‘lami oshib, chegara bilmas darajagacha yetmoqda. BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha tayyorlagan ma’ruzasiga ko‘ra, 2050-yilga borib Dunyo okeani suvlarining ifloslanish va kislotalilik darajasi 150 % ga oshadi. Bu dengiz ekotizimida ortga qaytarib bo‘lmas o‘zgarishlarga olib keladi. Dunyo suvlari ifloslanishining asosiy sababi inson tomonidan har kuni 2 million tonna chiqindining tabiiy va sun’iy suv havzalariga tashlanishidir. Har yili 260 million tonna plastmassa idishlar okeanga uloqtiriladi. Ularning katta qismini esa dengiz to‘lqinlari qirg‘oqlarga chiqarib tashlaydi. Ichimlik suvining ifloslanishi kuniga 14 ming kishining o‘limiga sabab bo‘layotgani aql bovar qilmas ko‘rsatkichdir.

Ifloslangan suv inson organizmiga katta zarar keltiradi. Suv odamning ko‘rish qobiliyatiga, terisining mayin va toza bo‘lishiga, sochi o‘sishi va miyaning yaxshi ishlashiga ijobiy ta’sir etadi.

Toza suv qon bilan organizmga kirib, uni vitaminlarga boyitadi. Agar dala maydonlari iflos suv bilan sug‘orilsa, ekinlar quriydi va zaharlanadi. Inson iste’mol qilayotgan ichimlik suvining 70—80% i qishloq xo‘jaligiga sarflanadi. Shunday bo‘lsa-da, suvni isrof qilish davom etmoqda. Agar birgina irrigatsiya tizimi takomillashtirilsa, qishloq xo‘jaligiga sarflanayotgan suvning 30 % ini tejab qolish mumkin. Xullas, suvning ifloslanishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklarning turlari kun sayin ortib borayotganligini tibbiy tashxislar ham isbotlab turibdi. Suvni avaylab-asramas ekanmiz, u bizdan sog‘lig‘imiz hisobidan «tovon» olaveradi, oqibatda biz turli kasalliklarga chalinaveramiz.

Nazorat savollari

1. Tuproqning og‘ir metallar bilan zararlanishi natijasida kelib chiqadigan xavflar nimalardan iborat?
2. Mutagenez nima? Unga qarshi kurashish choralarini so‘zlang.
3. Yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bemorlarni davolash tadbirlari haqida so‘zlab bering.

3-bob. ZAMONAVIY JANGOVAR SHIKASTLOVCHI VOSITALAR

3.1. Yadro quroli


Yadro qurolining ta'siri yadro reaksiyasi, ya'ni parchalanish-sintez yoki bu ikkalasining baravar ro'y berishi natijasida yadro ichidan ajralib chiqadigan energiyadan foydalanishga asoslangan.

Yadro qurolining quvvati trotil ekvivalenti, ya'ni trotil zaryadining vazni bilan ifodalanadi. Trotil zaryadining portlash energiyasi yadro qurolining portlash energiyasiga teng.

Portlash markazining yer (suv) sathiga nisbatan joylashishiga qarab havoda portlash, yerda portlash, yer ostida portlash, suv ustida portlash va suv ostida portlashlar farq qilinadi (1-rasm). Bu turdagi portlashlarning har biri obyektlarga o'ziga xos ravishda shikastlovchi ta'sir ko'rsatadi.

Havodagi yadroviy portlash — bunda portlash havoda sodir bo'ladi, yorug'lik sohasi yer yuzasiga tegmaydi. Havodagi portlash yuqorida yoki pastda bo'lishi mumkin. Pastdagi yadroviy portlashda ko'tarilayotgan chang ustuni portlash buluti bilan tutashadi va natijada qo'ziqorinsimon bulut hosil bo'ladi. Havoda sodir bo'ladigan yuqori portlashda chang ustuni portlash buluti bilan tutashmaydi.

Havodagi yadroviy portlash qisqa vaqt, ko'zni qamashtiradigan yorug'lik tarqalishi bilan sodir bo'ladi. Shundan so'ng sfera shaklidagi yoritilgan soha paydo bo'ladi. Undagi harorat bir necha million gradusga yetadi. Yoritilgan soha yorug'lik nurlanishi manbayi bo'lib xizmat qiladi.



1-rasm. Yadro zaryadining portlash turlari:
a — havoda; *b* — yer yuzida; *d* — yer ostida; *e* — suv ostida va ustida portlash.

Yadroviy portlash momaqaldiroq paytida hosil bo‘ladigan ovozga o‘xshash keskin gumburlash bilan sodir bo‘ladi. Portlash buluti shamol yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanib, o‘ziga xos shaklni yo‘qotadi va tarqalib ketadi. Yuqoridagi yadroviy portlashlarda sharga o‘xshash yoritilgan soha hosil bo‘ladi. Uning o‘lchamlari yer yuzasi atmosfera qatlamlarida sodir bo‘ladigan yadroviy portlashga qaraganda katta bo‘ladi. Yoritilgan soha sovigach, chang-to‘zonli sharsimon bulutga aylanadi. Yuqoridagi portlashda chang-to‘zon buluti va ustuni hosil bo‘lmaydi.

Yer yuzasidagi yadroviy portlash deb, yer yuzasidan uncha baland bo‘lmagan havodagi portlashga aytiladi, bunda yoritilganlik sohasi yer yuzasi bilan kesishib, yarim sfera shaklida bo‘ladi. Yer yuzasida portlashdan chuqurlik hosil bo‘ladi. Chuqur o‘lchamlari portlash quvvatiga bog‘liq bo‘lib, bir necha yuz metrgacha yetishi mumkin.

Yer ostidagi yadroviy portlash deb, yer ostida o‘tkazilgan yadroviy portlashga aytiladi. Bunday portlashda yoritilganlik sohasi kuzatilmasligi mumkin. Bunda tuproqqa katta bosim beriladi, hosil bo‘lgan zarba to‘lqini yer qimirlashiga o‘xshash tebranish hosil qiladi. Portlash sodir bo‘lgan joyda katta chuqur hosil bo‘ladi, uning o‘lchamlari portlash quvvati va tuproq turiga bog‘liq. Chuqurdan ko‘p miqdordagi tuproq qavati radioaktiv moddalar bilan atrofga sochiladi. Portlash ustuni bir necha yuz metrgacha yetadi.

Suv ustida sodir bo‘ladigan yadroviy portlash tashqi ko‘rinishiga ko‘ra yer ustida sodir bo‘ladigan portlashga o‘xshaydi.

Suv ostidagi yadroviy portlash suv ostida sodir bo‘ladi, bunda yoritilganlik sohasi ko‘rinmaydi. Suv yuzasida balandligi bir kilometrga yetadigan qo‘ziqorinsimon bulut hosil bo‘ladi. Suvning yerga qayta tushishi natijasida radioaktiv tuman hosil bo‘ladi. Keyinchalik suvli bulut paydo bo‘lib, undan radioaktiv yomg‘ir yog‘adi.

Yadroviy qurolning shikastlovchi omillari: portlash to‘lqini yoki zarba to‘lqini, yorug‘lik nurlanishi, o‘tuvchan radiatsiya, joylarning radioaktiv moddalardan zararlanishi, elektrmagnit impulsidan iborat.

Zarba (portlash) to‘lqini portlash markazidan har tomonga tovush tezligidan ham qattiq tezlikda tarqaladigan, juda katta bosimda siqilgan havo zonasidan iborat.

Zarba to‘lqini dastlabki 1000 metrni 2 soniyada, 2000 metrni 5 soniyada, 3000 metrni 8 soniyada bosib o‘tadi, shu vaqt orasida odam osmonda yorug‘ shu’lani ko‘rishi bilan yashirinishga ulguradi va zarba to‘lqini shikastlashidan saqlanib qoladi.

Yorug‘lik nurlanishi — yadroviy portlashdan hosil bo‘lgan olovli shardan chiqadigan va nihoyat darajada ko‘p kuydiruvchi issiqlik

energiyasi tarqatadigan yorug‘lik nuri oqimidan iborat. Yadroviy portlash jami energiyasining taxminan 35 % i yorug‘lik nurlanishiga to‘g‘ri keladi. Yorug‘lik nuri tarqalishi 8—15 soniya davom etadi, bu nur faqat to‘g‘ri yo‘nalishda tarqaladi. Shaffof bo‘lmagan har qanday to‘siq yorug‘lik nurlanishi ta’siridan saqlab qoladi.

Yorug‘lik nurlanishi katta masofalarga bir lahzada tarqalib, turli materiallarni eritish, yondirish, himoyalanmagan odamlar va hayvonlarni kuydirish yoki ko‘zni zararlash, o‘rmon va aholi punktlarida yong‘in chiqarish xususiyatiga ega.

Moddalarning yorug‘lik nurlanishidan zaharlanishi ularning qay darajada qizdirilganiga bog‘liq bo‘ladi. Moddalarning qizishi esa, o‘z navbatida, quyidagi omillarga: yorug‘lik impulsining kuchiga, moddalarning xususiyatiga, moddalarning issiqlikni yutish koeffitsiyentiga, namligiga, yonuvchanligiga bog‘liq. Qora rang mato oq rangdagiga qaraganda yorug‘lik nurini ko‘p yutadi. Masalan, qora rangli mato 99 %, moshrang (xaki) mato 60 %, oq rang mato esa 25 % yorug‘lik energiyasini yutadi.

Yorug‘lik nurlanishi ko‘zga tushganda (ayniqsa tunda, chunki ko‘z qorachig‘i kengaygan bo‘ladi) ko‘z qamashishi kuzatiladi. Ko‘z qamashishi vaqtincha davom etadi. Bunga sabab ko‘zdagi rodopsin pigmentining (to‘q qizil rang) kamayishidir. Agar nur yaqin masofadan ko‘zga ta’sir qilsa, ko‘zning to‘rpardasi kuyadi va turg‘un ko‘rlik holati vujudga keladi. Shuning uchun osmonda birdan chaqnash yuz berganda unga qarash mumkin emas.

O‘tuvchi (singuvchi) radiatsiya yadroviy portlashda chiqadigan ko‘rinmas va sezilmas gamma-nurlar hamda neytronlar oqimidan iborat. Bunga yadroviy portlash energiyasining taxminan 5% i sarflanadi. Yadroviy portlash sodir bo‘lgandan 15—20 soniya o‘tgach, yadro va termoyadro reaksiyasi natijasida gamma-nurlar, neytronlar oqimi, alfa va beta-zarrachalarning juda kuchli oqimi tarqaladi.

O‘tuvchan radiatsiyadan saqlanish uchun pana joy va inshootlardan foydalaniladi. Himoya qiluvchi vositalarning zichligi qancha yuqori bo‘lsa, u gamma-nurlarni o‘zida shuncha ko‘p tutib qoladi.


O‘tuvchan radiatsiya tirik to‘qimalar molekulalarini ionlashtirib, organizmning hayotiy faoliyatini buzadi va insonni turli darajadagi nur kasalligiga yo‘liqtiradi, ba’zan esa halok qiladi. Odamga kam radiatsiya qisqa vaqt davomida ta’sir etganda organizmda sezilarli o‘zgarishlar yuz bermaydi. Hozirgi vaqtda nur kasalligi kechishiga ko‘ra: yengil, og‘ir va o‘ta og‘ir turlarga bo‘linadi.

Joylarning radioaktiv moddalardan zararlanishi yadroviy portlash natijasida hosil bo‘ladi, bunda yadroviy portlash energiyasining taxminan 10 % i sarflanadi.

Yadro portlashi natijasida hosil bo‘lgan ko‘p miqdordagi radioaktiv moddalar havo oqimiga ergashib, portlash markazidan o‘nlab, yuzlab kilometr masofalarga tarqaladi. Havo turar joylar, suv manbalari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va boshqa narsalarni zararlaydi. Zararlangan joylardagi radioaktiv moddalar odam va hayvonlarga sirtdan ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur moddalar ovqat, suv orqali organizmga tushib, ichdan ta’sir ko‘rsatadi, oqibatda odam va hayvonlarda turli darajadagi nur kasalligi paydo bo‘ladi.

Yadro zaryadi yerda portlatilganda olovli sharning yerga tegishi tufayli yer yuzasining qatlami erib ketadi va portlash mahsulotlari bilan qo‘shilgan tuproq zarba to‘lqini yordamida uzoq joylarga sochiladi. Portlash yuz bergan joyda hosil bo‘lgan yuqoriga intiluvchi havo oqimi quyun singari uyurilib, yerdagi chang, qum-tuproqlarni yuqoriga olib chiqib ketadi. U portlash mahsulotlariga aralashib, qo‘ziqorin shaklidagi bulutni hosil qiladi. Hosil bo‘lgan bulut shamol esgan tomonga asta-sekin harakatlanib, uzoq masofalarga tarqaladi. Buning natijasida ko‘p joylarga radioaktiv moddalar tushadi va zararlanish hosil bo‘ladi. Radioaktiv moddalar bilan qo‘shilgan bulut o‘tgan joylarda cho‘ziq ellipssimon radioaktiv «iz» qoladi (2-rasm). Radioaktiv bulut qoldirgan «iz» radioaktiv moddalar izi o‘qidan qancha uzoqlashsa, radiatsiya darajasi shuncha kam bo‘ladi va odam organizmiga kam ta’sir ko‘rsatadi.

Elektrmagnit impulsi va ikkilamchi zararlovchi omillar. Yadro zaryadlarining portlashi natijasida havoning ionlashishi kuzatiladi, hosil bo‘lgan



2-rasm. Yadro zaryadi portlashi natijasida hosil bo‘lgan radioaktiv «iz».


elektronlarning yuqori tezlikda harakati tufayli elektrmagnit maydoni paydo bo‘ladi. Buning natijasida elektrmagnit razryadi va tok yuzaga keladi. Atmosferada paydo bo‘lgan elektrmagnit impuls chaqmoq singari tarqalgan holda antennalarda, kabellarda, elektr uzatish tarmoqlarida va simlarda kuchlanishga ega bo‘lgan tok hosil qiladi.

Yer yuzida va havoning past qismlarida yadro zaryadi portlatilganda elektr impulsning shikastlovchi ta’siri portlash markazidan bir necha kilometr uzoqlikda kuzatiladi. Yer yuzidan ancha balandlikda va havoda portlatilgan yadro zaryadi natijasida elektrmagnit impuls maydoni, portlash markazida va yer yuzasidan 20—40 kilometr balandlikda ham elektrmagnit impuls maydoni hosil bo‘lishi kuzatiladi. Kuchlanish maydoni hosil bo‘lgan elektrmagnit maydonining shikastlovchi omili bo‘lib hisoblanadi. Kuchlanish maydonining kuchliligi portlatilgan yadro zaryadining quvvatiga, portlatish balandligiga, portlash markazidan uzoqligiga va atrof-muhit xossasiga bog‘liq bo‘ladi.

Hosil bo‘lgan tok avtomat o‘chirish moslamalarini ishdan chiqaradi, radioapparatlar, elektr asboblarining buzilishiga olib keladi, buning natijasida shu asboblar bilan ishlayotgan odamlar elektr tokidan shikastlanishlari mumkin.

Yadro zaryadi portlashi natijasida hosil bo‘lgan elektrmagnit impulslardan himoyalanish uchun asboblarni ekranlash kerak bo‘ladi. Barcha tashqi elektr uzatish tarmoqlari ikki qavatli simdan bo‘lishi va ular yaxshi izolatsiyalanishi zarur.

Bunday vayronagarchiliklarning oldini olish uchun harbiy qismlar joylashgan yer va korxonalarda himoya-muhandislik ishlari o‘tkazilgan bo‘lishi kerak (3-rasm).



3-rasm. Xandaqning radioaktiv nurlarni susaytirish xususiyati.

Yadro zaryadi portlaganda aholi harakatlari quyidagilardan iborat:

1) zarba (portlash) to‘lqinidan dala sharoitida himoyalangan chuqur joylardan foydalanish kerak;

2) shaffof bo‘lmagan har qanday to‘siq yorug‘lik nurlanishi ta’siridan saqlab qolishi mumkin;

3) o‘tuvchan radiatsiyadan saqlanish uchun pana joylar va inshootlardan foydalaniladi;

4) shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish zarur.

3.2. Kimyoviy qurollar

Zaharlovchi moddalarning umumiy tasnifi

Hozirgi kunda dunyoning bir nechta davlatlarida kimyoviy qurollar borligi hech kimga sir emas. Lekin ushbu qurollar xalqaro konvensiyalar talabiga ko‘ra ishlatilishi mumkin emas. Ushbu mavzuda kimyoviy qurol va uning insonga ta’siri to‘g‘risida tushunchalar beriladi.

Kimyoviy qurol ham ko‘plab shikast yetkazish vositalari jumlasidandir. Kimyoviy qurolning ta’siri zaharlovchi moddalarning jangovar xossalaridan foydalanishga asoslangan, zaharlovchi moddalar esa odamlarni, hayvonlarni shikastlaydi, joyni, suv havzalari va o‘simliklarni zaharlaydi. Zaharlovchi moddalar raketa, aviatsiya, artilleriya, maxsus kimyoviy asboblar yordamida ishlatilishi mumkin.

Zaharlovchi moddalar joyni zaharlash uchun tomchilar holida, havoni zaharlash uchun bug‘ holida (tuman, tutun tarzida) bo‘ladi. Shu sababli inson zaharlangan havo bilan nafas olganda, terisiga, ko‘ziga, kiyimiga zaharlovchi moddalar tushganda, shuningdek, zaharlangan ovqat yeganda yoki suv ichganda zaharlanib qolishi mumkin.

Zaharli moddalarning shikastlash ta’siri ularning konsentratsiyasi, zaharlash zichligi va turg‘unligiga qarab baholanadi. Zaharlangan havoning hajmi birligida zaharlovchi moddalarning og‘irlik miqdori uning *konsentratsiyasi* deb ataladi. Konsentratsiya, ko‘pincha 1 litr havodagi zaharlovchi moddalarning hisobidagi miqdori mg/*l* bilan ifodalanadi.

Zaharlanish zichligi joyning yoki boshqa yuzaning sathi birligidagi zaharlovchi moddalar miqdoridir. Zaharlanish zichligini g/m^2 bilan ifodalash qabul qilingan. Zaharlovchi moddaning turg‘unligi zaharlovchi moddalarning havoda yoki joyda o‘zining shikastlash ta’sirini ma’lum vaqt saqlab turish xususiyatidir.

Shikastlash ta'sirini bir necha soatdan bir necha kungacha saqlab turadigan zaharlovchi moddalar turg'un zaharlovchi moddalar jumlasiga (V gazlar, iprit) kiradi. Turg'unmas zaharlovchi moddalar (sianid kislota, fosgen, xlorsian) shikastlanish xossalarini bor-yo'g'i bir necha daqiqagacha saqlab tura oladi.

Zaharlovchi moddalarni shikastlash ta'sirining tavsifiga qarab: *nervni shikatlaydigan, terini yiringlatadigan, bo'g'uvchi, umumiy zaharlaydigan, psixokimyoviy, ta'sirlantiruvchi zaharlovchi* moddalar guruhiga bo'lish qabul qilingan. Umumiy zaharlovchi moddalar jumlasiga sianid kislota, xlorsian kiradi.

Nervni shikastlaydigan zaharlovchi moddalar jumlasiga zarin va V gazlar kiradi. Bular kuchli va tez ta'sir qiladigan zaharlardir. Bu zaharlovchi moddalar inson organizmiga nafas olish organlari, teri qoplamalari va ovqat hazm qilish yo'llari orqali kirib, asab tizimini shikastlaydi.

Zarin — rangsiz yoki och sariq tusli, hidsiz, juda zaharli suyuqlik. Qishda muzlamaydi, suv ta'siriga chidamli. Yog'larda yaxshi eriydi. Odatdagi ob-havo haroratida ishqorlar va ammiak eritmalari ta'sirida tez parchalanib ketadi. Zarin bilan zaharlanganlik alomatlari darhol namoyon bo'ladi: ko'z qorachiqlari torayadi, so'lak oqadi, nafas olish qiyinlashadi, kishi qusadi, hushidan ketadi. Shundan keyin kishining qo'l-oyoqlari qattiq qaltiray boshlaydi, og'ir zaharlanganlarning nafas olish markazlari falaj bo'lib qolishi va ular hayotdan ko'z yumishlari mumkin. Zaharlanishning dastlabki alomatlari sezilishi bilan darhol gazdan himoyalanish niqobi kiyib olish hamda organizmga zaharga qarshi modda (antidot) yuborish zarur, antidot esa shpris-tyubikda yoki paketlarda bo'ladi.

Sianid kislota — rangsiz, tez bug'lanib ketadigan suyuqlik bo'lib, undan taxir bodom hidi keladi. Kuchli va tez ta'sir qiladigan zahar inson organizmiga zaharli havo bilan nafas olishda kiradi. Sianid kislota bilan zaharlangan insonning og'zida metallga xos maza seziladi, tomog'i qiriladi, boshi aylanadi, mushaklari zaiflashadi va qo'rquv bosadi.

Zaharlanishning dastlabki alomatlari sezildi deguncha, darhol gazdan himoyalanish niqobini kiyib olish lozim. Agar zaharga qarshi moddali ampula bo'lsa, ampulani sindirib, maska ostiga kiritish kerak.

Xlorsian — rangsiz, oson uchuvchan suyuqlik bo'lib, undan o'tkir hid keladi. Ta'siri sianid kislota kabi umumiy zaharlashdan iborat. Xlorsian bilan zaharlangan kishining ko'zlari va nafas olish yo'llari qattiq shikastlanadi.

Terini yiringlaydigan zaharlovchi moddalarga iprit kiradi. *Iprit* (haydalgan iprit) — moyga o'xshash, rangsiz suyuqlik bo'lib, undan sarimsoq yoki xantal hidi keladi. Iprit kuyali zaharlar jumlasiga kiradi, teriga iprit tomchilari tushsa, teri dastlab qizaradi, shundan keyin (birinchi kun oxirida)

qavarib chiqadi. 2–3 kun o‘tgandan keyin pufakchalar yoriladi va ular o‘rnida uzoq vaqt tuzalmaydigan yara hosil bo‘ladi.

Nafas yo‘llarining iprit bilan zaharlanganlik alomatlari burun va tomoqning og‘rishi, aksirishi va burundan suv kelishidir. Inson og‘irroq zaharlanganda bronxit va zotiljam bo‘lib qolishi ham mumkin. Iprit ko‘zga, ayniqsa, tez ta’sir etadi. Iprit bug‘i ta’sir etganda ko‘zning shilliq pardasi qizaradi, sanchiq paydo bo‘ladi, ya’ni kishi o‘z-o‘zidan siqiladi, ko‘zdan yosh oqadi. Ipritning shikastlash ta’siriga xos xususiyati shundaki, u yashirin ta’sir etadi va unda kumulativlik xossasi bo‘ladi, ya’ni inson organizmida shikast to‘planib boradi.

Ruhiy ta’sir qiluvchi zaharli moddalarga Bi-Zet (BZ) kiradi. *BZ* alohida o‘ziga xos xususiyati bilan markaziy asab tizimiga ta’sir qilib, insonlarni ruhan esankiratadi, qo‘rqinch paydo qiladi yoki jismonan izdan chiqarib, eshitmaydigan, ko‘rmaydigan qilib qo‘yadi.

Bo‘g‘uvchi zaharli moddalarga fosgen kiradi. *Fosgen* — rangsiz gaz bo‘lib, undan achigan xashakka xos kuchsiz hid keladi. O‘yuvchi ishqorlar, novshadil spirti, sodaning suvdagi eritmasi fosgenni tez parchalab yuboradi. Fosgen nafas olish organlarini shikastlaydi: og‘izda shirinroq maza seziladi, inson biroz yo‘taladi, uning boshi aylanadi, inson o‘zini umuman darmonsiz sezadi. Fosgenda yashirin ta’sir etish davri bo‘lganligidan zararlanishning dastlabki alomatlari 4–6, ba’zan esa 12 soatdan keyin seziladi.

Ta’sirlovchi zaharli moddalarga xlorasetofenol, adamsit, dibenzoksazepin kiradi. Bu moddalar ko‘z va nafas yo‘llarini shikastlaydi.

Kimyoviy zaharlanish o‘chog‘i — bu zaharli moddalar ta’sirida bo‘lgan hudud. Bunday hududda odam va hayvonlar shikastlanadi yoki ularning shikastlanishi mumkin bo‘lib qoladi. Kimyoviy zaharlanish o‘chog‘ining tavsifi, avvalo, dushman tomonidan ishlatilgan zaharli moddalarning turiga va ishlatilish usuliga, meteorologik sharoitga va joyning relyefiga bog‘liq.

Kimyoviy qurol bevosita ishlatilgan zonada havoni zaharlovchi zaharli moddalar bug‘i va aerozol hosil bo‘ladi. Zaharli moddalar bug‘i (zaharlangan havodan iborat birlamchi bulut) shamol esgan tomonga qarab, bir necha o‘n kilometrga tarqalishi mumkin, bu esa odamlar va hayvonlarning, har xil obyekt va narsalarning zaharlanish xavfini oshiradi. Zaharlangan havoning saqlanish vaqti va tarqalish masofasiga shamolning yo‘nalishi, tezligi, zaharli moddalar, havo harorati, yil fasli katta ta’sir ko‘rsatadi. Zaharlangan bulut daryolar, qiyaliklar, daralar va jarlar bo‘ylab uzoq masofalarga tarqaladi.

Chuqur daralar, o‘tloqlar, botqoqliklar, jarlar, daraxtzorlar, aholi yashaydigan punktlar zaharli moddalar uzoq vaqt turib qoladigan joylar bo‘lishi mumkin.

Shaharlarda zaharlangan bulut ko‘chalar, tonnellar, quvurlar bo‘ylab katta masofaga tarqaladi. Zaharli moddalar bug‘i berk dahalar, saylgohlarda turib qolishi mumkin. Zaharli moddalar bug‘i germetik qilinmagan yashirinish joylariga, xonadonlarga, yerto‘lalarga kira oladi, yo‘lak va tom ustida turib qoladi.

Turg‘unmas zaharli moddalar ishlatilishi paytida havoning yerga yaqin qatlamida zaharlangan bulut hosil qiladi. Bu bulut esa shamol esgan tomonga qarab boradi va tezda yoyilib ketadi. Joyning ochiq, shamol o‘tib turadigan uchastkalarida havo zaharli moddalar bug‘idan tezda tozalanadi. Ammo zaharlangan havo berk dahalarda, hovlilarda va boshqa joylarda turib qolishi mumkin.


Himoyalanish choralarini tez ko‘rish uchun joy va havoning zaharlanganligini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos alomatlarni yaxshi bilish kerak. Zaharlanganlikni ko‘rsatuvchi tashqi belgilar tuproq, daraxt barglari, bino devorlari va boshqa narsalardagi tomchilar bo‘lishi mumkin. Kimyoviy qurol portlaganda, joy tepasida kichikroq bulut hosil bo‘ladi. U ba’zan biror ochroq rangga kiradi. Bulutni shamol tez tarqatib yuboradi. Agar dushman zaharli moddalarni to‘kuvchi aviatsiya asboblari yordamida ishlatgan bo‘lsa, samolyot havoda sezilarli darajada to‘q yoki sal bo‘yalgan tuman yo‘l qoldirishi mumkin. Zaharli moddalar ishlatilganlik alomatlari payqaldi deguncha, himoyalanish choralari darhol ko‘riladi (gazdan himoyalanish niqobi va terini himoya qilish vositalari kiyib olinadi).

Kimyoviy qurollarni qo‘llash vositalari

Zaharlovchi moddalar mo‘ljalga, avvalo, aviatsiya yordamida yetkaziladi. Turli xildagi zaharlovchi moddalar bilan to‘ldirilgan aviatsion bombalar portlatuvchi moslamalari bo‘yicha: zarba ta’sirida portlaydigan va uzoqdan boshqariluvchi (distansion) moslamalar bilan portlaydiganlarga bo‘linadi.

Zarba ta’sirida portlaydigan kimyoviy aviatsion bombalar havo atmosferasini yoki ma’lum joylarni zaharlashga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘zida fosgen, iprit yoki zoman turidagi zaharlovchi moddalarni saqlashi mumkin. Zarba ta’sirida portlovchi aviatsion kimyoviy bombalarning og‘irligi, odatda, 100 kg dan 1000 kg gacha bo‘ladi.

Bunda bombaning 50% og‘irligini zaharlovchi moddalar tashkil qiladi. Insonlarni zaharlash uchun ishlatiladigan aviatsion kimyoviy bombalar yer yuzasidan biroz balandroq masofada portlatiladi (distansion portlatuvchi moslamalarga ega bo‘ladi).



4-rasm. 340 kilogramm og‘irlikdagi MS-1 rusumli kimyoviy bomba: *a* — umumiy ko‘rinishi; *b* — kesilgan holda ko‘rinishi; *1*, *9* — bosh portlagich moslama; *2*, *10* — korpus; *3* — stabilizator; *4—8* — vtulkalar; *5* — gofrirlangan kartondan tayyorlangan silindr; *6* — portlovchi zaryad; *7* — portlovchi zaryadni solish uchun mo‘ljallangan stakan; *11* — zaharlovchi modda; *12* — bombani osib qo‘yish uchun mo‘ljallangan ilgaklar.


Bu bombalar chidamli zaharlovchi moddalar (zoman, iprit) bilan to‘ldiriladi.

Bundan tashqari, kichik vazndagi (3 kg va undan ortiq) kassetali aviatsion kimyoviy bombalar ham qo‘llanilishi mumkin.

To‘kadigan aviatsion asboblar suyuq zaharlovchi moddalar bilan to‘ldirilib, samolyot qanotlari yoki fuzelaji (korpusi) tagiga osiladi va 300—500 metr yuqoridan sepiladi (5-rasm).

Raketa vositalari. Kimyoviy hujum o‘tkazilish zarurati paydo bo‘lganda raketa vositalaridan keng foydalaniladi. Ba’zi mamlakatlar armiyalari kimyoviy qurolni kerakli joyga yetkazish uchun boshqarilmaydigan raketa vositalariga ega. Boshqarilmaydigan reaktiv snaryadlarning uchish masofasi 40 kilometrni, boshqariladigan raketa vositasi reaktiv snaryadlarining uchish masofasi 5—140 kilometrni tashkil qiladi.

Bu reaktiv snaryadlarning (raketa) jangovar qismi kassetadan iborat bo‘lib, u sharsimon shaklli bir qancha bombalardan tashkil topgan (har qaysi sharsimon bombaning og‘irligi 0,6 kg bo‘ladi) va zaharlovchi moddalardan zarin, zoman va boshqalar bilan to‘ldirilishi mumkin.




5-rasm. TMU-28/V rusumli to‘kadigan aviatsion asbob.

Raketaning jangovar kimyoviy qismi 1,5—3 km yuqorida avtomatik ravishda ochiladi va sharsimon bombalar 1 km^2 ga tarqalib ketadi, yerga tushib portlaydi va ma’lum bir joyni zararlaydi.


Reaktiv minomyotlar (ko‘p stvolli qurilmalar)dan otiladigan reaktiv snaryadlar yoki minalar zaharlovchi moddalardan zarin yoki V gazlari bilan to‘ldirilib, qo‘llanilganda katta maydon va ko‘plab kishilarni zararlaydi, qurilmalarning otish uzoqligi 2,7—11 km ni tashkil qiladi.

Artilleriya kimyoviy snaryadlari va minalari. Ba’zi chet davlatlar armiyalari hozirgi vaqtda 105, 155, 175, 203, 2 mm li zambaraklar va gaubitsalardan otish uchun ishlab chiqilgan kimyoviy snaryadlarga ega (6-rasm).

Bu tabelli snaryadlar V gazlari, zarin, iprit va CS zaharlovchi moddalar bilan to‘ldirilgan. Gaubitsalarning uzoqqa otish masofasi 16—18 km, zambaraklarning uzoqqa otish masofasi 32 km ni tashkil qiladi.



6-rasm. 115 mm li kimyoviy artilleriya snaryadlari: *1*, *8* — portlagichlar; *2* — porox zaryadi; *3* — diafragma; *4* — teshilgan nay; *5* — zaharlovchi moddalar shashkasi; *6*, *9* — korpus; *7* — snaryadning ostki qismi; *10* — zaharlovchi modda; *11* — portlatuvchi zaryad ustki stakani; *12* — portlovchi zaryad.



a *b*

7-rasm. Kimyoviy fugaslar: *a* — M-1 rusumli fugas; *b* — M-23 rusumli fugas.

Bundan tashqari, 106,7 mm li minomyotlarga mo‘ljallangan kimyoviy minalar ishlab chiqarilgan bo‘lib, ularning uzoqqa otish masofasi 5,5 km.

Kimyoviy fugaslar dushmanning tirik kuchlarini, maydon hamda yo‘llarni zararlash uchun qo‘llaniladi. Chet davlatlar armiyalarida hozirgi vaqtda M-1, M-23, ABC-M23 rusumli fugaslar saqlanib kelinmoqda. Ushbu fugaslar V gazlari, zarin va boshqa turdagi zaharlovchi moddalar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Portlatilgan vaqtda 12,5 m^2 va undan katta maydonni zararlaydi (7-rasm).

Zaharlovchi moddalarning zarar yetkazishiga ob-havo va joyning ta’siri, organizmga tushish yo‘llari va zaharlanishning oldini olish. Havo va yerdagi zaharlovchi moddalarning zarar yetkazishiga *ob-havo*, *tuproqning holati va yerning past-balandligi* katta ta’sir qiladi. Havo va tuproqning harorati yerda zaharlovchi moddalarning saqlanish muddatiga ta’sir etadi. Past haroratda (qishda) iprit juda sekin bug‘lanib, ko‘klamgacha tuproqda saqlanishi mumkin. Yozda esa iprit bir necha o‘n marta tezroq bug‘lanadi va tuproqda faqat bir necha soat, O‘rta Osiyo hududi sharoitida esa yanada kamroq saqlanadi.

Havo ochilib, oftob charaqlab turgan kunlarda zaharlovchi moddalar yerdan qizib yuqoriga ko‘tariladi va tez yoyilib ketadi. Tunda havo aralashmaydi, bu esa dushmanning noturg‘un zaharli moddalarni ishlatishiga qulay sharoit tug‘diradi. Zaharlangan havo kechasi juda sekin tarqaladi, soylarda, shamol tegmaydigan joylarda, xandaqlarda, transheyalarda uzoq turib qolishi mumkin. Shamol esishi havodagi zaharlovchi modda konsentratsiyasini ancha kamaytiradi, qattiq shamolda esa yerdagi zaharlovchi moddaning bug‘lanishi kuchayadi va shu tariqa tuproqdagi zaharlovchi modda tezroq bug‘lanadi.

Joylarning xususiyati, o‘simliklari ham zaharlovchi moddalarning konsentratsiyasiga ta’sir etadi.

Zaharlovchi moddalar ishlatilgan joyda aholining 10—30 % va undan ko‘prog‘i zaharlanishi kuzatiladi. Zaharlovchi modda bulutlari tarqalgan joylarda bu ko‘rsatkich 8—12 % ni tashkil qiladi.

Zaharlovchi moddalarning organizmga tushish yo‘llari. Zaharlovchi moddalar organizmga turli yo‘llar bilan — nafas yo‘llari, me’da-ichak, teri, shilliq pardalar hamda jarohatlardan o‘tishi mumkin.

Zaharlovchi moddalar qo‘llash usuliga, ularning fizik va kimyoviy, toksikologik xossalariga qarab ta’sir qiladi. Bu moddalarning ayrimlari nafas yo‘llari orqali tushsa, ba’zilari boshqa yo‘llar bilan organizmga tushadi.

Zaharlovchi moddalar ko‘pincha bug‘ va aerozol holida nafas yo‘llariga tushadi. Havo yo‘llariga tushgan zaharlovchi modda shilliq pardalarda to‘xtab qolishi natijasida qisman o‘pka alveolalari orqali qonga so‘riladi. Agar o‘pka alveolalari yoyib qo‘yilsa, zaharlovchi moddalar 90—100 m^2 yuzaga tarqaladi, shuning uchun ular nafas orqali zaharlanish klinikasida birinchi o‘rinni egallaydi, ya’ni zaharlanish klinikasi tezda rivojlanadi.

Zaharlovchi moddalar bilan nafas yo‘llari orqali zaharlanish *ingalatsion zaharlanish* deb atalib, juda ham xavfli hisoblanadi. Nafas yo‘llarini zaharlovchi moddalardan saqlash uchun himoya vositalaridan, gazniqoblardan foydalaniladi.

Zaharlovchi moddalarning organizmga tushadigan yana bir eng muhim yo‘li teri qavatidir. O‘tishning uch yo‘li ma’lum: epidermis orqali, jun follikulalari va yog‘ bezlarining chiqaruvchi yo‘llari orqali. Lipidlarda yaxshi eriydigan zaharlovchi moddalar (fosfororganik zaharlovchi moddalar, iprit, luizit va boshqalar) teri orqali organizmga tezda so‘rilish xususiyatiga ega. Odamning terisi qizarib, terlab turgan holda zaharlovchi moddalarning so‘rilishi ancha osonlashadi.

Bundan tashqari, teri qavati orqali organizmga tushgan zaharlovchi moddalarning toksik ta’sir ko‘rsatishi uchun zaharlovchi moddalarning qanchalik tez so‘riluvchanligi va suvda eruvchanligi ham muhim o‘rin tutadi. Teri orqali o‘tgan zaharlovchi moddalar jigarga tushmasdan, katta qon aylanish doirasiga tushishi mumkin. Teri qavatlarini zaharlovchi moddalardan himoyalash uchun maxsus himoya vositalari qo‘llaniladi.

Zaharlanishning oldini olish. Ommaviy qirg‘in qurolini qo‘llash xavfi paydo bo‘lganda yoki ishlatilganda undan saqlanishning asosiy tadbirlari quyidagilardan iborat:

— agar xavf to‘g‘risida signal ko‘chada yetkazilsa, vahimaga tushmang. Xavf qaysi tarafdan kelayotganini aniqlang. Bordi-yu xavfli hududdan chiqishga imkon

bermaydigan to‘siqlar uchrasa (devor, ko‘l), yaqin atrofdagi binolarning biriga yashirinish kerak;

— agar xavf to‘g‘risida signal uyda bo‘lgan paytingizda yetkazilsa, deraza va eshiklarni yopib, shaxsiy himoya vositalarini ishlatishga tayyorlash zarur;

— agar xavf to‘g‘risida ma’lumot yetkazilmagan bo‘lsa-yu, siz gumburlagan tovush yoki portlash, o‘ziga xos hidlarni sezgan bo‘lsangiz, ulardan himoyalanishga harakat qiling. Buning ikki asosiy usuli bor: birinchisi — zararlangan hududdan xavfsiz joyga chiqish; ikkinchisi — yaqin atrofdagi turar joylardan biriga berkinish;

— zararlangan hudud o‘nlab metrdan yuzlab metrgacha yoyilishi mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, agar inson soatiga 4—5 km tezlik bilan harakatlansa, zararlangan hududdan chiqib ketish uchun 10—15 daqiqa sarflanadi.

Kimyoviy zaharlanish o‘chog‘ida zaharlovchi moddalar bilan zaharlanganda insonlarga zudlik bilan birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish kerak.

Birinchi tibbiy yordam harbiy xizmatchilarning shaxsiy dori aptechkasi (AI-2), shaxsiy paketlar (IPP-8, IPP-9, IPP-10) yordamida o‘ziga va o‘zaro, shuningdek, sanitarlar va sanitar-yo‘riqchilar tomonidan o‘tkaziladi.

3.3. Biologik (bakteriologik) qurollar va kasallik tarqatuvchi mikroblar

Biologik (bakteriologik) qurollar biologik vositalar bilan to‘ldirilgan o‘qdorilar va ularni nishonga olib borish (otish) vositalaridir.

Biologik (bakteriologik) qurollar ishlatilishi bilan olib boriladigan urushlar *biologik (bakteriologik) urushlar* deb ataladi. Biologik (bakteriologik) qurolning ta’sirlovchi omilini bakteriologik vositalar tashkil etadi. Ular jangovar holda ishlatish uchun ajratib olingan biologik agentlar bo‘lib, inson organizmiga tushganda qattiq kasallanishga olib keladi. Ularga kasallik tarqatuvchi mikroblar va mikrob toksinlari (ayrim mikroblar hayot faoliyati davomida hosil bo‘ladigan zaharli moddalar) kiradi.

Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini yo‘q qilish, shu bilan birga, davlat iqtisodiy salohiyatini izdan chiqarish maqsadida hasharotlar, ayniqsa, chigirtkalar, kolorado qo‘ng‘izlari va boshqalar ishlatilishi mumkin. Mikroorganizmlar, infeksiyali kasallik tarqatuvchi mikroblar biologik xossalari va o‘lchamlariga ko‘ra quyidagi sinflarga bo‘linadi: bakteriyalar, viruslar, rikketsiyalar, zamburug‘lar va mikrob toksinlari.

Bakteriyalar — bir hujayrali mikroorganizmlar bo‘lib, mikroskop ostida ko‘rinadi, oddiy bo‘linish yo‘li bilan ko‘payadi. Ular quyosh nurlaridan, zararsizlantiruvchi moddalar ta’siridan va yuqori haroratdan tez nobud bo‘lishadi. Past haroratga sezgir emas, muzlashga ham chidaydi. Ba’zi bakteriyalar noqulay sharoitdan saqlanish uchun himoya qatlami hosil qilishadi yoki sporalarga o‘raladi. Bakteriyalar vabo, tularemiya, sibir kuydirgisi, manqa, melioidoz kabi kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Viruslar — eng kichik bakteriyalardan ham o‘lchamiga ko‘ra 100 barobar kichik mikroorganizmlardir. Bakteriyalardan farqli ravishda viruslar faqat tirik to‘qima hujayralari ichida rivojlanadi va hujayra paraziti hisoblanadi. Viruslar xavfli va og‘ir kasalliklar — tabiiy chechak, sariq bezgak, gemorragik bezgak kasalligini keltirib chiqaradi.

Rikketsiozlar — viruslar va bakteriyalar orasida joylashgan mikroorganizmlar guruhidan bo‘lib, tashqi ko‘rinishi va o‘lchamlariga ko‘ra bakteriyalarga yaqin turadi. Ularni viruslarga yaqinlashtiradigan xususiyati hujayradagi parazitlikdir. Ulardan ayrimlari qurg‘oqchilik va sovuqqa chidamli. Rikketsiozlar toshmali tif kasalligini keltirib chiqaradi.

Zamburug‘lar — bakteriyalardan murakkab tuzilishi va ko‘payishi bilan farq qiladi. Zamburug‘ sporalari qurib qolishga va quyosh nurlariga, zararsizlantiruvchi moddalar ta’siriga chidamli.

Mikrob toksinlari — ayrim bakteriyalar hayot faoliyatida ajratib chiqargan yuqori zaharli moddalar.

Bakteriologik quroldan himoyalanish vositalariga quyidagilar kiradi:

— shaxsiy aptechka. Uning tarkibiga: shpris-tyubikdagi og‘riq qoldiruvchi vosita; fosfororganik moddalar bilan zaharlanishga qarshi dori; radiatsiyaga qarshi dorilar; bakteriyaga qarshi vositalar; ko‘ngil aynishiga qarshi vosita;

— kimyoga qarshi shaxsiy paket. Bakteriologik (biologik) vositalar bilan zararlanganda teri qoplamalari zararsizlantiriladi.

3.4. Zamonaviy oddiy qirg‘in qurollari

Zamonaviy oddiy qirg‘in qurollari alohida yoki ommaviy qirg‘in qurollari bilan birgalikda dushman aholisi va texnikasini shikastlash, obyektlarni buzish yoki yo‘q qilib yuborish maqsadida ishlatilishi mumkin.

Oddiy hujum vositalariga parchalanuvchi, fugas, kumulativ, beton buzuvchi, yondiruvchi aslahalar, hajmiy portlash qurollari kiradi.

Parchalanuvchi aslahalar, asosan, odamlarga shikast yetkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning ichida eng xavflisi sharikli bombachalar

hisoblanadi. Sharikli bombachalar samolyotlardan kassetalar yordamida tashlanadi. Har bir kassetada 100 tadan ko‘p bombachalar bo‘ladi. Bunday kasseta yer ustida ochilib, bombachalar har tarafga otilib chiqadi. Har bir bombachalar parchalarining zarar yetkazish radiusi 15 metrga teng.

Fugaslar, asosan, sanoat, turar joy va ma’muriy binolar, temiryo‘llarni buzish, texnika va odamlarga shikast yetkazish, kumulativ aslahalar esa himoyalangan nishonlarni yo‘qotish uchun mo‘ljallangan.

Yondiruvchi aslahalar odamlarni shikastlash, bino va ishlab chiqarish obyektlarini, aholi yashaydigan maskanlar, omborlar, transport vositalarini yondirish va yo‘q qilish uchun mo‘ljallangan. Yondiruvchi aslahalar 4 xil bo‘ladi: napalmli, pirogel, termitli, fosforli.

Hajmiy portlash quroli ishlatilganda havoda aralashmaning 15 metr radius va 2—3 metr qalinlikdagi yoqilg‘i-havo aralashmasining sharsimon buluti hosil bo‘ladi. Bu bulut detonator yordamida portlatiladi. U quvvati jihatidan yadroviy qurolga yaqindir.

Oddiy qirg‘in vositalari: portlovchi moddalarning energiyasidan foydalanishga asoslangan (fugasli, oskolkali, oskolka-fugasli); issiqlik energiyasidan foydalanishga asoslangan (yondiruvchi aralashma — napalm, metallashtirilgan yondiruvchi aralashma — termit, elektron); o‘limga olib kelmaydigan (agitatsiya, grafitli, kesuvchi, psixotrop, plastik o‘qlar) bo‘ladi.

Barcha qurol-aslahalar 2 guruhga bo‘linadi: boshqariladigan va boshqarilmaydigan.

Bu turdagi qurollarning o‘ziga xos xususiyatlari:

Hajmiy portlash (vakuum) qurol-aslahalari (gaz, suyuqlik va boshq.):

— yorilganda — gaz germetik bo‘lmagan fazo (hajm) bo‘ylab bir zumda tarqaladi va sekinlashib (0,1 soniyagacha) portlaydi;

— ichki fazoda — o‘ta past bosim (vakuum), tashqi fazoda — haddan ortiq bosim hosil qiladi;

— quvvati oddiy o‘q-doriga nisbatan 4—6 marta katta.

Sharchali, ninachali qurol-aslahalar esa sharcha yoki ninachalar o‘q-dori ichida (bir necha milligrammdan bir necha grammgacha) joylashadi.

Zamonaviy oddiy qirg‘in qurollari belgilangan joyga raketalar, havodan, artilleriya, o‘qotar qurol yoki inson tomonidan yetkazib berilishi mumkin.

Zamonaviy oddiy qirg‘in qurollaridan muhofazalanish tadbirlariga: aholini favqulodda vaziyatlardan muhofazalanishga tayyorlash (zamonaviy qirg‘in vositalarini bilish; ulardan muhofazalana olish, birinchi tibbiy

yordamni ko‘rsata olish); o‘z vaqtida va to‘g‘ri xabar berish; muhofaza vositalari (jamoaviy va shaxsiy, ro‘yxatdagi va qo‘l ostidagi)dan mohirona foydalanish; maxsus tadbirlar (ma’muriy, tibbiy-ma’muriy, epidemiyaga qarshi, profilaktik, sanitar-gigiyenik, davolash-evakuatsiya)ni o‘tkazish; evakuatsiya (oldindan o‘tkaziladigan, qisman va to‘liq); avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni o‘tkazish kiradi.

Zamonaviy qirg‘in qurollaridan muhofazalanishni tashkil etishda dushman tomonidan u yoki bu qurolni qo‘llash ehtimolligini aniq bilish zarur.

Har bir shikastlovchi quroldan himoyalanishda maqsadga muvofiq keladigan usul, vosita va muhofazalanish bo‘yicha harakatlarni qidirib topish kerak. Buning uchun ham ro‘yxatdagi, ham qo‘l ostidagi muhofaza vositalaridan foydalanish lozim. Aholini muhofaza qilishda birinchi tibbiy yordamning o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rsatilishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Nazorat savollari

1. Yadro qurolining ta’siri nimaga asoslanadi?
2. Portlashning qanday turlari mavjud?
3. O‘tuvchi (singuvchi) radiatsiya nimalardan iborat?
4. Kimyoviy qurollarga misollar keltiring. Ular nimalar yordamida ishlatiladi?
5. Zaharlovchi moddalarning zarar yetkazishiga qaysi holatlar jiddiy ta’sir ko‘rsatadi?
6. Zamonaviy oddiy qirg‘in qurollaridan muhofazalanish tadbirlariga nimalar kiradi?

4-bob. FAVQULODDA VAZIYATLAR SODIR BO‘LGANDA AHOLINI MUHOFAZA QILISHNING ASOSIY TADBIRLARI

4.1. Favqulodda vaziyatlarda xabar berishning yagona tizimi

Respublika, viloyat, shahar aloqa tizimi asosini boshqaruv punktlarining aloqa tarmoqlari tashkil etadi.

Boshqaruv punktlarining aloqa tarmog‘i — bu boshqarishni ta’minlash uchun ishlatilgan aloqa kuchlari va vositalarining tashkiliy-texnik birlashmasidir.

Fuqaro muhofazasi tizimida televideniye, radio, radiorele, uyali aloqa vositalari, simli va signal beruvchi aloqa vositalari ishlatiladi.



8-rasm. Favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda xabar berish vositalari va usullari.



9-rasm. Hozirgi kunda foydalanilayotgan mobil, statsionar va qo‘l radiostansiyalari.

Favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan joydan olingan xabarda kim xabar berayotgani, qaysi hududdan xabar berilayotgani, ayni paytdagi holat, yana qanday xavf sodir bo‘lishi mumkinligi, qanday chora-tadbirlar o‘tkazilgani va yordam berish turi aniqlashtiriladi.

Agar xabar sirena orqali berilsa, aholi sirenani eshitib, reja bo‘yicha harakatlana boshlaydi.

Xabar berish tizimi lokal va markazlashgan bo‘ladi. *Xabar berishning lokal tizimi* halokatli suv bosish ehtimoli mavjud hududlarda, atom energetikasi obyektlarida, kimyoviy xavfli obyektlar joylashgan hududlarda



10-rasm. Zamonaviy mobil avtomobillariga o‘rnatilgan aloqa vositalari.



C-40 C-28

11-rasm. Zamonaviy elektrsozlashtirilgan sirenalar.

aholini zudlik bilan xabardor qilish maqsadida tashkil etiladi. Aholiga o‘z vaqtida xabar berish juda muhim. Lokal tizimlarning asosiy afzalligi tezkorlikdir.

Xabar berishning markazlashgan tizimi:

— shaharlarda, tumanlarda, obyektlar va qishloq joylarida, yirik aholi punktlarida markazlashgan va markazlashmagan tarzda «Diqqat, barchaga!» signalini berish;

— mahalliy radioeshittirish stansiyalarida simli eshittirish tarmoqlari orqali aholiga og‘zaki xabar berish;

— televideniye orqali xabar berish;

— signal va axborotni respublika, viloyat, shahar, tuman, vazirlik va idoralarning boshqaruv punktlariga, shahar, tuman ichki ishlar bo‘limlariga yetkazish;

— mansabdor shaxslarga xonadon va xizmat telefonlaridan doimiy xabar berish orqali o‘tkaziladi.

Fuqaro muhofazasi xabar berish signalini iqtisodiyot obyektlari ishchi-xizmatchilariga, FVDT tuzilmalariga va respublika aholisiga yetkazishni ta’minlashi kerak.

Xabar berish tizimining asosiy vazifalari

Aloqa va xabar berishni tashkil etish uchun fuqaro muhofazasi boshliqlari mas’uldir. Aloqa va xabar berish tizimining asosiy vazifalari:

— signallarni o‘z vaqtida berish va qabul qilish, FVDT rejimlarini o‘rnatish xususida farmoyish yuborish;

— FVDT boshqaruv organlari o‘rtasida quyidan yuqoriga va yuqoridan quyiga axborot almashinishning ishonchli bo‘lishini ta’minlash.

Respublika darajasida xabar berish tizimining vazifalari:

— respublika markazlashtirilgan xabar berish tizimini, shuningdek, axborot bilan ta’minlash va boshqalarning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va uni doimiy tayyor holda saqlash;

— aloqa, radio, televideniye va boshqa texnika vositalarining davlat va idoraviy kanallaridan boshqarish va axborotni uzatish uchun markazlashtirilgan holda foydalanishni ta’minlash;

— kimyoviy va boshqa xavf kuchli obyektlarda hamda ularga yondosh hududlarda xabar berish va axborot uzatishning mahalliy tizimini, shuningdek, suv omborining gidrotexnik inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatlashtirilgan tizimlarini loyihalashtirish va yaratishni nazorat qilish;

— yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, mumkin bo‘lgan oqibatlari hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga oid qabul qilinayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlar to‘planishini va almashishini hamda xabar qilishni ta’minlash va nazorat qilish.

Mahalliy miqyosda xabar berish tizimining vazifalari:

— viloyat ichki aloqa va xabar berish tizimlari, shuningdek, boshqaruv va axborot bilan ta’minlashning avtomatlashtirilgan tizimini tashkil etish va doimiy tayyor holda saqlash;

— boshqarish va axborotni uzatish uchun aloqa, radio, televideniye hamda boshqa texnik vositalarning davlat, viloyat va idoraviy kanallaridan markazlashtirilgan holda foydalanishni ta'minlash;

— manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda kimyoviy va boshqa kuchli xavfli obyektlar, ularga yondosh hududlarda xabar berish va ularni uzatishning mahalliy tizimlarini, shuningdek, suv omborlarining gidrotexnik inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning avtomatik tizimlarini yaratish.

Obyekt darajasida xabar berish tizimining vazifalari:

— kimyoviy va boshqa xavfli obyektlarda xabar berish va axborot uzatishning mahalliy tizimlarini, shuningdek, gidrotexnik inshootlarda signalizatsiya va xabar qilishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish ishlarini tashkil etish;

— xabar berish, axborot to‘plashni ta'minlash va nazorat qilish, yuzaga kelgan favqulodda vaziyat, uning rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, yetkazilishi mumkin bo‘lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatni bartaraf etish uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va zaruriy yordam to‘g‘risida yuqori organlarga ma'lumot berish.

O‘zbekiston Respublikasining barcha idoralarida xabar berish va axborot uzatish tizimining aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha vazifalari:

— fuqaro muhofazasi tadbirlarini o‘tkazish chog‘ida aloqa tizimlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta'minlashni tashkil etish va amalga oshirish;

— idoraviy potensial xavfli obyektlarda signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatlashtirilgan tizimini yaratish;

— aholini favqulodda vaziyat xavfi tug‘ilganligi va sodir bo‘lganligi to‘g‘risidagi axborot bilan ta'minlash.

Xabar berish signallari va ular bo‘yicha aholining harakati

Aholi muhofazasi qandaydir xavf-xatar tahdidi tug‘ilgani yoki yuzaga kelganligi to‘g‘risida xabar berish va axborot tarqatishni o‘z vaqtida amalga oshirishdan boshlanadi.

Xabar berish shartlashib olingan, oldindan belgilab qo‘yilgan va aholiga aniq tushunarli bo‘lgan signallar (sirena ovozi, ovoz chiqaruvchi buyumlarni urish va h.k.) orqali amalga oshiriladi.



12-rasm. Favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan joydan xabar olish.

Qanday xavf tug‘ilmasin, elektr sirenalari ishga tushiriladi. Ularning tovushiga korxonalarning gudoklari qo‘shiladi. Bu fuqaro muhofazasining yagona «Diqqat, barchaga!» signalidir.

Sirena ovozi ishlatilgan zahoti televizor, radiopriyomnik, radiokarnaylarni ishlatib qo‘yiladi, mahalliy hokimiyat organlari yoki favqulodda vaziyatlar boshqarmalari esa yuzaga kelgan tahdidning xarakteri, ko‘lami, shuningdek, bunday sharoitda aholining harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi tavsiyalarni berishi kerak.

Ishonchli va barqaror aloqa, shuningdek, haqqoniy axborot aholi muhofazasini tashkil etish va favqulodda vaziyatlarning oldini olish tadbirlari zanjiridagi asosiy bo‘g‘inlardan biridir.

Xabar berish samarali muhofaza usuli bo‘lib, uning o‘rni beqiyosdir. Bekorga ogohlantirilgan inson yarim qutqarilgan inson deyishmaydi.

4.2. Nafas olish a’zolari va terini himoya qilish vositalari


Nafas olish organlarini himoya qilish vositalariga filtrlovchi gazniqob, respiratorlar, changga qarshi matoli niqob, dokali niqoblar kiradi. Nafas olish a’zolarini eng ishonchli himoya qiluvchi vosita gazdan himoyalovchi niqobdir, chunki u nafas olish a’zolarini radioaktiv, zaharlovchi moddalar va bakterial vositalardan himoya qiladi.

Gazdan himoyalanish niqobining himoya qilish ta'siri nafas olish a'zolari, yuz va ko'zlarni tashqi muhitdan to'liq izolatsiya qilishga asoslangan. Foydalanish uchun qulay va oddiy niqoblardan biri GP-5 gazdan himoyalanish niqobidir (13-rasm).

Bu niqob yengil bo'lib, uning shlem-maskasi boshni yaxshi himoya qiladi. Shlem-maska tanlash uchun bosh ikki marta o'lchanib, natijasi bir-biriga qo'shiladi. Natijalar yig'indisi 92 sm dan kam bo'lsa, 0-o'lchamli; 92—96 sm bo'lsa, 1-o'lchamli; 96—98 sm bo'lsa, 2-o'lchamli; 99—102,5 sm bo'lsa, 3-o'lchamli; 102,5 sm dan katta bo'lsa, 4-o'lchamli shlem olish kerak.

Ishlatilishiga ko'ra barcha gazniqoblar filtrlovchi va izolatsiyalovchi turlarga bo'linadi. Ularning bir-biridan farqi shundaki, filtrlovchi gazniqob nafas olish organlari, ko'z va yuz terisini izolatsiyalovchi gazniqob esa quruqlik va suvda ishlash uchun mo'ljallangan.

Sharoitga qarab gazdan himoyalanish niqobi har xil vaziyatlarda osib yuriladi. Agar dushmanning bevosita hujum xavfi bo'lmasa, gazdan himoyalanish niqobi «Dala» holatida chap yonga osib yuriladi. «Havo xavfi» xabari yoki **«Gazdan himoyalanish niqoblari tayyorlansin!»** komandasi



13-rasm. GP-5 gazniqobi: *1* — niqob; *2* — havo tozalovchi quti; *3* — trikotajdan qilingan g'ilof; *4* — nafas olish naychasining og'zi; *5* — gaplashish moslamasi; *6* — nafas chiqarish naychasi; *7* — obturator; *8* — tepalik; *9* — peshana bog'ichi; *10* — chakka bog'ichi; *11* — iyak osti bog'ichi; *12* — uzaytirib qisqartiradigan bog'ich; *13* — jild.

berilganda gazdan himoyalanish niqobi «Tayyor» holatiga o‘tkaziladi. Buning uchun sumkacha sal oldinga surilib, uning yuqori qopqog‘i ochilib hamda kanopi olinib, beldan o‘tkaziladi va uning uchi oldingi yarim halqaga bog‘lab qo‘yiladi.

Radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik zaharlanganlik to‘g‘risida ogohlantiruvchi xabarlar berilganda **«Gazlar!»** komandasiga ko‘ra, shuningdek, kimyoviy va bakteriologik hujumning dastlabki alomatlari paydo bo‘lganda gazdan himoyalanish niqobi «Jangovar» holatiga keltiriladi.

Gazdan himoyalanish niqobi tez va to‘g‘ri taqilishida esa muayyan tartibga rioya qilinishi: nafas olmay turilishi, ko‘zlarning yumilishi (aks holda, zaharlanib qolish mumkin), bosh kiyimi olinib, tizzalar orasiga siqilishi, sumkadan maska olinib, uning yonoq va ensa tasmalaridan har ikki qo‘l bilan bosh barmoqlar ichkari tomon bo‘ladigan qilib ushlanishi kerak.

Niqobning pastki qismi engakka qo‘yilib, qolgan qismi yuzga tortilishi, yon tasmalari esa quloqlar orasiga o‘tkazilishi kerak. Ensa tasmalarning bo‘sh uchlari, niqobning chetlari yuzga zich yopishadigan qilib tortilishi lozim. Shundan keyin tez nafas chiqarib, nafas olishni davom ettirish, ko‘zlarni ochib, bosh kiyimni kiyib olish zarur, tez nafas chiqarilganda yuz niqob kiyish vaqtida niqob ostiga kirib qolgan zaharli havo chiqib ketadi.

Gazdan himoyalanish niqobi **«Gazdan himoyalanish niqoblari yechilsin!»** komandasi berilgandan keyingina yechiladi. Bevosita zaharlanish xavfi o‘tib ketganligi to‘g‘risida xabar berilgandan keyin ham gazdan himoyalanish niqobi yechilmasligi mumkin. Gazdan himoyalanish niqobini yechish uchun o‘ng qo‘l bilan bosh kiyim ko‘tarilib, chap qo‘l bilan gazdan himoyalanish niqobi qutisidan ushlanadi va maska salgina pastga tortib olinadi-da, bosh kiyim kiyiladi. Yechilgan gazdan himoyalanish niqobi sumkaga joylanadi, bunda niqob toza latta yoki dastro‘mol bilan artiladi. Ana shundan keyin gazdan himoyalanish niqobi «Tayyor» yoki «Dala» holatiga o‘tkaziladi.

Qattiq sovuqda niqobning rezinasi qotib qolishi yoki ko‘zoynak muzlashi mumkin. Bunda gazdan himoyalanish niqobidan foydalanish qiyinlashuvi va ishlamay qolishi xavfi bor. Bunday hodisalarga yo‘l qo‘ymaslik uchun niqob palto ichiga olib isitiladi. Agar gazdan himoyalanish niqobi taqilgan holatda bo‘lsa, uning niqobi va klapanlar qutisini vaqt-vaqti bilan qo‘lda isitib turish, nafas chiqarish klapanlariga esa puflab qo‘yish tavsiya etiladi.

Sovuqdan issiq xonaga kirilganda, gazdan himoyalanish niqobi metall qismlari terlamaguncha 10—15 daqiqa kutib turish va shundan keyin gazdan himoyalanish niqobi qutisini, metall qismlari va niqobni quruq latta yoki

dastro‘mol bilan artish va nafas chiqarish klapanlariga puflash kerak. Birlashtirish trubkasini ham puflash lozim, agar trubka muzlab qolgan bo‘lsa, uni muz bo‘lakchalaridan ehtiyotlik bilan tozalash zarur.

Gazdan himoyalanish niqobidan foydalanish vaqtida uning ayrim qismlari shikastlanishi mumkin. Bunday holda gazdan himoyalanish niqobini boshqasiga darhol almashtirish yoki zaharlangan joydan darhol chiqib ketish lozim. Tabiiyki, shikastlangan gazdan himoyalanish niqobidan ma’lum vaqt foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Niqobning chetlari sal yirtilgan yoki tasmalardan biri uzilgan bo‘lsa, shikastlangan joyni yuzga yoki boshga kaft bilan mahkam siqiladi. Agar niqobning yuz qismi yirtilgan, birlashtirish trubkasi teshilgan yoki uzilgan, ko‘zoynak, nafas chiqarish klapanlari kattaroq shikastlangan bo‘lsa, bunday gazdan himoyalanish niqobi qutisining bo‘g‘zini og‘izga tutib, burunni barmoqlar bilan siqish va ko‘zni ochmay turib, quti orqali nafas olish lozim (bunda og‘izdan nafas olish va og‘izdan nafas chiqarish zarur).

Agar gazdan himoyalanish niqobi qutisining korpusi teshilgan bo‘lsa, uni loy, ho‘l tuproq, non mag‘zi yoki boshqa shunga o‘xshash modda bilan suvab qo‘yish kerak. Imkon bo‘lishi bilanoq, shikastlangan quti boshqasiga almashtiriladi.

Agar gazdan himoyalanish niqobi bo‘lmasa, u buzuq bo‘lsa, nafas olish organlarini radioaktiv chang va bakterial vositalardan himoya qilish uchun respiratorlar, paxta-doka, bog‘ichlar, changga qarshi to‘qima niqoblar ishlatiladi. Ammo ular zaharli moddalardan saqlay olmaydi. Korxonalarda ishlab chiqarish changlaridan himoyalanish uchun turli xildagi changga qarshi respiratorlardan foydalaniladi.

Har qanday niqob yarim niqobdan va unga montaj qilingan filtrlovchi elementdan (filtrlovchi respirator qutisidan) iborat.

Ba’zi turdagi niqoblarda filtr vazifasini yuz qismining materiali o‘taydi. Ularning gazdan himoyalanish niqoblaridan afzal tomonlari shundaki, ular nafas olishga kam qarshilik ko‘rsatadi, yengil, tuzilishi oddiy va bahosi arzon bo‘ladi. Niqoblarning tuzilishi oddiy bo‘lganligi uchun ulardan foydalanish ham qulaydir.

Nafas olish organlarini zaharli moddalardan himoya qilishning eng oddiy usullaridan biri paxta-doka materialidan tayyorlangan, changga qarshi taqiladigan niqobdir. Bu niqob radioaktiv changlar va bakterial aerozollardan himoya qiladi.



a *b*

14-rasm. a — changga qarshi paxta-dokali niqob;
b — changga qarshi materiallardan tayyorlangan niqob.

Paxta-dokali bog‘lag‘ichni tayyorlash uchun 100×50 sm o‘lchamdagi doka materiali olinadi, unga 1—2 sm qalinlikda paxta qo‘yiladi, dokaning qirg‘oqlari ikki tomoni qayrilib paxta o‘raladi. Oxirgi uzunlik tomonidan 30—35 sm o‘lchamda kesiladi. Paxta-dokali bog‘lag‘ich jag‘, og‘iz, burunni berkitishi lozim. Ko‘z tomonga changga qarshi ko‘zoynak taqiladi.


Changlarga qarshi materiallardan tayyorlangan niqob korpusi qadag‘ichdan iborat (korpus qismi 4—5 o‘ramdan iborat materialdan tayyorlanadi). Korpus, qadag‘ichlardan andoza olinib chiqiladi. Korpus qismiga ko‘z ko‘rinishiga mo‘ljallangan tuynukchalar qilinib, ularga oyna yoki ko‘rish plastinkasi o‘rnatiladi. Niqob boshga yopishib qadalishi maqsadida, rezina tasmalari o‘rnatiladi. Niqobning korpus qismini bosh tomon bilan birlashtirish uchun ko‘ndalang rezina tasma ham o‘rnatiladi.

Terini himoya qilish vositalari. Radioaktiv, kimyoviy va bakterial zaharlangan joylarda nafas olish organlari va ko‘zlarnigina emas, balki butun tanani ham himoya qilish zarur. Biz kundalik hayotimizda foydalanadigan odatdagi kiyim-bosh zaharlanishdan saqlay olmaydi. Buning uchun terini himoya qiladigan turli vositalar, badanning teri qoplamiga, kiyim-bosh, poyabzalga radioaktiv va zaharlovchi moddalar hamda bakterial vositalarning tushishidan saqlovchi vositalar ishlatiladi.

Terini himoya qilish vositalari vazifasiga ko‘ra maxsus (tabel) vositalar va qo‘lda mavjud vositalarga bo‘linadi.


Himoyalanishning tabel vositalaridan fuqaro himoyasi tuzilmalarining shaxsiy tarkibi zaharlangan joyda ishlash vaqtida foydalaniladi.

Tabel vositalari jumlasiga himoyalanish kombinezoni (shimli kalta kamzul), L-1 yengil himoyalanish kastumi, himoyalanish etigi va qo‘lqopi, fartuk kiradi. Bu vositalar sanoatda plyonka hosil qiluvchi



15-rasm. L-1 yengil himoya kastumi:
1 — paypoqlar va shim; *2* — shlem osti kiyimi; *3* — kapyushonli ko‘ylak;
4 — ikki barmoqli qo‘lqoplar; *5* — kastum saqlanadigan xalta.
O‘ngda «Jangovar» holatidagi himoya kastumi.

sintetik moddalar (to‘qimaning 1 yoki 2 tomonga singdirilgan kauchuk sun’iy qatronlar, oqsil moddalar, plastik massalar va boshqalar)dan tayyorlanadi, bular havoni umuman o‘tkazmasligi bilan birga, o‘ziga tushgan zaharli modda tomchilari va yuklaridan puxta himoya qiladi. Butun badanni tashqi muhitdan izolatsiya qilish uchun terini himoya qilish vositalaridan kompleks tarzda foydalaniladi (masalan, kombinezon, himoyalanish etigi va qo‘lqopi bilan birga kiyiladi). Himoyalanishning tabel vositalari *himoyalanish kiyimlari* deb ataladi.



16-rasm: 1 — himoya komplekti; *2* — L-1 yengil himoya kastumi;
3 — himoyalanish kombinezoni; *4* — filtrlovchi kiyim.

Himoyalanish kombinezoni (shimli kalta kamzul) kuchli zaharlangan joylarda ishlashda, rezina etik, qo‘lqop va qalpoqcha (kapyushon) bilan birga kiyib olinadi. Kombinezonlar va shimli kalta kamzullar rezinalangan to‘qimalardan tayyorlanadi. Kombinezonning og‘irligi 3,5 kg, etik va qo‘lqoplar bilan birgalikdagi og‘irligi esa 6 kg ga yaqin.

Yengil himoya kastumi rezinalangan elastik to‘qimadan tayyorlanadi.

Bu kastum qalpoqchali ko‘ylak, paypoqli shim, ikki barmoqli qo‘lqop va shlem ostidan iborat. Komplektga kastumni solib yurish uchun sumka va zaxira qo‘lqop ham kiradi.

Zaharlanish xavfi tug‘ilganligi to‘g‘risida ogohlantiruvchi signal berilgach, gazdan himoyalanish niqobi taqilib, yoqa ko‘tariladi, qalpoqcha (kapyushon) va qo‘lqop kiyiladi.

4.3. Aholini muhofaza qilishning muhandislik vositalari (pana joylar)

Aholini radiatsiyadan muhofazalash uchun turli xildagi inshootlar mavjud. Muhofaza inshootlari aholini muhofazalovchi ishonchli vositadir. Bu inshootlar aholini turli favqulodda vaziyatlardan hamda ommaviy qirg‘in qurollarining ta’sir etish omillaridan saqlaydigan boshpana hisoblanadi.

Muhofazalovchi inshootlar muhofazalash xususiyatiga ko‘ra, pana va radiatsiyaga qarshi pana joylarga bo‘linadi. Bunday inshootlar quyidagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda quriladi:


1. Yo‘nalishga ko‘ra — fuqarolarni saqlashga, boshqaruv tizimlarini joylashtirishga mo‘ljallangan.

2. Joylashgan o‘rniga ko‘ra — alohida joylashgan (metropolitenlar va tog‘-kon qurilishlari).

3. Qurilish muddatiga ko‘ra — boshpana RSB (radiatsiyadan saqlovchi boshpana) va oddiy boshpanalar.

Pana joylar — bu maxsus inshoot bo‘lib, u yashiringan odamlarni yadroviy portlashdan, zaharlovchi moddalardan, bakterial vositalardan, shuningdek, yuqori harorat, yong‘in paytida zaharli gazlardan muhofaza qiladi (17-rasmda pana joy rejasi ko‘rsatilgan).

Boshpanalar odamlarni qabul qilish soniga qarab besh guruhga bo‘linadi. Kichik hajmdagi boshpana 150—300 odamni, o‘rtacha boshpana 360—600, katta boshpana esa 600 dan ko‘p odamni qabul qiladi.



17-rasm. Pana joy rejasi:
1 — havo o‘tkazmaydigan himoya eshigi; *2* — shluzli kamera; *3* — sanitar xonasi; *4* — odamlarni joylashtiradigan asosiy zal; *5* — avariya paytida chiqish yo‘li; *6* — havoni tozalab, shamollatish xonasi; *7* — oziq-ovqat saqlanadigan ombor; *8* — tibbiyot xonasi.

Pana joylar asosiy va yordamchi binolardan iborat. Asosiy binoda yashirinuvchilarni joylashtirish joyi va ikki yoki uch qavatli so‘ri mavjud.


Ikkinchi yordamchi binoda sanitariya tarmog‘i, havoni tozalab almashtirib beruvchi kamera va sig‘imi katta inshootlarda tibbiyot xonasi, oziq-ovqat saqlanadigan ombor, artezian quduq va dizelli elektr stansiyasi uchun xona mavjud.

Saqlanuvchi joyda, qoidaga muvofiq, kamida ikkita kirib-chiqish eshiklari, kichik pana joylarda kirish va avariya vaqtida chiqadigan eshiklar bo‘ladi.

Ofat yuz berganda, qo‘shimcha eshiklardan narvon bilan yoki shunday ko‘chaga chiqish mumkin. Halokat paytida eshiklardan yerosti yo‘llari orqali shaxtaga chiqiladi. Ko‘p o‘rinli (300 dan ortiq odam) inshootlarda quriladigan eshiklarning bittasiga shluzli dahliz, zararlangan havodan muhofaza qilinadigan sirtqi va ichki shamol kirmaydigan eshiklar bilan jihozlanadi.

Havo tozalash tizimi havoni changlardan tozalovchi va havoni tozalab almashtiruvchi tartibda ishlaydi.

Pana joyning energiya, suv isitish, kanalizatsiya tarmoqlari tashqi tarmoqqa ulangan. Ular shikastlanganda pana joylar ko‘chirma elektr fonarlar, suv zaxiralari, chiqindilar uchun idishlar bilan ta’minlangan.




18-rasm. Bino tagida joylashgan pana joy.

Bulardan tashqari, tekshirish va nazorat qilish majmuyi, muhofaza kiyimlari, yong‘inni o‘chiruvchi moslama tayyor holatda saqlanadi.

Aholi pana joylarga joylashganda u yerda quyidagilar taqiqlanadi:

— zaharlovchi moddalarning dog‘i, izlari mavjud kiyimlar bilan kirish;
— radioaktiv zaharlanish sodir bo‘lganda zaharlangan kiyim bilan kirish;
— poyabzaldagi chang va loy, qor bilan kirish;
— chekish, to‘polon qilish;
— ruxsatsiz kerosinli lampalarni yoqish;
— sham, tez alangalanuvchi moddalardan foydalanish;
— hayvonlarni olib kirish;
— yosh bolali onalar, kasallar alohida ajratilgan joylarga joylashtiriladi.



19-rasm. Alohida joylashgan pana joy.

4.4. Radiatsiyadan yashirinish joylari, yerto‘la va boshqa joylarni muhofaza inshootlariga moslashtirish

Turli radiatsiya va boshqa shu kabi ofatlardan aholini himoya qilish uchun mavjud inshoot-boshpanalar qurilishiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1) odamlarni uch sutkadan kam bo‘lmagan muddatga saqlash;

2) suv bosmaydigan joylarga qurish;

3) oqar suvlardan, kanalizatsiya kommunikatsiyalaridan hamda qurilish kommunikatsiyalaridan uzoqroq joylarda qurish;


4) chiqish va kirish eshiklari bo‘lishi.

Radiatsiyadan yashirinish joylarini, yerto‘la va boshqa joylarni to‘ldirish tartibi oldindan ishlab chiqiladi va tasdiqlangan reja bo‘yicha amalga oshiriladi. Har bir vaziyatda vahimaga tushmasdan, ko‘rsatilgan joyga borib, joylashib, belgilangan qoida bo‘yicha harakatlanish lozim.

Radiatsiyaga qarshi pana joylar radioaktiv (ifloslanish) zaharlanishida odamlarni ion hosil qiluvchi nurlanishdan muhofaza qiladi. Bundan tashqari, to‘lqin zarbasi, yorug‘lik nurlari, o‘tib kiruvchi radiatsiya, neytron oqimi, teri va kiyimga radioaktiv moddalar tushishi, zaharli moddalar, bakteriyali vositalardan muhofazalaydi. Ko‘p qavatli binolarning yerto‘lalarida radiatsiyadan saqlanish uchun joy tayyorlasa bo‘ladi.

Muhofazalovchi pana joylarni tayyorlashda yig‘ma temir-beton vositalari, g‘isht, yog‘och materiallar, toshdan foydalanish mumkin.

Radiatsiyadan saqlanishda devorlari muhofazalash xususiyatiga ega bo‘lgan yerto‘lalar, poliz mahsulotlari saqlanadigan omborlar, yer ustidagi




20-rasm. Radiatsiyaga qarshi pana joy.

binolardan foydalaniladi. Barcha eshik, derazalar mahkamlanadi, eshiklar kigiz yoki yumshoq gazlama bilan zich qilib yopiladi. Pana joyga (30 odamga mo‘ljallangan bo‘lsa) tabiiy havo oqimi bilan shamollatgich va so‘ruvchi quti qo‘yiladi.


So‘ruvchi quti shamollatgichdan 1,5—2 m yuqorida qo‘yiladi.

Sirtqi havo chiqaruvchi qutichaga qopqoq ishlanadi. Kirish joyiga qopqoqcha qilinadi. Pana joylarda suv va kanalizatsiya bo‘lmasa, bir kecha-kunduzga har bir odam uchun 3—4 litr suv, hojatxona, axlat to‘kiladigan o‘ra, so‘ri, oziq-ovqat uchun javon imkoniyatlari yaratiladi. Yog‘ochdan tiklangan uylar radiatsiya koeffitsiyentini taxminan 100, toshdan ishlangan uylar 800, jihozlanmagan yerto‘la 7—12, jihozlangan yerto‘la 350—400 marta kamaytiradi.



21-rasm. Yerto‘la.

Yopiq tirqish yorug‘lik nurlaridan to‘la, to‘lqin zarbasidan 2,5—3 marta, o‘tib kiruvchi radiatsiya va radioaktiv nurlanishdan 200—300 marta muhofazalaydi. U teri va kiyimga radioaktiv, zaharlovchi modda va bakteriyali vositalar tushishidan saqlaydi. U ochiq joyda ustiga hech narsa qulamaydigan, yomg‘ir suvi, suv bosmaydigan joyda quriladi. Oldin ochiq holda tayyorlanadi. U ilonizi yo‘lak kabi to‘g‘ri chiziqli 15 metrdan ortiq bo‘lmagan bir necha (bo‘lak) qismlardan iborat. Chuqurligi 1,8—2 m, yuqori qismining kengligi 1—1,2 m, tubi 0,8 m. Tirqish uzunligi har bir odamga 0,5—0,6 m hisobida aniqlanadi.



22-rasm. Ochiq (*a*) va yopiq (*b*) pana joy.

Oddiy turdagi pana joylar. Oddiy turdagi boshpana yoki pana joylarga yerto‘lalar kiradi. Ular qurilish konstruksiyasiga ko‘ra, oddiy himoya inshootlariga kiradi. Chunki ularni qurish uchun qisqa vaqt sarf etiladi.

Oddiy pana joylar ochiq va yopiq ko‘rinishda bo‘ladi (22-rasm). Tirqishlar (teshiklar)ni aholi qo‘lda bor vositalar bilan tayyorlaydi. Ochiq tirqish to‘lqin zarbasini 1,5—2 marta, yorug‘lik nurlari va o‘tuvchan radiatsiyani 1,5—2 marta, radioaktiv zararlangan hududda nurlanish darajasini 2—3 marta kamaytiradi.

Radioaktiv ifloslangan joyda qanday harakat qilish lozim?

Organizmga radioaktiv moddalar ta’sirining oldini olish yoki ta’sirini kamaytirish uchun:

— binodan faqatgina zarurat tug‘ilganida, qisqa vaqtga, respirator, plash va rezina etik kiygan holda chiqing;

— ochiq joyda yechinmang, yerga o‘tirmang va chekmang, ochiq suv havzalaridan cho‘milishdan va mevalar terishdan saqlaning;

— uyingiz atrofidagi hududga vaqt-vaqti bilan suv sepib turing, bino ichini esa yuvish vositalari bilan har kuni tozalang;

— binoga kirishdan oldin oyoq kiyimingizni yuving, ustki kiyimingizni qoqib, namlangan cho‘tka bilan tozalang;

— suvni faqat tekshirilgan joylardan olib iching, do‘konlardan olingan oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qiling;

— ovqatlanishdan avval qo‘llaringizni yaxshilab yuving va og‘zingizni 0,5 % li ichimlik sodasi bilan chaying.

Ushbu tavsiyalarga amal qilish nurlanish kasalligining oldini olishga yordam beradi.

4.5. Favqulodda vaziyatlarda hayvon va qishloq xo‘jaligi o‘simliklarini muhofaza qilish

Favqulodda vaziyatlarda qishloq xo‘jaligi o‘simliklari va hayvonlarni muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, yem-xashakka zarar keltiradigan ko‘plab kasalliklar mavjud. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari zaharli va radioaktiv moddalar bilan ham zararlanishi mumkin. Bunday xavfli omillar mahsulotlarning o‘sish jarayoniga hamda uzoq muddat davomida saqlanish holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘simliklar orasida kasalliklarning keng tarqalishi natijasida kelib chiqadigan vaziyatlarga *epifitotik favqulodda vaziyatlar* deyiladi.

Shu kabi kasalliklar hayvonlar orasida ham tarqalishi mumkin. Hayvonlar kasalliklar, zaharlanishlar, radioaktiv moddalar ta’sirida ham zaharlanadi.

Hayvonlar orasida kasalliklarning keng tarqalishi natijasida kelib chiqadigan vaziyatlarga *epizootik favqulodda vaziyatlar* deyiladi.

Epifitotiya bilan epizootiyaning panfitotiya va panzootiya turlari ham mavjud bo‘lib, bunda o‘simlik yoki hayvonlar kasalliklarining bir necha davlat yoki mintaqa hududiga tarqalib ketishi tushuniladi.

Hudud radioaktiv moddalar bilan zararlanganda ushbu hududda yashaydigan odam va hayvonlarga katta zarar keltiriladi. Zaharlanish yo‘llari nimadan paydo bo‘ladi? Avvalo, kundalik radioaktiv moddalar bilan ish olib borayotgan idora va laboratoriyalarda xavfli vaziyat sodir bo‘lishi mumkin. Xavfli holat qachonki bu joylarda turli sabablarga ko‘ra radioaktiv moddalar tashqariga chiqib ketishiga sharoit tug‘ilsa ro‘y beradi. Masalan, atom elektrstansiyalarida xavfsizlik choralariga rioya etilmasa, o‘z vaqtida profilaktika ishlari olib borilmasa, ishchi va rahbar xodimlar belgilangan qoidalarni o‘z vaqtida bajarmasa va h. k.

Radioaktiv moddalar tashqariga chiqib ketgandan keyin atrofdagi hudud zaharlanadi, inson, jonli hayvonlar, qushlar, parrandalar va h.k. asta-sekin zaharlanib, nurlanish kasalligiga uchraydi.

Shunga o‘xshash vaziyat 1986-yili Ukrainada sodir bo‘lgan. Atom stansiyasidagi portlash natijasida atrofdagi hudud zaharlangan, u yerda yashayotgan aholi evakuatsiya qilinib, boshqa hududlarga ko‘chirilgan. Voqea sodir bo‘lgandan so‘ng ancha yilgacha bu hududda dezaktivatsiya, degazatsiya va maxsus tozalash ishlari olib borilgan. Hozirgi kunda bunday

ishlar davom ettirilib, odamlar yashashi uchun zarur sharoit yaratish ishlari olib borilmoqda.

Favqulodda vaziyat sodir bo‘lmasligi uchun hamma o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi shart. Vaziyat sodir bo‘lganda aholi nima qilishi va qanday harakatlanishini oldindan o‘rgatish va evakuatsiya tartib-qoidalarini tasdiqlangan reja bo‘yicha bajarish lozim. Bu kabi vaziyat sodir bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik har bir insonning vazifasidir.

Keng tarqalishi mumkin bo‘lgan kasalliklardan biri *parranda grippidir*. Bu, ayniqsa, inson va uy tovuqlari uchun juda xavfli kasallik bo‘lib, o‘limga olib kelishi mumkin.

Virusning tabiiy manbayi suvda suzuvchi yovvoyi parrandalardir. Virus tashuvchilar esa yovvoyi qushlar va kalamushlar hisoblanadi.

Parrandalar zararlanishi suv va oziqa orqali ro‘y beradi, chunki qushlarda virus najas bilan birga tashqariga chiqadi.

Odamga virus qushlarning go‘shti, ichak-chovog‘i, patlari, tuxumi, najasi, so‘ng iflos qo‘llar, ovqat, suv yoki chang bilan birga og‘iz yoki burunga kirishi mumkin.

Parranda grippidan muhofazalanish tadbirlariga quyidagilar kiradi:

— parrandalarni yopiq sharoitda parvarishlashga o‘tkazing (ularning yovvoyi qushlarga qo‘shilishiga yo‘l qo‘ymang);

— yovvoyi qushlar (qarg‘alar, maynalar, chumchuqlar) kushxonalar ichiga kirib ketishi va ularning oziqalariga yaqinlashishiga imkon bermaslik uchun barcha mavjud yo‘llarni yopib tashlang;

— kalamushlarni yo‘q qiling;

— qushlar najasini yer ostiga kamida 0,5 metr chuqurlikka ko‘ming;

— yig‘ishtirish ishlarini dokali niqob yoki respirator taqib, qo‘lqop, bosh kiyimi kiyib yoki ro‘mol o‘rab, ishchi kiyim va poyabzalda bajaring;

— yig‘ishtirish ishlari yakunlanganidan so‘ng ishchi kiyim va poyabzalni sovun bilan yuving, quyosh nurlari ostida quriting, qo‘llaringiz va yuzingizni puxtalik bilan yuving yoki cho‘miling.

Yodda saqlangki, parranda grippi holatlari uy qushlari orasida ro‘y bergan vaziyatda, infeksiya yanada keng tarqalib ketishini to‘xtatish va odamlar zararlanishining oldini olishning yagona usuli butun aholi yashaydigan joyda mavjud bo‘lgan barcha vaksina bilan emlanmagan parrandalarni butunlay yo‘q qilishdan iboratdir.

Bolalar, keksalar, homilador ayollar va immuniteti kuchsiz insonlarni himoya qilish uchun ularni oddiy grippga qarshi vaksina bilan emlash kerak.

Vaksina grippdan himoya qiladi va parranda grippining og‘ir shakllari paydo bo‘lishi xatarini kamaytiradi.

Juft tuyoqli yovvoyi va uy hayvonlarining xavfli, o‘tkir kechuvchi virusli kasalliklaridan biri oqsim (ruscha ящур)dir. Kasallikka qoramol va cho‘chqalar yuqori darajada, qo‘y, echki va yovvoyi juft tuyoqli hayvonlar esa kamroq moyil.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, oqsim kasalligi haqida 1546-yilda italyan olimi J.Frakastoro ma’lumot bergan, uning filtrlanuvchi virus ekanligini esa1898-yilda nemis olimlari Lyoffler va Frosh aniqlashgan.

Oqsim hayvonlarning chegara bilmas kasalliklari orasida eng ko‘p uchraydigan va katta iqtisodiy hamda ijtimoiy zararlar keltiradigan yuqumli kasallik hisoblanadi. Kasallik har xil geografik mintaqa va iqlimga qaramay, qisqa muddatda uzoq masofalarga tez tarqalish xususiyatiga ega.

Hayvonlarda kasallikning klinik belgilari burun, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardalarida, tilda, tuyoq oralig‘i va yelinda pufakchalar paydo bo‘lishi, so‘ngra ular yorilib eroziyalarga aylanishi bilan namoyon bo‘ladi.

Oqsim kasalligi tarqalgan hududlarda mavjud yosh hayvonlarning 60—80% gachasi nobud bo‘ladi.

Oqsim quyidagi holatlarda juda tez va keng tarqalishi mumkin:

— kasal yoki kasallikdan tuzalgan, biroq virus tashuvchi bo‘lib qolgan hayvonlar sog‘lom mollar bilan birga boqilsa, kasallik tarqalmagan joylar, go‘sht kombinatlari, hayvon bozorlari va ko‘rgazmalariga kiritilsa;

— virus bilan zararlangan sut yoki yog‘sizlantirilgan sut yosh mollarga berilsa;

— nosog‘lom hududdagi yaylovlarda sog‘lom mollar boqilsa yoki ulardagi suv manbalari va binolaridan foydalanilsa;

— nosog‘lom hududdan yem-xashak va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yoki kasallikka moyil bo‘lmagan ot, eshak, daydi it, mushuk va h.k.lar sog‘lom hududlarga kirib kelsa;

— biologik xavfsizlik choralariga amal qilinmaganda, veterinariya mutaxassislari o‘z kiyimlari va qurollarini dezinfeksiya qilmaganda.

Oqsim kasalligining oldini olish uchun hayvonlarni ommaviy va majburiy emlash, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o‘z vaqtida o‘tkazish, biologik xavfsizlik choralariga amal qilish, chorva mollari va mahsulotlarining harakati ustidan doimiy nazorat yuritish kabi kompleks tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.




23-rasm. Maxsus xodimlar tomonidan profilaktika ishlarini olib borish jarayoni.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, yem-xashak va suvni zararlanishlardan muhofaza qilish uchun nazorat ishlari olib boriladi. Rejalashtirilgan tartib bo‘yicha maxsus asboblar bilan hayvonlarga beriladigan suv tozaligi va yaylovlardagi o‘simliklarning holati tekshiriladi. Reja bo‘yicha dezinfeksiya ishlari olib boriladi.

Masalan, havo kemalari aerodromdan havoga ko‘tarilayotganda ulardan ajralayotgan yoqilg‘i moddalari yerga tushib, atrofni zaharlaydi, o‘simliklarga ziyon keltiradi. Yem-xashak va suv orqali hayvonlarning ichiga kirgan zaharli moddalar esa kasallikka olib keladi.

Epifitotik favqulodda vaziyatlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarining ommaviy nobud bo‘lishi, hosildorlikning pasayishi bilan kechuvchi ommaviy kasallik va o‘simlik zararkunandalari sonining keskin ko‘payishi kuzatiladi. Bunday kasallik va zararkunandalarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin

Kartoshka fitoftorozi. Kartoshka fitoftorozi zararli kasallik hisoblanadi. Bunda tuganaklar hosil bo‘lish davrida ko‘chatlarning bevaqt nobud bo‘lishi va ommaviy chirib ketishi tufayli hosil miqdori kamayadi. Gullash davrida butalarda to‘q qora-jigarrang yoki kulrangsimon yog‘li dog‘lar paydo bo‘ladi. Hosildorlik 15—20% gacha kamayadi.

Kolorado qo‘ng‘izi. Ushbu zararkunandaning o‘lchami 9—11 mm gacha yetishi mumkin. Bahorda tuproq ostidan chiqadi. Urg‘ochisi yaltiroq, zarg‘aldoq, cho‘zinchoq-ovalsimon, uzunligi 2—4 mm li tuxum qo‘yadi. Tuxumlarni kartoshka bargining orqa tomoniga 18—20 tadan birlashtirib qo‘yadi. G‘umbaklar 24 kun rivojlanadi (24-rasm).

Bir yil davomida bittadan to‘rttagacha avlod qoldiradi. Natijada hosildorlik keskin kamayib ketadi.

Chigirtka. Markaziy Osiyo respublikalarida chigirtkaning 380 turi bor, yurtimizda esa 200 dan ko‘proq turi aniqlangan. U ikki ekologik guruhga



24-rasm. Kolorado qo‘ng‘izining rivojlanishi.

ajratilgan. To‘da hosil qiluvchi chigirtkalar rivojlanishi uchun qulay sharoit bo‘lgan yillari yirik to‘dalar hosil qiladi va juda katta zarar keltiradi. Bularga Osiyo yoki to‘qay chigirtkasi (25-rasm, *a*), Marokash chigirtkasi, voha yoki Italiya chigirtkasi (25-rasm, *b*) va boshqalar misol bo‘ladi.

Zararli chigirtkalarga qarshi kurashda hozirgi kunda nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyo miqyosida ham kimyoviy kurash usuli maqbul hisoblanadi. Keyingi yillarda respublikamizda bir qancha zamonaviy kimyoviy dorilar sinovdan o‘tkazilib, ishlab chiqarishga tavsiya qilindi.

Chigirtkalarga qarshi kurashda piretroid va fosfororganik preparatlarning ta’sir etish muddati 3—5 kundan oshmasligi sababli, ba’zi holatlarda takroriy ishlov berish zaruriyati yuzaga keladi. Ayniqsa, voha chigirtkasining tuxumdan chiqishi va keyingi rivojlanishi bir xil muddatda kechmasligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, unga qarshi uzoq muddat ta’sir qiluvchi preparatlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.



a *b*

25-rasm. Chigirtkalarning turlari va rivojlanish jarayonlari: Osiyo yoki to‘qay chigirtkasi (*a*) va voha yoki Italiya chigirtkasi (*b*).

4.6. Qutqaruv ishlarini tashkil etish, o‘tkazish asoslari va olib borish usullari. Qutqaruv ishlarining maqsadi va mohiyati

Favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda aholi va hududlarga katta zarar keltirilish ehtimoli bor. Bunday vaziyatlarning sodir bo‘lishiga quyidagi holatlar sabab bo‘lishi mumkin: avariyalar, tog‘ ko‘chkilari, suv, gaz, yong‘in bilan bog‘liq holatlar va boshqa texnogen hamda tabiiy vaziyatlar.

O‘zbekiston Respublikasida 2008-yil 26-dekabrda «Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilingan. Ushbu Qonunning maqsadi qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining tashkil etilishi, faoliyati va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Unda qutqaruv sohasiga oid ba’zi tushunchalarga ta’rif berib o‘tilgan. Jumladan:

— qutqaruvchi — muayyan dastur bo‘yicha qutqaruv ishlariga tayyorlangan va belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi;

— qutqaruv vositalari — qutqaruv ishlarini olib borish uchun mo‘ljallangan maxsus texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulot, shu jumladan, maxsus aloqa va boshqaruv vositalari, texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar, mol-mulk, qutqaruv ishlarini bajarish texnologiyasiga doir uslubiy materiallar, videomateriallar, fotomateriallar, elektron hujjatlar, shuningdek, elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar va ma’lumotlar bazalari, boshqa vositalar;

— qutqaruv ishlari — favqulodda vaziyatlar zonasida odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘lig‘ini saqlash, yuridik hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularga xos bo‘lgan xavfli omillar ta’sirini yo‘qotish yoki imkon qadar kamaytirishga qaratilgan harakatlar;

— qutqaruv tuzilmasi — favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish ishlarini olib borish uchun mo‘ljallangan, asosini maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqaruv vositalari bilan ta’minlangan qutqaruvchilar bo‘linmalari tashkil etgan mustaqil tuzilma yoki qutqaruv xizmati tarkibiga kiruvchi tuzilma;

— qutqaruv xizmati — faoliyati bo‘yicha yagona tizimga birlashtirilgan, asosini professional qutqaruv tuzilmalari tashkil etgan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir vazifalarni hal

qilish uchun mo‘ljallangan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmuyi.

Qutqaruv ishlarini tashkil etish oldindan tayyorlanib rejaga kiritiladi. Har bir rejada turli xil vaziyatlar sodir bo‘lishi inobatga olinadi, chunki xavfli vaziyat insonlarning yashayotgan hududiga bog‘liq. Shuning uchun har bir sodir bo‘lgan vaziyatda qutqaruv ishlari o‘ziga xos usullar bo‘yicha tashkillashtiriladi. Masalan, tog‘li joylarda zilzila, sel, tog‘ va qor ko‘chishi sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar ro‘y beradi, daryo va dengiz oldi hududlarida esa suv toshqini sodir bo‘lishi ehtimoli katta. Shuning uchun qutqaruv ishlarining asosiy maqsadi ushbu vaziyatlarga bog‘liq. Lekin vaziyat qayerda sodir bo‘lishidan qat’i nazar insonlarni qutqarish birinchi o‘rinda bo‘lmog‘i lozim, shundan keyingina hududda boyliklarni qutqarish ishlarini olib borish mumkin. So‘ng epidemiya paydo bo‘lishi va tarqalishiga qarshi profilaktika ishlari tashkil qilinadi.

Qutqaruv ishlarining mohiyati va usullari ishlar olib borilayotgan joyga bog‘liq bo‘ladi. Ular sodir bo‘lgan vaziyatni to‘g‘ri baholash vaziyatni bartaraf etish uchun mavjud kuch va vositalar borligiga baho berish hamda ularni ishga solish chora-tadbirlari ketma-ketligini aniqlashdan iborat. Shundan so‘ng vaziyat sodir bo‘lgan joydan aholi va boyliklarni olib chiqish rejasi tuzib chiqiladi. Ushbu ishlarni tashkillashtirish uchun juda qisqa vaqt ajratiladi va ishlar kecha-kunduz uzluksiz olib boriladi.

Bunda asosiy e’tibor qutqaruv ishlarini amalga oshiruvchi qutqaruvchiga, uning tayyorgarligiga qaratiladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan qonunga binoan qutqaruvchilarning majburiyatlari belgilangan. Jumladan, qutqaruvchilar:

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini olib borishda ishtirok etishga shay turishi;

— o‘z jismoniy, maxsus, ruhiy tayyorgarligini, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tarkibida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha harakat qilish ko‘nikmalarini takomillashtirib borishi;

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha qutqaruv ishlarini olib borish texnologiyasiga rioya etishi;

— favqulodda vaziyatlar sharoitida jabrlanganlarni qidirishi, ularni qutqarish choralarini ko‘rishi, ularga birinchi tibbiy yordam va boshqa turdagi yordam ko‘rsatishi;

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini olib borish chog‘ida qutqaruvchilar mazkur ishlarni olib borishda qaysi qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining tarkibida ishtirok etayotgan bo‘lsa, o‘sha qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining rahbarlari tomonidan qabul qilinadigan qarorni so‘zsiz bajarishi;

— favqulodda vaziyatlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida fuqarolarga bexatar yurish-turish qoidalarini va favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda bajariladigan harakatlar tartibini tushuntirishi shart.

Qutqaruv ishlarini olib borish vaziyatga bog‘liq bo‘ladi va shunga binoan olib boriladi. Masalan, tog‘li joylarda yer ko‘chkisi va o‘pirilishlar sodir bo‘lganda aholi aviatsiya yordamida evakuatsiya qilinadi. Aholi zudlik bilan xavfsiz joylarga olib chiqiladi va birinchi yordam ko‘rsatiladi.

Masalan, zilzila sodir bo‘lganda uning kuchi aniqlanib, qutqaruv qo‘shinlari tezkor yordam ishlarini boshlaydi.

Bunday vaziyatda inshootlarga yetkaziladigan zarar quyidagicha baholanadi:


1-darajali zarar: yengil shikastlar — bino devorlarida ingichka yoriqlar paydo bo‘ladi va suvoq ko‘chadi;

2-darajali zarar: o‘rtacha shikastlar — devorlarda kichik yoriqlar paydo bo‘ladi, mo‘ri shikastlanadi;

3-darajali zarar: binolar kuchli shikastlanadi, devorlarda katta va chuqur yoriqlar paydo bo‘ladi, mo‘rilar to‘la vayron bo‘ladi;

4-darajali zarar: bino va inshootlar ichki devorlari to‘la vayron bo‘ladi;

5-darajali zarar: bino va inshootlar to‘la vayron bo‘ladi.



26-rasm. Tabiiy favquloddagi vaziyat oqibatida yuz bergan holat.

1966-yili Toshkent shahrida sodir bo‘lgan kuchli zilziladan keyin qutqaruv ishlari yaxshi tashkil qilinganligi va tezkor bajarilganligi uchun aholiga qisqa vaqt ichida barcha zaruriy yordam ko‘rsatilgan.

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan favqulodda vaziyatlar masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, FVDTning favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha kuch va vositalari tashkil qilingan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

— Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari;

— Favqulodda vaziyatlar vazirligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri hamda tezkor bo‘ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan tuzilmalari, qutqaruv tuzilmalari;

— vazirliklar va idoralarning professional ixtisoslashtirilgan qutqaruv bo‘linmalari va tuzilmalari, respublika, mahalliy va obyektlar darajasida FVDTga tegishli hududiy va funksional quyi tizimlarining qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining ko‘ngillilar otryadlari (komandalari, guruhlari), mudofaaga ko‘maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti.

Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari Favqulodda vaziyatlar vazirligiga bo‘ysunadi va o‘z tezkor yo‘nalishlariga muvofiq harbiy davrda respublikaning muhim mudofaa va sanoat obyektlarida favqulodda vaziyatlarni tugatishga oid ishlarni olib boradi.

Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari yirik ko‘lamdagi ishlab chiqarish avariyalari, halokatlar, tabiiy ofatlar chog‘ida qutqaruv ishlari va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish, maxsus texnik asboblar va tayyorlangan mutaxassislarni talab etuvchi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti — O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Bosh qo‘mondonining farmoyishiga ko‘ra jalb etilishi mumkin.





27-rasm. Zilzila oqibatlari.

Favqulodda vaziyatlar vazirligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘ysunuvchi tuzilmalar malakali mutaxassislarga ega bo‘lishi va maxsus texnika, asbob-uskuna, aslaha-anjom va boshqa qutqaruv vositalari bilan jihozlangan, qutqaruv ishlarini avtonom rejimda kamida 72 soat ichida ta’minlashga mo‘ljallangan doimiy holatdagi qutqaruv tuzilmalarini o‘z ichiga oladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligiga tezkor bo‘ysunuvchi respublika ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi bosh boshqarmasining alohida murakkab va uzoq davom etadigan yong‘inlarni o‘chirish bo‘yicha respublika ixtisoslashtirilgan otryadini, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Maxsus avariya-tiklash boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika tezkor tibbiy yordam ilmiy markazi va uning filiallarini, «O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasining qidiruvchi havo kemalarini, mahalliy davlat hokimiyati organlari avtotashuvchilari hududiy uyushmalari avtotransport va avtosanitariya otryadlari, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni tugatishga hamda FVDT kuchlari harakati va tadbirlarini ta’minlashga mo‘ljallangan FVDT funksional quyi tizimlarining boshqa tarkibiy bo‘linmalarini o‘z ichiga oladi.

4.7. Zararsizlantirish. Odamlarni sanitariya ishlovidan o‘tkazish

Zararsizlantirish olib borilganda maxsus tozalash tadbirlari aslaha, texnika, individual himoya vositalari, kiyim-kechak va boshqa moddiy vositalarni degazatsiyalash, dezaktivatsiyalash va dezinfeksiyalashdan iborat.

Har bir usulda zararsizlantirish bo‘yicha bajariladigan ishlar hajmiga quyidagilar kiradi.

Dezinfeksiya yoki zararsizlantirish patogen mikroblarni yo‘qotish maqsadida olib boriladi.

Davolash-profilaktika muassasalarida kimyoviy vositalardan tayyorlangan zararsizlantiruvchi kukun, tabletka ko‘rinishidagi kuchli va ishchi eritmalarni qo‘llash keng tarqalgan. Zararsizlantiruvchi vositalar maxsus shamollatgich o‘rnatilgan alohida xonalarda tayyorlanishi lozim.

Tarkibida xlor elementi bo‘lgan zararsizlantiruvchi eritmalarni tayyorlashdan oldin maxsus xalat, respirator, qalpoqcha, qo‘lqoplar kiyiladi.

Har bir usulda zararsizlantirish bo‘yicha bajariladigan ishlar hajmi quyidagilardan iborat:

Degazatsiya deganda zararlangan yuzalardan zaharlovchi moddalarni yo‘qotish (mikroblarni yo‘q qilish yoki toksinlarni parchalash), *dezaktivatsiya* deganda esa zararlangan yuzalardagi radioaktiv moddalarni yo‘qotish tushuniladi.

Maxsus tozalash *qisman* va *to‘liq* bo‘lishi mumkin.

Zararlangan joydan chiqqach, qisman maxsus tozalash o‘tkaziladi, vazifani bajarish jarayonidan keyin, kerak bo‘lgan paytda esa tabel va joydagi vositalarni ishlatib dezinfeksiya qilinadi.

Zaharlovchi moddalar bilan zararlanganda darhol odamning teri qoplamalari, kiyim-kechaklari, gazniqobning yuza qismi, aslaha va texnikaning alohida tashqi yuza uchastkalari degazatsiya qilinadi.

Radioaktiv moddalar bilan zararlangan hollarda odamning teri qoplamalari, kiyim-kechaklari, ustiga osilgan buyumlari, poyabzal, individual himoya vositalari dezaktivatsiya qilinadi.

Bakterial vositalar bilan zararlanganda esa odamning teri qoplamalari (yuz, bo‘yin, qo‘l) dezinfeksiya qilinadi.

To‘liq maxsus tozalash vazifa bajarib bo‘lingandan keyin amalga oshiriladi.

Maxsus tozalashni o‘tkazish uchun ТДП komplekti, kiyim-kechakni tozalash uchun ИДПС-69 komplekti, ДПП degazatsiyalovchi paket hamda ИПП-8, ИПП-9 kimyoga qarshi individual paket qo‘llaniladi.

Kiyim-kechaklarni degazatsiyalash uchun ИДПС-69 komplekti. Zoman, zarin, iprit kabi zaharlovchi modda va ularning bug‘lari bilan zararlangan kiyim-kechaklarni degazatsiya qilish uchun ishlatiladi.

Komplekt degazatsiya qilish uchun ИДП-1 paketidan 10 ta va kiyim-kechakni degazatsiyalovchi ДПС-1 paketidan 10 tadan karton qutiga taxlab solinadi. Safar holatida komplekt texnikada tashib yuriladi.

ДПС paketi V gazlar, zoman, iprit bilan zararlanganda degazatsiya qilish uchun mo‘ljallangan.

Masalan, jang maydonida degazatsiya qilish uchun bitta, pulemyot va granatomyotni degazatsiya qilish uchun esa ikkita paket ishlatiladi.

Degazatsiyalovchi paket zoman bug‘lari bilan zararlangan kiyim-kechaklarni degazatsiya qilish uchun ishlatiladi.

Kiyim-kechak komplektiga bir paket ishlatiladi. Kiyim-kechakni degazatsiyalash uchun paket ochiladi va xaltachaga sekin urib, kiyim-

kechakning barcha joyiga sepib chiqiladi. Bunday kiyimlar ochiq joyda silkitilib tashlanadi va gazniqob yechiladi.

ТДП komplekti maxsus texnikalarni qisman degazatsiya qilish uchun mo‘ljallangan. ТДП komplektiga ikkita avtonom uskuna, zaryadlovchi qurilma va ehtiyot qismlar kiradi.

Degazatsiya asbobining changlatgichi tozalanayotgan yuzadan 0,2—0,5 m balandroqda bo‘lishi kerak. Texnikaning ichki yuzalarini changlatib, degazatsiyalash mumkin emas. Texnikani degazatsiya va dezinfeksiyalashda quyidagi eritmalar ishlatiladi.

Texnikani ДК-4 yordamida dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiyalash uchun funksional 0,0075—0,15% yuvuvchi СФ-2 (СФ-2У) kukunining suvdagi eritmasi yozda, ammiakning suvdagi eritmasi qishda qo‘llaniladi.

Maxsus texnikani qisman degazatsiya qilish ekipaj kuchi bilan ТДП komplekti yordamida yoki degazatsiyalovchi eritmaga botirib olingan latta, erituvchilar yoki yonilg‘i bilan amalga oshiriladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan obyektlarni qisman dezaktivatsiya qilish dezaktivatsiyalovchi retseptura, eritma, yonilg‘i, suvga botirib olingan cho‘tka, latta yoki changyutgich yordamida amalga oshiriladi. Qisman dezaktivatsiyada barcha zararlangan yuza tozalanadi. To‘liq degazatsiyada esa yuza to‘liq tozalanadi.

Tozalash ishlarida zararlangan predmetlarga tegish, individual himoya vositalari yoki tugmalarni yechish taqiqlanadi.

4.8. Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya tadbirlarini tashkillashtirish va o‘tkazish

Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning tadbirlaridan biri aholini rejalashtirilgan tartibda evakuatsiya qilishdir. Bu ishlarni sifatli va tezkor bajarish uchun har bir fuqaro umumiy majburiyatlarni bilishi lozim.

Fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari.

Fuqarolar:

— xavfsizlik choralariga rioya etishlari, ishlab chiqarish va texnologiya intizomi, ekologik xavfsizlik talablari favqulodda vaziyatlar ro‘y berishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tarzda buzilishiga yo‘l qo‘ymasliklari;

— muhofazalanishning asosiy usullarini, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish yo‘llarini o‘rganishlari hamda o‘z bilim va amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirishlari;

— favqulodda vaziyatlar ro‘y berishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan avariyalar, ofatlar va halokatlar tahdididan darak beruvchi alomatlar borligi to‘g‘risida tegishli organlarga xabar berishlari;

— favqulodda vaziyatlar tahdid solgan va boshlangan sharoitlarda ogohlantirish belgilarini, harakat qilish tartibini, umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan foydalanish usullarini bilishlari;

— zarurat bo‘lganda qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni o‘tkazishda yordamlashishlari shart.

Fuqarolarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi huquqlari.

Fuqarolar quyidagi huquqlarga ega:

— favqulodda vaziyat ro‘y berganda, hayotlari, sog‘liqlari va shaxsiy mol-mulklari muhofazalanishi;

— umumiy va yakka muhofazalanish vositalaridan, mahalliy hokimiyat organlarining, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish uchun mo‘ljallangan boshqa mulkidan foydalanish;

— mamlakat hududining muayyan joylarida bo‘lganda ular duch kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatar darajasi hamda zarur xavfsizlik choralaridan xabardor bo‘lish;

— aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalari yuzasidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga murojaat etish;

— favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan zonalarda ishlaganligi uchun bepul tibbiy xizmat, kompensatsiya va boshqa imtiyozlar olish;

— favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish mobaynida majburiyatlarni bajarish chog‘ida sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya va imtiyozlar olish;

— aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish majburiyatlarini bajarish chog‘ida orttirgan kasalligi munosabati bilan mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, nogironligi mehnatda mayib bo‘lish oqibatida kelib chiqqan xodimlarga belgilangan tartibda pensiya olish;

— boquvchisini aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish majburiyatlarini bajarish chog‘ida orttirgan mayiblik, kasallikdan halok

bo‘lganligi yoki vafot etganligi munosabati bilan yo‘qotganda, mehnatda mayib bo‘lish tufayli halok bo‘lgan shaxsning oila a’zolari uchun belgilangan tartibda pensiya olish.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi tartibi va shartlari, kompensatsiyalar, imtiyozlar turlari va miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Aholi bilan reja bo‘yicha o‘quv mashqlari olib boriladi. Faqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish sohasida, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o‘tayotgan aholi guruhlari tayyorlashning asosiy vazifalari, shakllari va usullarini belgilaydi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan aholi, umumta’lim maktablari, idoraviy bo‘ysunishi va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’i nazar boshlang‘ich, o‘rta va oliy kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, respublika va viloyat bo‘ysunishida bo‘lgan shahar, tumanlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar, idoralar, mulkchilik shaklidan qat’i nazar birlashmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari hamda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasi mutaxassislari, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lmagan aholi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorgarlikdan o‘tishlari lozim.

Quyidagilar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

— aholini barcha guruhlarga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish qoidalari va asosiy usullarini, jamoa va yakka tartibda himoya vositalaridan foydalanish qoidalarini o‘rgatish;

— boshqaruvning barcha darajadagi rahbarlarini aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha harakat qilishga tayyorlash va qayta tayyorlash;

— davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislarida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni o‘tkazish uchun kuch va vositalarni tayyorlash hamda ularni boshqarish ko‘nikmalarini hosil qilish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilishda xodimlarning o‘z vazifalarini amaliy egallashi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lgan aholini tayyorlash, ish joylarida mashg‘ulotlar o‘tkazish va tavsiya qilinadigan dasturlarga muvofiq favqulodda vaziyatlarda harakat qilishni mustaqil

ravishda o‘rganish, keyinchalik o‘quv mashqlarida va mashg‘ulotlarda olingan bilim va malakalarni mustahkamlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarining o‘quvchilarini, oliy o‘quv yurtlarining talabalarini tayyorlash favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi umumta’lim dasturlariga muvofiq o‘qish vaqtida amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda aholini evakuatsiya qilish eng murakkab tadbirlardan biri hisoblanadi. Chunki evakuatsiya qilish uchun rahbariyat katta amaliy bilim va tajribaga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, evakuatsiyada ishtirok etadigan aholi chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak. Evakuatsiya og‘ir sharoitlarda, uzluksiz, kecha-yu kunduz, ob-havo o‘zgarishi sharoitida, qishda va yozda, sovuq va issiqda olib borilishi mumkin. Quyida aholi evakuatsiyasiga tayyorlanish va o‘tkazish uchun kerakli ma’lumotlar keltirilgan.





28-rasm. Aholini evakuatsiya qilish mashqlari.

Evakuatsiya — bu tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyat yuz bergan yoki favqulodda vaziyat yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan hududlardan aholini tashkiliy tarzda transportda yoki piyoda olib chiqish hamda uni vaqtincha joylashtirish tadbirlari majmuyi.

Evakuatsiya:

— o‘tkazish vaqtiga ko‘ra: oldindan o‘tkaziladigan; shoshilinch (kechiktirib bo‘lmaydigan);

— favqulodda vaziyat ko‘lami va evakuatsiya qilinadigan aholi soniga ko‘ra: lokal; mahalliy; mintaqaviy;

— aholini qamrab olishiga ko‘ra: umumiy; qisman turlarga bo‘linadi.

Cheklangan evakuatsiya (lokal) favqulodda vaziyat manbayi ehtimoliy shikastlovchi omillarining ta'sir maydoni alohida shahar mavzelari yoki qishloq aholi manzilgohlari chegarasidan chiqmay, ko'chiriladigan aholi soni bir necha ming kishidan oshmagan taqdirda o'tkaziladi.

Mahalliy evakuatsiya favqulodda vaziyat hududiga o'rtacha kattalikdagi shaharlar, yirik shaharlarning alohida tumanlari, qishloq tumanlari tushib qolgan hollarda o'tkaziladi. Bunda ko'chiriladigan aholi soni bir necha mingdan o'n minglab kishiga yetishi mumkin.

Mintaqaviy evakuatsiya shikastlovchi omillar anchagina keng maydonga yoyilib, yirik shaharlarni ham o'z ichiga olgan, aholisi juda zich joylashgan bir yoki bir necha mintaqa hududini qamrab olgan hollarda amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyat hududida qolgan va evakuatsiya qilinadigan aholi soniga ko'ra evakuatsiya ikki turga ajratiladi:

Umumiy evakuatsiya favqulodda vaziyat hududidan aholining barcha toifasi olib chiqilishini nazarda tutadi.

Qisman evakuatsiya favqulodda vaziyat hududidan mehnatga layoqatsiz aholi, maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab, litsey, kollej, oliygoh o'quvchi va talabalari olib chiqilishi zarur bo'lganda o'tkaziladi.

Odamlar hayoti va salomatligi uchun xavf mavjud ekanligi aholini evakuatsiya qilish haqida qarorga kelish uchun asos hisoblanadi.

Evakuatsiya o'tkazish haqidagi qarorga kelish huquqiga hududida favqulodda vaziyat yuz bergan yoki prognoz qilinayotgan hokimliklar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlari (fuqaro muhofazasi boshliqlari) ega.

Favqulodda vaziyat ko'lami va evakuatsiyaning muddatiga ko'ra u shoshilinch va oldindan o'tkaziladigan bo'lishi mumkin.

Kechiktirmay qaror qabul qilish talab qilinadigan hollarda lokal xarakterga ega shoshilinch evakuatsiya xavf ehtimoli bor obyektning navbatchi dispetcherlik xizmati boshlig'i ko'rsatmasiga binoan o'tkazilishi ham mumkin.

Aholi evakuatsiyasini ta'minlash rejalari tegishli doimiy faoliyat yurituvchi boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqiladi.

Aholi evakuatsiyasi ishlab chiqarish-hududiy yoki hududiy tamoyilga muvofiq rejalashtiriladi, tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish-hududiy tamoyil favqulodda vaziyat hududidan ishchilar, xizmatchilar, talabalar, o'quvchilarni, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar



29-rasm. Aholini evakuatsiya qilingan hududga joylashtirish mashqlari.

bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lmagan aholini yashash joyidan transportda (piyoda) olib chiqishni nazarda tutadi.

Hududiy tamoyil ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lmagan aholini yashash joyidan mahalla qo‘mitalari orqali olib chiqishni ko‘zda tutadi.

Ayrim hollarda evakuatsiya hududiy tamoyil asosida, ya’ni evakuatsiya e’lon qilingan vaqtda bevosita aholi qayerda bo‘lsa, o‘sha yerdan amalga oshiriladi.

Aholini favqulodda vaziyat hududidan evakuatsiya qilish har bir holda favqulodda vaziyatning yuzaga kelish va rivojlanish sharoitlari, shikastlovchi omillar ta’sirining xarakteri va hudud vaqt ko‘rsatkichlari bilan aniqlanadi.

Favqulodda vaziyat xavfi to‘g‘risida ishonchli prognoz olinganidan so‘ng tayyorgarlik tadbirlari o‘tkaziladi. Bundan maqsad favqulodda vaziyat hududidan aholini tashkiliy tarzda transportda yoki piyoda olib chiqib ketish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishdir. Ular qatoriga:

— evakuatsiya organlarini shay holatga keltirish va ish tartibini aniqlashtirish;

— evakuatsiya qilinadigan, jumladan, transportda va piyoda evakuatsiya qilinadigan aholi sonini aniqlash va ularni piyoda yo‘nalishlariga biriktirish;

— evakuatsiya yo‘nalishlarini tayyorlash, yo‘l belgilari va ko‘rsatkichlarini o‘rnatish, to‘xtash joylarini jihozlash;

— yig‘ma evakuatsiya punkti, transportga chiqarish-tushirish punktlarini tayyorlash;

— xabar berish va aloqa tizimlari shayligini tekshirib ko‘rish;

— mavjud muhofaza inshootlarini shay holatga keltirish kiradi. Evakuatsiya o‘tkazish to‘g‘risida xabar olingandan so‘ng quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

— evakuatsiya organlari, korxona, tashkilot rahbarlariga, shuningdek, aholiga evakuatsiya boshlangani va o‘tkazilish tartibi to‘g‘risida xabar berish;

— evakuatsiya organlarini yoyish va shay holatga keltirish;

— xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilinadigan aholini yig‘ish va jo‘natishga tayyorlash;

— piyoda kolonnalarini shakllantirish va boshlang‘ich punktlarga olib chiqish, transportlarga chiqarish joylariga transport vositalarini keltirish va aholini chiqarish;

— evakuatsiya qilingan aholini avvaldan hayot faoliyatining birinchi navbatdagi turlari ta’minlab qo‘yilgan xavfsiz joylarda qabul qilib olish va joylashtirish.

Zilzilada evakuatsiya yo mahalliy, yo mintaqaviy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Evakuatsiya o‘tkazish muddati yo‘l-transport imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Evakuatsiya ishlab chiqarish-hududiy tamoyil asosida bitta bosqichda zarar ko‘rgan hududlarda yig‘ma evakuatsiya punktlarini yoyish orqali amalga oshiriladi.

Radioaktiv zararlanishda evakuatsiya yo mahalliy, yo mintaqaviy tarzda, hududiy tamoyil asosida, ayrim obyektlar (bolalar uylari, psixonevrologik tibbiyot muassasalari, internat va h.k.)larni istisno qilgan holda o‘tkaziladi. Evakuatsiya 2 bosqichda: 1-transportga chiqqan joydan oraliq evakuatsiya punktlarigacha; 2-oraliq evakuatsiya punktidan rejadagi joylargacha o‘tkaziladi. Oraliq evakuatsiya punktida «toza transport»ga o‘tkazish amalga oshiriladi.

Kimyoviy avariyada bevosita iqtisodiyot obyekti yaqinida yashovchi aholi vaqt tanqisligi bois, odatda, xavfli hududdan olib chiqib ketilmaydi, aksincha, pana joylarda va germetiklangan xonalarda berkinadi.

Seldan xavfli hududlardan evakuatsiya sel oqimi shakllanishi xavfi yuzaga kelganida, shakllanayotgan davrda, alohida hollarda sel oqimi to‘xtaganidan so‘ng o‘tkazilishi mumkin.

Xabar berish oldindan (prognoz bo‘yicha) yoki sel boshi signal ustunidan o‘tganidan so‘ng beriladi.

Qor ko‘chkisi xavfi mavjud hududlardan evakuatsiya qor ko‘chkisi tushishi xavfi yuzaga kelganida, ular tushishi to‘xtaganidan so‘ng (hayotiy

ta’minot obyektlari vayron bo‘lganida) o‘tkaziladi. Evakuatsiya hududiy tamoyil asosida tashkil etiladi va rejali xarakterga ega bo‘lishi, buning iloji bo‘lmagan hollarda shoshilinch bo‘lishi lozim.

Halokatli suv bosishlari va suv toshqinlarida evakuatsiya gidrotexnik inshoot yorilganda yoki suv havzalaridagi suv sathi oshganda, shuningdek, suv obyektlari va hayotiy ta’minot tizimlari ishdan chiqqanida o‘tkaziladi. Evakuatsiya lokal yoki mahalliy xarakterga ega bo‘lib, oldindan o‘tkaziladigan evakuatsiyada yig‘ma evakuatsiya punktlari (ishlab chiqarish hududiy tamoyilida) yoyiladi. Vaqt tanqis bo‘lgan hollarda esa evakuatsiya hududiy tamoyil asosida 1 yoki 2 bosqichda oraliq evakuatsiya punktlarini yoyish yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Aholi evakuatsiyasini rejalashtirish, tashkil qilish va o‘tkazish bevosita shaharlar, tumanlar va viloyatlarning evakuatsiya organlari, davlat organlari, favqulodda vaziyatlar boshqarma va bo‘limlariga yuklatiladi. Evakuatsiya organlariga:

— evakuatsiya komissiyasi (EK);
— qabul qilish evakuatsiyasi komissiyalari (QQEK);
— yig‘ma evakuatsiya punktlari (YEP);
— qabul qilish evakuatsiya punktlari (QQEP);
— oraliq evakuatsiya punktlari (OEP);
— piyoda evakuatsiya yo‘nalishlarini boshqarish guruhlari;
— evakuatsiya qilinadigan aholini transportda (piyoda) olib chiqish tezkor guruhlari kiradi.

Nazorat savollari

1. Nafas olish a’zolarini himoya qilish vositalariga nimalar kiradi? Ularning himoya qilish xossalari nimalarga asoslangan?
2. Terini himoya qilish vositalariga misollar keltiring. Ular nimalardan tayyorlanadi?
3. Aholini radiatsiyadan himoya qilish uchun qanday inshootlar ko‘zda tutilgan? Ular qanday jihozlanadi va quriladi?
4. Epizootik va epifitotik favqulodda vaziyatlar deganda nimani tushunasiz?
5. Qutqaruv ishlarini tashkil etish va o‘tkazish asoslari nimalardan iborat?
6. Odamlar qanday yo‘llar bilan sanitariya ishlovidan o‘tkaziladi?
7. Evakuatsiya qaysi organlar tomonidan amalga oshiriladi.

1-bob. QUROLSIZ BAJARILADIGAN SAF AMALLARI VA HARAKATLARI

1.1. Joyda turganda va qurolsiz harakat qilganda harbiycha salom berish


Bosh kiyimsiz salomlashish. Harbiycha salom berish aniq, mardona, qadni rostlash va harakat qilish qoidalariga rioya qilgan holda bajariladi.

Bosh kiyimsiz, safdan tashqarida va boshliq (unvoni katta kishi)dan uch-to‘rt qadam narida turgan vaqtda harbiycha salom berish uchun qad rostlanadi, boshliq (unvoni katta)ning yuziga qarab, bosh u ketayotgan tomonga buriladi.

Bosh kiyim kiyilganda salomlashish. Agar bosh kiyim kiyilgan bo‘lsa, o‘ng qo‘lni eng oson (qisqa) yo‘l bilan bosh kiyimga (chakkaga) shunday tekkizish kerakki, unda barmoqlar jips, kaft to‘g‘ri bo‘ladi, o‘rta barmoq bosh kiyimning quyi qismiga (soyabon yoniga) (chakkaga) tegadi, tirsak esa yelka chizig‘i va balandligida bo‘ladi (30-rasm), bosh boshliq (unvoni katta) tomon burilganda, qo‘lning bosh kiyim (chakkaning) yonidagi holati o‘zgarmaydi (31-rasm).



30-rasm. Joyida turib, harbiycha salom berish.



31-rasm. Harakat paytida harbiycha salom berish.

Boshliq (lavozimi katta) harbiychasiga salom berayotgan harbiy xizmatchining yonidan o‘tib ketayotganda, boshini to‘g‘ri tutib, shu vaqtning o‘zida qo‘lni tushirishi kerak.

Safdan tashqaridagi bosh kiyimsiz harakat chog‘ida harbiycha salom berish. Safdan tashqaridagi bosh kiyimsiz harakat chog‘ida harbiycha salom berish uchun boshliqqa uch-to‘rt qadam qolganda oyoqni yerga qo‘yish bilan bir vaqtda qo‘llar harakati to‘xtatiladi, bosh boshliq (unvoni katta) tomon buriladi, uning yuziga qarab, harakat davom ettiriladi. Boshliq (unvoni katta)ning yonidan o‘tib bo‘lgandan so‘ng, bosh to‘g‘ri tutilib, qo‘llar harakati davom ettiriladi.

Safdan tashqaridagi bosh kiyim kiyilgan paytda harakat chog‘ida harbiycha salom berish. Safdan tashqaridagi bosh kiyim kiyilgan paytda oyoqni yerga qo‘yish bilan bir vaqtda o‘ng qo‘lning uchi bosh kiyimga (chakkaga) taqaladi, chap qo‘l esa yonboshga tekkizilib, harakatsiz ushlab turiladi; boshliq (unvoni katta)ning yonidan o‘tib bo‘lgach, bir vaqtning o‘zida chap oyoq yerga tegishi bilan bosh to‘g‘ri tutilib, o‘ng qo‘l pastga tushiriladi.

Safdan tashqaridagi boshliq (unvoni katta)ni quvib o‘tishga to‘g‘ri kelib qolganda harbiycha salom berish. Boshliq (unvoni katta)ni quvib o‘tishga to‘g‘ri kelib qolganda, undan bir qadam o‘zish bilanoq, harbiycha salom beriladi. Ikki qadam o‘zgach, boshni to‘g‘ri tutib, o‘ng qo‘l pastga tushiriladi.

Agar harbiy xizmatchining qo‘llari yuk bilan band bo‘lsa, boshni boshliq (unvoni katta) tomon burish bilan harbiycha salom beriladi.

1.2. Safdan chiqish va safga qaytish. Boshliqning oldiga borish va uning oldidan ketish

Harbiy xizmatchi safdan chiqishi uchun **«Oddiy askar Ahmedov, safdan falon qadam chiqing»** yoki **«Oddiy askar Rahimov. Oldimga (oldimga yuguring)»** komandasi beriladi. O‘z familiyasini eshitgan harbiy xizmatchi **«Men»**, safdan chiqish to‘g‘risida komanda (buyruq) berilgach, **«Xo‘p bo‘ladi»**, deb javob beradi.

Birinchi komanda berilganda, harbiy xizmatchi shaxdam qadam bilan aytilgan masofaga chiqadi, bunda u o‘z qadamini birinchi sherengadan boshlab sanaydi, to‘xtab, safga tomon buriladi.

Ikkinchi komanda bo‘yicha harbiy xizmatchi birinchi sherengadan to‘g‘ri bir-ikki qadam yurib, yurib ketayotgan joyida boshliq tomon buriladi, eng qisqa yo‘ldan shaxdam qadam bilan (yugurib) uning oldiga boradi, unga

ikki-uch qadam qolganda to‘xtab, yetib kelgani to‘g‘risida ma’lum qiladi. Masalan, **«O‘rtoq leytenant, oddiy askar Ahmedov buyrug‘ingizga binoan keldi»**.

Harbiy xizmatchi ikkinchi sherengadan chiqmoqchi bo‘lsa, chap qo‘lini sekin o‘zidan oldingi qatorda turgan xizmatchining yelkasiga qo‘yadi, oldinda turgan harbiy xizmatchi oldinga chap oyog‘i bilan bir qadam tashlab, o‘ng oyog‘ini chap oyog‘i yoniga qo‘ymasdan o‘ng tomonga yana bir qadam tashlaydi, orqasidagi harbiy xizmatchini o‘tkazib yuborib, yana o‘z joyiga qaytib turadi.

Birinchi sherengada turgan harbiy xizmatchi safdan chiqqan vaqtda uning o‘rnini orqasida, ya’ni ikkinchi sherengada turgan harbiy xizmatchi egallaydi.

Harbiy xizmatchi ikki, uch (to‘rt) nafardan kolonnadan, dastlab o‘ngga (chapga) bir qadam qo‘yib, eng yaqin qanotga chiqadi. Agar uning yonida boshqa bir harbiy xizmatchi turgan bo‘lsa, u o‘ng (chap) oyog‘i bilan bir qadam yonga tashlab, o‘ng (chap) oyog‘ini chap (o‘ng) oyog‘i yoniga qo‘ymay, u bilan orqaga bir qadam tashlaydi va safdan chiqayotgan harbiy xizmatchini o‘tkazib yuboradi.

Harbiy xizmatchi safga qaytishi uchun **«Oddiy askar Rahimov. Safga turing»** yoki faqat **«Safga turing»** komandasi beriladi.

«Oddiy askar Qosimov» komandasi berilgach, safga yuzlanib turgan harbiy xizmatchi o‘z familiyasini eshitishi bilan: **«Men»**, deb javob beradi, **«Safga turing»** komandasi berilganda esa, agar u qurolsiz yoki «orqaga» holatidagi quroli bilan bo‘lsa, o‘ng qo‘lini bosh kiyimiga (chakkaga) taqab: **«Xo‘p bo‘ladi»**, deb javob beradi, so‘ngra harakat qilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishga burilib, bir qadam yurishi bilan qo‘lini tushiradi, eng yaqin yo‘ldan safdagi o‘z joyiga borib turadi.

Agar **«Safga turing»** komandasi berilsa, harbiy xizmatchi boshlig‘i tomon burilmay, safga qaytadi.

Harbiy xizmatchi safda turmagan vaqtda boshliqning yoniga borayotib, besh-olti qadam qolganda shaxdam qadam tashlay boshlaydi, ikki-uch qadam berida to‘xtaydi, shu vaqtning o‘zida o‘ng qo‘lini bosh kiyimiga (chakkaga) taqab, yetib kelganini ma’lum qiladi. Ma’lum qilgach, qo‘lini tushiradi.

Nazorat savollari

1. Bosh kiyimsiz salomlashish qanday bajariladi?
2. Bosh kiyim kiyilganda salomlashish tartibini so‘zlang.
3. Harakat vaqtida harbiy salom berish tartiblarini bayon eting.

2-bob. SEKSIYA VA GURUHLARNING SAF TORTISHI. YURISH SAFI VA YOYIQ SAF

2.1. Seksiyaning saf tortishi. Yoyiq saf

Seksiyaning yoyiq safi bir sherengali yoki ikki sherengali bo‘lishi mumkin.

Seksiyaning bir (ikki) sherengali tizilishi **«Seksiya, bir (ikki) sherengaga SAFLAN»** komandasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Seksiya komandiri qad rostlab turib, komanda bergach, saf qarab turgan tomonga yuzlanadi; seksiya komandirning chap yonidan, 32 va 33-rasmlarda ko‘rsatilganidek, shtatga asosan, saf tortadi.


Safga tizilish boshlanishi bilan seksiya komandiri safdan chiqadi va seksiyaning qanday safga tizilishini nazorat qiladi. Seksiyada odamlar soni to‘rt va undan kam bo‘lganda hamisha bir sherengaga saflaniladi.

Beriladigan komandalar va ularni bajarish qoidalari. Zarur hollarda seksiyadagilarga tekislanish uchun **«TEKISLAN»**, **«Chapga qarab TEKISLAN»** komandalari beriladi.

«TEKISLAN» komandasi berilganda, o‘ng qanotda turgan harbiy xizmatchidan boshqa hamma boshini o‘ng tomonga buradi (o‘ng quloq chap quloqdan balandroq, iyak biroz ko‘tarilgan bo‘ladi), tekislanganda har bir



32-rasm. Seksiyaning bir sherengali yoyiq safi.



33-rasm. Seksiyaning ikki sherengali yoyiq safi.

harbiy xizmatchi o‘zidan boshlab sanaganda, to‘rtinchi harbiy xizmatchining ko‘kragini ko‘rishi kerak. **«Chapga qarab TEKISLAN»** komandasi berilganda, chap qanotda birinchi bo‘lib turgan harbiy xizmatchidan boshqa hamma boshini chapga buradi (chap quloq o‘ng quloqdan balandroq, iyak biroz ko‘tarilgan bo‘ladi).

Tekislanish paytida harbiy xizmatchilar biroz oldinga, orqaga yoki yonlariga siljishi mumkin.

Tekislanib bo‘lgach, **«ROSTLAN»** komandasi beriladi, unga ko‘ra harbiy xizmatchilar boshini to‘g‘ri tutadi.

Seksiya tekislanib ortga burilgach, komanda berishda qaysi tomonga qarab tekislanish ta’kidlanadi, masalan, **«O‘ngga (chapga) qarab TEKISLAN»**.

«ERKIN» va **«KIYIM-BOSH TO‘G‘RILANSIN»** komandalari berilganda, harbiy xizmatchilar turgan joyidan jilmasdan, kiyim-kechaklarini to‘g‘rilaydi.

«Seksiya — TARQAL» komandasi berilganda, harbiy xizmatchilar safdan chiqishadi. Seksiyani yig‘ish uchun **«Seksiya — OLDIMGA»** komandasi beriladi, uni eshitgan harbiy xizmatchilar yugurib komandirning yoniga kelishadi va uning qo‘shimcha komandasi bilan safga tizilishadi.

Barcha harbiy xizmatchilar komanda va buyruqlarga binoan (**«O‘ng-GA»**, **«Chap-GA»**, **«Ort-GA»**) tekislikni saqlagan holda seksiya bo‘yicha birgalikda u yoki bu tomonga buriladilar. Seksiya ikki sherengali safda o‘ng tomonga burilgandan keyin seksiya komandiri o‘ngga (chapga) yarim qadam, ortga burilganda esa oldinga bir qadam tashlaydi.

Bir joyda turgan seksiyani yoyish uchun **«Seksiya, oralar o‘ngga (chapga, o‘rtadan) falon qadam kengay (yugur, oralar kengaysin)»** komandasi beriladi. Darrov bajariladigan komanda berilganda harbiy xizmatchilar ko‘rsatilgan tomonga buriladi, oyoqlar juftlanishi orqasidan kelayotgan kishiga yelkasi osha qarab, undan uzoqlab ketmasdan tez yuradi (yuguradi); orqasidan kelayotgan kishi to‘xtagandan keyin komandada aytilgan masofaga yuriladi va chapga (o‘ngga) buriladi.

O‘rtadan yoyilishda kim qolishi aytiladi. O‘rtada qoladigan harbiy xizmatchi o‘z familiyasini eshitishi bilan: **«Men»** deb, chap qo‘lini oldinga cho‘zib, pastga tushiradi.

Seksiya tekislanayotganda yoyilish vaqtida belgilangan oraliq masofa (interval) saqlanib qoladi.

Seksiyani yig‘ish uchun turgan joyda **«Seksiya, o‘ngga (chapga, o‘rtaga) JIPSLAN (yugur, jipslan)»** komandasi beriladi. Darrov bajariladigan komanda berilganda, o‘ziga qarab jipslanishi kerak bo‘lgan harbiy xizmatchidan boshqa harbiy xizmatchilar u tomonga buriladi, shundan so‘ng mayda qadam bilan tez yurib (yugurib) jipslanadigan saf uchun belgilangan intervalga yetib kelishadi, yetib kelgach, mustaqil ravishda to‘xtab, chapga (o‘ngga) burilishadi.

Seksiya harakat qilishi uchun **«Seksiya, qadam BOS»** (**«Shaxdam qadam BOS». «YUGUR»**) komandalari beriladi. Zarur hollarda harakat yo‘nalishi va tekislanish tarafi aytiladi: masalan, **«Seksiya, falon narsaga qarab, o‘ngga (chapga) TEKISLAN»**, **«Qadam BOS» («Shaxdam qadam BOS», «YUGUR»)**.

«QADAM BOS» komandasi berilganda, barcha harbiy xizmatchilar tekislikni, interval va oraliq masofalarni saqlagan holda birgalikda yura boshlaydi.

Agar tekislanish tomoni aytilmagan bo‘lsa, boshni burmasdan o‘ng tomonga qarab, tekislanish amalga oshiriladi.

Seksiyani harakatdan to‘xtatish uchun **«Seksiya, TO‘XTA»** deb komanda beriladi.

Safda turgan vaqtda u yoki bu tomonga bir necha qadam siljish uchun **«Seksiya, o‘ng-GA (chapga)»**, saf burilganda keyin esa **«Falon qadam olg‘a qadam BOS»** deb komanda beriladi. Harbiy xizmatchilar aytilgancha qadam bosgach, **«Seksiya, chap-GA (o‘ngga)»** komandasiga ko‘ra dastlabki holatga buriladi.

Oldinga yoki orqaga bir necha qadam yurish uchun **«Ikki qadam olg‘a (ortga) qadam BOS»** komandasi beriladi. Komanda berilgach, ikki qadam olg‘a (ortga) bosiladi va oyoqlar juftlanadi. O‘ngga, chapga va ortga qadam bosganda, qo‘llar harakatlantirilmaydi. Zarur hollarda erkin yurish uchun **«ERKIN»** komandasi beriladi. Yelkani burish bilan harakat yo‘nalishini o‘zgartirish **«Seksiya, chap (o‘ng) yelka OLDINGA»** (harakat chog‘ida esa **«YUR»**) deb komanda beriladi.

Ushbu komanda berilganda, seksiya chap (o‘ng) yelkani oldinga chiqara boshlaydi:

— oldinga chiqadigan qanotda turgan kishi boshini old tomon burib, to‘liq qadam tashlaydi, harakat chog‘ida joyidan qimirlamaydigan qanotda turganlarni siqib qo‘ymaydigan usulda yuradi;

— qimirlamaydigan qanotda turgan kishi joyida qadam tashlab, oldinga chiqayotgan qanotdagilarga mos ravishda asta-sekin chapga (o‘ngga) burila boshlaydi;

— qolganlar oldga chiqib, burilayotgan tomonga boshni burmasdan qaragan holda old tekislikni saqlaydi, yurmayotgan qanotda turgan qo‘shnisiga tirsagi tegib turadi, o‘sha qanotga qancha yaqin turgan bo‘lsa, shuncha kichik qadam tashlaydi.

Seksiya yetarli darajada burilgandan keyin **«TO‘G‘RIGA»** yoki **«Seksiya — TO‘XTA»** komandasi beriladi.

Seksiyani bir sherengadan ikki sherengaga qayta tizish uchun **«Seksiya, bir-ikki deb SANA»** komandasi bo‘yicha oldindan hisob-kitob qilinadi.

Ushbu komanda bo‘yicha har bir harbiy xizmatchi o‘ng qanotdan boshlab tezda navbati bilan chap yonida turgan harbiy xizmatchi tomon boshini burib, o‘z raqamini aytadi va zudlik bilan boshini to‘g‘ri tutadi; chap qanotda turgan harbiy xizmatchi boshini burmaydi.

Umumiy sanash ham xuddi shu tartibda o‘tkaziladi, buning uchun **«Seksiya, tartib bilan SANA»** komandasi beriladi.

Ikki sherengali safda ikkinchi sherenganing chap qanotida turgan harbiy xizmatchi safni umumiy sanash nihoyasiga yetgach, **«To‘liq»** yoki **«To‘liqsiz»** deb ma’lum qiladi.

Seksiyani bir sherengadan ikki sherengaga qayta tizish uchun **«Seksiya, ikki sherengaga SAFLAN»** komandasi beriladi.

Darrov bajariladigan komandaga ko‘ra, ikkinchi raqamlilar chap oyoq bilan bir qadam orqaga tashlaydi, o‘ng oyoqni chap oyoqning yoniga qo‘ymasdan, o‘ng tomonga birinchi raqamlilarning orqasiga turish uchun bir qadam tashlanadi, chap oyoq o‘ng oyoq yoniga qo‘yiladi.

Seksiyani turgan joyida tig‘iz ikki sherengadan bir sherengali safga tizish uchun harbiy xizmatchilar bir qadam yoyiladi, shundan so‘ng **«Seksiya, bir sherengaga SAFLAN»** komandasi beriladi.

Darrov bajariladigan komandaga ko‘ra, ikkinchi raqamlilar chap oyoq bilan bir qadam chapga, o‘ng oyoqni chap oyoqning yoniga qo‘ymasdan, o‘ng oyoq bilan bir qadam oldinga yuradi va chap oyoqni o‘ng oyoqning yoniga oladi.

2.2. Yurish safi

Seksiyaning yurish safi bir yoki ikki nafardan kolonnadan iborat bo‘lishi mumkin.

Beriladigan komandalar va ularni bajarish qoidalari. Joyida turgan seksiyaning bir nafardan (ikki nafardan) kolonnaga saflanishi **«Seksiya, bir (ikki) kolonnaga «SAFLAN»** komandasi bilan amalga oshiriladi. Seksiya komandiri qaddini rostlab, komanda bergach, harakat yo‘nalishi tomon yuzlanadi, seksiya esa shtatga asosan, 34 yoki 35-rasmlarda ko‘rsatilgandek saflanadi. To‘rt nafar va undan kam bo‘lgan seksiya bir qatorli kolonnaga saflanadi.

Seksiyaning yoyiq safdan kolonnaga o‘tishi seksiyaning **«Seksiya, o‘ng-GA»** komandasi bo‘yicha o‘ngga burilishi bilan amalga oshiriladi. Ikki sherengali saf o‘ngga burilishida seksiya komandiri o‘ngga yarim qadam tashlaydi.

Seksiya kolonnadan yoyiq safga **«Seksiya, chap-GA»** komandasi bilan qayta tiziladi. Seksiya ikki qatorli kolonnadan turgan vaqtda buriladigan bo‘lsa, seksiya komandiri oldinga yarim qadam tashlaydi.

Seksiya bir kolonnadan ikki kolonnaga **«Seksiya, ikki kolonna bo‘lib qadam BOS»** (yurib ketayotganda — **«Ikki kolonna bo‘lib qadam BOS»)** komandasi bilan tiziladi.


Darrov bajariladigan komanda berilganda, seksiya komandiri (yetakchi) yarim qadam yuradi, ikkinchi raqamlilar o‘ngga chiqib, qadamlarni boshqalarga mos tashlab, 35-rasmda ko‘rsatilganidek kolonnadagi joylarini egallaydi; seksiya **«TO‘G‘RIGA»** yoki **«Seksiya, TO‘XTA»** komandasi berilgunga qadar, mayda qadam bilan yurib boraveradi.

Seksiya ikki kolonnadan bir kolonnaga **«Seksiya, bir kolonna bo‘lib qadam BOS»** (yurib ketayotganda — **«Bir kolonna bo‘lib qadam BOS»**) komandasiga ko‘ra qayta tiziladi.

Darrov bajariladigan komandaga ko‘ra, seksiya komandiri (yetakchi) to‘liq qadam bilan, qolganlar esa mayda qadam bilan yuradi.



34-rasm. Seksiyaning bir qatorli yurish safi.



35-rasm. Seksiyaning ikki qatorli yurish safi.

Joy bo‘shashi bilan ikkinchi raqamlilar boshqalarning qadam bosishiga mos ravishda yura turib, birinchi raqamlilarning orqasiga o‘tadi va to‘liq qadam tashlay boshlaydi.

Kolonnaning harakat yo‘nalishini o‘zgartirish uchun quyidagi komandalar beriladi:

— **«Seksiya, o‘ng (chap) yelka OLDINGA»** komandasiga ko‘ra, yetakchi **«TO‘G‘RIGA»** komandasi berilgunga qadar yurib ketayotib chap (o‘ng) tarafga burilaveradi, qolganlar esa unga ergashishadi;

— **«Seksiya, ORTIMDAN» («Seksiya, ortimdan yugurib qadam BOS»)** komandasiga ko‘ra, seksiya komandirining orqasidan ergashadi.

2.3. Guruhning saf tortishi. Yoyiq saf

Guruhning yoyiq safi bir sherengali yoki ikki sherengali bo‘lishi mumkin.

Beriladigan komandalar va ularni bajarish qoidalari. Guruh yoyiq safga **«Guruh, bir sherengaga (ikki sherengaga) SAFLAN»** komandasi bo‘yicha tiziladi.

Guruh komandiri qaddini rostlab, komanda bergach, safning old tomoniga qarab yuzlanadi; seksiyalar 36 va 37-rasmlarda ko‘rsatilganidek

komandirning chap tomonidan saf tortishadi. Ikki sherengali saf tizilganda har bir seksiyaning so‘nggi qatori to‘liq bo‘lishi kerak.

Guruh komandiri safga tizilish boshlanishi bilan safdan chiqadi va qo‘l ostidagilarning xatti-harakatini kuzata boshlaydi.


Seksiyalar tarkibi to‘rt va uch kishilik bo‘lgan guruh, 38-rasmda ko‘rsatilganidek, ikki sherengali safga tiziladi.

Guruhning yoyiq safdagi tekislanishi, burilishi, qayta saf tortishi va boshqa harakatlari seksiya uchun belgilangan qoida va komandalar bo‘yicha amalga oshiriladi.


Guruhning bir sherengali safdan ikki sherengali safga tizilishi yoki buning aksi seksiya uchun ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Guruh birinchi va ikkinchi seksiyalarga bo‘linganda uning komandirlari ko‘rsatilgan usullarni bajarishda hisobga olinmaydi.



36-rasm. Guruhning bir sherengali yoyiq safi.



37-rasm. Guruhning ikki sherengali yoyiq safi.



a *b*

38-rasm. Guruhning bo‘limlar tarkibiga ko‘ra ikki sherengali yoyiq safi:
a — to‘rt kishidan; *b* — uch kishidan.





39-rasm. Bosh kiyimlarni kiyish va yechish tartibi.



40-rasm. Qad rostlab turish (old va yon tomondan ko‘rinishi).



41-rasm. «Tekislan» komandasini bajarish.



42-rasm. Harbiycha salomlashishni bajarish.




43-rasm. Oyoqni burish holati.




1 2 3 4 5

44-rasm. Harakatda aylanib burilish.



45-rasm. Shaxdam qadam tashlash harakati.





46-rasm. Sherenga va kolonna bo‘lib saf tortish.

2.4. Guruhning saf tortishi. Yurish safi


Guruhning yurish safi uch (to‘rt seksiyadan tarkib topgan guruhlarda — to‘rt), ikki yoki bir kolonnadan bo‘lishi mumkin (47, 48 va 49-rasmlar).

Beriladigan komandalar va ularni bajarish qoidalari. Bir joyda turgan guruh **«Guruh, uch (ikki) kolonnaga SAFLAN»** komandasiga ko‘ra uch (ikki) kolonnaga tiziladi. Ushbu komandaga ko‘ra seksiyalar 47-rasmda ko‘rsatilganidek saflanadi.


Guruh seksiyalarining to‘rt va uch kishidan iborat tarkibining ikki kolonnaga tizilib yurish safi 50-rasmda ko‘rsatilgan.

Guruh yoyiq sherengali safdan bir kolonnaga (ikki sherengali safdan ikki kolonnaga) o‘ngga burilish bilan qayta saflanadi.


Guruh yoyiq ikki sherengali safdan bir kolonnaga (bir sherengali safdan ikki kolonnaga) **«Guruh, o‘ng-GA»**, **«Bitta (ikki) kolonna bo‘lib qadam BOS»** (yurib ketayotganda — **«Bir kolonna bo‘lib qadam BOS»**) komandasi bo‘yicha saf tortadi.




47-rasm. Guruhning yurish safi:
a — uch nafardan kolonna;
b — to‘rt nafardan kolonna.



48-rasm. Guruhning yurish safi:
ikki nafardan kolonna.



49-rasm. Guruhning bir nafardan kolonnadagi yurish safi.



50-rasm. Guruhning bo‘limlar miqdori bo‘yicha yurish safi: *a* – to‘rt nafardan kishi; *b* – uch nafardan kishi.

«Qadam — BOS» komandasi berilganda, birinchi seksiya yurib ketayotib, bir kolonnaga (ikki kolonnaga) saflanadi; qolgan seksiyalar bir (ikki) kolonnaga qayta tizilib, birinchi seksiyaning ortidan ergashadi.

Guruh yoyiq ikki sherengali safdan uch (ikki) kolonnaga **«Guruh, o‘ng-GA»**, (**«Uch (ikki) kolonna bo‘lib qadam BOS»**) komandasi bo‘yicha qayta tiziladi.

Nazorat savollari

1. Yoyiq saf amalda qanday ko‘rinishini tushuntiring.
2. Askarlarni yoyiq safga saflash uchun qanday komandalar beriladi va ularni bajarish qoidalari nimalardan iborat?
3. Askarlarni yurish safiga saflash uchun qanday komandalar beriladi va ularni bajarish qoidalari nimalardan iborat?
4. Guruhni yoyiq va yurish safiga saflash uchun qanday komandalar beriladi va ularni bajarish qoidalari nimalardan iborat?

III BO‘LIM. HARBIY XIZMATNING HUQUQIY ASOSLARI

1-bob. OLIY HARBIY O‘QUV YURTLARI

1.1. Harbiy o‘quv yurtlari

Respublikamizda ofitser kadrlarni tayyorlash oliy harbiy o‘quv muassasalarida amalga oshiriladi.

Bular Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonligi bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti, Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Mudofaa vazirligining aloqachi ofitserlar tayyorlovchi maxsus fakulteti va Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi harbiy-tibbiyot fakultetlaridir.

ega bo‘lsa, Jizzax aviatsiya bilim yurti va maxsus fakultet hali yosh, ular mustaqillik yillarida tashkil etildi. Harbiy mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun harbiy bilim yurtlarimizda tayyorlanayotgan mutaxassislar tarkibi ham kengaytirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

(Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti)

Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti 1918-yilning 12-iyulida tashkil topgan.

1993-yildan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarori asosida bilim yurtining tizimi takomillashtirildi va ko‘p tarmoqli asosda ofitser kadrlarni tayyorlash ishlari boshlandi. Bilim yurtida motoo‘qchi, razvedka va chegara bo‘linmalari uchun ofitserlar va shuningdek, komandirlarning tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari tayyorlana boshlandi.

Qo‘mondonlik qilishga qodir, tashkilotchilik va boshqaruv ko‘nikmalariga ega, davlat mustaqilligi g‘oyalariga sodiq, keng dunyoqarashga,

bilimga, Vatan va Qurolli Kuchlar uchun mag‘rurlik hissiga ega ofitserlarni tayyorlash bilim yurtining asosiy vazifasidir.

2004-yilda bilim yurtining negizida taktik zveno va mahalliy harbiy boshqaruv organlari ofitserlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tashkil qilindi. 2007-yildan buyon TOUQBY negizida Mudofaa vazirligi oliy o‘quv muassasalari o‘qituvchilarining pedagogik darajasini oshirish bo‘yicha uslubiy markaz o‘z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda.

O‘rta Osiyo mintaqasidagi eng keksa va mashhur harbiy bilim yurtida quyidagi yo‘nalishdagi mutaxassisliklar bo‘yicha ofitserlar tayyorlab kelingan:

— motoo‘qchi va chegara qo‘shinlari bo‘linmalari komandirlari;

— razvedkachi bo‘linmalar komandirlari;

— motoo‘qchi va chegara qo‘shinlari bo‘linmalari komandirlarining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-apreldagi qaroriga

Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi bilan birlashtirilib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi deb atala boshlandi.

Akademiyada uchta fakultetda o‘qish tashkillashtirilgan:

— akademiya tinglovchilari uchun — qo‘mondonlik-shtab fakultetida ikki yillik o‘qitish dasturi asosida;

— kursantlar uchun — umumqo‘shin tayyorgarligi fakultetida to‘rt yillik o‘qitish dasturi asosida;

— ofitserlar uchun — malaka oshirish fakultetida uch oydan to‘qqiz oygacha turli dasturlar bo‘yicha.

Harbiy Akademiyadagi umumqo‘shin tayyorgarligi fakultetida quyidagi yo‘nalishdagi mutaxassisliklar bo‘yicha ofitserlar tayyorlanadi:

— motoo‘qchi va chegara qo‘shinlari bo‘linmalari komandirlari;

— razvedka va radio-elektron kurash bo‘linmalari komandirlari;

— qo‘mondonlik-taktik kimyoviy qo‘shinlar;

— qo‘mondonlik-taktik muhandislik qo‘shinlari;

— qo‘mondonlik taktik front orti ta’minoti (kiyim-kechak ta’minoti, oziq-ovqat ta’minoti, yoqilg‘i-moylash materiallari ta’minoti);

— qo‘shinlar bo‘linmalari komandirlarining tarbiyaviy ishlar bo‘yicha

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti

Chirchiq oliygohi 1918-yil 16-noyabrda tashkil topgan. 1992-yilning 14-yanvaridagi «Mamlakat hududida joylashgan barcha harbiy qism va tashkilotlarni O‘zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasi ostiga olish» to‘g‘risidagi Qaror Milliy armiyani tuzish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. 1993-yilda bilim yurti Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti deb atala boshlandi. Yuksak malakali kadrlarni tayyorlash Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtining asosiy vazifasi bo‘lib qoldi. U zamonaviy o‘quv-moddiy baza, texnika va qurol-aslaha, poligonlar, tankodromlarga ega.

1995-yilning 25-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni nomidan bilim yurtiga Jangovar bayroq topshirdi. Ushbu voqea harbiy jamoaning ruhiy-ma’naviy ko‘tarinkiligiga, mag‘rurligi yuksalishiga xizmat qildi. 25-aprel har yili bilim yurtida bayram sifatida nishonlanadi. Mustaqillik yillarida bilim yurti ko‘p yuksak kasbiy mahoratli professor-o‘qituvchilar o‘z faoliyatini amalga oshirayotgan 14 ta kafedra ishlab turibdi.

Oliygoh quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha harbiy mutaxassislar tayyorlaydi:

— tank qo‘shinlari komandiri;

— tank qo‘shinlari muhandislik ishlari ofitser-mutaxassislari;

— havo-desant qo‘shinlari komandirlari;

— havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari komandirlari;

— havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari muhandislik ishlari ofitser-mutaxassislari;

— avtomobil bo‘linmalari uchun qo‘mondonlik-taktik muhandislik;

— qo‘mondonlik-taktik artilleriya;

— taktik muhandislik raketa-artilleriya o‘q-dorilari va qurollari.

Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti

Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori va shuningdek, Mudofaa vazirining 1994-yil 9-iyuldagi

Bilim yurti tashkil etilgan birinchi yillarda ofitser kadrlar quyidagi muta-

uchuvchi-muhandisi»; «Jangovar boshqaruv ofitseri»; «Shturman»; «Samolyotlar va dvigatellar bo'yicha muhandis-texnik»; «Aviatsiya jihozlari bo'yicha muhandis-texnik»; «Radiotexnika jihozlari bo'yicha muhandis-texnik».

Uchish fakultetida o'qish vaqti 4 yilni tashkil qilar edi, texnika fakultetida esa 3 yilni. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va harbiy ta'lim tizimining islohotlari tufayli mutaxassislarni tayyorlash maqbul songacha qisqartirildi.

Mudofaa vazirligi tizimida oliy ma'lumotli, yuqori bilimli va keng dunyoqarashli mutaxassislarga qo'yiladigan qat'iy talablar tufayli o'qish muddati avval 4 yilga, so'ngra 5 yilga uzaytirildi.

1995-yilda bilim yurtiga tantanali ravishda shuhrat, qat'iyatlilik va jasorat belgisi bo'lgan Jangovar bayroq topshirildi. Ushbu voqea bilim yurti tarixida unutilmas sana bo'lib qoldi.

1997-yilning oktabrida bilim yurtini birinchi qaldirg'ochlar — uchuvchi va muhandis-texnik mutaxassisliklari bo'yicha 97 bitiruvchi tugalladi.

O'rta Osiyo mamlakatlarida ushbu yo'nalishdagi yagona bilim yurti. Hozirgi kunda bilim yurtida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda:

— vertolyot aviatsiyasi uchuvchisi;
— aviatsiya jihozlari muhandisi;
— aviatsiya qurollari muhandisi;
— aviatsiya radioelektron jihozlari muhandisi;
— uchish apparatlarining dvigatellari muhandisi.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Mudofaa vazirligining maxsus fakulteti

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) qoshidagi Mudofaa vazirligining maxsus fakulteti 1993-yil 13-mayda Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etilgan.

TATU qoshidagi Maxsus fakultet O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga harbiy kadrlarni tayyorlovchi oliy o'quv muassasasi hisoblanadi. «Maxsus fakultet to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra 1- va 2-kurs tinglovchilari

qabul qilishadi, oliy harbiy bilim yurti kursanti maqomini olishadi va davlat ta'minotiga o'tkazilishadi.

Fakultetda o'quv jarayoni «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining oliy harbiy o'quv muassasalari to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra «Telekommunikatsiya» va «Radiotexnika» yo'nalishlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga mos keladigan dasturlar asosida tashkil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun yuqori malakali ofitser kadrlarni tayyorlash paytida ilg'or professor-o'qituvchilar tarkibi fakultetning talabalari va kursantlariga gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va maxsus fanlar, matematika, informatika, fizikadan bilim berishadi.

Fakultet bitiruvchisiga ta'lim yo'nalishi bo'yicha harbiy mutaxassis malakasi beriladi va oliy ma'lumot haqidagi diplom hamda «leytenant» harbiy unvoni asosida harbiy mutaxassislik nomenklaturasiga mos keladigan «Telekommunikatsiya» va «Radiotexnika» yo'nalishlari bo'yicha quyidagi mutaxassisliklar beriladi:

— radio va koinot aloqasi muhandisi;

— simli radiorele va troposfera aloqasi muhandisi;

— elektr simli aloqa vositalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi muhandislari;

— radio va radiotexnika razvedkachilari va radioelektron kurash muhandislari;

— zenit-raketa qo'shinlari bo'linmalari ofitserlari;

— radiotexnik qo'shinlari bo'linmalari ofitserlari;

— axborot xavfsizligi xizmati ofitserlari.

Toshkent Tibbiyot akademiyasi huzuridagi harbiy-tibbiyot fakulteti

Toshkent Tibbiyot akademiyasi huzuridagi harbiy-tibbiyot fakulteti

kuzidagi 203-sonli «Toshkent Tibbiyot akademiyasi huzurida harbiy-tibbiyot fakultetini tashkil etish to'g'risida»gi qarori asosida respublika-

huzurida, Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali hududida tashkil etildi.

— mamlakatimizga yuqori malakali, chuqur bilimga ega bo‘lgan, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalangan, haqiqiy vatanparvar tibbiy xizmat ofitserlarini tayyorlash;

— respublikamiz tibbiy oliygohlarining farmatsevtika, stomatologiya, tibbiy profilaktika va davolash fakultetlari talabalaridan rezerv va zaxiradagi tibbiy xizmat ofitserlarini tayyorlash;

— Qurolli Kuchlarimiz harbiy qismlari va tibbiyot bo‘linmalarida xizmat qilayotgan tibbiy mutaxassislar tarkibining malakasini oshirish;

— harbiy-tibbiyot sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish hisoblanadi.

Harbiy-tibbiyot fakultetiga respublikamiz tibbiyot oliygohlarining davolash fakultetida 4 yil mobaynida a’lo va yaxshi baholarga o‘qigan, sog‘lom va yetuk talabalar harbiy-mutaxassislik tanlovi asosida, maxsus imtihonlar va test sinovlari natijalariga ko‘ra qabul qilinadilar.

Fakultetga qabul qilingan talabalar «kursant» maqomiga hamda bir qator qonunda belgilangan imtiyozlarga ega bo‘lishadi.

Harbiy-tibbiyot fakulteti kursantlari respublikamiz tibbiy ilmiy markazlarida, Toshkent Tibbiyot akademiyasi klinikasi va o‘quv bo‘limlarida, Markaziy harbiy klinik gospitalida tashkil etilgan o‘quv bazalarida bilim olishadi. Fakultetda o‘quv jarayoni 2 yil, ya’ni tibbiy ta’limning 5—6-bosqichlarida davom ettiriladi.

Harbiy-tibbiyot fakultetini tugallagan kursantlarga Mudofaa vazirining

beriladi. Tibbiy xizmat leytenantlari Qurolli Kuchlar harbiy qismlarida «Tibbiyot punkti boshlig‘i» va «Tibbiyot xizmati boshlig‘i» lavozimlarida o‘z mutaxassislik faoliyatlarini davom ettirishadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy-texnik universiteti

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy-texnik universiteti 2017-yil oktabr oyida oldingi Toshkent Oliy harbiy texnika o‘quv yurti bazasida tashkil topgan.

Universitet hozirgi kunda xavfsizlik bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibi va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar uchun

1.2. Oliy harbiy o‘quv yurtlariga qabul qilish tartibi va qoidalari

Kelajakda ofitser bo‘lish istagidagi harbiylarimiz muddatli xizmat paytida sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tishsa, o‘qishni davom ettirishadi va o‘qish davri ham harbiy xizmat muddatiga kiradi.

Oliy harbiy o‘quv yurtiga tugallangan o‘rta ma’lumotli, qabul shartlari hamda kasbga layoqatlilik tanlovining barcha talablariga javob beradigan yuksak axloqli va ishchan sifatlarga ega O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari qabul qilinadi.

Kasbiy mutaxassisligi va xizmat muddatidan qat’i nazar, xizmatdagi harbiy xizmatchilar va zaxiraga bo‘shatilgan harbiy xizmatga majbur shaxslar 23 yoshgacha, fuqaro yoshlar, harbiy kasbga yo‘naltiruvchi o‘quv maskanlarining bitiruvchilari o‘qishga kirayotgan yili 1-sentabrgacha 17 yoshga to‘ladigan, boshqa o‘quv maskanlarining o‘quvchilari 21 yoshgacha harbiy bilim yurtiga qabul qilinadi.

Muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar o‘qishga kirish yilining 1-apreligacha qoida bo‘yicha komandiri nomiga yozma raport topshiradilar. Fuqaro yoshlar esa, o‘qishga kirish yilining 1-mayigacha yashash joyidagi tuman yoki shahar mudofaa ishlari bo‘limlariga ariza beradilar. Mudofaa vazirligi oliy o‘quv harbiy yurtlariga o‘qishga kirish yilining 10-iyunigacha hujjatlar qabul qilinadi.

Kasbga layoqatlilik tanlovi uchun nomzodlarning kelish vaqti va joyini bilim yurti boshlig‘i mudofaa ishlari boshqarmalari hamda qism komandirlari orqali xabar qiladi. Ular esa, o‘z navbatida, nomzodlarni bepul yo‘lkira hujjatlari bilan ta’minlaydilar. Bilim yurtiga kelgan abituriyentlar bepul oziq-ovqat va yotoqxona bilan ta’minlanadilar.

Kirish imtihonlari boshlangunga qadar, nomzodlar bilim yurtida tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar. Sog‘lig‘ida kamchiligi borligi tufayli tibbiy ko‘rikdan o‘tolmagan abituriyentlar imtihonlarga qo‘yilmaydi. Barcha abituriyentlar umumjismoniy tayyorgarliklar bo‘yicha kuchlilik, chidamlilik va chaqqonlik (turnikda tortilish, 3 km ga kross va 100 m ga yugurish) hamda kasbiy-ruhiy maxsus tanlov usuli bo‘yicha malaka imtihonlari topshiradilar. Bo‘lg‘usi harbiy kasb talablariga javob bermaydigan abituriyentlar umumta’lim fanlari bo‘yicha imtihonlarga qo‘yilmaydi va nomzodlar ro‘yxatidan o‘chiriladi.

Barcha oliy o‘quv maskanlari abituriyentlari kabi kursantlikka nomzodlar

imtihonlari topshiradilar. Test sinovlari uch tilda — o‘zbek, rus va qoraqalpoq tilida o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-apreldagi Qarori asosida, harbiy xizmatni o‘tash paytida jangovar ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikdan yuksak natijalarga erishgan, muddatli harbiy xizmatni tugatgandan so‘ng o‘rnatilgan shakldagi tavsifnomasi bor oliy harbiy o‘quv muassasasiga kiruvchi fuqarolarga o‘zlarining test imtihonlarida to‘plagan ballarining 50 foizi miqdorida imtiyoz taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 12-ap-

to‘g‘risida»gi qaroriga ko‘ra serjantlar tarkibida 5 yil sidqidildan xizmat qilgan harbiy xizmatchilarga test imtihonlarida to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal balldan 20 foiz miqdorida imtiyoz taqdim qilinadi va shuningdek,

muassasalariga konkursdan tashqari kirish huquqiga ega bo‘ladilar. Harbiy

to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal balldan 10 foizgacha miqdorda qo‘shimcha imtiyoz taqdim qilinadi.

Bilim yurtiga qabul qilinganlar to‘liq davlat ta’minotiga ega harbiy xizmatda bo‘ladilar. O‘quv sessiyalarining natijalariga ko‘ra, a’lochilarga oylik pullik to‘lovning 50 %, yaxshi baholarga o‘zlashtirganlarga esa, pullik to‘lovning 25 % miqdorida qo‘shimcha pul beriladi.

O‘qish davri mobaynida kursantlarga qishda ikki haftalik ta’til, o‘quv yili

beriladi. Bilim yurtidagi o‘qish muddati to‘rt-besh yil va u yillar Qurolli Kuchlar safida kadr tarkibidagi xizmat yillari stajiga kiritiladi. Bilim yurtini tamomlaganlarga «leytenant» harbiy unvoni beriladi va sohasiga muvofiq, davlat namunasidagi diplom va ko‘krak nishoni topshiriladi.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonda qanday harbiy oliy o‘quv yurtlari bor?
2. O‘zbekistondagi harbiy oliy o‘quv yurtlarining tashkil topgan sanasi va tarixini gapirib bering.
3. Harbiy oliy o‘quv yurtlariga o‘rta ma’lumotli yoshlarni qabul qilish tartibini gapirib bering.
4. Muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar va xizmatni o‘tab

2-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI QO‘SHINLARIDA TARBIYAVIY VA JANGOVAR AN’ANALARNING O‘RNI

2.1. Komandirlar, boshliqlar va ularning shaxsiy tarkibni tarbiyalashdagi o‘rni

Komandir nafaqat harbiy rahbar, balki o‘z qo‘l ostidagilarning tarbiyachisi hamdir. Boshliqning bu xususiyati Qurolli Kuchlar nizomlarida, avvalo, Ichki Nizomida mujassamlashgan. Komandirlar va boshliqlar harbiy-siyosiy jihatdan har tomonlama tayyorlangan, zamonaviy jang sir-asrorlarini, yangi qurol va jangovar texnikani chuqur biladigan, o‘zida ma’naviy-axloqiy sifatlarni mujassamlashtirgan, harbiy ilmning, pedagogika va psixologiyaning zamonaviy yutuqlariga tayanadigan murabbiy va tarbiyachilardir.

Komandirlar va boshliqlar tarbiyachi sifatida mustaqillik g‘oyalariga qat’iy ishonch, yuksak huquqiy va ma’naviy madaniyat, Vatanga, xalqiga va Prezidentiga sodiqlik kabi sifatlarni tarbiyalash uchun qo‘l ostidagilar o‘rtasida faol tarbiyaviy ishlarni olib bormoqda. Shaxsiy tarkibga bor

namunali xulqi va shaxsiy ibratlarini singdirish, xalqimizning mentaliteti, urf-odatlari va an’analari, diniy e’tiqodi, ajdodlar an’analariga sodiqlik, ajdodlarimiz tarixiy tajribalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri hisobga olgan holda ishlarini tashkil etishgan.

Jangovar tayyorgarlik har bir armiyaning birinchi darajali vazifasi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ham jangovar tayyorgarlik bosh vazifalardan hisoblanadi. U vaqtincha va mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, bir joyda to‘xtab qolmaydi. Davlatimiz va Qurolli Kuchlar rahbariyati jangovar tayyor-

tomonlama ahamiyat berib kelishmoqda. Bu talablarni bajarish uchun armiya moddiy-texnik tomondan doimiy ravishda ta’minlanmoqda, qism va bo‘linmalar puxta bilimga ega bo‘lgan shaxsiy tarkib bilan to‘ldirilmoqda, uning siyosiy, ma’naviy-axloqiy, ruhiy, vatanparvarlik tarbiyasiga e’tibor berib kelinyapti.

Jangovar tayyorgarlikni tashkil etish barcha komandirlar, shtab qo‘mondonlik tarkibi va tarbiyaviy ishlar bo‘limlarining birinchi darajali vazifasi

Bosh Qo‘mondoni ko‘rsatmalari va Mudofaa vaziri buyrug‘i bilan belgilangan reja asosida amalga oshiriladi.

Qism va bo‘linmalardagi jangovar tayyorgarlik bevosita komandir rahbarligi ostida tashkil etiladi, u har qanday mashg‘ulotni yuksak darajada o‘tkazishni tashkil qila bilishi lozim. Har qanday toifadagi komandir mahorati faqat o‘z qurolini qanday mohirona ishlata olishi bilan emas, uni qo‘l ostidagilarga o‘rgata olishi bilan ham o‘lchanadi.

Jangovar tayyorgarlik armiya hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. Ular bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Jangovar shaylikni ta’minlash jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikning barcha yo‘nalishlari, xizmatni tashkil etish, ichki va garnizon qorovul xizmati, jangovar navbatchilikka yo‘naltirilgan. Jangovar tayyorgarlikning asosiy elementlaridan biri sergaklikdir. Sergaklik doim dushman tajovuzini qaytarishda bosh rolni o‘ynagan. Mana shundan kelib chiqqan holda har bir yosh askar Qurolli Kuchlar safiga kirayotganida, avvalo, sergak jangchi bo‘lishga tantanali ravishda qasamyod qiladi.

Mintaqamizda harbiy-siyosiy vaziyatning murakkablashuvi harbiy xizmat-

g‘oyaviy jihatdan chiniqqan, milliy mustaqillik g‘oyalariga, xalqi va Prezidentiga sodiq, sergak askarlar bo‘lib yetishishlariga alohida e’tibor beriladi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an’analari

Jangovar an’analar — bu armiya va harbiy flotda tarixdan yosh avlodga o‘tuvchi jang qilish va harbiy xizmatni bajarish axloq-odob qoidasi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xalqimizning milliy turmush tarzi, an’analari, urf-odatlari va umumbashariy qadriyatlari qayta tiklanayotgan bir paytda, Qurolli Kuchlarimiz jangovarlik an’analariga ega bir olamga — mardlik va sheryuraklikka undaydi. Onadek, nondek aziz Vatan tushunchasiga oshno etadi, uning posboni bo‘lish naqadar sharafli ekanligini uqtiradi. Jangovar an’analar O‘zbekiston Respublikasi Vatan, Istiqlol, Hurriyat, Davlat bayrog‘i, Madhiyasi, Respublika Prezidenti — Oliy Bosh Qo‘mondoni, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, Harbiy qasamyod kabi mustaqillik tufayli vujudga kelgan muqaddas atamalar qalbimizni g‘ururga to‘ldiradi.

Jangovar an’analar — er kishini o‘z Vatanining sarhadlarini munosib

posboni, egasi bor yurt tinch bo‘lishiga, bepoyon dalalarda rizq-u ro‘z undirilishiga, tandirlari to‘la non yopiladigan, yigit-qizlari alyor aytadigan, momolari beshik tebratib bola allalaydigan, dono bobolari yoshlarni yurtning yetuk farzandlari etib tarbiyalaydigan ulkan davlatni jon-jahdi bilan qo‘riqlashga va himoya qilishga da’vat etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining an’analari Milliy istiqlol g‘oyasi jamiyatimiz taraqqiyotining mafkuraviy tamoyillarini ifoda etadi. Shu ma’noda, bu g‘oya mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin hamda farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan yaxlit va izchil ta’limotdir. U aynan nazariy ijtimoiy voqelikning ifodasi tarzida namoyon bo‘lib, o‘ziga xos shakllanish qonuniyatlari va xususiyatlariga ega bo‘lgan umummilliy hodisa hisoblanadi. Milliy istiqlol g‘oyasi yurtimizda yashaydigan har bir millat, ijtimoiy guruh, partiya yoki qatlam vakili uchun umumiy mezondir. O‘zbekiston xalqining, mustaqillikni mustahkamlash yo‘lidan borayotgan jamiyatimizning umumiy g‘oyasidir.

Milliy davlatchilik an’analarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz sarhadlari yaxlitligi hamda xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarimizda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi ishiga safarbar etish — bu g‘oyaning asosiy maqsadi.

Harbiy qasamyod. Qasamyod tarixi uzoq o‘tmishimizga borib taqaladi. Masalan, Sohibqiron Amir Temur qo‘shinlarida shunday odat bo‘lgan: har bir qo‘shin harbiy qo‘mondoni, qoidaga binoan, qo‘shinlar ko‘rigidan oldin

ichgan. Jaloliddin Manguberdi, Bobur qo‘shinlarida ham shunga o‘xshash

buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqning nafratiga mubtalo bo‘lay», deya ont ichgan va unga sodiq qolgan.

Harbiy qasamyod — Qurolli Kuchlarimiz har bir jangchisining butun hayoti davomida or-nomusi qonuni. Qasamyodni buzish — Vatan oldidagi og‘ir jinoyat. Qasamyod qabul qiluvchi O‘zbekiston Respublikasining butun xalqiga murojaat etib, «Agar men ushbu tantanali qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqning nafratiga mubtalo bo‘lay», deb ont ichadi. Harbiy qasamyod matni 1992-yil 3-iyul kuni O‘zbekiston

Men (familiyasi, ismi, otasining ismi), O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, xalqimga, Prezidentimga sodiq bo‘lishga tantanali qasamyod qilaman.

Men O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va qonunlarini muqaddas bilib, ularga rioya etishga, harbiy nizomlarni, qo‘mondon va boshliqlarning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga, harbiy intizomga qat’iy rioya qilishga, halol, jasur va sergak jangchi bo‘lishga qasamyod qilaman.

So‘nggi nafasim qolguncha ona Vatanimning sadoqatli farzandi bo‘lib qolishga, harbiy xizmatning butun mashaqqat va qiyinchiliklarini sabot bilan yengishga, davlat va harbiy sirlarni mustahkam saqlashga ajdodlarim ruhi oldida qasamyod qilaman.

Jonajon O‘zbekistonimning nurli istiqboli uchun uning davlat manfaatlari va mustaqilligining himoyachisi bo‘lishga qasamyod qilaman.

Agar men ushbu tantanali qasamyodimni buzsam, qonunlarda belgilangan jazoga va xalqimning nafratiga mubtalo bo‘lay.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi marta harbiy xizmatga qabul qilingan yoxud harbiy xizmatni o‘tamagan va birinchi marta harbiy yig‘inlarga chaqirilgan fuqarosi harbiy qismning jangovar bayrog‘i oldida harbiy qasamyod qabul qiladi.


Harbiy qasamyodni:

— madadga kelgan, safarbarlik chaqiruv rezerviga kelgan askarlar va matroslar, ular tegishli dasturlarni o‘taganlaridan, askar va matroslarning asosiy majburiyatlarini, harbiy qasamyodning harbiy qism jangovar bayrog‘i va harbiy intizomning ahamiyatini o‘zlashtirgandan so‘ng harbiy qismga yetib kelgan kundan boshlab, ikki oydan kechiktirmasdan;

— harbiy bilim yurtlarining avval qasamyod qabul qilmagan kursant va tinglovchilari aynan o‘sha muddat davomida qabul qiladilar.

Harbiy qasamyod qiladiganlar bilan, harbiy qasamyodning ahamiyati va qonunlarining Vatan himoyasi bo‘yicha talablari to‘g‘risida bo‘linmalarda tushuntirish ishlari o‘tkaziladi. Harbiy qasamyod qabul qilishni tarixiy, jangovar va mehnat shuhrati joylarida, shuningdek, Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun janglarda shahid bo‘lgan jangchilarning qardoshlik mozorlarida o‘tkazish mumkin. Harbiy qasamyod qabul qilish kuni ushbu qism uchun ish qilinmaydigan kun sanaladi va bayram kuni sifatida nishonlanadi (51-rasm).

Harbiy qasamyod davlat nuqtayi nazaridan Vatanimizni munosib himoya qilish bo‘yicha harbiy xizmatchiga qo‘yiladigan asosiy talablarni mujassam



51-rasm.

etgan huquqiy akt. Bu — mustaqil Vatanimiz, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo‘yicha haqiqiy jangovar harakatlar jarayoni yoki tinchlik davridagi jangovar o‘quvlarning turli sharoitlarida jangchi xulq-atvori me’yorlarining o‘ziga xos jamlangan ifodasidir.

Ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan u jangchilarni Vatanga fidokorona xizmat qilishga, harbiy burchga sadoqatli bo‘lishga o‘rgatadi va o‘zida ajdodlar an’analari hamda vasiyatlariga sodiqligini namoyon etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangchilari ajdodlarimiz jasoratlariga sodiq qolmoqdalar va ularni davom ettirmoqdalar. 1999—2000, 2005-yillarda mamlakatimiz hududlariga bir guruh tajovuzkor kuchlar bostirib kirganda, jangchilarimiz o‘z Harbiy qasamyodlariga sodiq holda Vatanimizni dushmandan himoya qilishdi.

... 5-avgust kuni erta tongda razvedkachilar bergan ma’lumot bo‘yicha dushman joylashgan yer aviatsiya bo‘linmasi tomonidan ko‘zdan kechirilib, ko‘rsatilgan nuqtalarga zarba berildi. Alohida guruh tomonidan maydonni tozalash ishlari boshlandi. Yashirinib qolib, jon talvasasida bo‘lgan dushman dushmanga qarshi jangga kirdi. Dushman kuchi ziyod bo‘lganligi sababli, jangchilar qurshovda qoldilar.

Ayniqsa, g‘or ichiga berkinib, zarba berishga intilayotgan dushman bilan jang qiyin kechardi. Katta serjant Ma’rufjon Rajabov qulay pozitsiyani egallab, dushmanga zarba berayotganligiga qaramay, dushman o‘qi uni yaraladi, lekin u jangni davom ettirdi. Bo‘linma feldsheri Qahramon

Madolimov unga yordamga otildi. O‘z jonini tahlikaga qo‘yib bo‘lsa-da, yaralangan jangchining hayotini saqlab qolishga oshiqdi.

O‘z insoniylik, kasbiy va xizmat burchini o‘qlar yomg‘iri ostida bajarishga kirishgan Qahramon qisqa muddatda yarador oldiga keldi va uning yarasini bog‘ladi. Lekin dushman o‘q yomg‘iri uni ham chetlab o‘tmadi. Qahramon yaralanib yotgan safdoshi haqida o‘ylar edi. Nima bo‘lsa ham uning hayotini saqlab qolish kerak. U bor kuchini yig‘ib, yaradorni ko‘tardi-da, harakatga tushdi.

Dushman istehkomi joylashgan yerga ayovsiz zarba berayotgan muddatli sukunatdan foydalanib, Qahramon Madolimov va Ma’rufjon Rajabovga yordam berish uchun o‘zini jang maydoniga otdi. Mazkur jang shartnoma asosida harbiy xizmatchilar — Qahramon Madolimov, Ma’rufjon Rajabov va Ulug‘bek Barnoyevlar uchun oxirgi jang bo‘ldi. Mard jangchilar oxirgi damgacha askariy burch, harbiy do‘stlik, mardlik, insoniylik, Vatan va xalq oldidagi o‘z Harbiy qasamyodlariga sodiq qoldilar.

2005-yil 13-mayda Andijon shahrida fojiali voqea sodir bo‘ldi. Bir guruh terrorchilar shaharning bir nechta obyektida qo‘poruvchilik harakatlarini sodir etishga intildilar. Lekin bu yovuz maqsadga erishishlariga yo‘l qo‘yilmadi. Maxsus qo‘shinlar tomonidan o‘z vaqtida ko‘rilgan choralar tufayli terrorchilar qo‘lga olinib, qonun doirasida javobgarlikka tortildi. Lekin bu harakatlar mobaynida jangovar vazifani bajarayotgan vaqtda kapitan Bahrom Jo‘rayev qahramonlarcha halok bo‘ldi. Bu Vatanimiz xizmat-chilarining yurtimizni hamisha himoya qilishga va harbiy qasamyod talablarini bajarishga tayyorligini ko‘rsatadi.

So‘nggi nafasi qolguncha Vatani, xalqi, muqaddas o‘zbek zaminining sadoqatli farzandi bo‘lishgan, buyuk ajdodlarimiz — Shiroq, To‘maris, Spitamen, Muqanna, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, chorizmning bosqinchilik 20—30-yillarida milliy mustaqilligimiz uchun jon fido etgan o‘zbek xalqining asl farzandlari, Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyoni fashizm asoratidan xalos etish yo‘lida shahid ketgan hamyurtlarimiz; 1999—2000, 2005-yillarda Vatanimiz sarhadlariga suqilib kirishga harakat qilgan terrorchilarga qarshi harakatlarda jon fido etgan Bahrom Jo‘rayev, Sayyor Sadinov, Alisher Salimov, Boburjon G‘aniyev, Yunusj

Mahmudjon Jalilov va boshqa jangchilar ruhi oldida qasamyod qiladi. Shu sababli ham Qasamyod harbiy xizmatchi uchun muqaddas hisoblanadi.

Harbiy qismning Jangovar bayrog'i. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismining Jangovar bayrog'i — harbiy sharaf, matonat va

har bir harbiy xizmatchisiga uning Vatanga fidoyilarcha xizmat qilish, uni matonat va mahorat bilan muhofaza etish, o'zining so'nggi tomchi qoni va hatto hayotini ayamasdan jonajon tuproqning har bir qarichini sabot bilan mudofaa qilishdek muqaddas burchi to'g'risidagi eslatma sanaladi.

Jangovar bayroq harbiy qismga u tuzilishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan Mudofaa vazirligi vakillari tomonidan topshiriladi.

uzoq, hatto davrlarda harbiy qismning ixtiyorida saqlanadi. Harbiy qism nomlanishi va raqamlanishidagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jangovar bayroq topshirish chog'ida beriladigan Yorlig'ida qayd etib o'tilgan.

Jangovar bayroq har doim o'z harbiy qismi bilan, jang maydonida esa, qism jangovar harakatlari hududida bo'ladi. Qismning butun shaxsiy tarkibi jangda Jangovar bayroqni jon-jahdi va matonat bilan himoya qilishga, uning

kunlarda Qurolli Kuchlarimiz jangchilari tinchlik hukm surgan davrda o'z qismlarining Jangovar bayroqlarini ishonch bilan qo'riqlab, jangovar siyosiy tayyorgarlikdagi muvaffaqiyatlarga erishishga yetaklamoqda. Jangovar bayroqni qo'riqlashda soqchi posti qo'yilmoqda, bu eng mas'uliyatli

Jangovar bayroq ostida askar-matroslar, serjant-starshinalarni faxriy rag'batlantirish bilan fotosuratga olinadi.

Nazorat savollari

1. Komandirlar, boshliqlar va ularning shaxsiy tarkibni tarbiyalashdagi o'rnini gapirib bering.
2. Qurolli Kuchlarning jangovar an'analarini sanab o'ting.
3. Harbiy qasamyod qabul qilish tartibi qanday?
4. Harbiy qasamyodga sodiq qolib halok bo'lgan zamondoshlarimiz to'g'risida gapirib bering.

1-bob. UMUMQO‘SHIN JANGI ASOSLARI

1.1. Ehtimoliy dushman bilan yuzma-yuz kelish holatida hujumga o‘tish va birdan hujumga o‘tish usullari

Dushman bilan yuzma-yuz kelish — qo‘shinlarning shunday holatiki, bunda qarama-qarshi tomon bo‘linmalari mudofaada turishadi. U dushman qandaydir marrani egallagan, qattiq mudofaada turib uni ushlab qolgan, uning jangovar tartibini yorib o‘tishga yo‘l qo‘ymagan, hujumga o‘tuvchi tomonni mudofaaga o‘tishga majbur qilgan holatda paydo bo‘lishi mumkin.

Dushman bilan yuzma-yuz hujumga o‘tish boshlang‘ich holatdan boshlanadi. Boshlang‘ich holat — xandaq (okop) hisoblanib, uni jangchi yashirin vaziyatda komandir ko‘rsatgan vaqtda egallaydi. Askar hujum uchun boshlang‘ich holatda dushmanning ehtimoldagi hujumini qaytarishga doimo shay bo‘lishi kerak.

Hujumga tayyorlanish vaqtida askar o‘zi hamda guruhning vazifasini; mina-portlovchi g‘ovlardan o‘tish tartibini aniqlab oladi; qurolning sozligi va uning jangga tayyorligini, belgilangan me’yordagi o‘q-dori bor-yo‘qligini, shaxsiy himoya vositalari borligi va uning sozligini tekshiradi; ust-boshlari va unga taqiladigan jihozlarni ko‘rib, to‘g‘rilaydi hamda signallarni o‘rganadi.

Guruh pozitsiyasiga tanklar yaqinlashganda, komandirning **«Guruh, hamlaga shaylan»** komandasiga asosan, askar qurolini o‘qlashga, uni


qo‘yiladi), nayza-pichoqni o‘rnatishga majbur. Tanklar guruh pozitsiyasiga kelishi bilan **«Guruh, hamlaga olg‘a»** komandasi bo‘yicha askar tezda xandaqdan sakrab chiqadi va boshqa jangchilar bilan shu yo‘nalishda hamlaga o‘tgan tank ortidan yugurib yoki tez qadam tashlab, olg‘a harakatlanadi.

Piyodaning jangovar mashinasi (bronetransportyor — BTR) bu vaqtda

o‘tishini ta’minlab, guruh ortidan marraga harakatlanishga tayyor holatda turadi. Shaxsiy tarkibning mina-portlovchi g‘ovlardan o‘tishi va mudofaaning oldingi marrasiga hamla qilishi piyoda tartibda birdaniga hujum

Hamla paytida askar guruh hamlasi yo‘nalishidagi joyni va qanotlarni kuzatib, joyning holati, undagi predmetlarga berkingan holda transheya va aloqa yo‘llaridan tashqaridagi dushmanga yaqin jang vositalari va granatalarini qo‘llab, dushmanni o‘z vaqtida topadi va yo‘q qiladi. Tanklar harakati to‘xtab qolmasligi va hamladagi guruh askarlari ulardan ajralib qolishga majbur etilishining oldini oladi. Shuning uchun har bir askar dushman harakatini tezda ko‘zlab olib, darhol dushmanning o‘t ochish vositalarini, avvalo, tankka qarshi va jonli kuchlarini yo‘q qilish uchun o‘t ochadi.

Birdan hujumga o‘tish. Birdan hujumga o‘tish oldidan askar o‘z guruhi tarkibida komandir ko‘rsatgan joyga yashirincha joylashadi, u yerda quroli va



52-rasm. Guruhning g‘ovlarni tank izidan

jangovar texnikani tayyorlaydi hamda dushmanning yer, havodan bo‘ladigan hujumlarini qaytarishga doimo jangovar shay holda turadi.

Bajarilayotgan vazifaga, joy xarakteri va vaziyatning boshqa shartlariga ko‘ra, askar motoo‘qchi guruh tarkibida piyodaning jangovar mashinasi (bronetransportyor)da, piyoda yoki tankda desant holatda harakatlanishi mumkin.

Piyodaning jangovar mashinasi (bronetransportyor)da hujumga o‘tilayotganda, askar oldindan o‘tirishga tayyorlanadi. Bunda u asosiy diqqatni

mo‘ljalga, bundan tashqari, qurolning o‘qlanmaganligiga qaratadi. Agar **«Qurol o‘qlansin»** komandasi berilgan bo‘lsa, avtomat saqlagichga qo‘yilganligini tekshiradi, nayza-pichoq chiqarib olinadi.

Seksiya tarkibidagi askarlarni jangovar mashinalarga o‘tqazish uchun mashina oldidagi belgilangan joyda **«Mashinaga»** komandasi (signali) bo‘yicha saflanadilar. **«Joylarga»** komandasi (signali)da askarlar g‘ildiraklar, zanjirlar, oyoq qo‘yadigan joydan foydalanib, jangovar mashinadagi o‘rinlarni egallashadi.

O‘tqazish vaqtida qurol qulayroq qilib olinadi (PK pulemyotidan tashqari). Pulemyot joylashtirilayotganda, harbiy xizmatchi yoki orqada turganga uzatiladi.

1.2. Yayov tartibda hamlaga o‘tish

Seksiya komandirining piyoda tartibda hamlaga o‘tish bo‘yicha **«Seksiya, piyoda tartibga tayyorlan»** komandasini olgan mexanik-haydovchi (haydovchi) jangovar mashinaning harakatlanish tezligini kamaytiradi, askar shinakdan qurolini chiqarib, uni saqlagichga qo‘yadi va piyoda yurishga hozirlanadi.

Askarning jangovar mashinadan chiqishi (yayov holatga o‘tishi) — orqa eshik orqali; bronetransportyordan tuynuk orqali amalga oshiriladi. Jangovar mashinaning yayov holatga o‘tish marrasida seksiya komandirining **«Mashinalarga»** komandasi bo‘yicha mexanik-haydovchi (haydovchi) harakatni sekinlatadi yoki joy sharoiti va mavjud bo‘lgan pana joyda qisqa muddatga to‘xtaydi.

Seksiya komandirining komandasi bo‘yicha askar jangovar mashinadan sakrab tushadi. Hamla boshlanishi bilan askar hamla qilinayotgan obyekt va

Tank ortidan izma-iz yurib, u o‘zining olovi bilan dushmanning o‘t ochish vositalarini yo‘q qiladi, birinchi navbatda, tankka qarshi vositalarni, seksiya harakatiga xalaqit beradigan eng xavfli nishonlarni o‘z vaqtida tankka ko‘rsatadi.

Hamlaning shiddatli bo‘lishi — muvaffaqiyat garovi. Minalashtirilgan maydonga yaqinlashganda, guruh komandirining **«Guruh, mening ortimdan bir (ikki) kolonna bo‘lib, minalashtirilgan maydondan ochilgan yo‘lakka, yugur»** komandasi bo‘yicha pulemyotchi birinchi bo‘lib yo‘lakka yaqinlashadi, o‘t ochish guruh harakatini yashirib turadi. Qolgan askarlar esa bir kolonna bo‘lib saflanib, tank ortidan uning izidan yoki tayyorlangan yo‘lakdan yurib, piyoda askarlar jangovar mashinasi (bronetransportyor)ning olovli yopib turishi ostida minalashtirilgan joyni bosib o‘tadi. Minalashtirilgan joydan o‘tib bo‘lib, askar guruh komandirining **«Guruh, jangga olg‘a»** komandasi bo‘yicha yana guruh zanjirida o‘z o‘rnini egallab, yurgan holda dushmanga qarata o‘q uzib, shiddatli ravishda hamla obyektiga qarab harakatlanadi.

Transheyaga 30—35 m yaqinlashgan askar komandirning **«Granata bilan o‘t och»** komandasiga binoan, granatani transheyaga uloqtiradi va o‘ta chiqadi, dushmanni yaqin masofadan o‘t ochib yo‘q qiladi va ko‘rsatilgan yo‘nalish tomonga to‘xtovsiz hamlani davom ettiradi.

Agar askar transheyada yoki aloqa yo‘lida jang olib borishga majbur bo‘lsa, unda tez harakatlanishi kerak. Transheyaga yoki aloqa yo‘liga kirishishdan oldin askar granata uloqtiradi va avtomatdan bir-ikki bor o‘q uzadi.

Transheya yoki aloqa yo‘llarida dushman tomondan o‘rnatilgan «kirpi», «ayri» va hokazo ko‘rinishdagi simli to‘siqlar nayza-pichoq bilan yuqoriga chiqarib tashlanadi yoki granata bilan portlatiladi. Agar buni bajarish imkoni bo‘lmasa, bunday uchastka yuqoridan xufiyona aylanib o‘tiladi.

Dushman transheyasida harakatlanayotganda, diqqat bilan transheyada mina va boshqa portlovchi qurilmalar yo‘qligini ko‘zdan kechirish kerak. Mina-portlovchi g‘ovlar topilganda, ularni zararsizlantirish zarur, imkoni bo‘lmasa, aniq ko‘rinuvchi ogohlantiruvchi belgi qo‘yilishi darkor.

Dushmanni bunday sharoitda yo‘q qilish juda qiyin, askar, asosan, qo‘l jangi olib borish mahoratiga, quroli va kuchiga ishonib, bunda nayza sanchish, qo‘ndoq (magazin) yoki piyoda kuragi bilan urishni, granata

Motoo‘qchi guruh vzvodda batalyon rezervi tarkibida, shturmchi guruh va jangovar harakatlanishi, undan tashqari, taktik desantning oldingi guruhida harakatlanishi mumkin.

Qoidaga ko‘ra, motoo‘qchi guruh 200 m frontda hujumga o‘tadi, motoo‘qchi seksiya esa yayov tartibda front bo‘yicha 50 m harakatlanadi. Motoo‘qchi guruhga hujumda hamla qilish obyekti va keyinchalik hujum uyushtirish yo‘nalishi ko‘rsatiladi. Radio orqali jangovar vazifa qo‘yilayotganda, guruhga keyinchalik hujum uyushtirish yo‘nalishi ko‘rsatilishi mumkin.

Motoo‘qchi guruhning hamla obyekti bo‘lib, odatda, okopdagi yoki boshqa tayanch punktining istehkom inshootlaridagi dushman hamda hujum yo‘nalishida joylashgan tanklar, to‘p va zambaraklar, pulemyotlar va boshqa o‘t ochish vositalari hisoblanadi. Hamla jangovar tartibdagi motoo‘qchi bo‘linmalarining tanklar, piyodaning jangovar mashinalari (bronetransportyorlar) tez o‘t ochishi bilan birgalikdagi shiddatli va to‘xtovsiz harakatida, dushman bilan yaqinlashganda esa, uni yo‘q qilish maqsadida boshqa qurol turlaridan otib, harakatlanishida ifodalanadi.

Motoo‘qchi guruhning shaxsiy tarkibi yayov holatga o‘tganda, piyodalarning jangovar mashinalari (bronetransportyorlar)da mo‘ljalga oluvchi-operatorlar (bronetransportyor pulemyotchilari) va mexanik-haydovchi (haydovchi)lar qolishadi, ular jangovar mashinalarning qurol-aslahalaridan o‘t ochib, jangda o‘z bo‘linmalarini qo‘llab-quvvatlashadi.

Tog‘ hujumida joyning yurishi qiyin uchastkalarida motoo‘qchi guruh vzvoddan ajralib, mustaqil harakatlanadi, seksiya esa, qoidaga ko‘ra, guruh tarkibida bo‘ladi. Motoo‘qchi guruh (seksiya), odatda, yayov tartibda harakatlanadi.

Cho‘l (dasht) joylardagi hujumda guruh (seksiya) dushman mudofaasidagi oraliqlar va ochiq qanotlari ichkarisiga shiddatli ravishda kirib borish va tayanch punktlariga orqa tomondan qat’iy hamla qilish uchun keng qo‘llaydi.

Nazorat savollari


1. Dushman bilan yuzma-yuz kelish holatida hujumga o‘tish tartibini izohlab bering.
2. Birdan hujumga o‘tish tartibini izohlab bering.

2-bob. JOYDA XARITASIZ ORIYENTIR OLISH

2.1. Joyda turli xil sharoitlarda xaritasiz oriyentir olishning o‘ziga xos xususiyatlari

Hududda xaritasiz oriyentir olish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘rab turgan mahalliy predmetlar va relyef shakllariga nisbatan o‘zi turgan joyni aniqlash; harakatlanish uchun tanlangan yoki ko‘rsatilgan yo‘nalishni saqlash. Jangovar vaziyatlarda oriyentir olishda yuqorida qayd qilinganlardan tashqari, o‘z va dushman qo‘shinlarining joylashish holati hamda yo‘nalishi aniqlanadi.

Topografik xaritalar, aerofotosuratlar, jangovar va qo‘mondon-shtab oriyentir olish mumkin. Jangovar vaziyatlarda oriyentir olishda quyidagi oddiy usullarga asoslaniladi: kompas bo‘yicha, osmon yoritgichlari va mahalliy buyumlarning belgilari orqali. Ushbu sodda usullar bilan oriyentir



53-rasm. Gorizont tomonlarining joylashuvi.

olinsa, ular gorizont tomonlarini aniqlash va harakat yo‘nalishini saqlab turishga yordam beradi.

Joyda turli xil sharoitlarda xaritasiz oriyentir olishning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Oriyentir olish borasidagi bilimlarni yanada boyitish maqsadida mashqlarni amaliy tarzda o‘tkazish tavsiya etiladi.

10-sinfda o‘zlashtirilgan ma’lumotlarga qo‘shimcha ravishda quyidagi usullardan birida to‘xtalib o‘tamiz.


Gorizont (ufq) tomonlarini dala sharoitida aniqlash usuli. Buning uchun kompasdan foydalaniladi. 53-rasmda gorizont (ufq) tomonlarining dala sharoitidagi joylashuvi ko‘rsatilgan.

Gorizont tomonlarini kompas yordamida (54-rasm) aniqlash uchun u shunday qo‘yiladiki, kompas shkalasining nol bo‘lagi (Sh) milning shimoliy uchi qarshisida bo‘lsin. Bu holatda Sh shkalasining bo‘lagi (0°) shimol yo‘nalishini, SHq (90°) — sharq, J (180°) — janub, G‘ (270°) — g‘arbni ko‘rsatadi.

Hududda oriyentir olish umumiy yoki to‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘zi turgan joydagi harakatlanish yo‘nalishi va yo‘nalishning oxirgi punktiga yetib borish vaqtini taxminiy aniqlash *umumiy oriyentir olish* deyiladi.

To‘liq oriyentir olish o‘zi turgan va turli obyektlarning joylashgan joylari va harakatlanish yo‘nalishini aniqlashda to‘la aniqlikka erishishdir. To‘liq



54-rasm. Kompas yordamida gorizont tomonlarini aniqlash.

oriyentir olish xaritalar, aerofotosuratlar bo‘yicha va navigatsiya qurilmalari yordamida amalga oshiriladi.

Oriyentirlarni tanlash va ulardan foydalanish. O‘zining turgan joyi, obyektlar va nishonlarning joylashgan o‘rinlari hamda harakatlanish yo‘nalishini nisbatlab aniqlashda foydalaniladigan mahalliy predmetlar hamda relyef shakllari *oriyentirlar* deb ataladi. Ular, odatda, shakli, rangiga ko‘ra farqlanadi va o‘rab turgan hududni ko‘zdan kechirishda oson taniladi.

Oriyentirlarning *maydonli*, *chiziqli* va *nuqtali* turlari mavjud.

Maydonli oriyentirlarga aholi punktlari, o‘rmonning alohida bo‘laklari, ko‘llar, botqoqliklar va boshqa katta maydonli obyektlar kiradi. Bunday oriyentirlar hududni o‘rganishda oson tanib olinadi va yodda saqlanib qoladi.

Chiziqli oriyentirlar unchalik katta bo‘lmagan kenglikka ega, katta uzunlikdagi mahalliy predmetlar va relyef shakllari bo‘lib, ularga yo‘llar, daryolar, kanallar, elektr uzatish tizimlari, tor pastliklar va boshqalar kiradi. Qoidaga ko‘ra, ulardan harakat yo‘nalishini saqlash uchun foydalaniladi.

Nuqtali oriyentirlarga turli shakllardagi qurilishlar, zavod va fabrikalarning quvurlari, retranslatorlar, ko‘priklar, yo‘llarning chorrahalari, karyerlar, chuqurlar va uncha katta maydonni egallamaydigan boshqa mahalliy predmetlar hamda relyef shakllari kiradi.

Hududda ishonchli oriyentir olishni ta’minlash ko‘p jihatdan to‘g‘ri oriyentir tanlashga ham bog‘liq. Kunduzgi harakatlanish yo‘nalishini saqlash uchun uzoqdan oson taniladigan oriyentirlar tanlanadi, masalan, alohida kichik o‘rmonlar, minora shaklidagi inshootlar, daraxtlar va shularga o‘xshash nuqtali oriyentirlar. Harakatlanish davomida yangi oriyentirlar tanlanib boriladi. Ko‘rinish cheklangan sharoitlarda harakat yo‘nalishini saqlash uchun chiziqli oriyentir tanlanadi.

Qish mavsumida alohida ajralib turuvchi qora rangli predmetlarni oriyentir uchun tanlash lozim, chunki qor qoplamining mavjudligi tufayli relyef shakllarining belgilari sezilmay qoladi.

Oriyentirlarni tanlashda har xil nuqtalardan qaralib, ulardagi ko‘rinishlar va o‘zaro joylashgandagi o‘zgarishlarni hisobga olish zarur. Bu holat, asosan,

shakllari ba'zan tog' yo'llari bo'ylab harakatlanib borilayotganda ko'zdan yo'qotilishi mumkin.

Oriyentirlar iloji boricha old tomondan, bir xil uzoqlikda tanlanadi, bu nishonlarning joylashgan joyini tez va aniq ko'rsatishga imkon yaratadi. Oriyentir o'ngdan chapga, marralar bo'yicha esa o'zi turgan joydan dushman tomoniga qarab raqamlanadi. Har bir oriyentirga uni yodda saqlash uchun qulay, xos belgilarni hisobga olib, shartli nomlar qo'yiladi, masalan, balandlik — «Yassi», kichik o'rmon — «Uzun», «Sariq jarlik». Boshliq tomonidan tayinlangan oriyentirlarning raqamlari va nomlari o'zgartirilmaydi.

2.2. Quyoshga nisbatan predmetlarning joylashishiga qarab gorizont tomonlarini aniqlash

Bunda predmetlar quyoshga nisbatan quyidagicha joylashadi:

— ko'pchilik daraxtlar qobig'i shimol tomonda qalinroq, janub tomonda yupqa va elastik (oq qayinda oppoqroq) bo'ladi;

— qarag'ayda ikkilamchi qobiq (to'q jigarrang, yorilgan) shimol tomonda tanasi bo'ylab yuqoriga ko'tariladi;

— daraxtlar, toshlar, yog'och va cherepitsali shiferlarning shimol tomoni lishaynik va zamburug'lar bilan ertaroq va ko'proq qoplanadi;

— ignabargli daraxt turlarida yelim shimol tomonda ko'proq yig'iladi;

— chumoli uyalari daraxt, to'nka va bulutlarning janub tomonida joylashadi, bundan tashqari, chumoli uyalarining janubi tekisroq bo'ladi;

— rezavor meva (qulupnay, maymunjon va shu kabilar) va daraxt mevalari janub tomonda tezroq yetiladi;

— yozda katta toshlar, inshootlar, daraxtlar va butalar oldidagi yer janub tomonda quruqroq bo'ladi (buni qo'l bilan ushlab aniqlash mumkin), qor janub yonbag'irlarida tezroq eriydi, erish natijasida qorning janub tomonida kertiklar paydo bo'ladi, tog'larda eman janub yonbag'irlarida tezroq o'sadi.

Gorizont tomonlarini mahalliy predmetlar yordamida aniqlash taxminiy natijalar beradi, shu sababli birinchi imkoniyatdayoq gorizont tomonlarini

Harbiy qismlarda xaritasiz oriyentir olishdan keyin harbiy xizmatchilarga topografik va taktik oriyentir olish o‘rgatiladi.

Topografik oriyentir olish o‘tkazilish vaqti, gorizont tomonlarini, turgan joy nuqtasini, joyni o‘rab turgan obyektlar holatini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Topografik oriyentir olish, avvalo, qaysidir predmet bo‘yicha shimolga yo‘nalishni va o‘ziga eng yaqin hamda yaxshi ko‘rinib turadigan oriyentirga nisbatan joy holatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, topografik oriyentir olishda joyning kerakli oriyentirlari va boshqa obyektlari, ularga yo‘nalish va ulargacha bo‘lgan taxminiy masofa ko‘rsatiladi. Oriyentirga yo‘nalish turgan o‘rniga nisbatan (to‘g‘rida, o‘ngda, chapda) yoki gorizont tomonlari bo‘yicha ko‘rsatiladi. Obyektlar nomi va ulargacha bo‘lgan masofa xarita orqali aniqlanadi.

Taktik oriyentir olish dushman qo‘shinlari, o‘z bo‘linmalari joylashishini ko‘rsatish va harakat tavsifini aniqlashdan iborat.

Taktik oriyentir olishdan avval boshlang‘ich ko‘rsatkichlarni sinchkovlik bilan tayyorlash kerak.

Razvedkachi kuzatuv postida oriyentir olishni qanchalik puxta tayyorlasa, jangovar vazifani bajarishda nishon ko‘rsatish shunchalik oson va tez amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Hududda xaritasiz oriyentir olish nimalardan iborat?
2. Oriyentirlarning qanday turlari bor?
3. Gorizont (ufq) tomonlari kompas yordamida qanday aniqlanadi?
4. Quyoshga nisbatan predmetlarning joylashishiga qarab gorizont tomonlarini aniqlash usullarini ayting.


JOYIDA TURIB QO‘ZG‘ALMAS HAMDA PAYDO BO‘LUVCHI NISHONLARGA O‘T OCHISH

Otish tayyorgarligi darslarida, avvalo, qurolning imkoniyatlari o‘rganiladi. Nishonni mo‘ljalga olish va o‘q otish qoidalari o‘rganib chiqiladi. Nishonlar, o‘z navbatida, qo‘zg‘almas va paydo bo‘luvchi nishonlarga ajratiladi.

Qo‘zg‘almas nishonlar — bir joyda joylashgan va jang maydonida joyni almashtirmaydigan nishonlar, o‘quv amaliyoti paytida doirali nishonlar, tirlar va trenajorlardan foydalaniladi. Paydo bo‘luvchi nishonlar ko‘pincha otish tayyorgarligi darslarida mashg‘ulotlarga kiritiladi.

Joyida turib qo‘zg‘almas nishonlarga kunduzi o‘t ochish. Boshlang‘ich otish mashqini avtomatda (pnevmatik qurolda, otish trenajorida yoki dala sharoitida) bajarish

Nishonlar: ko‘krak shaklli doiralar bilan (4-nishon 0,75×0,75 m li taxtada joylashtiriladi) — harakatsiz; taxta yer sathi yuzida o‘rnatiladi



55-rasm. O‘t ochish chizig‘i.

(oraliqsiz); hujumga o‘tuvchi (qarshi hujumga o‘tuvchi) piyoda — bo‘yli shakl (8-nishon), cheklanmagan vaqtga paydo bo‘ladi.

Nishonlargacha bo‘lgan masofa: ko‘krak shakligacha — 100 m; hujumga o‘tuvchi (qarshi hujumga o‘tuvchi) piyodasigacha — 200 m.

Patronlar soni:

— avtomat uchun — 9 dona; karabin, 1891/30 y. namunali miltiq uchun — 5 dona, bulardan uchtasi doirali ko‘krak shakliga otish uchun.

Otish uchun vaqt: cheklanmagan.

Otish holati: yotib tirkagich bilan.

Baho: ikkita nishonni yo‘q qilish: «a’lo» — 25 ochko; «yaxshi» — 20 ochko; «qoniqarli» — 15 ochko.

Havo miltig‘idan tirda mashq bajarish

Nishon: doirali (56-rasm)


Nishongacha bo‘lgan masofa: 10 m

O‘qlar miqdori: 5 ta

Otish uchun vaqt: cheklanmagan

Otish holati: turib tirkagich bilan

Baho: «a’lo» — 45 ochko; «yaxshi» — 40 ochko; «qoniqarli» — 30 ochko.



56-rasm.

Nazorat savollari

1. Nishonlar qanday turlarga bo‘linadi?
2. Joyida turib qo‘zg‘almas nishonlarga kunduzi o‘t ochish va havo miltig‘ida tirda mashq bajarish uchun nechta patron ajratiladi?

AVTOMAT VA MERGANLIK MILTIG‘I BILAN «JANGGA» KOMANDASINI BAJARISH

«Jangga» komandasini turgan holda bajarish (o‘ng tomondan ko‘rinishi)






«Jangga» komandasini tizzada bajarish (o‘ng tomondan ko‘rinishi)



«Jangga» komandasini yotgan holda bajarish (o‘ng tomondan ko‘rinishi)



«Jangga» komandasini yotgan holda bajarish (o‘ng tomondan ko‘rinishi)

PISTOLET, GRANATOMYOT VA KALASHNIKOV PULEMYOTI BILAN «JANGGA» KOMANDASINI BAJARISH




«Jangga» komandasini yotgan holda bajarish (chap tomondan ko‘rinishi)



«Jangga» komandasini yotgan holda bajarish (o‘ng tomondan ko‘rinishi)



«Jangga» komandasini turgan holda bajarish (chap tomondan ko‘rinishi)



«Jangga» komandasini turgan holda bajarish (o‘ng tomondan ko‘rinishi)

57-rasm.

VI BO‘LIM. AMALIY HARBIY-JISMONIY TAYYORGARLIK

1-bob. UMUMJISMONIY TAYYORGARLIK

1.1. Ikkinchi erkin mashq majmuasi

Ikkinchi erkin mashq majmuasi insonning barcha guruh mushaklari ish faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida o‘n olti hisobda bajariladi:




Dastlabki holat — qad rostlab turish.



Bir — qo‘llar tekis, tirsaklar

kaftlar oshilib, barmoqlar



Ikki — qo‘llarni yuqoriga ko‘tarib, kaftlar ochilgan holatda bir-biriga qaratiladi, barmoqlar birlashgan, tana yuqoriga qarab tortiladi.



Uch — qo‘llar tirsakda bukilib, barmoq uchlari bilan yelkaga qo‘yiladi, tirsaklar tanaga yaqinlashtiriladi, ko‘krak qafasi yoyiladi.



To‘rt — chap yon tarafga keng qadam tashlab chap oyoq tizzada bukiladi va tana og‘irligi chap oyoqqa tushadi, qo‘llar ikki yon tarafga yelka sathida yerga parallel holatda ko‘tarilib, kaftlar ochiq holda yerga qaratiladi, boshni chapga burib nigoh chap qo‘l uchiga tashlanadi.



Besh — qo‘llar tirsakda bukilib, barmoq uchlari bilan yelkaga qo‘yiladi, tirsaklar tanaga yaqinlashtiriladi, ko‘krak qafasi yoyiladi



Olti — o‘ng yon tarafga keng qadam tashlab o‘ng oyoq tizzada bukiladi va tana og‘irligi o‘ng oyoqqa tushadi, qo‘llar ikki yon tarafga yelka sathida yerga parallel holatda ko‘tarilib, kaftlar ochiq holda yerga qaratiladi, boshni o‘ngga burib nigoh o‘ng qo‘l uchiga tashlanadi.



Yetti — qo‘llar tirsakda bukilib, barmoq uchlari bilan yelkaga qo‘yiladi, tirsaklar tanaga yaqinlashtiriladi, ko‘krak qafasi yoyiladi.



Sakkiz — sakrab oyoqlar keng ochilib, qo‘llarni yuqoriga ko‘tarib boshdan yuqorida kaftlar bog‘lanadi.



To‘qqiz — tana belda bukilib, bog‘lov qo‘llar yuqoridan pastga birga tushiriladi, shunda qo‘llar oyoqlar orasiga




O‘n — tana ko‘tarilib chap yonga buriladi, qo‘llar ikki yonga yelka sathida ko‘tarilib, kaftlar musht holatiga keltiriladi, bosh tana bilan chapga buriladi.



O‘n bir — tana belda bukilib, qo‘llar yondan bog‘lov holda pastga birga tushiriladi, shunda qo‘llar oyoqlar orasiga o‘tkaziladi, bosh pastga qaratiladi.



On ikki — tana ko‘tarilib o‘ng yonga buriladi, qo‘llar ikki yonga yelka sathida ko‘tarilib, kaftlar musht holatiga keltiriladi, bosh tana bilan o‘ngga buriladi.




O‘n uch — tana belda bukilib, qo‘llar yondan bog‘lov holda pastga birga tushiriladi, shunda qo‘llar oyoqlar orasiga o‘tkaziladi, bosh



O‘n to‘rt — tana to‘g‘rilanib, chap oyoq tovoni o‘ng oyoq tovoni yoniga keltirilib, tizzalar yarim o‘tirgan holatda bukiladi, qo‘llar oldinga yelka sathida ko‘tarilib, kaftlar ochilib bir-biriga qaratiladi. Bosh to‘g‘riga qaratiladi.



O‘n besh — yarim o‘tirgan holatdan balandga sakrab, qo‘llar tepaga ikki yonga ochiladi, kaftlar ochilib barmoqlar birlashtiriladi, oyoqlar esa havoda yelka kengligida ochilib bel bilan birga biroz orqaga bukiladi, bosh ham orqaga olinib nigohlar tepaga qaratiladi. Havodan pastga tushayotganda tana to‘g‘rilanib, oyoqlar tovonlari birashtirilib tizzalar yarim o‘tirgan holatda bukiladi, qo‘llar oldinga yelka sathida ko‘tarilib, kaftlar ochilib bir-biriga qaratiladi. Bosh to‘g‘




O‘n olti — dastlabki holat qabul qilinadi — qad rostlab turiladi.


1.2. Kuch mashqlari majmuasi



Ushlab



Bir — tana oldinga bukiladi, qo‘l uchlari oyoq uchlariga uzatiladi.





Qo‘llarga tayanib yotib, bir — qo‘llar tirsakda bukiladi, ikki — qo‘llar to‘g‘rilanadi, tana tekis holatda bo‘lishi shart.

Ushbu mashqni bajarish uchun bir daqiqa beriladi: 30 soniya — orqaga qo‘llarni tirsakda bukish va to‘g‘rilash mashqiga. Bajarilgan mashqlar soni jamlanadi va baho chiqariladi.

Toshni siltab ko‘tarish mashqi (58-rasm).

Toshning og‘irligi 16 kg. Turish holati — oyoqlar alohida, bir qo‘l bilan tepaga ko‘tarish va pastga tushirish, avval bir qo‘l bilan, undan so‘ng dam to‘g‘ri bo‘lishi bilan belgilanadi, qo‘llar almashuvi oldinga siltashda amalga oshiriladi. Tosh pastga tushirilgan holatda dam olish, bo‘sh qo‘l bilan tana qismlariga tegish taqiqlanadi.



58-rasm.


1.3. Chaqqonlik mashqlari majmuasi

Oldinga dumalash mashqi (59-rasm). Saf turishi holati, tayanib o‘tirish, boshni ko‘krakka eggan holda, oyoqlar bilan itarilish va guruhlanib, oldinga dumalab tayanib o‘tirish holatiga o‘tishni bajarish, turish.



59-rasm. Oldinga dumalash mashqi.

Orqaga dumalash mashqi (60-rasm). Saf holati, tayanib o‘tirish, boshni ko‘krakka eggan holda, guruhlanish holatini qabul qilib, orqaga dumalab, qo‘llarni kuch bilan to‘g‘rilash, tayanib o‘tirish holatiga o‘tish, turish.



60-rasm. Orqaga dumalash mashqi.

Yon tomonga aylanish mashqi (61-rasm). Saf holati, oyoq qadami bilan gavdani egish, chap oyoqni bukkan holda chap qo‘lni polga qo‘yish, o‘ng oyoqni silkish va chap oyoqning turtkisi bilan, qo‘llarga navbatma-navbat

navbatma-navbat itarilib va oyoqlarni tushirib, turish, oyoqlar ochilgan. Yon tomonga aylanish ikki tomonga ham bajariladi.




61-rasm.

Nazorat savollari


1. Ikkinchi erkin mashq majmuasini amalda bajarish.
2. Umumjismoniy tayyorgarlik mashqlarini amaldagi me’yorlarga binoan bajaring.
3. Chaqqonlik mashqlari majmuasini amalda bajarish.


2-bob. YAGONA TO‘SIQLAR YO‘LAGI (QATORI)DAN O‘TISH

2.1. To‘siqlar yo‘lagi elementlari va oshib o‘tish tartibi bilan tanishish. Alohida to‘siqlardan o‘tish usullari va ulardan oshib o‘tishni mashq qilish. To‘siqlar yo‘lagidagi to‘siqlar majmuasidan to‘liq o‘tishni o‘rganish



Transheyaga tushib, granata uloqtirishni mashq qilish.







G‘ishtli devordan o‘tishni mashq qilish.





Devor teshigidan o‘tishni mashq qilish.





Buzilgan ko‘prikdan o‘tishni mashq qilish.







Xandaqdan sakrab o‘tishni mashq qilish.

2.2. To‘siqlar yo‘lagidagi to‘siqlar majmuasidan to‘liq o‘tishni o‘rganish. Egallangan ko‘nikmalarni takomillashtirish

Yagona to‘siqlar qatorida quyidagi mashq bajariladi: masofa 200 metr.

Boshlang‘ich holat — to‘siqlar qatori oldidagi chiziqqa yotgan holat. «Olg‘a» komandasi berilganda:

1. Sakrab 20 metr yuguriladi va 2,5 metr kenglikdagi chuqurlikdan sakrab o‘tiladi.
2. Labirint yo‘laklardan yugurib o‘tiladi.
3. Xohlagan usulda 2 metrli devordan oshib o‘tiladi.
4. Vertikal narvon orqali buzilgan ko‘prikning ikkinchi qismiga chiqiladi. Balkadan yugurib borib, oxiridan yerga sakrab tushiladi.
5. Buzilgan pillapoyalarning uchinchi pog‘onasidan oshib o‘tiladi, lekin, albatta, oyoq yerga tegish sharti bilan to‘rtinchi pog‘onaning tagidan o‘tiladi.
6. Devorning derazasi orqali o‘tiladi.
7. Okop (xandaq)ga yugurib boriladi. Unga sakrab tushiladi va aloqa yo‘li orqali quduqqacha boriladi.
8. Yerdan granatani olib, devordagi derazalarning xohlagan biriga yoki devor ortidagi 2,5 metrli maydonchaga uloqtiriladi. Bunda 3 tagacha granata otishga ruxsat beriladi. Granatalarning og‘irligi 600 gr.
9. Quduqdan sakrab chiqib, devordan sakrab o‘tiladi.
10. Engashgan narvon orqali buzilgan pillapoyaning to‘rtinchi pog‘onasiga chiqiladi va pillapoya pog‘onalaridan yugurib tushiladi.
11. Vertikal narvon orqali buzilgan ko‘prikning balkasi ustiga chiqiladi. Undan yugurib borib, uzilgan joydan sakrab o‘tiladi va engashgan taxta orqali pastga yugurib tushiladi.
12. Ikki metrli kenglikdagi chuqurdan sakrab o‘tiladi, yo‘lakkacha o‘tib olib, to‘siqlar qatorining boshlanish chizig‘i kesib o‘tiladi.

Nazorat savollari

1. Yagona to‘siqlar yo‘lagi (qatori)dan o‘tishni amaliyotda bajaring.
2. To‘siqlar yo‘lagidagi to‘siqlar majmuasidan o‘tganda qanday mashqlar bajariladi?
3. To‘siqlar majmuasidan o‘tishda egallagan ko‘nikmalaringizni takomil-

1-bob. TINCHLIK DAVRIDA QO‘SHINLARNING TIBBIY TA’MINOTINI TASHKIL QILISH ASOSLARI

1.1. Tinchlik davrida harbiy qism tibbiyot punktining ishi

Qo‘shinlarning jangovarlik qobiliyati va shaylik darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi shaxsiy tarkib sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash hamda tibbiy ta’minotining asosiy mazmuni hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlar majmuyining asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

— shaxsiy tarkibning jangovar va jismoniy tayyorgarligini ta’minlashda nazorat, harbiy xizmatchilarga o‘z vaqtida belgilangan hajmda tibbiy yordam ko‘rsatish, tekshirish hamda davolash;

— qo‘shinlar ovqatlanishi, suv bilan ta’minlanishi, harbiy mehnat, hayot tarzi va maishiy xizmat ko‘rsatish ustidan gigiyenik me’yorlar, sanitar qoidalarga rioya qilish ustidan tibbiy nazorat olib borish;

— shaxsiy tarkib orasida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va bartaraf etish tadbirlari;

— shaxsiy tarkibning harbiy-tibbiy tayyorgarligi va gigiyenik tarbiyasi;

— qo‘shinlarning tibbiy anjomlar bilan ta’minlanishi, tibbiy hisobga olish va tibbiy hisobotni tashkil qilish.

Harbiy qism tibbiyot punkti davolash-profilaktika ishlarining o‘tkazilishida markaz hisoblanadi. Harbiy qism tibbiyot punktiga quyidagi vazifalar kiradi:

— shaxsiy tarkib sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash va uni tiklashga qaratilgan ilmiy jihatdan asoslangan profilaktika, davolash-tashxis chora-tadbirlarini tashkil qilish hamda o‘tkazish;

— harbiy xizmatchilarga ambulator, statsionar tibbiy yordam ko‘rsatish, alohida va yopiq garnizonlarda harbiylarning oila a’zolariga, ishchi hamda

— muhtoj bo‘lganlarning barchasiga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish;

— tibbiyot punkti shaxsiy tarkibi, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o‘tkazilishini amalga oshirish;

— shaxsiy tarkib jangovarlik tayyorgarligini oshirish, xo‘jalik faoliyati va harbiy qismda o‘tkaziladigan boshqa chora-tadbirlarning tibbiy ta’minlanishida ishtirok etish;

— brigada bo‘linmalarini kerakli tibbiy anjomlar bilan ta’minlash;

— shaxsiy tarkibning harbiy tibbiy tayyorgarligi, gigiyenik tarbiya ishlarini o‘tkazishda ishtirok etish vazifalari yuklatilgan.

Harbiy qism tibbiyot punktining tashkiliy shtati turlicha bo‘lishi mumkin. Tibbiyot punktida: tibbiyot punkti boshlig‘i, ikkita shifokor, shifokor-stomatolog, ikkita sanitariya yo‘riqchisi, dorixona boshlig‘i, oshpaz, katta haydovchi-radiotelefonchi, haydovchi-elektromexanik va haydovchi-sanitar mavjud.

Harbiy qism tibbiyot punktining asosiy bo‘linmalari bo‘lib, unga ambulatoriya, dorixona va lazaret kiradi.

Tibbiyot punktining ambulatoriyasi — shaxsiy tarkib kasal bo‘lib qolganida, zaharlanganida, shikastlanganida qabul qilish, shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, ambulator davolash ko‘rsatilishiga muhtoj bo‘lgan shaxsiy tarkibni davolash, tibbiy ko‘rik va tekshiruvdan o‘tkazish profilaktik emlash hamda sanitar-oqartuv ishlarini olib borish uchun mo‘ljallangan.

Tibbiyot punkti dorixonasida ikkita assistent xonasi, moddiy mollarni saqlash, yuvish xonasi, sterilizatsiya o‘tkazish, dezinfeksiyalovchi vositalarni saqlash xonalari jihozlanadi.

Tibbiyot punkti lazareti (statsionar) — davolanish vaqti 14—15 kundan oshmaydigan, yotib davolanishga muhtoj bemorlarni tekshirish va davolashga; tibbiy yordam ko‘rsatilgandan so‘ng harbiy gospitalga davolanish

kasalliklar bilan kasallanganlarni yoki unga gumon qilinayotgan bemorlarni harbiy gospitalga evakuatsiya qilingunga qadar, vaqtinchalik joylashtirishga; notransportbop bo‘lgan bemorlarni harbiy gospitalga jo‘natishdan oldin holahvoli qoniqarli bo‘lmaguncha statsionar davolash ishlari o‘tkazishga; sog‘lig‘i yomonligi uchun harbiy xizmatga noloyiq deb topilgan harbiy xizmatchilarni chaqirilgan mudofaa ishlari bo‘limlariga yuborgunga qadar, vaqtincha ushlab

Lazaretda qabul qilish xonasi sanitar propusknigi (vanna xonasi) bilan, kasallar uchun palatalar, navbatchi xonasi, shifokor xonasi, muolaja xonasi,

xonasi, kasallar kiyim-kechaklarini saqlash uchun ombor, toza va iflos choyshablarni alohida-alohida saqlash, gospital kiyim-kechaklari, sochiqlar, lazaret hamda ambulatoriya tibbiyot punkti mol-mulklarini saqlash xonalari bo‘lishi kerak.

Harbiy qism tibbiyot punktida bemorlarni qabul qilish tartibi ichki xizmat Nizomi bilan belgilanadi.

1.2. Harbiy gigiyena asoslari

Gigiyena — bu tashqi muhitning turli xil omillari ta’siri va ishlab chiqarish faoliyatining odam organizmiga ta’sir etishini, odam hayoti hamda mehnat sharoitini sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan amaliy chora-tadbirlarni o‘rganadigan fanning yo‘nalishidir.

Gigiyena o‘z ichiga bir qancha mustaqil yo‘nalishlarni, ya’ni ijtimoiy gigiyena, harbiy gigiyena, mehnat gigiyenasi, ovqatlanish gigiyenasi, suv ta’minoti gigiyenasi va boshqalarni qamrab oladi.

Harbiy gigiyena yo‘nalishining asosiy vazifasi — harbiy xizmatchilarning sog‘lig‘iga tashqi muhit va harbiy mehnatning xususiyatlari ta’sirini o‘rganish hamda zararli omillar ta’sirini yo‘qotish yoki ta’sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqarishdir. Harbiy gigiyenaning asosiy vazifasi tinchlik va urush davrida shaxsiy tarkibning sog‘lig‘ini mustahkamlash va saqlash hisoblanadi.

Shaxsiy gigiyena

Shaxsiy gigiyena — shaxsiy tarkib sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashga, jangovar va mehnat faoliyatini yuqori darajada ushlab turishga qaratilgan gigiyenik qoidalar to‘plamidir. Shaxsiy gigiyena o‘z ichiga tana, og‘iz bo‘shlig‘i, kiyim-bosh, poyabzal, mehnat va ish faoliyati intizomi hamda sog‘liq uchun zararli odatlarni yo‘qotishni qamrab oladi.

Tana parvarishi. Shaxsiy gigiyena qoidalari: ertalab yuvinish va tishlarni yuvish, tanani bel sohasigacha muzdek suv bilan artishni; har bir ovqat qabul qilishdan oldin qo‘lni yuvishni; uyquga ketishdan oldin tishlarni tozalash va

oyoqlarni yuvishni; o‘z vaqtida soch-soqol va tirnoqlarni olishni; muntazam ravishda ichki kiyim va yotoq choyshablarni almashtirgan holda hammomda cho‘milishni; paypoqlarni yuvishni; kiyim-bosh va poyabzallarni hamda yotoq joyini ozoda saqlashni ko‘zda tutadi.

Teri parvarishi. Terini tashqi ifloslanish, terlash, yog‘ bosishi, terining shoxsimon hujayralaridan va mikroorganizmlar tushishidan saqlash uchun muntazam ravishda yuvib turish kerak. Tirnoqlar ostida kir to‘planmasligi uchun ularni yaxshilab yuvish va har hafta kaltalashtirib turish kerak. Terini kichik jarohatlardan saqlash lozim, chunki ular mikroorganizmlar tushishini osonlashtiradi. Buning uchun maxsus kiyim, himoyalovchi pastalar va maxsus yuvish vositalaridan foydalanish kerak. Kichik jarohatlarni 5 % yod eritmasi, 2% brilliant yashili yoki antiseptik vositalar bilan tozalash zarur.

Toza havo, quyosh nuri, cho‘milish va boshqa jismoniy mashqlar teriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, bu esa terining tashqi ta’sirga bo‘lgan chidamliligini oshiradi.

Soch parvarishi. Sochlarning tozaligini saqlash uchun ularni haftada bir martadan kam bo‘lmagan holda, yuvish vositalari (shampun) bilan yuvish zarur, yog‘li sochlarni esa tez-tez yuvish kerak. Yuvgandan keyin sochlarni sochiq bilan quritiladi va taroq bilan taraladi.

Barcha harbiy xizmatchilar sochlarini kalta va bir tusda olib yurishlari kerak. Yuz terisini o‘z vaqtida parvarishlash uchun, kundalik soqol olib turilishi lozim. Soqol olish anjomlari, elektr ustaralarini ozoda saqlash kerak.

Tish parvarishi. Kasal tishlar mavjudligi ichki kasalliklarga sabab bo‘ladi. Tishlarni kuniga 2 mahal — ertalab va kechqurun uyqudan oldin yuvish kerak. Tish cho‘tkasi shaxsiy bo‘lishi va maxsus idishlarda saqlanishi kerak. Qattiq jismlarni (yong‘oq, danak, simlarni) tishlar bilan tishlash zararlidir. Har safar ovqatdan so‘ng og‘izni chayish kerak, aks holda og‘iz bo‘shlig‘ida, tishlar orasida qolib ketgan ovqat qoldiqlari tish emalining buzilishiga, tish toshlarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Tishlar davolanmagan holda kasallik tish ichiga o‘tib ketadi.

Oyoq parvarishi. Harbiy xizmatchi sog‘lig‘i va jangovar xususiyatini saqlashda oyoqlar tozaligiga ahamiyat berish va ularni to‘g‘ri parvarish qilish

Mexanik bosim oqibatida noto‘g‘ri tanlangan poyabzal va o‘lchami noto‘g‘ri tanlangan paypoqlar oyoq terisining ishqalanishiga olib keladi. Bu holat maxsus davolashni talab qiladi.

Oyoq terisiga zamburug‘li kasalliklar hammomlar, dushxonalar, sport zallari va o‘zgalarning oyoq kiyimini kiyish orqali yuqadi. Oyoq terisining kasallanishi shaxsiy gigiyenaga rioya qilmaslik oqibatidir. Uyqu oldidan botinka (etiklar)ni shippakka almashtirish maqsadga muvofiq. Yalangoyoq yurish orqali oyoq terisini chiniqtirish lozim. Oyog‘i ko‘p terlaydigan shaxslar, ayniqsa, oyoqlariga katta ahamiyat berishlari kerak. Ular paypoqlarini (paytavalarini) tez-tez yuvib turishlari zarur.

Harbiy turar joy gigiyenasi

Har bir vzvodni joylashtirish uchun yotoqxona (kazarma)da quyidagi xonalar bo‘lishi zarur: yotoqxona, dam olish xonasi, vzvod devonxonasi, qurol-yarog‘ saqlash xonasi, qurol-yarog‘ tozalash xonasi, sport bilan shug‘ullanish xonasi, harbiy xizmatchilar va vzvodning shaxsiy buyumlarini saqlash xonasi, chekish va poyabzal tozalash joyi, kiyimlar va poyabzal quritish xonasi, yuvinish xonalari, dush va hojatxonalar bo‘lishi kerak.

Ayol harbiy xizmatchilar uchun alohida yotoqxonalar yoki xonalar ajratiladi. Ular uchun ham mashg‘ulotlarga tayyorlanish, dam olish va yig‘ilishlar o‘tkazish uchun xonalar hamda dush va hojatxonalar ko‘zda tutiladi.

Muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilarni uxlash xonalarida joylashtirish bir kishiga kamida 12 m^3 hajmida havo to‘g‘ri kelishini hisobga olgan holda o‘tkaziladi. Xonadagi ventilatsion asboblar mavjudligi xonani shamollatishga to‘sqinlik qilmaydi.

Yuvinish xonasiga har 5—7 kishiga 1 ta yuvinish moslamasi o‘rnatiladi. Oyoq yuvish uchun 2 oqova suvli moslama va kiyimlarni yuvish uchun joy ajratiladi. Har bir vzvodga 15—20 kishiga mo‘ljallangan 1 ta dush moslamasi o‘rnatiladi.

Hojatxonalar toza saqlanishi, har kuni dezinfeksiya qilinishi, yaxshi ventilatsiya va yoritgich asboblariga ega bo‘lishi lozim.

Kiyim-kechak, kiyim boshlarni quritish xonalari harorati 30—50°C bo‘lishi, har bir vzvodga 15—18 m^2

Yotoqxonani shamollatish navbatchilar tomonidan bajariladi. Yotoqlarni yotish oldidan yoki ertalab, sinf xonalarini mashg‘ulotlardan avval yoki tanaffus vaqtlarida shamollatiladi.

Xonani tozalash ishlari. Havoning tozaligi mikrob va changlardan asraydi. Shu maqsadda har kuni xonani nam latta bilan tozalab turiladi. Bir haftada bir marta umumiy tozalash ishlari — pollarni yuvish, eshik, oynalarni ochib shamollatish, o‘rin-ko‘rpalarni ochiq havoda quritish ishlari bajariladi. Tibbiyot ko‘rsatmasiga asosan xonani nam xlorli eritma bilan tozalash tavsiya etiladi.

Ovqatlanish gigiyenasi

Ovqatlanish sog‘liqni saqlash va uni mustahkamlash, qo‘shinlar jangovarlik qobiliyatini ushlab turishning asosiy omillaridan biridir. Ovqatlanish armiyada harbiy xizmatchining fiziologik ehtiyojini ratsion bo‘yicha ta’minlaydi, bu esa bir qancha hazm bo‘luvchi moddalar to‘plamini aniqlab beradi. Odam organizmida doimiy ravishda turli moddalar ishtirokida oksidlanish va qayta tiklanish jarayonlari o‘tib turadi. Organizm tomonidan sarflangan barcha kuchni qayta o‘rniga keltirish uchun organizmga turli oziqa moddalari: oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, vitaminlar, mineral tuz va suv yetkazib berish shartdir.

Oqsillar hayot manbayi hisoblanadi. Oqsillarning asosi bo‘lib hayvon va o‘simliklarning oziq moddalari: go‘sht, baliq, tuxum, sut, non, yorma va sabzavotlar hisoblanadi. Kishilarning oqsilga bo‘lgan bir kunlik talabi 80—100 g ni tashkil etadi.

Uglevodlar quvvatning asosi bo‘lib, oziq-ovqatning energetik quvvatini (50—60%) tashkil qiladi. Uglevodga bo‘lgan kundalik talab 400—500 g. Uglevodlar o‘simlik moddalarida shakarlar ko‘rinishida bo‘ladi. Uglevodning manbayi bo‘lib non, kartoshka, sabzavot va yormalar hisoblanadi.

Yog‘lar — quvvatning asosiy manbayidir. Yog‘ning har bir grami organizmda oqsil yoki uglevodga nisbatan ikki barobar ko‘p quvvatni beradi. Yog‘lar ovqat hajmini oshirmasdan turib, uning faqat energetik qiymatini oshirish imkoniyatiga ega. Yog‘lar yog‘da eruvchi vitaminlarning (A, D, E) asosiy manbayidir. Yog‘ga bo‘lgan kundalik ehtiyoj 80—100 g ni tashkil etadi (har bir kg vazniga 0,7—1 g).

Mineral moddalar (tuzlar) — turli tizim va a’zolarga o‘z ta’sirini ko‘rsatib

tarkibining almashtirilmaydigan qismi hisoblanadi. Kalsiy, kaliy, natriy, magniy, fosfor va temir tuzlari organizm uchun katta ahamiyatga egadir.

Kalsiy, fosfor, magniy tuzlari suyak tizimining asosiy tarkibiy qismidir. Fosfor nerv tolalari tarkibiga kiradi. Temir moddasi esa qondagi gemoglobinning tarkibiy qismi bo'lib, kislorodni to'qimalarga yetkazib beradi. Natriy va kalsiy suv almashinuvini boshqarib, kislotaning asosiy muvozanatini ushlab turadi. Mis tuzi qon ishlab chiqarish jarayonida katta ahamiyatga ega. Ftor moddasi yetishmasligi tishlardagi kariyes kasalligi rivojlanishiga olib keladi. Yod moddasining yetishmasligi natijasida endemik buqoq kasalligi kelib chiqadi. Go'sht, baliq, sut, sabzavot, non va yormalarda bir qancha mineral moddalar mavjud.

Suv oziq-ovqat mahsulotlarida turli miqdorda bo'ladi. Ammo, uning ma'lum miqdori suvni iste'mol qilish orqali organizmga kiradi. Suv har bir

miqdori ancha ko'p bo'ladi, qonda — 80% ni, jigarda, miya va terida — 70% ni tashkil etadi.

Vitaminlar — biologik jihatdan turli yuqori faollikka ega bo'lgan organik moddalar bo'lib, u moddalar almashinuvi jarayonida asosiy o'rinni egallaydi. Vitaminlar ichki organizm muhitini, uning asosiy tizimlari ish faoliyatini yaxshilaydi, turli yuqumli kasalliklarga chidamlilik darajasini oshiradi. Vitaminlar ikki guruhga bo'linadi — yog'da eruvchilar (A, D, E, K) va suvda eruvchilar (B, C).

Agarda organizmning vitaminlarga bo'lgan ehtiyoji iste'mol qilinadigan mahsulotlarda yetarli darajada bo'lmasa (qish mavsumida, zo'riqib mehnat qilishda, kasallik vaqtida), shifokor ko'rsatmasiga binoan turli vitaminli preparatlar qabul qilinadi.

Ovqatlanish rejimi — sog'liqni saqlash va organizmning turli jangovar-

bo'yicha sutkalik ratsional me'yoriy ta'minot quyidagicha taqsimlanishi mumkin: nonushtaga — 30—35%, tushlikka — 40—45%, kechki ovqatga — 20—25%.

Tayyorlangan taom sifatini nazorat qilish. Tayyorlangan ovqatni taqsimlashdan oldin shifokor (feldsher, sanitariya yo'riqchisi) harbiy qism navbatchisi bilan birgalikda taom sifati va oshxona sanitariya holatini, oshxona idishlari hamda asbob-anjomlar tozaligini tekshirib ko'radi.

Shifokor (feldsher, sanitariya yo'riqchisi) tekshirish natijalarini

Dala sharoitida ovqatlanish xususiyatlari. Dala sharoitida shaxsiy tarkibning ovqatlanish rejimi bajariladigan vazifalarning xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, issiq ovqat kuniga 3 marta beriladi. Agarda 3 mahal issiq ovqat tayyorlashning imkoni bo‘lmasa, unda 2 marta issiq ovqat pishirilishi ta’minlanadi. Bunday holatlarda ikki mahalli ovqatlanish oralig‘ida qo‘shimcha taom sifatida non va go‘shtli-o‘simlik konservalari beriladi. Tayyorlangan ovqatlar bo‘linmalarning shaxsiy tarkibiga termoslarda ham yetkazilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Harbiy qismlar tibbiy ta’minotining asosiy yo‘nalishlari qaysilar?
2. Tinchlik davrida harbiy qism tibbiyot punktiga qanday vazifalar yuklatiladi?
3. Tibbiyot punktining asosiy bo‘linmalari nimalardan iborat?
4. Harbiy gigiyena yo‘nalishining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
5. Shaxsiy gigiyenaga nimalar kiradi?
6. Harbiy turar joy gigiyenasiga ta’rif bering.
7. Ovqatlanish gigiyenasida nimalarga e’tibor qaratish kerak?

2-bob. URUSH VAQTIDA QO‘SHINLARNING TIBBIY TA’MINOTINI TASHKIL QILISH ASOSLARI

Urush vaqtida qo‘shinlarning tibbiy ta’minoti harbiy xizmatchilarning sog‘lig‘ini saqlash, qo‘shinlarning sanitariya-epidemik holatini ko‘ngildagidek ushlab turish, yarador va bemorlarga o‘z vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni evakuatsiya qilish va davolash hamda shaxsiy tarkibning jangovarlik qobiliyatini (ish qobiliyatini) qisqa vaqt ichida tiklashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘tkazishga asoslangan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan chora-tadbirlarni bajarish uchun, har bir bo‘linma, muassasa (harbiy qism) oldiga aniq vazifalar qo‘yiladi. Har qanday jangovar harakatlarni olib borish davrida yaralanishning oqibati, avvalambor, birinchi tibbiy yordamning ko‘rsatilish vaqtiga va uning sifatiga bog‘liq.

Yaradorlarni jang maydonidan olib chiqib ketish masalasini olsak, u jangovar harakatlar sharoitlariga bog‘liq bo‘lmagan holda, sutkaning har qanday vaqtlarida va ob-havoning har qanday sharoitlarida, uzluksiz ravishda

2.1. Urush vaqtida bo'linmalar va harbiy qismlarda davolash-evakuatsiya chora-tadbirlarini o'tkazish asoslari

Jangovar harakatlarni yuqori sur'atda, uzluksiz, kecha-yu kunduz, keng front bo'ylab olib borish tibbiy xizmat oldiga bir qator talablarni qo'yadi. Bu talablarni bajarish, jangovar harakatlar olib borish vaqtida bo'linmalar va harbiy qismlarni tibbiy ta'minlash masalalarini muvaffaqiyatli yechishda katta ahamiyatga ega bo'lgan omillardan hisoblanadi.

Jangovar harakatlar olib borish davomida shaxsiy tarkib orasida sezilarli darajada va turli xarakterga ega bo'lgan yo'qotishlarning sodir bo'lishi kutiladi. Bundan tashqari, tibbiy xizmat bo'linma va qismlar tibbiy tarkibining shikastlanish xavfi doim mavjud bo'lgan sharoitlarda ishlashiga to'g'ri keladi. Jang maydonidagi yarador va bemorlarning qayta jarohatlanish xavfi doimo mavjud.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha jangovar, front orti va tibbiy vaziyat omillari tibbiy xizmat faoliyatining barcha jabhasida o'zining hal qiluvchi ta'sirini o'tkazadi. Shunga bog'liq holda yarador va bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, ularni davolashni tashkil qilishning maxsus tizimiga ega bo'lish talab qilinadi. Bunday tizim yarador va bemorlarni evakuatsiya bosqichlarida davolash tizimi deb ataladi.

Qo'shinlarni zamonaviy davolash-evakuatsiyasini ta'minlash tizimining mohiyati tibbiy evakuatsiya bosqichlarida yarador va bemorlarga o'z vaqtida, ketma-ket va uzviy ravishda davolash chora-tadbirlarini amalga oshirish, vaziyatni va aniq sharoitlarni hisobga olgan holda yarador va bemorlarni tibbiy ko'rsatmalarga ko'ra, maxsus davolash muassasalariga evakuatsiya qilish bilan birga olib borishdan iborat.

Yo'llanmaga ko'ra yarador va bemorlar tibbiy evakuatsiyasi bosqichlari davolashning zamonaviy tizimi asosida o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

— jarohatlangan organizmda bo'layotgan patologik jarayonni bir xil tushunish;

— yaradorlarni davolash va asoratlarning oldini olishga bir xil e'tibor berish;

— tibbiy evakuatsiya bosqichlarida tibbiy chora-tadbirlarni o'z vaqtida, ketma-ket va uzviyligini saqlagan holda bajarish.

Barcha tibbiy evakuatsiya bosqichlarida tibbiy hujjatlarni to'g'ri to'ldirib

tibbiy saralashni hamda keyingi bosqichlarga evakuatsiya qilishni to‘g‘ri amalga oshirishni ta’minlaydi.

2.2. Tibbiy yordam turlari. Harbiy qismda tibbiyot punktining vazifalari

Zamonaviy davolash-evakuatsiya chora-tadbirlari tizimida yarador va bemorlarga tibbiy yordam qismlarga ajratib ko‘rsatilishi ko‘zda tutiladi. Bunda, yarador va bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish jang maydonidan boshlab ketma-ket ravishda ularni evakuatsiya qilishdan, to ular davolanish joyiga yetgungacha olib borilishi qabul qilingan.

Butun tibbiy chora-tadbirlar majmuasi alohida tibbiy yordam turlariga ajratilgan. Tibbiy yordam turi deb, jang maydonlarida va tibbiy evakuatsiya bosqichlarida qo‘shinlar shaxsiy tarkibi va tibbiy xizmat shaxsiy tarkibi tomonidan shikastlanganlarga (yarador va kasal bo‘lganida) ko‘rsatiladigan barcha aniq belgilangan davolash-profilaktik chora-tadbirlar majmuasiga aytiladi.

Qo‘shinlarni davolash jarayonida quyidagi besh turdagi tibbiy yordam ko‘rsatilishi ko‘zda tutiladi: birinchi tibbiy yordam, shifokor (feldsherlik) gacha bo‘lgan tibbiy yordam, birinchi shifokor yordami, malakali tibbiy yordam, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam.

Birinchi tibbiy yordam jarohat olgan joyning o‘zida (jang maydonida, tomonidan hamda jarohat olgan harbiy xizmatchining o‘ziga o‘zi va o‘zaro bir-biriga ko‘rsatiladi. Ommaviy sanitar yo‘qotishlar paydo bo‘lganda, jarohatlanganlar birinchi tibbiy yordamni, asosan, o‘ziga o‘zi va o‘zaro tibbiy yordam ko‘rsatish bilan amalga oshiradilar. Bundan tashqari, qutqaruv ishlarini amalga oshirish uchun ajratilgan bo‘linmalarning shaxsiy tarkibi tomonidan ham yordam ko‘rsatiladi.

Shifokorgacha bo‘lgan tibbiy yordam harbiy qism tibbiyot punktining kuch va vositalari yordamida ko‘rsatiladi. Bu tarkibga feldsher, sanitariya yo‘riqchisi va sanitarlar kiradi.

Shifokorgacha bo‘lgan tibbiy yordam ko‘rsatilgan birinchi tibbiy yordam chora-tadbirlarini to‘ldirib, yarador va bemorlar hayotiga xavf solayotgan

Shifokorgacha bo‘lgan tibbiy yordam ko‘rsatish uchun harbiy qism tibbiyot punkti tabelli jihozlari va shaxsiy tarkibning tibbiy vositalari ishlatiladi, bularga: steril bog‘lov materiallari komplekti, qo‘shinlar tibbiy sumkalari, o‘pkani sun’iy ventilatsiya qilish uchun qo‘llaniladigan ДГТ-10 rusumli portativ qo‘l apparati, КИ-4 rusumli kislorod ingalatori, dala feldsheri komplekti, sanitar zambillar va sanitar avtomobili kiradi.

Birinchi shifokor yordami umumiy malakali shifokor tomonidan brigada tibbiyot punktida va tibbiy otryadlarda ko‘rsatiladi. Bundan asosiy maqsad yarador va bemorlar hayotiga xavf solayotgan jarohat (kasallik)lar oqibatlarini yo‘qotish, og‘ir asoratlar (shok, yara infeksiyasi) paydo bo‘lishining oldini olish va keyingi tibbiy evakuatsiya bosqichiga tayyorlashdir. Jarohatlanish olgan vaqtdan boshlab birinchi shifokor yordamini ko‘rsatishgacha bo‘lgan eng opitimal vaqt 4—5 soat hisoblanadi.

Malakali tibbiy yordam alohida tibbiy otryadda shifokor-jarrohlar va shifokor-terapevtlar (malakali jarrohlik yoki malakali terapevt yordami) tomonidan ko‘rsatiladi. Kerak bo‘lganida ushbu yordam harbiy dala gospitallarida ham ko‘rsatiladi.

Ushbu tibbiy yordam ko‘rsatishdan asosiy maqsad jarohatlanish va kasallanishlar natijasida paydo bo‘lgan, hayot uchun xavfli og‘ir oqibat va

yo‘lshmovchiligi va boshqalar)ni bartaraf etishdir. Shuningdek, rivojlanishi mumkin bo‘lgan asoratlarning oldini olish, yarador va bemorlarni keyingi tibbiy bosqichlarga evakuatsiya qilish uchun o‘tkaziladigan chora-tadbirlarni o‘tkazishdir. Jarohat olgan vaqtdan boshlab malakali tibbiy yordam ko‘rsatishning eng optimal vaqti 8—12 soat hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni maxsus davolash, tashxis qo‘yish jihozlari bilan ta’minlangan davolash muassasalarining shifokor-mutaxassislari o‘tkazadilar.

Ma’lum bir guruhdagi yarador va bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan tibbiy muassasalarning mavjudligi orqali tibbiy yordam ixtisoslashtirilishi mumkin. Ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni tashkil qilish uchun, tibbiy otryadlar yordamida aniq yo‘llanmaga ko‘ra evakuatsiya qilish amalga oshirilgan bo‘lishi kerak.

Harbiy qism tibbiyot punkti ishini tashkil qilish. Har bir harbiy qismda tibbiyot punkti tashkil qilinadi. Tibbiyot punktining asosiy vazifalari jang maydonida

ommaviy sanitar yo‘qotishlar o‘chog‘idan olib chiqish (yuklab olib chiqish), batalyon bo‘limlarida faol bemorlarni aniqlash, yarador yoki bemorlarga shifokorgacha bo‘lgan birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish, ularni keyingi bosqichga evakuatsiya qilish uchun tayyorlash, harbiy qismda sanitariya-gigiyena, epidemiyaga qarshi, harbiy qism shaxsiy tarkibini dushmanning ommaviy qirg‘in qurollaridan muhofaza qilish chora-tadbirlarini o‘tkazish hisoblanadi.

Tibbiyot punkti zimmasiga harbiy qismlar joylashgan hududlarda va jangovar harakatlar olib borilayotgan joylarda tibbiy qidiruv olib borish, harbiy qism shaxsiy tarkibini profilaktik hamda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish vositalari bilan, sanitariya yo‘riqchilarini esa tibbiy anjomlar bilan ta’minlash yuklatilgan bo‘ladi.

Tibbiyot punkti yarador va bemorlarni yig‘ish, ularga tegishli tibbiy yordam ko‘rsatish va evakuatsiya qilish uchun quyidagilar bilan ta’minlanadi: «Dala feldsherlik komplekti, qo‘shinlar tibbiy sumkasi, Б-1 «Steril bog‘lov vositalari» komplekti, Б-2 «Shinalar» komplekti, ДП-10.02 rusumli o‘pkani sun’iy ventilatsiya qilish uchun qo‘llaniladigan qo‘l portativ apparati, КИ-4 kislorod ingalatori, boshidan yaralanganlar uchun ШР shlem-niqobi, sanitar (tasma) hamda maxsus Ш-4 lyamkasi, sanitar zambil va boshqalar.

Tibbiyot punktining barcha tibbiy tarkibi qizil yarim oy tasviri tushirilgan bog‘ich bilan ta’minlanadi. Bundan tashqari, harbiy qism tibbiyot punkti jihozida sanitariya avtomobili va aloqa vositalari mavjud bo‘lishi kerak.

Tibbiyot punkti boshlig‘i harbiy qismda joylashgan va jangovar harakatlar olib borayotgan hududda tibbiy qidirish tashkil qiladi. Shuningdek, shaxsiy tarkib orasida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o‘tkazib, harbiy qism sanitariya-gigiyena holati ustidan nazorat o‘tkazib boradi. Tibbiyot punkti boshlig‘i dushman ommaviy qirg‘in qurollarini qo‘llashi natijasida vujudga kelgan oqibatlarni bartaraf etish uchun harbiy qism tibbiyot punkti shaxsiy tarkibini doimiy shay holatda ushlab turishga javob beradi.

Tibbiyot punkti boshlig‘i jangovar harakatlar olib borish orasidagi davrda harbiy qism shaxsiy tarkibiga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish qoidalari va usullarini o‘rgatib, yaradorlarni jangovar texnikalardan chiqarib olish,

vositalari, shaxsiy aptechka hamda qo‘shinlar aptechkasidan foydalanishni o‘rgatadi.

Vzvod sanitariya yo‘riqchisining vazifasi. Har bir harbiy qism vzvodida sanitariya yo‘riqchisi bo‘lishi kerak. U bevosita vzvod komandiriga, ichki xizmat tartibi bo‘yicha esa vzvod starshinasiga bo‘ysunadi. Maxsus masalalar bo‘yicha harbiy qism tibbiyot punkti boshlig‘i ko‘rsatmalarini bajaradi.

Sanitariya yo‘riqchisi jangovar harakatlar vaqtida vzvodning jangovar tartibida harakat qiladi. Vzvod sanitariya yo‘riqchisi:

— vzvod oldiga qo‘yilgan vazifani, harbiy qism tibbiyot punkti joyi va harakat qilish tartibini bilishi;

— jang maydonida yarador va bemorlarni qidirib topishni tashkil qilishi, amalga oshirishi, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishi, ularni bir joyga to‘plashi, yashirish hamda joylarni belgilashni bilishi;

— yarador va bemorlarni ikkilamchi jarohatlanishdan himoya qilish uchun «yaradorlar uyalarida» berkitish choralarini ko‘rishi, berkinish joylarini shartli belgilar yoki radiosignal uskunalar bilan belgilash uchun kompleksli chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsan o‘zi ishtirok etishi;

— jang maydonidan olib chiqib ketishga muhtoj bo‘lgan yarador yoki kasallar soni, shu maqsadda qo‘llanilishi uchun kerak bo‘lgan kuch hamda vositalar to‘g‘risida vzvod komandiri va harbiy qism tibbiyot punkti boshlig‘iga bildiruv berishi;

— o‘qchi-sanitarlar tomonidan ko‘rsatilgan birinchi tibbiy yordam va o‘z-o‘ziga, o‘zaro ko‘rsatilgan yordamning o‘z vaqtida, sifatli ko‘rsatilganligini nazorat qilib borishi;

— vzvod shaxsiy tarkibi sog‘lig‘ini saqlash, joylarda sanitariya-gigiyena va epidemik holatni me’yorida ushlab turish ustidan nazorat olib borishi;

— vzvod shaxsiy tarkibini dushman ommaviy qirg‘in qurollaridan muhofaza qilish uchun choralarni amalga oshirishi kerak.

Sanitariya yo‘riqchisi vzvod shaxsiy tarkibi va shtatdan tashqari o‘qchi-sanitarlarni shaxsiy bog‘lov paketlari (ППИ, ППУ), shaxsiy kimyoga qarshi

to‘xtatish uchun qo‘llaniladigan rezinali jgut, tibbiy ro‘mol hamda shaxsiy flyajkadagi suvni zararsizlantiruvchi tabletkalar bilan ta’minlaydi.

Sanitariya yo‘riqchisi quyidagi tabelli vositalar: sanitar lyamkasi

tibbiy sumkasi (QTS), boshidan yaralanganlar uchun ШП shlem-niqobi, og‘izdan og‘izga usuli bilan sun’iy nafas oldirish uchun ТД-1 nayi, simli shinalar, «yaradorlar uyasi»ni belgilash uchun maxsus belgilar yoki radiopelengatsion komplekt, kechasi ko‘radigan asbob va qizil yarim oy belgisi tushirilgan qo‘lga taqadigan bog‘lov bilan ta’minlanadi.

Bundan tashqari, sanitariya yo‘riqchisi har bir harbiy xizmatchida bo‘ladigan shaxsiy qurol, gazniqob, umumharbiy himoya to‘plami, shaxsiy flyajka, kichik sapyor kurakchasi bilan jihozlanadi.

O‘qchi-sanitarlarning vazifalari. Har bir harbiy qism guruhi (seksiya)da bitta shtatdan tashqari o‘qchi-sanitar tayinlandi. 5—10 kunlik sanitarlar tayyorlash rejasi bo‘yicha maxsus o‘qishni tugatgan harbiy xizmatchi o‘qchi-sanitar qilib tayinlanadi.

O‘qchi-sanitarlar jangovar harakatlar olib borish vaqtida o‘qchi vazifasini bajaradilar. Bundan tashqari, ular jang maydonida yaradorlarni qidirib topib, jangovar vaziyatning har qanday sharoitlarida zarur bo‘lgan birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda ishtirok etadilar. O‘qchi-sanitar jang olib borilayotgan maydonni to‘xtovsiz kuzatib borishi kerak. Yaradorlar joyini esida saqlab qolishi, tez izlab topishi, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishi, og‘ir yaradorlarni qayta jarohatlanish va jangovar texnikalar bosib ketishi mumkin bo‘lgan joylardan berkinish joylariga sudrab, olib o‘tishi kerak. Jang maydonidan yaradorlar bilan birga, ularning shaxsiy quroli ham olib chiqiladi.

Yaradorlar joylashtirilgan joylarni yaxshi ko‘rinadigan belgilar bilan belgilab qo‘yish kerak. Dushman tomonidan ommaviy qirg‘in qurollari qo‘llanilganida, o‘qchi-sanitar yaradorlarga shaxsiy kimyoga qarshi paket yordamida qisman sanitariya ishlovi o‘tkazadi. O‘qchi-sanitar qo‘shinlar tibbiy sumkasi (QTS) bilan ham ta’minlanadi.

Nazorat savollari

1. Urush vaqtida bo‘linmalar va harbiy qismlarda davolash-evakuatsiya chora-tadbirlariga nimalar kiradi?
2. Tibbiy yordam turlarini gapirib bering.
3. Harbiy qism tibbiyot punktining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
4. Vzvod sanitariya yo‘riqchisining vazifalariga nimalar kiradi?

3-bob. YARADOR BO‘LGANDA VA YOPIQ JAROHATLANISHLARDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO‘RSATISH

Kasal va yaradorlar sog‘lig‘ini tiklash uchun turli davolash chora-tadbirlarini o‘tkazish talab etiladi. Bir martalik davolash chora-tadbirlari jang maydoni va tibbiy evakuatsiya bosqichlarida ko‘rsatiladigan alohida tibbiy yordam turlariga bo‘linadi.

Tibbiy yordamning beshta turi qabul qilingan: birinchi tibbiy yordam; shifokorgacha bo‘lgan (feldsher) yordam; birinchi shifokorlik yordami; malakali tibbiy yordam; ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam. Sanitariya yo‘riqchisi birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda ishtirok etadi va shifokorgacha bo‘lgan (feldsher) yordamni ko‘rsatishga jalb etiladi.

3.1. Birinchi tibbiy yordam tushunchasi. Jarohat turlari

Birinchi tibbiy yordam — qoida bo‘yicha jarohat olgan yoki kasallik rivojlangan joyda o‘ziga o‘zi (yaradorning o‘zi bajaradi) yoki o‘zaro yordam tariqasida (do‘sti tomonidan) hamda o‘qchi-sanitarlar, sanitarlar, sanitariya yo‘riqchilari va boshqa tibbiy tarkib tomonidan ko‘rsatiladi. Buning uchun shaxsiy aptechka (АИ), shaxsiy bog‘lov paketi (ППИ), shaxsiy kimyoviy paket (ИПП), qo‘shinlar tibbiy sumkasidagi (СМВ) vositalar, sanitar sumkasi va qo‘l osti vositalari ishlatiladi (62-rasm).

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishdan asosiy maqsad, yarador hayotini saqlab qolish, olgan jarohatlanish og‘ir oqibatlarining oldini olish yoki xavfsiz ravishda evakuatsiya qilishni ta’minlash, jarohatlanganlarga radioaktiv, zaharlovchi va boshqa zararli vositalar ta’sirlarini kamaytirish yoki to‘liq yo‘qotish hisoblanadi.

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish chora-tadbirlari juda ham oddiydir. Jang maydonida jarohatlanganlarga ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordamga quyidagilar kiradi:

— jarohatlanganlarni qidirish, ularni jangovar mashinalar, turli inshootlar, bosib qolgan joylardan qutqarish;

— jarohatlanganlarning yonayotgan kiyim-boshini, jarohatlangan



a *b* *d*

62-rasm. a — shaxsiy aptechka (АИ); *b* — shaxsiy bog‘lov paketi (ППИ); *d* — shaxsiy kimyoviy paket (ИПП); *e* — qo‘shinlar tibbiy sumkasi (СМВ).

— ochiq turdagi qon ketishini vaqtincha to‘xtatish (magistral qon tomirini barmoq bilan bosib turish, qon to‘xtatuvchi jgutlar yoki bosib turuvchi bog‘lovlar yordamida);

— asfiksiyaning oldini olish yoki uni bartaraf etish uchun yuqori nafas yo‘llarini qon, shilliq modda va yot jismlardan xalos etish;

— tilning orqaga ketib qolishining oldini olish uchun fiksatsiya qilish, nafas olish trubkasini og‘ziga kiritish;

— nafas olishi, qon aylanishi aniqlanmaganda sun’iy nafas oldirish va yurakni yopiq massaj qilish;

— jarohatlangan joy yoki kuygan yuzaga himoyalovchi bog‘lam qo‘yish, ochiq pnevmotoraksda esa shaxsiy bog‘lov paketining rezinalangan qoplamasi yordamida okkluzion bog‘lov qo‘yish;

— jarohatlangan joylarni oddiy qo‘l ostidagi vositalar bilan immobilizatsiya qilish;

— og‘riqsizlantiruvchi va ziddi-zahar (antidot) vositalarini shpris-tyubiklar yordamida mushaklar orasiga yuborish;

— shaxsiy aptechkadagi radioprotektor va antibiotiklarni ichish uchun berish;

— jarohatlanganlarga gazniqob va himoya kiyimlarini kiydirish (zararlanish joylarida bo‘lgan vaqtlarida) hamda zudlik bilan zararlangan hududdan olib chiqish;

— yaradorlarga qisman sanitar ishlovini o‘tkazish.

Yonayotgan kiyim-kechaklar yoki yonuvchi aralashmalarni o‘chirish. Kiyim-kechaklar yonishi, yonuvchi moddalar ta’siri (napalm, termit, pirogel), atom bombasining portlashi natijasida ajralib chiqqan yorug‘lik nurlanishi, zarba to‘lqinining qizib ketgan havosi ta’siri va mudofaa inshootlarida, binolarda, jangovar texnikalarda yuz bergan yong‘inlar alangasi ta’siri ostida vujudga keladi.

Teri yoki kiyim-kechaklarga kamdan kam tushgan napalm qorishmasi jarohatlanganning o‘zi yoki do‘sti yordamida, yonayotgan joy qo‘l ostidagi bushlat (shinel), kurtka, plash-yopinchiq yoki nam tuproq, qor bilan qalin qilib yopiladi. Tananing chegaralangan qismida napalm yonayotgan bo‘lsa, shu yerga bir necha qavat bint bog‘lanadi, odam yuzida yonayotgan bo‘lsa, tezlik bilan gazniqob kiygiziladi. Qish vaqtida kiyim-kechak ustiga qalin qor tashlab, yoz vaqtida tuproq yoki qum sepish orqali o‘chirish mumkin. Kiyim-kechaklardagi yonishlar o‘chirilgandan so‘ng yonish sodir bo‘lgan joylardagi kiyim-kechak va ichki kiyim (ko‘mirga aylanib, teriga yopishib qolgan joylarga aseptik bog‘lov (fosfor bilan kuyishlarda namlangan bog‘lov) qo‘yiladi. Kuyish bo‘lgan joylar ustidan kiyim-kechakni sidirib olish va pufaklarni ochish tavsiya etilmaydi. Tananing katta ko‘lamda kuyishi sodir bo‘lganda jarohatlanganga og‘riqsizlantiruvchi vosita beriladi.

Qon ketishini vaqtinchalik to‘xtatish. Qon ketishi faqat og‘ir asoratlarga olib kelib qolmasdan, jarohatlangan yaradorning o‘limiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yaradorga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatilishidan asosiy maqsad, qon ketishini vaqtinchalik to‘xtatishdir.

Tashqi qon ketayotganda, yirik arteriyalar barmoqlar bilan bosiladi, jgut yoki bosuvchi bog‘lam qo‘yiladi va yaradorning qo‘l-oyoqlar bo‘g‘imlarini egish, bukish, qayirish orqali ham qon ketishini to‘xtatish mumkin.

Odam tanasida jgut (bog‘lov) qo‘yib, qon ketishini to‘xtatish joylari 20 tani tashkil qiladi. Lekin amaliyotda faqatgina bir nechtasidan foydalaniladi.

Yara yoki kuygan yuzalarga aseptik bog‘lovlar qo‘yish. Aseptik bog‘-lovlarni jang maydonida qo‘yish uchun aniq belgilangan qoidalarga rioya qilish kerak. Yaraga qo‘lni tekkizish, yaradan kiyim-kechak qoldiqlari, bo‘laklar va boshqa yot jismlarni olib tashlash tavsiya etilmaydi. Qorin bo‘shlig‘idan chiqib ketgan ichki a’zolarni joyiga qo‘yish man etiladi.


Asfiksiyaning oldini olish yoki uni bartaraf etish. Og‘ir jarohatlanish va zaharlanishlar nafas olishning to‘satdan to‘xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Nafas olishni tiklash uchun sun’iy nafas oldirish muolajalari o‘tkaziladi. Sun’iy nafas oldirishning bir nechta samarali usullari mavjud, lekin ular foydali bo‘lishi uchun nafas olish yo‘llarining o‘tkazuvchanligi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

Tilning orqaga ketishi nafas olish yo‘llarining bekilib qolishiga sabab

boshqa yot jismlar nafas yo‘llari bekilib qolishining ikkinchi sababchisi bo‘lishi mumkin.


Nafas yo‘llarining o‘tkazuvchanligi tiklangandan so‘ng darhol sun’iy nafas oldirishga kirishiladi. Sun’iy nafas oldirishning «og‘izdan og‘izga» va «og‘izdan burunga» usullari eng oddiy va samarali hisoblanadi. Agar nafas olish tiklanmasa, S shaklida bo‘lgan havo o‘tkazgich (63-rasm, *a*) yoki ТД-1 nafas oldirish nayi (64-rasm, *a*) orqali sun’iy nafas oldiriladi.

Jarohatlangan joyni vaqtinchalik immobilizatsiya qilish. Suyaklar sinishi natijasida atrofdagi to‘qimalar, mushaklar, qon tomirlari va nervlar uzilishi kuzatiladi. Bunday noxush, og‘ir asorat (shok, qon ketish)larning oldini olish uchun to‘qima va suyaklar qimirlamasligiga erishish kerak. Jang maydonida singan suyaklarni vaqtinchalik immobilizatsiya qilish uchun fanerli, to‘rga o‘xshagan va narvonsimon shinalardan, qo‘l ostidagi vositalar (taxtacha, faner, karton, cho‘plar to‘dasi va boshqalar)dan foydalaniladi. Shinalarni singan joylarga qo‘yishda esa o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilish kerak.



a *b*

63-rasm. a — S shaklidagi havo o‘tkazgichning umumiy ko‘rinishi;
b



a *b*

64-rasm. a — ТД-1 nafas oldirish nayi;
b — nafas oldirish nayini bemorga qo‘yish usuli.

Tanaga shpris-tyubik yordamida og'riqsizlantiruvchi vosita yuborish. Tanadagi suyaklar sinishi, keng ko'lamdagi yaralar va yumshoq to'qimalar ezilganda og'riq qoldirish uchun teri ostiga og'riqsizlantiruvchi vositalar (omnopon, morfin, promedol)ni shpris-tyubiklar yordamida jarohatlanganning o'zi yoki yordam ko'rsatuvchi shaxs yuboradi.

Ichish uchun tabletka ko'rinishida bo'lgan preparatlar (antibiotiklar va boshqalar)ni berish — ikkilamchi infeksiya rivojlanishining oldini olish uchun bir vaqtning o'zida shaxsiy aptechkadagi penaldan 6 dona antibiotik (tetrasiklin), shaxsiy flyajkadagi suv bilan ichiladi.

Jarohat turlari. Teri, shilliq pardalar, chuqur joylashgan to'qimalar va ichki organlar yuzasining mexanik yoki boshqa ta'sir natijasida buzilishiga *ochiq shikastlanishlar* yoki *jarohatlar* deyiladi.

Jarohatlovchi predmetning qandayligi va uning shakliga ko'ra, *sanchilgan, kesilgan, chopilgan, lat yegan, yirtilgan, o'q tekkan, tishlangan jarohatlar* mavjud.

Predmet o'tkir bo'lib, shikast tez yetkazilsa, jarohat cheti shunchalik kam shikastlanadi. To'mtoq buyum ta'sirida hosil bo'lgan jarohatlarda jarohat cheti ko'p shikastlanadi. Qattiq og'riydi va bu ba'zan shok holatining rivojlanishiga olib keladi.

Sanchilgan jarohatlar sanchiladigan predmetlar, ya'ni pichoq, nayza, bigiz, igna sanchilganda hosil bo'ladi. Mazkur turda jarohatning tashqi teshigi kichkina bo'lib, o'zi, odatda, chuqur bo'ladi. Jarohat kanali tor, to'qimalarning so'rilishi natijasida (mushaklarning qisqarishi, terining surilishi) egri-bugri bo'ladi. Bu esa sanchilgan jarohatlarni xavfli qiladi. Chunki ichki organlarning shikastlanganligi va ularning chuqurligini aniqlash qiyin bo'ladi. Ichki organlarning payqalmay qolgan shikastlari ichki organlardan qon ketishi, peritonit (qorin pardasining yallig'lanishi) va pnevmotoraksga sabab bo'lishi mumkin.

Kesilgan jarohatlar o'tkir tig'li buyum (pichoq, ustara, oyna, skalpel) kesganda yuzaga keladi. Bunday jarohatning chetlari tekis va ezilmagan bo'ladi.

Chopilgan jarohatlar o'tkir, biroq og'ir buyum (bolta, qilich va boshqalar) bilan urilganda sodir bo'ladi. Tashqaridan qaraganda u kesilgan jarohatni eslatishi mumkin, biroq jarohat katta sohani egallaydi va aksari suyaklarning shikastlanishi bilan o'tadi. Jarohat chetlari biroz ezilgan bo'ladi.

Lat yegan jarohatlar to'mtoq buyum (bolg'a, tosh va boshqa)lar bilan

majaqlangan, notekis, qonga belangan bo‘ladi. Tomirlarning shikastlanishi va ularning trombozga uchrashidan jarohat chetlarining oziqlanishi buziladi va ular nekrozga uchraydi. Majaqlangan to‘qimalar mikroblar ko‘payishi uchun qulay muhit hisoblanadi. Shu sababli urib olingan jarohatlarga infeksiya oson tushadi.

Tishlab olingan jarohatlar hayvon yoki odam tishi bilan yetkaziladi. infeksiya rivojlanishi bilan kechadi. Tishlab olingan yaralar qutirish virusi bilan zararlangan bo‘lishi mumkin.

Zaharlangan jarohatlar zaharlovchi moddalar qo‘llanilishi natijasida zaharli moddalarning tushishi, chayon yoki ilon chaqishi bilan xarakterlanadi.

O‘q tekkan jarohatlar tananing o‘qotar quroldan otilgan o‘qdan jarohatlanishidir. O‘qotar qurollarga: avtomat, vintovka va pistoletlar, portlash natijasida oskolkalar ajralib chiquvchi qurollar, ya’ni artilleriya snaryadlari, mina, qo‘l granatasi, aviabomba, hajmli portlovchi o‘qotar qurollar va boshqalar kiradi. Snaryadning turiga ko‘ra, o‘q, sochma o‘q va oskolkadan yaralanishlar farqlanadi.

O‘qotar qurolidan jarohatlanganlar orasida ko‘pdan ko‘p va aralash jarohatlanishlar kuzatilishi ko‘zda tutiladi.

Turli xil qurollarning ta’sir etishi va bir turdagi qurolning turli shikastlovchi omillari ta’sirini hisobga olgan holda: kombinatsiyalashgan, ko‘pdan ko‘p miqdordagi va aralashgan jarohatlar bo‘ladi.

Kombinatsiyalashgan yaralanishlar deyilganda, turli xil qurollar bilan (masalan, o‘qotar quroldan yarador bo‘lish va yadro qurolining yorug‘lik nurlanishidan) yoki bir turdagi qurolning turli shikastlovchi omillari ta’sirida (masalan, kuyish, yarador bo‘lish va yadro qurolining o‘tib kiruvchi nurlanishidan shikastlanish) yuzaga kelishi tushuniladi.

Birinchi navbatda, ma’lum bir shifokor-mutaxassis tomonidan yordam ko‘rsatilishiga muhtoj bo‘lgan jarohatlanish asosiy jarohatlanish hisoblanadi.

Ko‘pdan ko‘p yaralanishlar deyilganda, biror qurol ikki yoki undan ortiq jarohatlovchi snaryadi bilan kishi tanasining bir necha anatomik a’zosining (masalan, bir nechta o‘q bilan yoki granata, bomba yoki snaryadlarning parchalari bilan jarohatlanishi; teri qavati va ichki organ a’zolarini

Aralashgan yaralanishlar deyilganda, kishi tanasining bir necha a'zolarini bir snaryadning yaralovchi o'qi yoki parchasi natijasida kuyishi va jarohatlanishi tushuniladi (masalan, torakoabdominal a'zosining jarohatlanishi).

3.2. Qon ketishida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Qon ketishini to'xtatish


Qon ketishi deb, qon tomirlari devorlarining shikastlanishi, biror kasallik oqibatida yemirilishi yoki o'tkazuvchanligining oshib ketishi sababli, ulardan qon oqishiga aytiladi.

Qon ketishi kelib chiqishiga qarab ikki turga bo'linadi. Biri shikastlanish (travmatik) turi bo'lib, u tashqi kuchning ta'sirida tomir devorlarining butunligi buzilganida (biror narsa sanchilishi, urilishi, cho'zilishi, majaqlanishi, jarrohlik usuli qo'llanilganida ham) vujudga keladi.

Qon ketishining ikkinchi turi shikastlanishga emas, balki tomir devorlarining zararlanishiga (patologik o'zgarish) bog'liq bo'ladi.

Qon ketishining tasnifi shikastlangan qon tomirlarining anatomik tuzilishi, sabablari va tashqi muhitga aloqadorligini hisobga olgan holda quyidagi guruhlarga bo'linadi.

Shikastlangan qon tomirining belgilariga qarab, arterial, venoz, kapillar va parenximatoz qon oqishi mavjud. Ularning klinik belgilari bir-biridan farq qiladi (65-rasm).



65-rasm. Shikastlangan qon tomirining belgilari.

Arterial qon oqishi yarador va kasal uchun og‘ir kechadi. Bunda qirmizi-qizil qon damba-dam qattiq otilib chiqadi. Arterial qon oqishi, odatda, kuchli bo‘ladi va ko‘p qon yo‘qotiladi. Yirik arteriyalar, aorta shikastlanganda bir necha daqiqa ichida hayotga tahdid soladigan darajada ko‘p qon yo‘qotilib, yarador o‘ladi.

Venoz qon oqishi venalar shikastlanganda paydo bo‘ladi. Venalarda bosim arteriyalardagiga qaraganda ancha past, shuning uchun qon sekinroq, bir maromda, to‘xtovsiz oqadi. Bunda qon to‘q olcha rangida bo‘ladi. Kamdan kam hollarda hayot uchun xavfli bo‘ladi. Bo‘yin va ko‘krak qafasi venalari yaralanganda o‘lim xavfi vujudga keladi. Bo‘yin va ko‘krak qafasi venalarida nafas olish vaqtida manfiy bosim paydo bo‘ladi. Venalar yaralanganda, chuqur nafas olish paytida ichiga havo kirishi mumkin. Havo pufakchalari qon oqimi bilan yurakka kirib, yurak yoki qon tomirlarini bekitib qo‘yishi havo emboliyasi yuz berishi va tezda o‘limga olib kelishi mumkin.

Kapillar qon oqishi ko‘pincha aralash bo‘lib, mayda arteriya va vena tomirlari shikastlanganda ro‘y berishi mumkin. Bunday qon oqishi terining yuza qismiga tig‘ tekkanda, shilinishda kuzatiladi. Qon ivishi normal bo‘lganda kapillar qon oqishi to‘xtaydi.

Parenximatoz qon oqishi parenximatoz a’zolar, jigar, taloq, buyrak, o‘pka shikastlanganda kuzatiladi. Tomirlar organlar to‘qimasi ichida bo‘lganidan va puchaymasligidan qon oqishi deyarli hech qachon o‘zicha to‘xtamaydi.

Qonning shikastlangan tomirdan qayerga oqishiga qarab, ichki va tashqi qon oqishi farq qilinadi.

Tashqi qon oqishi qonning teridagi jarohati orqali tashqariga chiqishi bilan xarakterlanadi. *Ichki qon ketishda* qon biror bo‘shliqqa (qorin bo‘shlig‘i, plevra bo‘shlig‘iga) tushadi. Tashqi muhit bilan tutashadigan kovak organ bo‘shlig‘iga (me’da, ichak, qovoq, traxeyaga) qon quyilishi *tashqi yashirin qon oqishi* deyiladi. Qonning to‘qimalararo bo‘shliqlarga (mushaklarga, yog‘ kletchatkasiga) oqishi *gematomani* hosil qiladi.

Qon ketishi paydo bo‘lishi davriga qarab 3 ga bo‘linadi:

a) birlamchi qon ketishi — shikastlangandan so‘ng darrov qon tomirlaridan qon oqishi holati bilan belgilanadi;

b) ikkilamchi erta qon ketishi — bir necha soatlardan ikki sutkagacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Odatda, shu davr orasida jarohatga infeksiya tushgan, lekin yiringli jarayon boshlanmagan bo‘ladi. Ikkilamchi qon ketishi

d) kechki ikkilamchi qon ketishi — jarohatda infeksiya ta'sirida yiringli jarayon avj olishiga to'g'ri kelib, odatda, 2 kundan so'ng paydo bo'ladi.

Ikkilamchi qon ketishining sabablari: birinchi tibbiy yordamning ehtiyotsizlik bilan berilishi, yomon immobilizatsiya, jarohatlangan shaxsning evakuatsiya paytida transportda silkinishi, jarohatda yiringlash yuzaga kelishi, birinchi jarrohlik tozalashda, operatsiya paytida qon tomiri yaxshi bog'lanmaganligi yoki qon ketishi yetarli to'xtatilmaganligida kuzatilishi mumkin.

Qon oqishini to'xtatish. Birinchi yordam ko'rsatish sharoitlarida shikastlangan yarador yoki kasalni davolash muassasasiga olib borgunga qadar o'tadigan davr ichida qon oqishini faqat vaqtincha yoki dastlabki to'xtatish mumkin. Shifokor davolash muassasasida qon oqishini batamom to'xtatadi.

Qon oqishini vaqtincha to'xtatish usullari quyidagicha:

a) tananing shikastlangan qismini gavdaga nisbatan yuqoriroq vaziyatda qo'yish. Bunda qon oqishining qisman kamayishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha bu usul vena tomiri shikastlanganda qo'llaniladi;

b) qonab turgan tomirni bosib turadigan bog'lam yordamida shikastlangan joyida bosib turish. Bu usulni vena va kapillarlardan qon ketganda qo'llash mumkin. Arterial qon ketganda jgutdan foydalanish maqsadga muvofiq. Buning uchun qon ketayotgan joyga shaxsiy paketlardagi sterillangan bog'lamlardan foydalaniladi. Paketdagi yostiqchalardan biri buklanib qon oqayotgan joyga qo'yiladi va aylantirib tortib bog'lanadi. Agar bint bo'lmasa, toza mato yoki qo'l ro'molchasidan ham foydalansa bo'ladi. Bog'lam mayda tomirlarining yumshoq to'qimalariga bosib turilganda, qon ketishi tez to'xtaydi;

d) arteriya uzunligini barmoq bilan bosib turish (66-rasm). Vaqtincha qon to'xtatishning bu usulida tomir yaqindagi suyakka bosib turiladi.

Uyqu arteriyasi to'sh-o'mrov mushagining ichki qismi orqali bo'yin umurtqasini ko'ndalang o'simtaga bosish mumkin (VI bo'yin umurtqasi ko'ndalang o'simtasining tepa qismi, aytib o'tilgan mushakning o'rta qismi). O'mrov arteriyasini to'sh-o'mrov so'rg'ichsimon o'siq mushakning tashqi tomonidan 1-qovurg'aga bosish mumkin. Yelka arteriyasini ikki boshli mushakning ichki tomonidan yelka suyagiga bosiladi. Son arteriyasini qov




66-rasm. Arteriya uzunligini barmoq bilan bosib turish.

bosiladi. Ozg‘in yarador bemorlarda qorin aortasini umurtqa pog‘onasiga bosib turish mumkin.

Barmoq bilan bosib, qon oqishini uzoq vaqt to‘xtatib bo‘lmaydi. Chunki u katta jismoniy kuch talab qiladi. Bu usul yordam ko‘rsatuvchini charchatadi va transportirovka qilish imkoniyatidan mahrum qiladi. Biroq, qonni zudlik bilan to‘xtatish uchun qulay usul sanalib, jarohatga iflos tushirmagan holda, qon to‘xtatishni ta’minlaydi hamda qon oqishini to‘xtatishning birmuncha qulay usuli uchun kerak bo‘ladigan, bosib turadigan bog‘lam, burama (zakrutka) jgutni tayyorlab qo‘yish imkonini beradi;

e) shikastlangan qismni bo‘g‘imda imkon boricha bukib yoki yozib turgan holda mahkam ushlab, qon ketishini to‘xtatish (67-rasm). Qo‘ltiq osti bo‘g‘imlari sathidan fiksatsiya qilish orqali qon oqishini to‘xtatish mumkin. Taqim arteriyasi yaralanganda tizza bo‘g‘imi, yelka arteriyasi shikastlanganda tirsak bo‘g‘imi va son arteriyasi yaralanganda chov sohasida chanoq-son bo‘g‘imini maksimal bukish yaxshi yordam berishi mumkin;



67-rasm. Qo‘l-oyoqlarni maksimal qattiq bukish orqali



68-rasm.

f) shikastlangan qismni jgut bilan aylantirib, siqib bog‘lash. Jgutni birinchi marta 1873-yilda Esmarx ishlatgan. Esmarx jguti (68-rasm) keng tarqalgan bo‘lib, u elastik rezinadan iborat. Bir uchida zanjiri, ikkinchi uchida esa ilgagi bor. Jgutning uzunligi 1,5 metr, kengligi 1,5 sm keladi.

Qo‘lga jgut bog‘lashda yelkaning uchdan bir yuqori qismi, oyoqqa bog‘lashda esa sonning uchdan bir o‘rta qismi qulay joy hisoblanadi. Oyoq-qo‘l arteriyalaridan kuchli arterial qon oqqandagina jgut bog‘lashga ruxsat etiladi. Qolgan hamma hollarda bu usulni qo‘llash tavsiya etilmaydi.

Jgut bog‘lash texnikasi. Terining jgut ostida siqilib qolishining oldini olish uchun jgut tagiga sochiq va yumshoq material qo‘yiladi. Jgut qo‘yilayotganda qon oqishi to‘xtaguncha qo‘l-oyoq atrofida aylantirib o‘raladi. Jgut o‘ramlari terini qismagan holda yonma-yon tushishi lozim. Birinchi o‘ramni mahkam siqish, ikkinchisini kamroq, qolganlarini bundan ham bo‘shroq o‘rash kerak. Jgut uchlari zanjircha va ilmoq bilan o‘ramlar ustida mahkamlanadi. Jgutni faqat qon oqishi to‘xtaguncha siqish kerak. Jgut to‘g‘ri bog‘langanda arterial qon oqishi tezlikda to‘xtaydi, oyoq yoki qo‘l oqaradi, jgut bog‘langan joydan pastda tomirlar pulsatsiyasi to‘xtaydi.

Jgut ortiqcha qisib bog‘lansa, yumshoq to‘qima (mushak, nerv, tomir)lar ezilishi va shikastlangan joy falaj bo‘lib qolishi mumkin.

Jgut bo‘sh bog‘lansa, qon oqishi to‘xtamaydi, aksincha, venoz qon venoz qon oqishi kuchayadi. Jgut bog‘langandan so‘ng oyoq-qo‘lni immobilizatsiya qilish lozim.

Jgut bog‘lashda yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarga ko‘rsatmalar bo‘lmasa ham, ya’ni venoz va kapillar qon oqishda bog‘lash, ochiq badan va jarohatdan

uzoqda bog‘lash, bo‘sh yoki ortiqcha qattiq bog‘lash, jgut uchlarini mahkamlamaslikdan iborat.

Jgutning quyidagi kamchiliklari bor:

— arteriyalar qisilishi bilan yumshoq to‘qima va nerv yo‘llari ham eziladi. Bu esa parez va falajlanishlarga olib kelishi mumkin;


— jgut 2 soatdan ortiq qo‘yilsa, undan pastdagi to‘qimalarda qaytarib bo‘lmaydigan gangrena vujudga keladi;

— qon aylanishining to‘xtashi kislorodning to‘qimalarda yetarli bo‘lmasligiga olib keladi.

Bog‘lab qo‘yilgan jgut ko‘rinib turishi kerak. Jgut bog‘langan vaqtdan so‘ng 2 soat ichida shikastlangan kishini davolash muassasasiga qon oqishini batamom to‘xtatish maqsadida olib borishning hamma choralarini ko‘rish zarur.

Jgut bog‘langan vaqtni tekshirib turish, uni o‘z vaqtida yechish yoki bo‘shatish uchun jgut tagiga yoki jarohatlangan kishining kiyimiga jgut bog‘langan kuni va vaqti (soati, daqiqasi) yozilgan xat to‘g‘nab qo‘yiladi.

Maxsus jgut bo‘lmaganda oyoq-qo‘lga kamar, ro‘mol, mato parchasi bog‘lab tortilsa ham bo‘ladi. Dag‘al qattiq narsalar nervlarni osonlikcha shikastlab qo‘yishi mumkinligini unutmaslik kerak. Qo‘shimcha vositalardan tayyorlangan jgut *burama* (*zakrutka*) deb ataladi. Burama uchun ishlatilgan narsa kerakli joyda bo‘sh qilib bog‘lanadi. Hosil bo‘lgan qovuzloqdan tayoqcha, taxtacha o‘tkaziladi va uni burab, qovuzloq qon oqishi batamom to‘xtaguncha aylantiriladi. Shundan so‘ng tayoqcha oyoq yoki qo‘lga mahkamlanadi (69-rasm). Burama qo‘yish og‘riqqa sabab bo‘ladi, shuning



69-rasm. Qonni to‘xtatish uchun

uchun burama tagiga, ayniqsa, tugilgan joy ostiga biror narsani qistirib qo‘yish lozim. Jgut bog‘langanda kuzatiladigan hamma xatolik, xavf va asoratlar burama uchun ham taalluqli;

g) jarohatdagi qonab turgan tomirga zajim qo‘yib qon oqishini to‘xtatish. Bu davolash muassasalarida shifokor tomonidan amalga oshiriladi.

Ayrim tashqi va ichki qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. Faqat yaralanganda emas, balki kasallik va to‘mtoq narsalardan shikastlanganda ham qon oqishi mumkin.

Burun qonaganda birinchi yordam ko‘rsatish. Burundan ba’zan juda ko‘p qon oqishi mumkin va bu shoshilinch yordam berishni talab qiladi. Burun qonashining sabablari turlicha bo‘ladi: mahalliy shikastlar; tirnalish, burun to‘sig‘i yarasi; burunni qattiq qoqish; bosh suyagi sinishi va boshqalar.

Birinchi yordam berayotgan kishi qon oqishini kuchaytirayotgan hamma sabablarni bartaraf etishi lozim. Yaradorni tinchlantirish, unga keskin harakatlar qilish, yo‘talish, gaplashib, zo‘riqishlar qon oqishini kuchaytirishini tushuntirib o‘tish kerak. Yaradorni o‘tkazib qo‘yish, burun-halqumiga qon oqish imkoniyati kamroq holatini yaratish lozim. Burun issiqlab ketish oqibatida qonagan bo‘lsa, kasalni salqin joyga ko‘chirib, boshi va ko‘kragiga sovuq kompresslar qilish lozim.

Qon oqishi to‘xtamasa, burunning ikkala yarmini burun to‘sig‘iga qattiq qisib, to‘xtatishga urinib ko‘rish kerak. Bunda yarador boshi biroz oldinga egiladi va burun imkon boricha yuqoridan qattiq qisiladi. Yarador og‘iz orqali nafas olishi lozim. Burunni 3—5 daqiqagacha qisish va kasal og‘izga tushgan qonni tupurib tashlashi kerak.

Burunni qisish o‘rniga burun yo‘llarini steril quruq paxta bo‘lakchasi yoki 3% li vodorod peroksidga ho‘llangan paxta bo‘lakchasi bilan tamponlash mumkin. Burun yo‘llariga paxta sharchalari tiqilgandan keyin yarador boshi oldinga engashtiriladi.

Eshitish yo‘li va ichki strukturalari shikastlanganda (zarb tegishi, tirnalish, bosh suyaklari sinishi) qon oqishi sodir bo‘lishi mumkin. Tashqi eshituv yo‘liga voronka shaklida o‘ralgan doka tiqilib to‘xtatiladi. Dokani quloqdagi doka bog‘lam ushlab turadi.

O‘pkadan qon oqqanda birinchi yordam ko‘rsatish. O‘pka shikastlanganda (ko‘krakka qattiq urilganda, qovurg‘alar singanda), o‘pka va yurakning boshqa qator kasalliklarida o‘pkadan qon oqishi mumkin. Yarador yo‘tal va balg‘amida qirmizi-qizil ko‘pikli qon tupuradi. Ba’zan o‘pkadan juda ko‘p qon oqadi.

Balg‘amda qon paydo bo‘lganda, nafas olishni qiyinlashtiradigan kiyim

imkon boricha tinchlantirish, unga shifo topishi uchun batamom jismoniy va psixik osoyishtalik zarurligini tushuntirish lozim.

O‘pkadan har qanday qon oqishi biror og‘ir kasallikning xatarli simptomidir. Shu bois birinchi yordamning vazifasi yaradorni davolash muassasasiga tezroq yetkazishdan iborat.

Qorin bo‘shlig‘iga qon oqqanda birinchi yordam ko‘rsatish. Qorin bo‘shlig‘iga qon oqishi qorin to‘mtoq narsadan shikastlanganda, jigar, taloqning yorilishi natijasida sodir bo‘ladi. Qorin ichiga qon oqishiga jigar va taloqning ayrim kasalliklari sababchi bo‘lishi mumkin.

Qorin bo‘shlig‘iga qon oqishi qorinda qattiq og‘riq paydo bo‘lishida yuzaga chiqadi.

Teri qoplamlari oqargan, tomir urishi (puls) tezlashgan bo‘ladi. Ko‘p qon oqqanda hushdan ketish mumkin. Yaradorni gorizontal yotqizib, qorniga muzli xaltacha qo‘yish lozim. Ovqat yeyish va suyuqlik ichish man qilinadi. Yarador zudlik bilan transportda tibbiyot punktiga evakuatsiya qilinadi.


3.3. Suyaklar sinishida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish

Suyaklar sinishi ko‘p uchraydigan shikastlar turiga kiradi. Mexanik ta’sir va patologik o‘zgarishlar natijasida suyaklar buzilishi bilan ifodalanadi. Har bir sinishda suyaklarning katta-kichikligidan qat’i nazar, atrofdagi yumshoq to‘qimalarga ham jarohat ta’sir qilib, og‘ir oqibatlarga olib keladi.

Suyak sinishining paydo bo‘lish sababiga ko‘ra, travmatik va patologik sinishlar kuzatiladi. Turli shikastlanishlar natijasida travmatik sinishlar yuz beradi. Travmatik sinish suyakka, uning qattiqligini yenguvchi mexanik kuch ta’sir qilishi natijasida kelib chiqadi. Kuchning ta’sir qilish mexanizmiga ko‘ra, bunday sinishlar quyidagi turlarga bo‘linadi (70-rasm):

— egilgan;
— buralgan (rotatsiya);
— qisilgan (kompressiya);
— to‘g‘ri urilgan (shuningdek, o‘q tegishidan shikastlanish);
— uzilgan sinishlar.

Sinishlar ochiq va yopiq bo‘ladi (71-rasm). *Yopiq sinish* deb, teri butunligi buzilmagan holda ro‘y beruvchi suyak va atrofdagi to‘qimalarning




70-rasm. Sinish turlari:
1 — to‘g‘ri urilgan; *2* — egilgan; *3* — buralgan; *4* — qisilgan; *5* — uzilgan.

Ochiq sinishlarga jarohat hosil bo‘lgan, teri butunligi buzilgan holda ro‘y beruvchi shikastlar kiradi.

Sinishlar to‘la, to‘la bo‘lmagan va suyak yorilishlariga bo‘linadi. Suyakning to‘la sinishida suyak butunligi to‘la buziladi. To‘la bo‘lmagan sinishda suyakning bir qismigina zararlanadi. Suyak yorilganda qismlarga ajralmagan zararlanish ro‘y beradi.

Sinish yo‘nalishiga qarab, ko‘ndalang, uzun, qiyshiq, vintsimon va parchalangan bo‘ladi. Sinishlarda bitta yoki bir necha suyaklar ko‘p joydan zararlanishi mumkin. Shuni hisobga olib, sinish yagona va ko‘p sonli sinishlarga bo‘linadi.

Suyak sinishlari oddiy, asoratli, murakkab va kombinatsiyalangan bo‘ladi. Qo‘l-oyoq suyaklarida ko‘p uchraydigan sinishlarda singan joy atrofida



a

71-rasm. Sinishning ko‘rinishlari:
a — yopiq; *b* — ochiq.

kuchli og‘riq, shish, qon quyilishi, bo‘g‘imdan tashqari buklanuvchi uchraydi. Suyak ochiq sinishlarida jarohatdan suyak sinig‘ining tashqariga chiqib qolishi kuzatiladi. Bunda qo‘l-oyoqning shu qismda bo‘g‘imdan tashqari qo‘shimcha harakatchanligi kuzatiladi va harakatlanganda suyak siniqlarining o‘zaro tegishidan qisirlagan tovush eshitiladi. Ba’zan suyak sinishlarida barcha belgilar ko‘zga ko‘rinmaydi. Lekin kuchli og‘riq va harakatning qiyinligi albatta seziladi.

Qovurg‘alar singanda shu soha bosilishi natijasida jarohatlangan nafas olganida yoki qo‘l tekkizilganda kuchli og‘riq sezadi. Plevra yoki o‘pka to‘qimasi ham shikastlangan bo‘lsa, plevra bo‘shlig‘iga qon ketishi yoki ko‘krak qafasiga havo kirishi kuzatiladi va bularning barchasi nafas olishning buzilishiga olib keladi.

Umurtqa singan vaqtda belda kuchli og‘riq, singan joy pastki qismida mushakning parez va falajlari kuzatiladi.

Chanoq suyaklari sinishida jarohatlangan kishi joyidan tura olmaydi va oyoqlarni harakatlantira olmaydi. Hattoki, yonboshga ham ag‘darila olmaydi. Bunday sinishga ichaklar va siydik pufagining jarohatlanishlari ham qo‘shilishi mumkin.

Suyak sinishlari uning yaqinidan o‘tgan qon tomir va nervlarning shikastlanishiga olib kelib, qon ketishi, sezgi va harakatning yo‘qolishi kabi asoratlar paydo bo‘ladi hamda shok holati rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Suyak sinishlarda birinchi yordam ko‘rsatishning umumiy qoidalari. Suyak singan joyni ko‘rish va yaraga (ochiq sinish holatida) steril bog‘lam qo‘yish kerak bo‘lsa, kiyim-kechak va poyabzal yechilmaydi, balki kesiladi. Birinchi navbatda, qon ketishi to‘xtatilib, aseptik bog‘lam qo‘yiladi. So‘ngra shikastlangan joy qulay vaziyatga keltiriladi va immobilizatsiyalovchi bog‘lam qo‘yiladi.

Teri ostiga yoki mushak orasiga shpris-tyubik yordamida og‘riqsizlantiruvchi vosita yuboriladi.

Suyak siniqlarini immobilizatsiya qilish uchun Б-2 «Shinalar» komplektidagi standart shina yoki qo‘l osti vositalaridan foydalaniladi. Qo‘l osti vositalari sifatida taxta bo‘lagi, tayoq, faner bo‘lagi, qamish bog‘lamlari va boshqalardan foydalansa bo‘ladi.

Qo‘l-oyoqlarga qo‘yilgan shina bint bilan mahkamlanadi. Mahkamlash

Agar suyak siniqlarini immobilizatsiya qilish uchun shina va qo‘l osti bog‘lab qo‘yiladi. Shikastlangan oyoq sog‘ oyoqqa bint bilan mahkam qilib bog‘lab olinadi.

Shinalashni bevosita voqea sodir bo‘lgan joyda o‘tkazish lozim va yarador yoki kasalni sanitar transportida evakuatsiya qilish mumkin. Suyak siniqlarini siljitmaslik uchun shinalarni ehtiyotlik bilan qo‘yish kerak. Suyak siniqlarini to‘g‘rilash, bir-biriga yaqinlashtirish tavsiya etilmaydi. Suyakning o‘tkir uchi turtib chiqib terini shikastlash xavfi bo‘lgan hollar bundan mustasno. Jarohatlanganni juda ehtiyotlik bilan ko‘tarish, oyoq-qo‘l va gavdasini bir vaqtda, doimo bir xil sathda ko‘tarish kerak.

Shok va boshqa umumiy hodisalarning profilaktikasi shikastlangan organni to‘g‘ri immobilizatsiya qilish, ya’ni u og‘riq sezgisi kam bo‘ladigan holatda mahkam bog‘lash yo‘li bilan ta’minlanadi. Yaradorni issiq qilib o‘rash, issiq choy, qahva berish lozim. Imkon boricha og‘riq qoldiradigan vositalarni teri osti yoki mushaklar orasiga yuborish kerak.

Qo‘li sinib shikastlanganlarni transportga o‘tqizib, oyoq, chanoq suyaklari, umurtqa pog‘onasi singanlarni esa yotqizib olib borish kerak.

Ba’zi bir alohida suyak sinishlarida shinalarni qo‘yish. Yelka suyagi singanda, yelka va tirsak bo‘g‘imlari jarohatlanganda Kramer (narvonsimon) shinalaridan foydalangan holda immobilizatsiya qilish qulayroq. Sog‘ tomon kuragining o‘rta sohasidan boshlab qo‘yiladi va qo‘yiladigan shina belga tegib turadi. To‘g‘ri burchak hosil qilgan holda yelka bo‘g‘imi ustidan qayrilib o‘tib, bilak va panjaga jipslashib tekkan holda barmoq asosigacha yetib boradi. Yordam ko‘rsatuvchi shaxs, shinani qo‘yishdan oldin unga tegishli shaklni berish uchun, avval o‘zining tanasiga qo‘yib moslashtirib olishi lozim. Buning uchun u o‘z bilagini shina oxirining bir tomoniga qo‘yadi-da, bo‘sh qo‘li bilan shinaning ikkinchi bo‘sh tomonini ushlaydi. Shinani bilakning orqa-tashqi yuzasi bo‘ylab, bilak usti va bel orqali boshqa tomon yelka ostiga yo‘naltirib boriladi. Shinaga kerakli shakl berilgunga qadar modelirovka qilinadi.

Bilak sohasida shinaga tarnovsimon shakl beriladi. U paxta qatlamlari yoki boshqa bir mato bilan o‘ralib chiqiladi va qo‘yiladi. Shina siljib ketishining oldini olish uchun uning tepa qismi ikkita dokali bog‘ich yordamida panja sohasidan pastki qismi bo‘ylab bog‘lab qo‘yiladi. Bog‘ichlar bilak bo‘g‘imining chekkasida oldi va orqasidan, singan joyning

Shina qo‘yishdan oldin shikastlangan qo‘lning qo‘ltiq osti chuqurchasiga paxta dumalog‘i yoki ro‘mol (kosinka) o‘rami qo‘yiladi. Qo‘yilgan shina bint bilan bog‘lanib, mahkamlab chiqiladi.


Bilak suyaklarining sinishi. Narvonsimon shina to‘g‘ri uchburchak hosil qilib bukiladi. Bunda uning bir tomonining uzunligi bilak va panja barmoqlari asosiga to‘g‘ri kelishi, ikkinchi tomon uzunligi yelkaning $^3/_2$ qismiga to‘g‘ri kelishi kerak. Tirsak bo‘yicha to‘g‘ri burchak hosil qilib bukilgan qo‘l shinaga qo‘yiladi va bint bilan mahkamlab chiqiladi. Agar shina va qo‘l osti vositalari bo‘lmasa, to‘g‘ri uchburchak hosil qilib, tirsak bo‘g‘imida bukiladi-da, ro‘mol (kosinka), kamar va boshqa vositalar yordamida tanaga mahkamlab qo‘yiladi.

Panja suyaklarining sinishi. Bilak uzunligicha bo‘lgan narvonsimon shina olinadi va uzunligi bo‘yicha tarnovsimon qilib egiladi, ikkinchi tomoni rulon qilib o‘raladi. Shina bint yordamida mahkamlanadi (72-rasm). Panja va bilak uncha katta bo‘lmagan faner va taxtachalar yordamida immobilizatsiya qilinadi. Bunday hollarda barmoqlar yarim bukilgan holatda kaftga paxta yoki mato bo‘lagi qo‘yiladi.



72-rasm. Panja suyaklari singan vaqtda narvonsimon shinani qo‘yish.

Son va boldir suyagining yuqori $^3/_2$ qismi sinishlari. Son suyagi singanda Diterixs shinasi yaxshi transport shina hisoblanadi (73-rasm, *1*, *2*, *3*). Bu chanoq-son, tizza va boldir-panja bo‘g‘imlarini yaxshi immobilizatsiya



73-rasm. Diterixs shinasi.

o‘zgartirsa bo‘ladigan ikkita yog‘ochdan tayyorlangan bransh (taxtakachdan, *1*, *2*), tovon osti moslamasi va buramadan iborat (*3*).

Shinani qo‘yish tartibi. Shina 2—3 kishi bilan qo‘yiladi. Yarador chalqancha yotadi. Dastlab shina tayyorlanadi, buning uchun tashqi va ichki shinalar yarador bo‘yiga moslab olinadi:


a) yon branshlar tashqi tomondan qo‘ltiq osti hamda tovongacha to‘g‘rilanadi. Ichkisi esa chot sohasiga shunday qo‘yiladiki, branshning erkin tomoni tovondan 10—15 sm chiqib turadi;

b) yotoq yara hamda nekrozning oldini olish uchun suyak bo‘rtiqlari (yon bosh suyak qanoti, to‘piqlar)ga va tovonning orqa yuzasiga yumshoq mato qo‘yiladi;

d) tovon ostiga qo‘yiladigan taglik poyabzalga mahkam bog‘lanadi;

e) tovon ostiga taglik qo‘yilgandan so‘ng tashqi shinani qo‘yishga kirishiladi. Buning uchun pastki uchi tovon moslamasining tashqi branshiga kiritiladi. So‘ngra shina oyoqdan to qo‘ltiq ostigacha joylashtiriladi. Tasma yoki bintning uchlari bransh tirqishidan o‘tkaziladi va ko‘krak qafasini o‘rab bog‘lanadi. Oyoqqa shina bog‘lanmay turiladi;

f) so‘ngra ichki shina o‘rnatiladi. Buning uchun pastki uchi tovonga qo‘yiladigan taglikning ichki ramkasidan kiritiladi. Ichki shinaning bosh qismi



74-rasm. Oyoqning Diterixs shinasi yordamida immobilizatsiya qilinishi: *a* — tovon osti moslamasini mahkamlash; *b* — shinalarni tovon osti moslamasidagi skobalarga kirgizish va tana bo‘yicha tekislab qo‘yib chiqish; — kamar va bog‘ichlar yordamida shinani son hamda tanaga bog‘lab chiqish; *e* — oyoqning Diterixs shinasi yordamida immobilizatsiya qilib bo‘lgandan so‘ng ko‘rinishi.

chot sohasiga taqalib turadi. Tashqi branshning tirqishidan chiqarilgan tasma yoki bint uchlari sonning atrofidan aylantirilib bog‘lanadi;

g) tovon ostiga qo‘yiladigan tagligiga biriktirilgan ipcha gorizontal planka teshikchasidan chiqarilib, uchlari bog‘lanadi va burab tortishga kirishiladi (74-rasm). Qo‘llar bilan jarohatlangan oyoqning tovonidan ushlab tortiladi,

Shundan so‘ng iplar orqali tortish tayoqchani burash yordamida ortga oshiriladi. Tortish toki oyoqlar tenglashmaguncha davom ettiriladi. Burama tayoqcha gorizontal plankaga bint bilan mahkamlanadi.


Tortish tugagandan so‘ng shinaning branshlari oyoq va tanaga bint spiralsimon qilib o‘ralgan holda mahkamlanib qo‘yiladi;

h) oyoqlar osilib qolmasligi uchun, son va boldirga orqa tomondan fanerli yoki Kramer shinasi qo‘yiladi. Shuni esda tutish kerakki, me’yoridan ko‘proq tortish og‘riq va paylarda yotoq yaralar paydo qilishi mumkin.

Boldir suyaklari sinishida 3 ta narvonsimon shina bilan immobilizatsiya qilish qulay. Ulardan bittasi boldirning orqa tomoniga qo‘yiladi. Bu shina oyoq panjasini uzangi ko‘rinishida ushlab turishi kerak. Boldirning ichki va tashqi tomoniga fanerli shinalarni qo‘llash mumkin (75-rasm).

Bosh suyagining sinishi. Shikastlangan inson zambilga yotqiziladi va bosh tagiga o‘rtasi chuqurcha qilinib, yumshoq narsa to‘shaladi. Boshning ikki chetiga uzunasi bo‘ylab yumshoq valiklar qo‘yiladi.

Agar yaradorni biron-bir inshootdan vertikal holatda olib chiqish zarur bo‘lsa, avval uning bo‘yin qismiga paxta-dokali yoqa qo‘yiladi. Buning uchun



a *b*

75-rasm. Boldirga shina qo‘yish:
a — shinalarni bukib oyoq shakliga keltirish; *b* — shinani oyoqqa bog‘lash.

bo‘yin bir necha qavat paxta bilan o‘raladi. Uning ustidan zich qilib, lekin uncha qattiq qismasdan bint o‘raladi. Bo‘yin umurtqalari shikastlanganda yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidak o‘xshash paxta-dokali valik qo‘yiladi.

Qovurg‘alarning sinishi. Bintlashdan oldin jarohatlangan kishidan chuqur havo chiqarish iltimos qilinadi. Jarohatlangan kishi ko‘krak qafasining pastki sohasi qattiq siqib bintlanadi. Nafas olinayotgan vaqtda bintlash vaqtincha to‘xtatiladi. Shu vaqtda bintning bo‘sh turgan uchi tortib turiladi. Og‘riqni kamaytirish uchun og‘riqsizlantiruvchi vosita teri osti yoki mushak orasiga shpris-tyubik yordamida yuboriladi.

Jag‘larning sinishi. Vaqtinchalik immobilizatsiya sopqonsimon bog‘lam qo‘yish yordamida, ishonarli immobilizatsiya standart jag‘ ostiga qo‘yiladigan shina yordamida amalga oshiriladi (76-rasm).

Jag‘ ostiga qo‘yiladigan standartli shina boshga kiyiladigan maxsus bog‘lam va jag‘ ostiga qo‘yiladigan plastmassali shinadan iborat bo‘ladi.



76-rasm. Pastki jag‘ singanda standart bosuvchi bog‘lamni

Sopqonsimon bog‘lam boshga kiyiladigan bog‘lamga rezina yordamida mahkamlanadi. Og‘riq oldini olish maqsadida jag‘ ostiga qo‘yiladigan plastmassa shina ichi paxta-dokali qoplama bilan to‘lg‘iziladi. Qo‘yilgan paxta-dokali shinaning chekkasi chiqib turishi lozim.

Pastki jag‘ va bo‘yin jarohatlanishida asfiksiya rivojlanishining oldini olish maqsadida standart bosuvchi bog‘lam qo‘yilmaydi.

Umurtqaning sinishlari. Umurtqa pog‘onasining sinishi juda og‘ir shikastlanishdir. Oz-moz harakat qilish bilan belda kuchli og‘riq paydo bo‘lishi uning belgisi hisoblanadi.

Shikastlangan kishini o‘tqazish, tik turg‘azib qo‘yish qat’iy taqiqlanadi. Uni, avvalo, tekis, qattiq yuzaga (taxtaga) yotqizgan holda tinch sharoit yaratish lozim. Xuddi shu narsalardan transport immobilizatsiyasida ham foydalaniladi. Taxta bo‘lmaganida shikastlangan kishi behush yotsa, uning yelkalari va boshi tagiga kurtka yoki buyumlar qopidan qilingan valik qo‘yib, zambilda yuz tuban yotqizib, transportda evakuatsiya qilish xavfsizroqdir.

3.4. Ko‘z, quloq, burun, tomoq jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish

Ko‘z kimyoviy, mexanik, termik, radiatsiyaning o‘tuvchi ta’siri va zaharlovchi moddalardan shikastlanishi mumkin. Mexanik shikastlanishlar qovoq yaralanishi, ko‘z kontuziyasi va yaralanishini keltirib chiqaradi.

Qovoq jarohatlanishida ajralgan ko‘z olmasi jarohatlangan va jarohatlanmagan holda bo‘lishi mumkin. Ko‘z jarohatlanishi teshib o‘tgan va teshib o‘tmagan (o‘tib kirmagan), yot jismlar tushgan yoki tushmagan bo‘ladi.

Ko‘z muguz pardasi teshilib jarohatlanishi qattiq og‘riq, ko‘z yoshi oqishi va konyunktiva qizarishi bilan xarakterlanadi. Oddiy ko‘rik o‘tkazish vaqtida ko‘zda yot jism borligini aniqlash qiyin bo‘lganligi sababli, lupadan foydalaniladi. Bunday jarohatlanganlarga o‘z vaqtida to‘g‘ri tibbiy yordam ko‘rsatilsa, katta xavf tug‘dirmaydi.

Ko‘z muguz pardasi juda ham nozik hisoblanadi. Agar infeksiya tushsa, ko‘zning ko‘rish qobiliyati yo‘qoladi.

Ko‘zning oldingi kamerasi yo‘q bo‘lishi mumkin. Qon talashgan, ko‘z qorachig‘ining ochilib turgan jarohati bo‘lsa, ko‘z ichki qavatlari, gavhar va

Ko‘z kontuziyasi. To‘mtoq buyum, narsa yoki musht bilan urganda va portlashning zarba to‘lqini urishi oqibatida ko‘z kontuziyasi kuzatiladi. Ko‘z ichi bosimining tezlik bilan ko‘tarilib ketishi natijasida ko‘z ichidagi shilliq qavat, ko‘z qismlari rangdor parda, gavhar, qonli shilliq qavat va to‘rpardalar shikastlanadi.

Kontuziya vaqtida ko‘zda og‘riq, yorug‘likdan qo‘rqish, ko‘rish qisman yoki butkul yo‘qolishi, ko‘z oldi kamerasi, shishasimon jism va qovoqqa qon quyilishlar kuzatiladi.

Ayrim hollarda ko‘z old pardasi yorilib ketishi va ko‘z ichidan ichki qismlarining oqib tushishi kuzatiladi.

Ko‘zning termik kuyishi. Ko‘zga yonayotgan gaz, suyuqlik, qizigan temir parchalarining tushishi natijasida kuyish rivojlanadi. Ko‘z to‘qimalarining oqsili ivib, jonsizlanib qolishi natijasida chandiq hosil bo‘lishi mumkin.

Ko‘zning kuyish holati yadro quroli portlashida ajralib chiqadigan yoruqlik nurlanishi oqibatida ham ro‘y beradi.

Yadro quroli portlashi natijasida ajralib chiqqan yorug‘lik nurlanishi, ko‘rish qobiliyatining pasayib ketishi yoki umuman ko‘r bo‘lib qolishiga olib keladi. Ko‘rmay qolish bir daqiqadan bir sutkagacha davom etishi mumkin. Keyinchalik ko‘rish qobiliyati yana o‘z holatiga qaytadi.

Tarkibida ultrabinafsha nuri ko‘p bo‘lgan nurlanish energiyasi ta’sirida ko‘zning kuyishi elektr payvandlash, qor bilan qoplangan tog‘li maskanlarda ultrabinafsha nurlarining qaytarilishi ta’sirida kuzatilishi mumkin. Ultrabinafsha nurlari ta’sir qilgan vaqtidan 6—8 soatdan keyin qovoq terisi va konyunktiva qizarib ketib, yorug‘likdan qo‘rquv va ko‘zdan mo‘l ko‘z yoshi ajralishi paydo bo‘ladi. Bu ko‘rinishlar bir necha kundan so‘ng o‘tib ketadi.

Ko‘zning kimyoviy kuyishi kislota, ishqor va boshqa eritma tomchila-

bo‘ladi. Keyinchalik u ajralib tushadi. Ishqorlar bilan kuyish og‘ir kechadi. To‘qimalar chuqur ichkariga kirib, eritib yuboradi va namlangan qoraqo‘tir paydo bo‘ladi. U uzoq vaqt ajralib tushmaydi hamda ostida to‘qimalarning buzilishi davom etaveradi.

Birinchi tibbiy yordam. Jarohatlanganda, termik kuyganda, ko‘z kontuziyasida ko‘zga darhol sterillangan bog‘lov qo‘yiladi va zudlik bilan

jarohatlanishlarda binokular bog‘lami qo‘yiladi. Bu yaxshi tinchlik holatini

Jarohatlangan va kuygan ko‘zga dori-darmon qo‘yish yoki uni yuvish mumkin emas. Bu ko‘zga infeksiya tushishi yoki radioaktiv moddalarning

harakat qilmaslik kerak. Faqatgina ko‘z va uning atrofidagi tuproq, loy bo‘laklari va boshqa jismlar olib tashlanadi.

Ko‘zning kimyoviy kuyishi hamda ko‘zga ko‘p miqdorda radioaktiv changlar tushgan vaqtda darhol sovuq suv bilan yuvib tashlash va jarohatlanganni zudlik bilan evakuatsiya qilish kerak.

Agarda ko‘z qamashishi, bir vaqtning o‘zida ko‘rish qobiliyatining yo‘qolishida og‘riq sezilsa, ko‘z sezilarli darajada jarohatlansa va ko‘zning ko‘rish qobiliyati 0,5—1 soatdan ko‘p vaqt yo‘qolgan bo‘lsa, jarohatlangan kishi zudlik bilan tibbiy yordam ko‘rsatish uchun tibbiyot punktiga evakuatsiya qilinadi.

Burun jarohati qon ketishi bilan xavflidir. Bunday holda kasalni chalqancha qilib yotqizish mumkin emas. Chunki qon ketishi davom

aynishi va qayt qilish holati kuzatilib, kasal ahvoli yomonlashadi. Bunday paytda kasalni boshini pastga eggan holda o‘tqazish yoki yuzini pastga qaratib yotqizish kerak (qoringa). Burunga muzdek suv, muz yoki qor solingan idish qo‘yish kerak. Imkon boricha burun teshiklariga vodorod peroksidi eritmasiga ho‘llangan paxtali tampon yoki tumovga qarshi tomchilar bilan ho‘llangan tampon qo‘yiladi.

Quloq chig‘anog‘i jarohatining klinik kechishi va ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan tibbiy yordam boshqa organlarning teri qavati shikastiga ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan yordamdan farq qilmaydi. Quloq chig‘anog‘i tez bituvchan bo‘lganligini hisobga olgan holda, hatto quloq uzilib tushgan bo‘lsa ham uni imkon qadar ushlab turishga harakat qilish kerak.

Tashqi eshituv yo‘li pastki jag‘ bo‘g‘imi singanda, o‘qotar quroldan jarohatlanganda, bosh suyagining asosi singanda shikastlanadi. Ba’zan nog‘ora pardasining yirtilishi holati kuzatiladi.

Tashqi eshituv yo‘llaridan qon oqishi og‘ir jarohat olgan va suyak asos qismi singanidan dalolat beradi. Bunday holatda, odatda, eshitish qobiliyati keskin yomonlashadi, qon orqa miya suyuqligi cho‘kmalari bilan aralashishi hisobiga yomon iviydi. Bunday holatda quloqqa sterillangan bog‘lov qo‘yib, jarohatlangan yotgan holatda tibbiy yordam ko‘rsatish uchun tibbiyot punktiga evakuatsiya qilinadi. Quloqdan qon ketganda, uni to‘xtatish

Tashqi quloq eshituv yo'li ichiga hasharot kirib qolsa, eshituv yo'liga bir

rezinali doriqurutgich yordamida iliq suv bilan yuvib tashlanadi. Quloqdan boshqa yot jismlarni olib tashlashning boshqa usullarini sanitariya yo'riqchisi qo'llashi mumkin emas.

Nog'ora pardasining shikastlanishi, odatda, tashqi eshituv yo'lida havo bosimi keskin ko'tarilganda (o'q-dori portlaganda, quloqqa shapaloq tortilganda, suvga sakraganda va boshqalarda) ro'y beradi. Nog'ora pardaning yirtilishi og'riq, qon ketishi, eshitish qobiliyati pasayishi va quloqda shovqin eshitilishi bilan kuzatiladi. Bunda, o'rta quloq shamollashining oldini olish maqsadida jarohatlangan quloq yuvilmay va dori-darmon tomizilmasdan, steril bog'lov qo'yish kerak. Imkon bo'lsa, bog'lov ustidan muz solingan idish qon to'xtatish uchun qo'yiladi.

Halqum, hiqildoq, kekirdak (traxeya) yaralangan va jarohatlanganda ko'pincha qon ketish oqibatida qon nafas olish yo'llariga tushadi. Bu o'pka shamollashini keltirib chiqaradi va o'lim holatiga olib keladi.

Hiqildoq va kekirdak jarohatlanganda ovoz bo'g'iladi yoki pichirlab gaplashgandek ovoz chiqadi. Ba'zida bo'g'ilish hollari sodir bo'ladi. Yo'talgan vaqtda yara sohasida og'riq kuchayadi, yaradan havo chiqishi mumkin. Halqumning yaralanishi yutinishning buzilishiga olib keladi.

Halqum, hiqildoq va kekirdak jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam hayot uchun xavf tug'diruvchi qon ketishni to'xtatish va bo'g'ilib qolish sabablarini bartaraf etishdan iborat. Yaralangan joyga steril bog'lov qo'yish kerak.

Nazorat savollari

1. Birinchi tibbiy yordam tushunchasi.
2. Jang maydonida jarohatlanganlarga ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordamga nimalar kiradi?
3. Jarohat turlarini gapirib bering.
4. Qon ketish turlarini va belgilarini gapirib bering.
5. Qon ketishida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlariga nimalar kiradi?
6. Qon ketishini to'xtatish usullariga qaysilar kiradi?
7. Suyak sinishining tasnifini gapirib bering.
8. Suyak sinishlarda birinchi yordam ko'rsatishning umumiy qoidalari nimalardan iborat?

4-bob. RADIATSIYADAN SHIKASTLANISH VA ZAHARLOVCHI MODDALARDAN ZARARLANISHNING OLDINI OLISH VA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO‘RSATISH


4.1. Yadro qurolining portlashi natijasida ajralib chiqqan mahsulotlar bilan zararlanganda sanitar ishlovni o‘tkazish. Yadro qurolining portlash o‘chog‘ida davolash-evakuatsiya chora-tadbirlarini tashkil qilish hamda ko‘rsatilayotgan birinchi tibbiy yordamning hajmi

Yadro qurolining portlashi natijasida ajralib chiqqan mahsulotlar bilan zararlanganda sanitar ishlovi, saralash postida teri qavatlarini va kiyim-kechaklarning radioaktiv moddalar bilan zararlanganlik darajasi, dozimetrik tekshirishlardan olingan ma’lumotlarga asoslanib o‘tkaziladi.

Radioaktiv moddalar bilan zararlangan shaxsiy tarkibga sanitar ishlovi qisman yoki to‘liq o‘tkazilishi mumkin. Bo‘linmalar shaxsiy tarkibi o‘zlarining egallab turgan joylaridan chiqarilib, radioaktiv moddalar bilan zararlanganligi aniqlangandan so‘ng qisman sanitar ishlovi o‘tkaziladi. Radioaktiv moddalardan zararlanganda, zararlanish sodir bo‘lgan vaqtdan so‘ng birinchi soatlar ichida dezaktivatsiya o‘tkaziladi.

Radioaktiv zararlanish o‘chog‘idan chiqqandan so‘ng qisman sanitariya ishlovi quyidagicha o‘tkaziladi: shaxsiy qurol suvga ho‘llangan tamponlar bilan ikki marta artib dezaktivatsiya qilinadi, agar ИДП-1 paketi bo‘lsa, unda vositalari yechib qoqib (supurib) tashlanadi yoki ho‘llangan mato bilan artib chiqiladi; kiyim-kechak yechiladi va silkitib qoqiladi yoki supurib tashlanadi, bunda gazniqob yechilmaydi; aslaha-anjomlar, poyabzallar yechiladi va ho‘llangan mato bilan artib chiqiladi yoki qo‘l ostidagi vositalar bilan supuriladi. Odamning ochiq joylari: qo‘llari, bo‘yni toza suv bilan yuviladi, yechiladi, yuz suv bilan obdan yuviladi, og‘iz va tomoq chayiladi (77-rasm). Yarador va bemorlarning to‘liq sanitar ishlovi tibbiy davolash muassasalarining sanitar ishlov o‘tkazish bo‘limlarida o‘tkaziladi.

To‘liq maxsus ishlov o‘tkazish shaxsiy tarkibga to‘liq sanitariya ishlovi o‘tkazishni va qurol-yarog‘, texnika, kiyim-kechaklar, poyabzallar, aslaha-anjomlar hamda shaxsiy himoya vositalarini to‘liq dezaktivatsiya, degazatsiya




77-rasm. Radioaktiv moddalardan zararlanganda qisman sanitariya ishlovi o'tkazish usullari.

To'liq maxsus ishlov qo'shinlar oldiga qo'yilgan jangovar vazifalar bajarilgandan keyin hamda jangdan chiqqandan so'ng harbiy qism komandiri buyrug'i asosida o'tkaziladi. To'liq maxsus ishlov o'tkazish harbiy harakat qilayotgan yo'nalishlarda va maxsus ishlov hududida o'tkaziladi. Maxsus ishlov iloji boricha zararlanmagan joylarda o'tkaziladi.

Maxsus ishlov o'tkazish punktida quyidagi joylar tashkil qilinadi va kerakli vositalar bilan jihozlanadi: taqsimlovchi-nazorat posti; harbiy texnikani va qurol-yarog'ni degazatsiya, dezinfeksiya qilish maydonchasi; sanitariya ishlovini o'tkazish maydonchasi, zararlangan ust-boshni almash-tirish maydonchasi; qo'mondonlik-kuzatish punkti (78-rasm).

Yadro qurolining portlash o'chog'ida, yadro quroli hujumi ostida qolgan va jangovarlik qobiliyatini saqlab qolgan bo'linmalarning shaxsiy tarkibi tomonidan o'ziga o'zi va bir-biriga yordam ko'rsatish tadbirlari o'tkaziladi.

uchun qo'llaniladigan vositani qabul qilishni qamrab oladi. Agar organizm ichiga radioaktiv moddalarning kirishi kuzatilgan bo'lsa, adsorbent qabul qilinadi va keyinchalik me'da yuviladi.



78-rasm. Maxsus ishlovni o‘tkazish hududi.

Kombinatsiyalashgan shikastlanishlarda, birinchi navbatda, mexanik va

to‘xtatish va nafas olishni tiklash choralari ko‘riladi. Kerak bo‘lganida shaxsiy himoya vositalari (respiratorlar, gazniqoblar, himoya kiyim-kechaklari) qo‘llaniladi. Teri qavatlari va kiyim-kechaklar radioaktiv moddalar bilan zararlanganida qisman sanitariya ishlovi o‘tkaziladi.

ketish (olib ketish) ishlari tashkil qilinadi. Yadro quroli portlashi yuz bergan o‘choqda va radioaktiv moddalar bilan zararlangan joylarda birinchi navbatda, evakuatsiya qilinishga muhtoj bo‘lgan og‘ir yaradorlar guruhi ajratiladi.

Sanitariya yo‘riqchisi birinchi tibbiy yordam elementlarining to‘g‘ri bajarilishi ustidan nazorat qiladi, kerak bo‘lgan vaqtlarda og‘ir yaradorlarga va zararlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatadi. Sanitariya yo‘riqchisi zararlanganlar va yaradorlarni jang maydonida qidirib topishda va ularni tibbiyot punktiga evakuatsiya qilishda ishtirok etadi. Bunda sanitariya yo‘riqchisi yaradorlar va zararlanganlarga yadro portlashi o‘chog‘idan

hamda sanitariya transportlari kelishini inobatga olgan holda og‘ir yaradorlar va zararlanganlarni to‘plash joyini aniqlaydi. Og‘ir yaradorlar va zararlanganlarning jang maydonida to‘plangan joylarini sutkaning hamma vaqtlarida yaxshi ko‘rinadigan belgilar yoki «Roza-MT» radiopelengatsion asbobi yordamida belgilab qo‘yiladi.

Shifokorgacha bo‘lgan (feldsherlik) tibbiy yordam (batalyon, brigada tibbiyot punktlarida) o‘z ichiga olib kelingan yarador va zararlanganlar shikastlanishining og‘irlik darajasini hisobga olgan holda saralashni qamrab oladi. Bunda ikkita guruh ajratiladi: og‘ir shikastlanganlar birinchi navbatda evakuatsiya qilinadi; yengil shikastlanganlar (imkoni boricha qisqa vaqt ichida) esa ikkinchi navbatda.

Shifokorgacha bo‘lgan (feldsherlik) tibbiy yordam: birlamchi reaksiyani olish uchun qo‘llaniladigan vositani qayta qabul qilish uchun berishni; radioaktiv moddalarning ichga tushishi gumon qilinayotgan bo‘lsa — antidotni berishni va keyinchalik me’dani yuvishni; kombinatsiyalashgan shikastlanishlarda — og‘riqsizlantiruvchi vositalarni va antibiotiklarni qayta berish; ko‘rsatmalarga asosan yurak-qon tomirlarining dori-darmonlari va nafas analeptiklari (kofein, kordiamin), antigistamin preparatlari (dimedrol, suprastin va boshqalar), trankvilizatorlar berishni o‘z ichiga qamrab oladi.

Ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam o‘z ichiga faqat shoshilinch ravishda ko‘rsatiladigan chora-tadbirlarni — bevosita yarador va zararlanganlarning hayotini saqlab qolishga qaratilgan ishlarni o‘tkazishni hamda radiatsiya nurlanishi kam bo‘lgan joylarga ularni zudlik bilan evakuatsiya qilishni qamrab oladi.

4.2. Kimyoviy qurol qo‘llanishi natijasida zararlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish

Zaharlovchi moddalar bilan zararlanganda qisman ishlov o‘tkazish. Qisman maxsus ishlov o‘tkazishni, odatda, harbiy bo‘linma yoki qism oldiga yoki har bir harbiy xizmatchi mustaqil ravishda o‘ziga va bir-biriga o‘tkazadi. Bunda, zaharlovchi moddalar bilan zararlanganda quyidagilar o‘tkaziladi: ochiq qolgan teri qavatlari, kiyim-kechak, gazniqobning yuz qismi tezlik bilan degazatsiya qilinadi. Bundan tashqari, shaxsiy tarkib jangovar vazifani bajarish vaqtida qurol-yarog‘ va harbiy texnikaning ayrim qismlariga tegadi, shuning uchun ushbu joylar ham degazatsiya qilinadi.

Qisman sanitariya ishlovini o‘tkazish tartibi. Zaharlovchi modda qo‘llanilgan vaqtda shaxsiy tarkib gazniqob va shaxsiy himoya vositalarida bo‘lsa, kishining teri qavatlari va kiyim-kechagi shu zaharlangan o‘choqdan chiqqandan so‘ng degazatsiya qilinadi.

Himoya vositalarini kiymagan shaxsiy tarkib ochiq joyda joylashgan vaqtda, to‘satdan dushman zaharlovchi moddalarni qo‘llasa, tezlik bilan gazniqob kiyiladi, himoya plashi esa yopinchiq holatda kiyiladi. Darhol zararlangan teri qavatlari, kiyim-kechakning zararlangan qismlari va gazniqobning yuz qismi kimyoga qarshi shaxsiy paket (ИПП-8, ИПП-9, ИПП-10) yordamida degazatsiya qilinadi. Qurol-aslaha zararlangan joydan chiqqandan so‘ng degazatsiya qilinadi. Komandir (boshliq)ning buyrug‘iga asosan himoya plashi, himoya qo‘lqopi, himoya paypog‘i yechiladi. Agar ushbu vositalar zaharlovchi moddalar qo‘llanilayotgan vaqtda kiyilgan bo‘lsa, himoya vositalari yechilishidan oldin degazatsiya qilinadi. Qisman sanitariya ishlovi o‘tkazib bo‘lingandan so‘ng gazniqob yechilmaydi.

Shaxsiy tarkib bir vaqtning o‘zida zaharlovchi, radioaktiv moddalar va bakterial vositalardan zararlangan vaqtda, kimyoga qarshi vositalar yordamida moddalar degazatsiya va bakterial vositalar dezinfeksiya qilinadi, so‘ngra radioaktiv moddalar dezaktivatsiya qilinadi.


Qisman sanitariya ishlovi o‘tkazish uchun qo‘llaniladigan vositalar. Dala sharoitida qisman sanitariya ishlovi o‘tkazish uchun harbiy to‘plamlar va asboblardan foydalaniladi. Bundan tashqari, kimyoga qarshi shaxsiy paketlar ИПП-8, ИПП-9, ИПП-10, qurol va kiyim-kechakni degazatsiya qiluvchi ИДПС-69 to‘plami, kukunli degazatsiya qiluvchi ДПП paketi ishlatiladi.

Kimyoga qarshi ИПП-8 shaxsiy paketi (79-rasm) — terining ochiq joylariga tushgan zaharlovchi moddalarni degazatsiya qilish va terining ochiq joylariga (bo‘yin, yuz, qo‘llar) tegib turadigan kiyim-kechakning yengi, yoqasi hamda gazniqobning yuz qismini degazatsiya qilish uchun mo‘ljallangan.

Kimyoga qarshi shaxsiy paket kavsharlangan polietilen xaltadan iborat bo‘lib, uning ichida degazatsiya qiluvchi suyuqlik solingan shisha flakon (135 ml hajmda suyuqlik bilan to‘ldirilgan) va to‘rtta 7×10 sm li paxta-doka tampon mavjud. ИПП-8, odatda, gazniqobning yuz qismi saqlanadigan gazniqob xaltasida olib yuriladi (79-rasm, *a*).

Paketdan quyidagicha foydalaniladi:

— zaharlovchi modda teriga tushgan vaqtda tezlik bilan paket chap qo‘lga olinadi, g‘ilofni yirtib qo‘yilgan joyidan tortib oxirigacha yirtiladi va suyuqlik to‘ldirilgan shisha idish va paxta-dokali tampon olinadi;



79-rasm. ИПП-8 shaxsiy paketi: *a* — umumiy ko‘rinishi; *b* — suyuqlik solingan shisha flakon; *d* — paxta-dokali tampon.

— paxta-dokali tampon suyuqlik bilan ho‘llanadi, badanning zaharlovchi modda tekkan joylari (shu suyuqlik bilan 1—2 daqiqa mobaynida) yaxshilab artiladi. Yuz artilayotgan vaqtda ko‘zga suyuqlik tushmasligiga harakat qilish kerak.

Agar zaharlovchi moddaning suyuq tomchisi kiyimga tekkan bo‘lsa, flakon teshigi qisman berkitilib, kiyimning zaharlovchi modda tekkan joylari ho‘llanadi va tampon yordamida ishqalab artiladi.

Ishlov o‘tkazib bo‘lingandan so‘ng teri qavatida ortib qolgan suyuqlik quruq paxta-dokali tampon yordamida quritiladi.

Flakonning qopqog‘i berkitiladi va yana gazniqob xaltasiga solib qo‘yiladi.

Jang maydonida ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam o‘z-o‘ziga, o‘zaro, sanitarlar va sanitariya yo‘riqchilari tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy yordamdan iborat. Bunda zararlanganlarga:

— zudlik bilan gazniqob kiygiziladi;

— shaxsiy aptechkadagi yoki qo‘shinlar sumkasidan ziddi-zahar (afin, budaksim) yuboriladi;


— ИПП-8, ИПП-10 va boshqa vositalar yordamida qisman ishlov o‘tkaziladi;

— zararlanganlarga ko‘rsatma bo‘yicha sun’iy nafas oldiriladi;

— zararlangan o‘choqdan chiqib ketiladi (olib ketiladi);

— zararlanganlar zudlik bilan tibbiyot punktiga sanitar yoki boshqa transportlarda, himoya vositalarida (birinchi navbatda, og‘ir zararlanganlar) evakuatsiya qilinadi.

Zaharlanishning birinchi klinik alomatlari paydo bo‘lishi bilan (ko‘z qorachig‘ining qisqarishi, mioz, nafas olishning qiyinlashishi va boshqalar)



80-rasm. Shpris-tyubik: *1* — antidot solingan plastmassali tyubik; *2* — antidot; *3* — kanyula; *4* — membrana; *5* — nina; *6* — qalpoqcha.


fosfororganik zaharlovchi moddalarga qarshi ziddi-zahar shpris-tyubik (80-rasm) yordamida o‘ziga o‘zi yoki o‘zaro yordam ko‘rsatish orqali teri ostiga yoki mushaklar orasiga yuboriladi.

Ziddi-zahar (antidot)ni mushak orasiga yuborish uchun qirrali gardishni kanyuladagi (*3*) rezba bo‘yicha cheklagichga tekkungacha suriladi va kuch bilan 2—3 marta buraladi. Bunda inyeksiya ninasining ichkari qismi (*4*) plastmassa tyubikdagi pardani teshadi, ninani (*5*) berkitib turgan qalpoqcha (*6*) olinadi, keyin tyubikni (*1*) asosidan ushlab turib, nina uchida suyuqlik (*2*) paydo bo‘lgunga qadar havo siqib chiqariladi va zararlangan kishining terisi ostiga yoki mushaklari orasiga nina sanchib kiritiladi va suyuqlik yuboriladi (81-rasm). Shuni esda tutish kerakki, shpris-tyubikda suyuqlikning ozgina qismi qoladi.

Shpris-tyubik ishlatilgandan so‘ng zararlangan kishining cho‘ntagiga solib qo‘yiladi yoki to‘g‘nag‘ich yordamida ust-boshiga taqib qo‘yiladi. Bu esa ziddi-zahar yuborilganligini bildiradi.

Keyingi vaqtda zararlangan kimyoviy hududlarda foydalanish uchun ko‘p

ishlatiladigan avtomatik shprislar ishga soluvchi moslama, ko‘p marta ishlatiladigan qobiq va bir marta qo‘llaniladigan ziddi-zahar eritmasi bilan to‘ldirilgan steril kapsuladan iborat.



81-rasm.

Dushman tomonidan zaharlovchi moddalarni qo‘llash xavfi tug‘ilganida, komandirning buyrug‘iga asosan fosfororganik moddalarga qarshi ikkita tabletka «preparat П-6» profilaktik ziddi-zahari suv bilan ichiladi, 5 soat o‘tgandan so‘ng yana ikkita tabletka suv bilan ichiladi.

Nazorat savollari

1. Yadro qurolining portlashi natijasida ajralib chiqqan mahsulotlar bilan zararlanganda sanitar ishlovini o‘tkazish tadbirlari nimalardan iborat?
2. Yadro qurolining portlash o‘chog‘ida davolash-evakuatsiya chora-tadbirlariga nimalar kiradi?
3. Yadro qurolining portlash o‘chog‘ida ko‘rsatilayotgan birinchi tibbiy yordamning hajmiga nimalar kiradi?
4. Zaharlovchi moddalar bilan zararlanganda qisman sanitariya ishlovini o‘tkazish tartibini gapirib bering.

5-bob. FUQARO MUHOFAZASI TIBBIY XIZMATINI TASHKIL ETISH VA UNING VAZIFALARI. SHIKASTLANGAN AHOLIGA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO‘RSATISHNI TASHKIL ETISH

5.1. Fuqaro muhofazasi tibbiy xizmatini tashkil etish va uning vazifalari. Fuqaro muhofazasi harbiylashtirilmagan tibbiy tuzilmalarining tavsifi va vazifasi

Mamlakatimizda fuqaro muhofazasi — aholini, moddiy boyliklar hamda xalq xo‘jaligi obyektlarini tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlardan, shuningdek, urush davrida ommaviy qirg‘in quroli va boshqa turdagi qurollardan himoya qilish maqsadida, tinchlik hamda harbiy holatda amalga oshiriladigan umumdavlat mudofaa tadbirlari tizimidan iborat.

Fuqaro muhofazasi turli xil zararlanish o‘choqlarida qutqarish, shoshilinch tiklash ishlarini tashkil etadi va amalga oshiradi. Mana shu chora-tadbirlarni bajarish uchun mamlakatimiz miqyosida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, shahar, tuman va xalq xo‘jaligining boshqa obyektlarida Fuqaro muhofazasi shtablari va xizmatlari tuziladi. Ayni vaqtda mazkur shtab tarkibida tibbiy xizmatga ham muhim ahamiyat beriladi.

Fuqaro muhofazasi tibbiy xizmati (FMTX)ning asosiy vazifalari:

— yarador va kasallarga barcha turdagi tibbiy yordamni o‘z vaqtida ko‘rsatish, ularning sog‘lig‘ini mumkin qadar tezroq tiklash va mehnatga qaytarish maqsadida ularni davolash;

— aholining sanitariya jihatdan yaxshi holatda bo‘lishini ta’minlash va dushman tomonidan ommaviy qirg‘in qurollari ishlatilishining noqulay sanitariya oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan sanitariya-gigiyena chora-tadbirlarini bajarish bilan birga epidemiyalarga qarshi chora-tadbirlarni uyushtirish;

— aholi orasida yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi va tarqalishining oldini olish.

FMTX tinchlik davridagi sog‘liqni saqlash muassasalari bazasida, ularning qaysi tashkilot yoki idoralarga qarashli bo‘lishidan qat’i nazar, hududiy-ishlab chiqarish tamoyiliga muvofiq tuziladi.

Tegishli sog‘liqni saqlash muassasalarining rahbarlari FMTX boshliqlari

boshliqlar huzurida tibbiy xizmat shtablari tuziladi, bu shtablar tarkibiga sog‘liqni saqlash tizimining rahbar xodimlari kiradi.

Fuqaro muhofazasi tibbiy xizmatining hamma kuch va vositalari dushman tomonidan ommaviy qirg‘in qurollari va boshqa hujum vositalari qo‘llanilganida, aholiga tibbiy yordam berishni uyushtirishga mo‘ljallangan bo‘lib, ular tinchlik vaqtida tayyorlab boriladi. Mana shu vazifalarni hal qilish uchun FMTX harbiylashtirilmagan tibbiy tuzilmalari va tibbiy muassasalarini ishga tayyorlab boradi, shuningdek, tinchlik vaqtida mavjud bo‘lgan davolash, profilaktika va sanitariya-epidemiologiya muassasalaridan alohida sharoitlarda foydalanishni rejalashtiradi.

Fuqaro muhofazasining harbiylashtirilmagan tibbiy tuzilmalariga quyidagilar kiradi:

— boshliq va sanpostchilardan iborat sanitariya posti (SP);

— tibbiy xodim drujinasi, buning tarkibiga quyidagilar kiradi: drujina boshlig‘i, siyosiy rahbar, aloqachi, sandrujinachilar (bular to‘rt kishidan iborat zvenolarga birlashtiriladi);

— tinchlik vaqtidagi davolash-profilaktika muassasasi bazasida tashkil etiladigan birinchi tibbiy yordam bo‘limi;

— tinchlik vaqtida mavjud bo‘lgan sanitariya-epidemiologiya stansiyalari bazasida tuziladigan epidemiyaga qarshi ko‘chma bo‘lim.

FMTXning tibbiyot muassasalari jumlasiga quyidagilar kiradi: saralash-evakuatsiya gospitallari, bosh kasalxonalar, ixtisoslashtirilgan va ko‘p ixtisosli kasalxonalar.

Bu muassasalar shahar tashqarisida joylashgan bo‘ladi va kasalxona kollektorlariga birlashtiriladi. Bir necha kasalxona kollektorlari kasalxona bazasini tashkil etadi.

5.2. Kuyish, muzlash holatlari va boshqa baxtsiz hodisalar yuz berganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish

Kuyishda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish

Kuyish — yuqori harorat (termik kuyish), kimyoviy moddalar (kimyoviy kuyish), rentgen va quyosh nurlari, yadro bombalari portlashidagi nurlanish (nurdan kuyish), elektr toki ta’siridan sodir bo‘ladigan to‘qimalarning shikastlani

Termik kuyish — badanga yuqori harorat (alanga, qaynagan suv, issiq suyuqlik, gaz, cho‘g‘ bo‘lgan hamda eritilgan metallar va hokazo)ning bevosita ta’siridan paydo bo‘ladi. Shikastlanishning og‘ir-yengilligi ta’sir qilayotgan haroratning balandligi, ta’sir qilish muddati, kuygan sohaning katta-kichikligi va kuygan sohaga bog‘liq. Bosim ostidagi alanga va bug‘ ta’sirida og‘ir kuyish hodisalari yuz beradi.

Bu holda atmosfera bilan tutashadigan og‘iz bo‘shlig‘i, traxeya va boshqa a’zolar kuyishi mumkin. Ko‘pincha qo‘l, oyoq va ko‘z, gavda hamda bosh kuyadi.

Kuyishning og‘ir-yengilligi uning qancha joyga tarqalganligi va tananing qanday chuqurlikda shikastlanganligiga bog‘liq. Kuygan soha nechog‘liq katta va shikastlanish chuqur bo‘lsa, kasal hayoti uchun xavf-xatar shunchalik katta bo‘ladi. Tananing 1/3 qismi kuyganda ko‘pincha bemor halok bo‘ladi.

Shikastlangan sohaning chuqurligiga ko‘ra, kuyishning to‘rt darajasi mavjud.

I darajali kuyish (eritema) terining qizarishi, shishishi va og‘riq bilan yuzaga chiqadi. Kuyishning bu yengil darajasi terida yallig‘lanishning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Yallig‘lanish hodisalari birmuncha tez (3—6 kunda) o‘tib ketadi. Keyingi kunlarda terida po‘st tashlash kuzatiladi.

II darajali kuyish (pufakchalar hosil bo‘lishi) birmuncha keskin ifodalangan yallig‘lanish reaksiyasi avj olishi bilan xarakterlanadi. Qattiq og‘riq terining qizarishi va epidermis qavati ko‘chib, tiniq yoki loyqaroq suyuqlik bilan to‘lgan pufak hosil bo‘lishi bilan o‘tadi. II darajali kuyishda terining chuqur qatlamlari shikastlanmaydi. Shuning uchun kuygan yuzaga infeksiya tushmasa, bir hafta o‘tgach, terining hamma qatlamlari tiklanib, chandiq qolmaydi. 10—15 kun o‘tgach, kasal batamom tuzaladi. Pufakchalarga infeksiya tushganda tiklanish keskin buziladi va kuygan soha asta-sekin ancha muddatdan so‘ng tuzaladi.

III darajali kuyishda terining hamma qatlamlari nekrozga uchraydi (jonsizlanadi). Teri hujayralaridagi oqsil va qon iviydi. Qattiq po‘stloq hosil qiladi, po‘stloq ostida shikastlangan va jonsizlangan to‘qimalar bo‘ladi. III darajali kuygan soha chandiq bo‘lib ikkilamchi tartibda bitadi. Shikastlangan joyda granulatsion to‘qima rivojlanadi. U biriktiruvchi to‘qima bilan almashib, chuqur joylashgan yulduzsimon chandiq hosil qiladi.

IV darajali kuyish (ko‘mirlanish) to‘qimaga juda yuqori harorat (volt yoyi alangasi, erigan metall) ta’sirida paydo bo‘ladi. Bu kuyishning eng og‘ir

Kuyishning III va IV darajasi sekin bitadi va kuygan soha terisini ko‘chirib o‘tkazish yo‘li bilangina bekitish mumkin.

Kuyish og‘ir hodisalar keltirib chiqaradi. Bu hol, bir tomondan, tomondan, qon va ichki organlar funksiyasidagi o‘zgarishlar (intoksikatsiya) sababli yuzaga keladi.

Termik kuyishda birinchi yordam ko‘rsatish tartibi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan.

Sovuq olgan, oftob urgan va issiq elitgan, suvga cho‘kkan, zaharli ilon va hasharotlar chaqqanlarga birinchi tibbiy yordam

Sovuq olishi (sovuq urishi) organizm to‘qimalariga past harorat ta’sir qilishi natijasida shu to‘qimalarning shikastlanib qolishi bilan tavsiflanadi. To‘qimalar harorati 0°C dan yuqoriroq bo‘lib turganda ham sovuq olishi mumkin, ayniqsa, kunlar dam-badam isib-sovib turganda shunday bo‘ladi. Poyabzalning nam va tor bo‘lishi, sovuq havoda, qorda, sovuq yomg‘ir tagida uzoq vaqt qimirlamay turib qolish sovuq olishini tezlashtiradi. Ko‘proq qo‘l-oyoqlarni, ayniqsa, oyoqlarni sovuq oladigan bo‘ladi. Sovuq ta’sir qilgan mahalda avvaliga o‘sha joy sanchib, sovuq yegani seziladi, achishib turadi, keyin terisi oqarib yoki ko‘karib, sezmaydigan bo‘lib qoladi. Qo‘l yoki oyoq faol harakat qila olmaydi. Shikastning nechog‘liq chuqur va keng yoyilganini sovuq ta’siri to‘xtaganidan keyin, ba’zan bir necha kun o‘tganidan keyin aniqlasa bo‘ladi (sovuq olgan joy shishib, unda yallig‘lanish boshlanadi yoki to‘qimalar halok bo‘ladi — nekroz ro‘y beradi).

To‘qimalarning qanchalik chuqur shikastlanganiga qarab, sovuq olishining to‘rt darajasi farq qilinadi: yengil (I), o‘rtacha og‘ir (II), og‘ir (III) va juda og‘ir (IV) (82-rasm).



82-rasm. Sovuq urishining ko‘rinishi.

Sovuq urishining I darajasi teri qon aylanishining tiklanadigan buzilishlari holidagi zaharlanishi bilan xarakterlanadi. Shikastlangan kishining terisi oqarib, biroz shishgan, sezuvchanligi keskin pasaygan yoki batamom yo‘qolgan bo‘ladi. Isitishdan so‘ng teri ko‘kimtir-qizil tusga kiradi, shish kamayadi. Bunda ko‘pincha lo‘qillagan og‘riq bo‘ladi. Yallig‘lanish (shish, qizillik, og‘riq) bir necha kungacha saqlanib, asta-sekin yo‘qoladi. Keyinroq terining po‘st tashlashi va qichishi kuzatiladi. Sovuq urgan soha ko‘pincha sovuqqa ojiz bo‘lib qoladi.

Sovuq urishining II darajasi teri yuza qatlamlarining nekrozi bilan yuzaga chiqadi. Isitishdan so‘ng shikastlangan kishining oqargan terisi to‘q qizil-ko‘kimtir tusga kiradi. Tezda to‘qimalar shishi rivojlanib, sovuq urgan joy atrofida tiniq yoki oq rangli suyuqlik bilan to‘lgan pufakchalar hosil bo‘ladi. Shikastlangan sohada qon aylanishi asta-sekin tiklanadi va terida sezuvchanlikning buzilishi uzoq vaqtgacha saqlanib qolishi mumkin. Biroq uzoq vaqtgacha birmuncha og‘riq bo‘lishi qayd qilinadi. Sovuq urishining bu darajasida umumiy o‘zgarishlar ro‘y beradi: tana harorati ko‘tariladi, ishtaha va uyqu yomonlashadi. Bu joydagi teri uzoq vaqtgacha ko‘kimtir, sezuvchanligi past bo‘lib qoladi.

Sovuq urishining III darajasi qon ta’minotining buzilishi (tomirlar chuqurlikda nekrozga uchrashiga olib keladi. Bunda nechog‘liq chuqur shikastlanganlik asta-sekin aniqlanadi. Dastlabki kunlari teri nekrozi qayd qilinadi. Gemorragik va to‘q qo‘ng‘ir rangli suyuqlik bilan to‘lgan o‘tgach, avj olayotgan nam gangrena ko‘rinishida aniqlanadi. Sovuq urishining bu darajasida umumiy o‘zgarishlar birmuncha ko‘p yuzaga chiqadi. Masalan, intoksikatsiya kasalning qattiq titrab-qaqshashi va terlashi, kayfiyatining buzilishi, atrofdagi hodisalarga befarq qarashida ko‘rinadi.

Sovuq urishining IV darajasi to‘qimalarning hamma qatlamlari, jumladan, suyaklarning ham jonsizlanishi bilan xarakterlanadi. Bunday chuqur sovuq urishida tananing shikastlangan qismini isitib bo‘lmaydi. U sovuqligicha qoladi va hech narsani sezmaydi. Teri qora suyuqlikka to‘lgan pufaklar bilan qoplanadi. Shikastlanish chegarasi asta-sekin aniqlanadi. Demarkatsion chiziq 10—17 kun o‘tgach paydo bo‘ladi. Shikastlangan joy atrofi tezda qorayadi va quriy boshlaydi (mumiyolanadi). Nekrozga uchragan sohaning ko‘chib tushish jarayoni ko‘pga cho‘ziladi (1—2 oy) va jarohat juda

Havo sovuq, ayniqsa, shamol bo‘lib turganda badan terisining ochiq joylarini bekitib olish lozim. Odam qattiq sovuqda bo‘lgan paytida yuzi ochiq qismlarining sezuvchanligini dam-badam tekshirib turishi kerak. Sovuq olishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun har xil surtma dorilar, ya’ni malhamlar ishlatishning foydasi yo‘q.

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda shikastlangan odamni issiq binoga olib kirilib, issiq suvli vannaga solinadi, bordi-yu buning iloji bo‘lmasa, uni o‘sha joyning o‘zida sovuqdan ehtiyot qilib, unga issiq choy, qahva ichiriladi. Ho‘l kiyim va poyabzali mumkin qadar qurug‘iga almashtiriladi. To‘qima-

yo‘q bo‘lsa), sovuq olgan joylar spirt, atir bilan artilib, paxta tampon bilan yoki yuvib, quritilgan qo‘llar bilan teri qizarib chiqquncha ohista ishqalanadi.

Shikastlangan odam to‘qimalarida yuqoridagi o‘zgarishlar boshlangan

bog‘lam bilan bog‘lab qo‘yiladi. Sovuq olishining har qanday darajasida ham shikastlangan joylar terisini qor bilan ishqalash tavsiya etilmaydi. Bu shikastlanganning ahvoli yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Issiq elitishi yuqori harorat uzoq ta’sir qilib turishi natijasida butun a’zoyi badan haddan tashqari qizib ketganida boshlanadi. Oftob urishi ham issiq elitishining bir turidir. Quyosh nurlari ochiq badanga bevosita ta’sir qilishi natijasida odamni oftob uradi. Ayni vaqtda organizmni issiqlik elitishi, ya’ni termoregulatsiya izdan chiqib, bosh og‘rig‘i paydo bo‘ladi, odamning quloqlari shang‘illab, boshi aylanadi, darmoni quriydi, ko‘ngli ayniydi va qayt qiladi.

Og‘ir hollarda odamning tana harorati 40°C gacha ko‘tarilib, alahlaydi, ko‘z qorachiqlari kengayib ketadi, nafasi tezlashib, daqiqasiga 35—40 gacha, pulsi esa 140—160 gacha yetadi, ba’zan odam o‘zidan ketib qoladi. Birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatishda bemorni isib ketgan joydan olib chiqib, siqib turgan kiyimlarini yechib olish, boshini balandroq ko‘tarib, yotqizib qo‘yish kerak. Boshiga va yurak sohasiga sovuq narsa bosish, novshadil spirti hidlatish, ko‘p suyuqlik — choy, qahva ichirish zarur.

Hushdan ketish miyada qon aylanishining qisqa muddat izdan chiqishi bilan o‘tadigan tomir yetishmovchiligining ko‘rinishidir. Bunday hodisa ruhiy jarohatlar, qattiq bosh og‘rig‘i mahalida va qon ketib turgan paytda, kasallar keskin harakat qilib, o‘rnidan birdan turganda ro‘y berishi mumkin.

quloqlari shang‘illaydi, ko‘zlarining oldi qorong‘ilashib, bir necha daqiqa o‘zini bilmay qoladi. Bemor yiqilib tushadi, badani oqarib, terchilab turadi. Pulsi zaiflashib, daqiqasiga 40—60 martadan uradi.

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda, bemorning oyog‘ini sal ko‘tarib, yotqizib qo‘yish (boshi baland turmaydigan bo‘lishi kerak), yoqasini yechib, yuzini sovuq suv bilan artish, novshadil spirti hidlatish kerak. Odam o‘ziga kelavermaydigan bo‘lsa, sun’iy nafas bera boshlash lozim.

Suvda cho‘kish deb, nafas yo‘llarining suyuqlikka, aksari suvga to‘lib qolishiga aytiladi. Suvga g‘arq bo‘lgan odamning bronxlari va o‘pkasiga suv kirib, nafas olishi to‘xtaydi, birdan kislorod tanqisligi boshlanib, yurak faoliyati ham to‘xtab qoladi. Bunday holda imkoni boricha tezroq suvdan chiqarib olish zarur (83-rasm). Uni suvdan chiqarib olingandan keyin beligacha yechintirib, og‘zi bilan burni balchiq va shilimshiqdan obdan



Qutqarish uchun barcha qo‘l vositalaridan foydalaning.




Ag‘darilgan qayiqdan uzoqqa suzib ketmang, uni qirg‘oqqa suzib-itarib yordam kuting.



Cho‘kayotgan odamni faqat qayiqning old tarafidan qayiqqa tortib chiqaring.



10 daqiqa ichida cho‘kkan odamni suv ostidan ko‘tarib chiqishda



ni ushlab qolishiga yo‘l qo‘ymang. Uni qirg‘oqqa suzib olib chiqishda boshining suvdan tashqari chiqib turishiga e’tibor qiling.



Cho‘kkan odamni qirg‘oqqa chiqarib, og‘iz bo‘shlig‘ini tozalab, havo yo‘lidan, o‘pkadan va oshqozondan suvni chiqarib tashlang.

83-rasm. Suvga g‘arq bo‘lgan odamni qutqarish tartibi.

tozalanadi, dumaloqlab o‘rab balandroq qilib qo‘yilgan narsa ustiga yoki biror kishi tizzasiga qorni bilan yotqiziladi va shundan keyin ko‘krak qafasiga bosib, o‘pkasi bilan me’dasidagi suv chiqarib tashlanadi. So‘ngra shikastlangan odamni chalqanchasiga yotqizib, darhol sun’iy nafas berishga va yurakni bilvosita uqalashga kirishiladi.


«Og‘izdan og‘izga» usuli bilan sun’iy nafas oldirish hammadan ko‘proq naf beradi (84-rasm). Bunday sun’iy nafas oldirish shikastlangan odamning nafas olishi asliga kelguncha davom ettirib boriladi. Nafas olish tiklanib, shikastlangan odam o‘ziga kelavermaydigan bo‘lsa, u vaqtda sun’iy nafas oldirish va yurakni bilvosita uqalash o‘limning obyektiv belgilari paydo

yorug‘likka mutlaqo ta’sir ko‘rsatmasligi, uzoq vaqt davomida yuralmning urmay turishi, murda dog‘lari paydo bo‘lishi).

Nafas olish bilan yurak faoliyati tiklanib, asliga kelganida shikastlangan odamning badanini isitish choralari ko‘rilishi, unga qaynoq choy ichirish va tibbiy muassasaga olib borish kerak.

Zaharli ilonlar: oddiy qora ilon, gyurza, ko‘zoynakli va boshqa ilonlar, shuningdek, qoraqurt va tarantul singari o‘rgimchaklarning chaqishi hayot uchun xavflidir. Bunda birinchi tibbiy yordamni darhol ko‘rsatish kerak.

chiqariladi. Jarohatdan zaharni so‘rib olish uchun unga qon so‘rar banka qo‘yiladi. Zaharni og‘iz bilan so‘rib olib tashlash yaramaydi — odamning og‘iz shilliq pardasida arzimas shikastlar yoki og‘riq tishlari bo‘lsa, bu xavfli. Ilon (gyurza, ko‘zoynakli ilon) chaqqan odamga ilon chaqqanidan keyin bir soatdan kechiktirmay antigyurza zardobini ukol qilish zarur. Bunday zardob bo‘lmasa, ilon chaqqan joyni yonib turgan gugurt bilan kuydirish tavsiya etiladi. So‘rilib o‘tishga ulgurmagan zahar parchalanib ketadi. Odamni asalari,



84-rasm.

tukli ari, sariq arilar chaqib olganida, jarohatdan ari nayzasi olib tashlanib, ustiga novshadil spirti aralashtirilgan suv bilan primochka (malham) qo‘yib qo‘yiladi.

Bog‘lam turlari, ularni qo‘yish qoidalari. Bog‘lam jarohatni bekitib, bog‘lab qo‘yish uchun ishlatiladigan materialdir. Bog‘lamni jarohatga qo‘yish jarayoniga *bog‘lash* deb aytiladi. Bog‘lam ikki qismdan: jarohatga taqalib turadigan ichki va bog‘lamni tutib, ushlab turadigan tashqi qismdan iborat. Bog‘lamning ichki qismi steril bo‘lishi kerak.

Birinchi marta qo‘yib bog‘lanadigan bog‘lam *birlamchi steril bog‘lam* deyiladi. Bog‘lamlarni qo‘yish paytida ortiqcha og‘riq bo‘lmasligiga harakat qilish zarur. Bintni o‘ng qo‘lda ushlab, chap qo‘l bilan esa bog‘lamni tutib turish va bint o‘ramlarini rostlab borish kerak. Bintni bog‘lamdan uzmasdan turib, chapdan o‘ngga qarab, yozib boriladi va navbatdagi har bir o‘rami bilan oldingisining yarmisigacha qoplab o‘ralaveradi. Qon aylanishiga xalal bermaslik uchun bog‘lamni uncha qattiq bosmaydigan (bosib turadigan maxsus bog‘lam qo‘yish kerak bo‘ladigan hollardan tashqari) va jarohatdan tushib ketmasligi uchun uncha bo‘sh qilmasdan qo‘yiladi.


Birlamchi bog‘lam qo‘yishdan avval, jarohatga iflos narsa tushirmay, shikastlanganga ozor bermagan holda jarohatni ochib, yalang‘ochlash kerak. Jarohatning og‘ir-yengilligi, ob-havo va mahalliy sharoit inobatga olinib, ustki kiyim yechib olinadi yoki qirqib tashlanadi. Kiyim avval sog‘lom tomondan, keyin shikastlangan tomondan yechiladi.

Ayozli paytlarda jabrlanuvchi sovqotib qolmasligi, shuningdek, ahvoli og‘irlarga shoshilinch ravishda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatilayotganda, kiyimning jarohat sohasidagi qismi qirqib olinadi. Jarohatga yopishib qolgan

bog‘lam qo‘yish kerak. Yechib olingan kiyimni teskari tartibda: avval shikastlangan tomonga, keyin esa sog‘ tomonga kiygiziladi.

Bosh va ko‘krakka steril bog‘lamlar qo‘yish. Bosh shikastlangan paytda, har xil bint bog‘lamlar, kosinkalar, steril salfetkalar va yopishqoq plastirdan foydalanib, bog‘lab qo‘yish mumkin.

Boshning sochli qismi jarohatiga «chepes» bog‘lam qo‘yiladi (85-rasm). Bunday bog‘lam bint bilan pastki jag‘ga bog‘lab mahkamlanadi. Bintdan 1 metrcha keladigan qilib qirqib olinib, o‘rtasi jarohatni yopib turgan steril salfetka ustiga, boshning tepasi sohasiga qo‘yiladi, uning uchlari quloqlar



85-rasm. Boshni «chepes» ko‘rinishida bog‘lash.

ushlab turadigan bint o‘tkaziladi, so‘ngra tugiladigan joyga yetganidan keyin bintni shu joydan qaytarib, qiyshiq holda ensaga qarab olib boriladi.


Bint ikkinchi tomondan ham tugiladigan joy atrofidan qaytarilib, qiyshiq keyingi safar peshanadan o‘tkazib va har safar tikroq yurgizib borib, boshning butun sochli qismi bekitib chiqiladi. Shundan keyin bintni 2—3 marta gir aylantirib o‘rab, bog‘lam mahkamlab qo‘yiladi. Tugunining uchlari engak tagidan kapalak nusxa qilib bog‘lanadi.

Odamning bo‘yni, tomog‘i yoki ensasi jarohatlangan bo‘lsa, butsimon bog‘lam qo‘yiladi (86-rasm). Avval bintni boshga gir aylantirib bog‘lanadi, so‘ngra chap quloqning yuqorirog‘i va orqasidan uni qiyshiq yo‘nalishda bo‘yinga tomon pastga tushiriladi.

Keyin bint bo‘yinning o‘ng yon yuzasi bo‘ylab borib, oldingi yuzasini bekitadi va ensaga qaytib keladi, o‘ng va chap quloqning yuqorirog‘idan o‘tib, oldingi o‘ramlarini takrorlaydi. Boshni gir aylantirib bint bilan o‘rab, bog‘lam mahkamlab qo‘yiladi.



86-rasm.




87-rasm. Boshni «yugancha» ko‘rinishida bog‘lash.


Boshda katta jarohatlar sodir bo‘lganida, yuz sohasi jarohatlanganda «yugancha» ko‘rinishida bog‘lam qo‘ygan ma’qul (87-rasm). Bintni peshanadan 2—3 marta gir aylantirib ushlab turadigan qilib o‘rab olgandan keyin ensadan bo‘yin va engakka qarab yurgiziladi, ensa bilan bosh tepasidan o‘tkazib, bir necha marta tikkasiga o‘raladi, so‘ngra bint engak tagidan o‘tib, ensa bo‘ylab boradi va keyin uni avvalgidek qilib yana gir aylantirib o‘raladi. Yuz jarohatlangan bo‘lsa, qo‘shimcha o‘ramlar qilib, yuzning hammasini berkitib o‘rash mumkin.

Burun, peshana va ensa jarohatida sopqonsimon bog‘lamdan foydalaniladi (88-rasm). Bog‘lam tagidan jarohat yuzasiga steril salfetka yoki bint qo‘yiladi.

Ko‘krakka spiral yoki butsimon bog‘lam qo‘yiladi. Spiral bog‘lam qo‘yish uchun (89-rasm, *a*) bintning uch tomonidan taxminan 1,5 m uzunlikda kesib olinib, uni sog‘lom kiftga solinadi va ko‘krakda qiyshiq qilib osiltirib qo‘yiladi. Bintni spiral holda yurgizib, ko‘krak qafasining orqa



88-rasm. Sopqonsimon bog‘lam: *a* — burunni; *b* — peshanani; *d* — engakni bog‘lash.



a

89-rasm. Ko‘krakni bog‘lash: *a* — spiralsimon; *b* — butsimon.

tomoni pastidan boshlab bintlab chiqiladi. Bintning erkin osilib turgan uchlari bog‘lanadi.


Ko‘krakka butsimon bog‘lamni bintni (89-rasm, *b*) ushlab turadigan qilib 2—3 marta gir aylantirib o‘rash yo‘li bilan pastdan solib boriladi, so‘ngra orqaning o‘ng tomonidan chap kiftga o‘tkaziladi, keyin ushlab turadigan qilib gir aylantirib o‘raladi, pastdan o‘ng kift osha, yana ko‘krak qafasi gir aylantirib o‘raladi; gir aylantirib o‘ralgan so‘nggi bint o‘ramining uchi to‘g‘nag‘ich bilan mahkamlab qo‘yiladi.

Ko‘krak qafasida teshib o‘tgan jarohat bo‘lganda, germetik (okkluzion) bog‘lam qo‘yiladi. Avval jarohatga 3—4 qavat qilib steril salfetka yoki steril bint, keyin bir qavat paxta, so‘ngra havo o‘tkazmaydigan bir bo‘lak material (tilinlari, kleyonka) qo‘yish va qattiq qilib bintlash kerak. Havo o‘tkaz-maydigan material jarohatni butunlay qoplab, chetlaridan 1—2 sm chiqib turadigan bo‘lishi lozim.

Bosh yoki ko‘krakning katta joylari kuyganda kosinka bog‘lam hammadan ko‘ra ko‘proq avaylaydigan bo‘ladi. Kuygan joy ustiga steril salfetkalar yopilib, 90-rasmda ko‘rsatilganidek mahkam bog‘lab qo‘yiladi.

Qorin va qo‘lga steril bog‘lamlar qo‘yish. Qorin sohasi jarohatlari orasida qorinni teshib kirgani hayot uchun hammadan ko‘ra ko‘proq xavflidir. Mana shunday jarohatda ichki organlar, ichak qovuzloqlari va charvi tashqariga chiqib qolishi, juda ko‘p qon yo‘qotilishi mumkin.


Ichki organlar chiqib qolgan bo‘lsa, ularni qorin bo‘shlig‘iga qaytarib tushirib qo‘yib bo‘lmaydi. Chiqib qolgan ichki organlar atrofidagi jarohatni steril salfetka yoki steril bint bilan o‘rab bekitib qo‘yish lozim. Salfetkaga yumshoq paxta-dokali halqa qo‘yish va bog‘lamni uncha qattiq qilib



90-rasm. Ko‘krakni kosinka bilan bog‘lash.


bog‘lamaslik kerak. Qornida teshib kirgan jarohati borlarga suv ichirib bo‘lmaydi, faqat lablarini ho‘llab turish mumkin. Qorinning ustki qismiga steril bog‘lam qo‘yiladi, bunda bint pastdan yuqoriga tomon gir aylantirib o‘rab chiqiladi. Qorinning pastki tomoniga spiral bog‘lam qo‘yiladigan bo‘lsa, tushib ketaveradi, shu sababdan bunda qorin va chov sohasiga boshoqsimon bog‘lam qo‘yiladi (91-rasm, *a*, *b*). Bunday bog‘lam qorinni bint bilan gir aylantirib o‘rashdan boshlanadi, so‘ngra bint sonning tashqi yuzasi bo‘ylab uni o‘rab o‘tadi va keyin qorinni yana gir aylantirib o‘rab boradi.

Qo‘lga, odatda, spiral, boshoqsimon va butsimon bog‘lamlar qo‘yiladi. Barmoqqa spiral bog‘lam qo‘yishni (92-rasm, *a*) kaft ustini gir aylantirib o‘rab olishdan boshlanadi, so‘ngra bintni qo‘l panjasining orqasidan tirnoq falangasiga olib boriladi va barmoqning uchidan to asosiga qadar bintni



a

91-rasm. Qorinning pastki sohasi (*a*) bilan chov sohasini (*b*) boshoqsimon qilib bog‘lash.




92-rasm. Bog‘lamlar: *a* — barmoqni spiralsimon qilib bog‘lash; *b* — qo‘l panjasini butsimon qilib bog‘lash; *d* — tirsak bo‘g‘imini spiralsimon qilib bog‘lash.

spiral qilib o‘rab chiqiladi, yana qo‘l panjasining orqasidan o‘tkazib, bintni kaft ustiga bog‘lab qo‘yiladi.


Qo‘l panjasining kaft yoki orqa tomoni shikastlanganida, butsimon bog‘lamni kaft ustida ushlab turadigan o‘ram solishdan boshlanadi. Undan so‘ng bint 92-rasm, *b* da ko‘rsatilgandek qilib, qo‘l panjasining orqasidan kaftiga olib o‘tiladi. Yelka va bilakka spiralsimon bog‘lamlar solinadi, bunda bintni dam-badam qayiltirib, pastdan yuqoriga tomon o‘rab boriladi.

Tirsak bo‘g‘imiga bog‘lam (92-rasm, *d*) bintni spiralsimon qilib o‘rab solinadi, bunda bint o‘ramlari tirsak chuqurchasida kesishtirilib, bir gal bilakka va bir gal yelkaga solib boriladi.

Yelka bo‘g‘imiga bog‘lam solishda (93-rasm) bintni avval sog‘ tomonidagi qo‘ltiq osti chuqurchasidan ko‘krak va orqadan qo‘ltiq osti chuqurchasi osha



93-rasm.



94-rasm. Tovonni


yuzasi bo‘ylab shikastlangan yelkaning tashqi qismiga orqadan olib kelinadi va bo‘g‘imning hammasi bekilmaguncha bint o‘ramlari takrorlanaveradi, bintning uchi ko‘krakka to‘g‘nag‘ich bilan mahkamlab qo‘yiladi.

Bilak yoki yelka cho‘ltog‘ida qon oqishi to‘xtatilganidan keyin kosinka bog‘lam solib bog‘lanadi. Kosinka tagiga jarohat yuzasiga steril salfetka va bir qavat paxta qo‘yilib, kosinka ro‘mol bilan mahkam bog‘lanadi.

Oyoq panjasi va boldir sohalariga bog‘lam oyoqdan poyabzalni yechib olgandan keyin qo‘yiladi. Tovon sohasiga bog‘lam (94-rasm) qo‘yishda bintning birinchi o‘ramini tovonning hammadan ko‘ra ko‘proq do‘mbayib chiqib turadigan joyidan o‘tkazib solinadi, keyin bintning birinchi o‘ramidan galma-gal yuqoriga va pastga olib o‘raladi, bog‘lamni mahkamlab qo‘yish uchun bintni qiyshiq va sakkizsimon qilib yurgizib o‘rab boriladi.

Boldir-panja bo‘g‘imiga sakkizsimon bog‘lam qo‘yiladi (95-rasm). Bintning ushlab turadigan birinchi o‘rami to‘piqdan yuqoriroq qilib solinadi, so‘ngra pastga, oyoq tagi tomoniga o‘tkazib, oyoq panjasi o‘raladi, keyin bintni oyoq panjasining orqa yuzasidan to‘piqdan yuqoriroq qilib yurgiziladi va oyoq panjasiga, so‘ngra to‘piqqa qaytarib kelinadi, bintni to‘piqdan yuqoriroqda gir aylantirib o‘rab, uchi mahkamlab qo‘yiladi.

Boldir bilan songa steril bog‘lamlarni xuddi bilak bilan yelkaga solingandek qilib qo‘yiladi.



95-rasm. Boldir-panja bo‘g‘imini sakkizsimon qilib bog‘lash.

Tizza bo‘g‘imiga bog‘lam solishda avval tizza ko‘zini gir aylantirib bog‘lab olinadi, keyin esa, bintni taqim chuqurchasida kesishtirib, bir gal pastga va bir safar yuqoriga qilib o‘rab boriladi.

Biror shikastdan oyoq cho‘rt uzilib ketganida, eng avvalo, jgut yoki burama solish yo‘li bilan qon to‘xtatiladi, keyin esa og‘riqni qoldiradigan dori bilan ukol qilib, oyoq cho‘ltog‘i bog‘lab qo‘yiladi. Jarohatga paxta-dokali yostiqcha qo‘yilib, ustidan bintni bir gal gir aylantirib, boshqa safar uzunasiga olib, yostiqchasi oyoq cho‘ltog‘iga mahkamlab bog‘lanadi.

Nazorat savollari

1. FMTX tizimida harbiylashtirilmagan qanday tibbiy tuzilmalar bo‘ladi?
2. Sanitariya postlari va tibbiy drujinalar qanday vazifalarni bajaradi?
3. Fuqaro muhofazasining «Havo xavfi», «Radiatsion xavf», «Kimyoviy xavf» xabarlari nima uchun belgilangan?
4. Kuyishda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tartibini gapirib bering.
5. Sovuq olgan mahalda ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam nimalardan iborat?
6. Odam hushidan ketib qolganida qanday birinchi yordam beriladi?
7. Odamni oftob urishi va issiq elitishida qanday birinchi yordam beriladi?
8. Suvda cho‘kkanda birinchi tibbiy yordam nimalardan iborat?
9. Odamni zaharli ilon va hasharotlar chaqib olganida qanday birinchi yordam ko‘rsatiladi?
10. Bog‘lam va bog‘lash nima?
11. Turli jarohatlarda ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam va bog‘lovlar

ATAMALAR

Himoya inshootlari — aholini va ishlab chiqarish xodimlarini zamonaviy qirg‘in vositalaridan muhofaza qilishga mo‘ljallangan maxsus muhandislik inshootlari majmuyi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari — qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun tuzilgan fuqaro muhofazasi harbiy qismlari, umumiy va maxsus hududiy, funksional va obyekt tuzilmalari.

Pestitsidlar — o‘simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o‘tlarga qarshi kurashda ishlatiladigan kimyoviy moddalar, shuningdek, qishloq xo‘jaligi o‘simliklari rivojining regulatorlari va defoliantlari.

Avariya — inshootlar va (yoki) chiqarish obyektlarida qo‘llanadigan texnika qurilmalarining buzilishi, sug‘urta shartnomasi amal qiladigan davrda ro‘y bergan nazorat qilib bo‘lmaydigan portlash va (yoki) xavfli moddalar ajralib chiqishi.

Qator — ikki harbiy xizmatchining sherengada oldinma-keyin turishi. Agar birinchi sherengada turgan harbiy xizmatchining orqasida hech kim turmasa, bunday qator to‘liqsiz hisoblanadi. Ikki sherenga ortga burilgan vaqtda to‘liqsiz qatorda turgan harbiy xizmatchi oldingi sherengaga o‘tadi.

Kolonna — harbiy xizmatchilar va bo‘linmalarning Nizom yoki komandir belgilab qo‘ygan oraliq masofani saqlagan holda oldinma-keyin turishi.


Yoyiq saf — bunda bo‘linmalar bir yoki ikki sherengaga Nizom yoki hisob-kitob, ko‘rik ishlari, parad, shuningdek, boshqa zarur hollarda qo‘llaniladi.

Yurish safi — bunda bo‘linma yoki bo‘linmalar Nizom yoki komandir bo‘linmalarning marshni bajarishi, tantanali marsh va ashula bilan o‘tishi kabi bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi, shuningdek, boshqa zarur hollarda qo‘llaniladi.

Yetakchi — ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha harakat qiluvchi ilk harbiy xizmatchi (bo‘linma). Qolgan harbiy xizmatchilar (bo‘linmalar) yetakchiga qarab o‘z harakat yo‘nalishini belgilab oladilar.

Hamla – hujumga o‘tish paytida tezkorlik bilan dushmanning birinchi

SHARTLI BELGILAR



— guruh komandiri



— seksiya komandiri



— mo‘ljalga oluvchi



— mergan



— o‘qchi



— mexanik haydovchi



— katta o‘qchi





— haydovchi



— granatomyotchi



— granatomyotchi yordamchisi



— guruh komandirining o‘rinbosari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov.* O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. — T., «O‘zbekiston», 1992.
2. Уголовный кодекс Республики Узбекистан. — Т., 2008.
3. Учебник. Военная топография. — М., 1990.
4. Учебник сержанта танковых войск. — М., «ВИ», 1989.
5. Учебник сержанта мотострелковых войск. — М., «ВИ», 1989.
6. Учебник. Тактика мотострелковой, танковой роты и батальона. — М., «ВИ», 1986.
7. Боевой устав Сухопутных войск. Часть II. Батальон, рота. М., «ВИ», 2001.
8. Огневая подготовка. Материальная часть стрелкового оружия, наступательных и оборонительных гранат. Часть 1. УБП. — М., 2003.
9. Начальная военная подготовка.— М., «Просвещение, 1985.
10. Приёмы и способы действий солдата в бою. — М., «ВИ», 1988.
11. *Ю.А. Науменко* и др. Подготовка офицеров запаса сухопутных войск. — М., «Воениздат», 1989.
12. Otish tayyorgarligi (o‘quv qo‘llanma). — T., «Sharq», 2004.
13. Начальная военная общевойсковая подготовка. Учебное пособие. — Т., МО РУз, 2005.
14. Начальная допризывная подготовка. Учебное пособие. Часть II. Министерство высшего и среднего специального образования РУз. — Т., 2005.
15. Рекомендации по подготовке и ведению боевых действий во внутреннем вооружённом конфликте. — М., 2004.
16. Система вооружённой борьбы в тактическом звене. Методическое пособие. ГШ ВС РФ. — М., «ВИ», 2004.
17. Наставление по физической подготовке в ВС РУз. (НФП-97). — Т., 1997.
18. Boshlang‘ich umumqo‘shin harbiy tayyorgarligi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. — T., «Sharq», 2005.
19. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik. 1—2-qismlar. O‘quv qo‘llanma. — T., «ILM ZIYO», 2009.
20. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari. — T., «O‘zbekiston», 1996.
21. Saf tayyorgarligi nizomi. 2013-yil 28-oktabr №13/34/6/84 Qarori bilan tasdiqlangan.
22. *F.A. Abdullayev, E.X. Rasulev, A.R. Rahmonov.* Qurolli to‘qnashuvlar huquqi.

23. *I.K. Abdukarimov.* Men general bo‘laman. — T., Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2001.

24. Vatan himoyasi — muqaddas burch. — T., «O‘zbekiston», 2001.

25. Armiya davlat tayanchi, tinchlik kafolati. — T., Mudofaa vazirligi, 2004.

26. *H.Jo‘rayev.* Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash. — T., «Sharq», 2004.

27. Xalqaro gumanitar huquq. Jeneva konvensiyalari to‘plami. — T., «Adolat», 2002.

28. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasi instituti. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. 1-tom. — T., 2017.

29. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasi instituti. 2-tom. — T., 2017.

30. Tinglovchilar uchun fuqaro muhofazasi masalalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasi instituti. — T., 2008.

31. Sanitariya yo‘riqchilari uchun o‘quv qo‘llanma. Mudofaa vazirligi nashriyot bo‘limi. — T., 2012.

32. Гражданская защита. Учебное пособие. — М., 1977.

33. Учебное пособие для слушателей по вопросам защиты населения от чрезвычайных ситуаций. МЧС РУз. Институт гражданской защиты. — Т., 2009.

34. *В.В. Мясников.* Защита от оружия массового поражения. — М., «Воениздат», 1989.

35. Это должен знать каждый. Памятка для населения. — М., 1984.

36. Подготовка и обучение команд добровольных общественных спасателей. (Пособие для тренеров по обучению добровольных спасателей.) Ташкентский государственный технический университет. Международная стратегия ООН по снижению бедствий. — Т., 2008.

37. Первая медицинская помощь на месте происшествия. (Учебное пособие для добровольных спасателей.) Ташкентский государственный технический университет. Международная стратегия ООН по снижению бедствий. — Т., 2008.

38. Международное право ведения военных действий. Сборник Гаагских конвенций и иных международных документов. — М., Международный Комитет Красного Креста, 2000.

39. Учебно-методические материалы по международному гуманитарному праву. Для преподавателей и студентов общественно-гуманитарных дисциплин. Вышуск 1. — Т., Издательство народного наследия им. А. Кадыри, 2003.

40. *S.K. Tangirberdiyev, R.S. Zakirov, A.F. Shermatov.* Harbiy topografiya.

MUNDARIJA

Kirish.....3

I BO'LIM. **FUQARO MUHOFAZASI. HAYOT XAVFSIZLIGI ASOSLARI. XAVFSIZLIK VA FAVQULODDA VAZIYATLARDA INSON MUHOFAZASI**

1-bob. **FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA HARAKAT QILISH YAGONA TIZIMINI TASHKIL ETISH**

1.1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (FVDT).....4
1.2. Maktabda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish harakatlari rejasining tuzilishi.....11

2-bob. **ATROF-MUHITNING SALBIY TA'SIRLARIDA, INFEKSION VA NOINFEKSION KASALLIKLARDA SALOMATLIKNI SAQLASH**

2.1. Atrof-muhitning inson organizmiga salbiy ta'siri.....12
2.2. Asosiy infeksion va noinfeksion kasalliklarga sabab bo'luvchi xavfli omillar.....14
2.3. Oziq-ovqat mahsulotlari va suv bilan bog'liq xavfli omillar.....16

3-bob. **ZAMONAVIY JANGOVAR SHIKASTLOVCHI VOSITALAR**

3.1. Yadro quroli.....18
3.2. Kimyoviy qurollar.....23
3.3. Biologik (bakteriologik) qurollar va kasallik tarqatuvchi mikroblar.....31
3.4. Zamonaviy oddiy qirg'in qurollari.....32

4-bob. **FAVQULODDA VAZIYATLAR SODIR BO‘LGANDA AHOLINI MUHOFAZA QILISHNING ASOSIY TADBIRLARI**

4.1. Favqulodda vaziyatlarda xabar berishning yagona tizimi.....34
4.2. Nafas olish a’zolari va terini himoya qilish vositalari.....39
4.3. Aholini muhofaza qilishning muhandislik vositalari (pana joylar).....45
4.4. Radiatsiyadan yashirinish joylari, yerto‘la va boshqa joylarni muhofaza inshootlariga moslashtirish.....48
4.5. Favqulodda vaziyatlarda hayvon va qishloq xo‘jaligi o‘simliklarini muhofaza qilish.....51
4.6. Qutqaruv ishlarini tashkil etish, o‘tkazish asoslari va olib borish usullari. Qutqaruv ishlarining maqsadi va mohiyati.....56
4.7. Zararsizlantirish. Odamlarni sanitariya ishlovidan o‘tkazish.....60
4.8. Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya tadbirlarini tashkillashtirish va o‘tkazish.....62

II BO‘LIM. **SAF TAYYORGARLIGI**

1-bob. **QUROLSIZ BAJARILADIGAN SAF AMALLARI VA HARAKATLARI**

1.1. Joyda turganda va qurolsiz harakat qilganda harbiycha salom berish.....70
1.2. Safdan chiqish va safga qaytish. Boshliqning oldiga borish va uning oldidan ketish.....71

2-bob. **SEKSIYA VA GURUHLARNING SAF TORTISHI. YURISH SAFI VA YOYIQ SAF**

2.1. Seksiyaning saf tortishi. Yoyiq saf.....73
2.2. Yurish safi.....77
2.3. Guruhning saf tortishi. Yoyiq saf.....78
2.4. Guruhning saf tortishi. Yurish safi.....

III BO'LIM. **HARBIY XIZMATNING HUQUQIY ASOSLARI**

1-bob. **OLIY HARBIY O'QUV YURTLARI**

1.1. Harbiy o'quv yurtlari.....86
1.2. Oliy harbiy o'quv yurtlariga qabul qilish tartibi va qoidalari.....92

2-bob. **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI QO'SHINLARIDA TARBIYAVIY VA JANGOVAR AN'ANALARNING O'RNI**

2.1. Komandirlar, boshliqlar va ularning shaxsiy tarkibni tarbiyalashdagi o'rni.....94
2.2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar an'analari.....95

IV BO'LIM. **HARBIY ISH ASOSLARI**

1-bob. **UMUMQO'SHIN JANGI ASOSLARI**

1.1. Ehtimoliy dushman bilan yuzma-yuz kelish holatida hujumga o'tish va birdan hujumga o'tish usullari.....101
1.2. Yayov tartibda hamlaga o'tish.....103

2-bob. **JOYDA XARITASIZ ORIYENTIR OLISH**

2.1. Joyda turli xil sharoitlarda xaritasiz oriyentir olishning o'ziga xos xususiyatlari.....106
2.2. Quyoshga nisbatan predmetlarning joylashishiga qarab gorizont tomonlarini aniqlash.....109

V BO'LIM. **OTISH TAYYORGARLIGI**

JOYIDA TURIB QO'ZG'ALMAS HAMDA PAYDO BO'LUVCHI NISHONLARGA O'T OCHISH

Joyida turib qo'zg'almas nishonlarga kunduzi o't ochish. Boshlang'ich otish mashqini avtomatda (pnevmatik qurolda, otish trenajorida yoki dala sharoitida) bajarish.....11

VI BO'LIM. **AMALIY HARBIY-JISMONIY TAYYORGARLIK**

1-bob. **UMUMJISMONIY TAYYORGARLIK**

1.1. Ikkinchi erkin mashq majmuasi.....114
1.2. Kuch mashqlari majmuasi.....119
1.3. Chaqqonlik mashqlari majmuasi.....120

2-bob. **YAGONA TO'SIQLAR YO'LAGI (QATORI)DAN O'TISH**

2.1. To'siqlar yo'lagi elementlari va oshib o'tish tartibi bilan tanishish. Alohida to'siqlardan o'tish usullari va ulardan oshib o'tishni mashq qilish. To'siqlar yo'lagidagi to'siqlar majmuasidan to'liq o'tishni o'rganish.....122
2.2. To'siqlar yo'lagidagi to'siqlar majmuasidan to'liq o'tishni o'rganish. Egallangan ko'nikmalarni takomillashtirish.....125

VII BO'LIM. **TIBBIY BILIM ASOSLARI**

1-bob. **TINCHLIK DAVRIDA QO'SHINLARNING TIBBIY TA'MINOTINI TASHKIL QILISH ASOSLARI**

1.1. Tinchlik davrida harbiy qism tibbiyot punktining ishi.....127
1.2. Harbiy gigiyena asoslari.....129

2-bob. **URUSH VAQTIDA QO'SHINLARNING TIBBIY TA'MINOTINI TASHKIL QILISH ASOSLARI**

2.1. Urush vaqtida bo'linmalar va harbiy qismlarda davolash-evakuatsiya chora-tadbirlarini o'tkazish asoslari.....135
2.2. Tibbiy yordam turlari. Harbiy qismda tibbiyot punktining vazifalari.....136

3-bob. **YARADOR BO'LGANDA VA YOPIQ JAROHATLANISHLARDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH**

3.1. Birinchi tibbiy yordam tushunchasi. Jarohat turlari.....

3.2. Qon ketishida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.
Qon ketishini to‘xtatish.....147
3.3. Suyaklar sinishida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.....154
3.4. Ko‘z, quloq, burun, tomoq jarohatlanganda
birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.....162

4-bob. **RADIATSIYADAN SHIKASTLANISH VA ZAHARLOVCHI MODDALARDAN ZARARLANISHNING OLDINI OLISH VA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO‘RSATISH**

4.1. Yadro qurolining portlashi natijasida ajralib chiqqan mahsulotlar
bilan zararlanganda sanitar ishlovni o‘tkazish. Yadro qurolining
portlash o‘chog‘ida davolash-evakuatsiya chora-tadbirlarini tashkil
qilish hamda ko‘rsatilayotgan birinchi tibbiy yordamning hajmi.....166
4.2. Kimyoviy qurol qo‘llanishi natijasida zararlanganlarga
birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.....169

5-bob. **FUQARO MUHOFAZASI TIBBIY XIZMATINI TASHKIL ETISH VA UNING VAZIFALARI. SHIKASTLANGAN AHOLIGA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO‘RSATISHNI TASHKIL ETISH**

5.1. Fuqaro muhofazasi tibbiy xizmatini tashkil etish va uning vazifalari.
Fuqaro muhofazasi harbiylashtirilmagan tibbiy tuzilmalarining
tavsifi va vazifasi.....174
5.2. Kuyish, muzlash holatlari va boshqa baxtsiz hodisalar
yuz berganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.....175

Atamalar.....190
Shartli belgilar.....191
Foydalanilgan adabiyotlar.....

O‘quv nashri

SHUHRAT SHAVKATOVICH UBAYDULLAYEV,
BAHODIR BERDIYEVICH GAFUROV,
DILNOZA RUZIMATOVNA UBAYDULLAYEVA

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK

O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik

1-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2018

Muharrir *T. Mirzayev*
Badiiy muharrir *D. Hamidullayev*
Texnik muharrir *T. Greshnikova*
Musahhih *M. Ibrohimova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 275, 15.07.2015-yil.

2018-yil 25-aprelda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi $70\times90^{1}/_{16}$.
«Times» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog‘i 12,5.
Nashr tabog‘i 16,9. Shartli bosma tabog‘i 14,6. 432771 nusxa. Buyurtma № 149.
Original-maket «ILM ZIYO» nashriyot uyida tayyorlandi. «ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy. Shartnoma № 8—18.

«SHARQ» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi,

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchi-ning ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslik-ning olingan-dagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslik-ning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.